


**SAYFULLAYEVA R.R., ABUZALOVA M.Q., MAMADALIYEVA
N.S., YULDASHEVA D.N.**

TILSHUNOSLIKKA KIRISH



Toshkent–2020

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida
nashrga tavsiya etilgan*

TOSHKENT

nashriyoti

2020

“Tilshunoslikka kirish” darsligi filologiya fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar, shuningdek, tilshunoslik masalalari bilan qiziquvchilar, shug‘ullanuvchilar uchun mo‘ljallangan. Mazkur darslik 5 220 100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlangan bo‘lib, uni yaratishda o‘zbek tili qurilishining substansial (mohiyat) tadqiq yo‘nalishi yutuqlariga tayanildi.

Mas’ul muharrir

**N.Q.Turniyozov, filologiya fanlari doktori,
professor**

Taqrizchilar

Y.Todjiyev, filologiya fanlari doktori, professor

**R.X.Shirinova, filologiya fanlari doktori,
professor**

**L.R.Raupova, filologiya fanlari doktori,
professor**

Учебник «Введение в языкознание» предназначена для студентов бакалавриата по филологии и преподаванию языка (узбекский язык), а также для тех, кто интересуется лингвистикой. Этот учебник основан на утвержденной учебной программе по направлению 5 220 100–филология и преподавание языка (узбекский язык). опирался на достижения в этой области.

Ответств. редактор

Н.К.Турниязов доктор филологических наук, профессор

Рецензенты

Ё.Таджиев доктор филологических наук, профессор

Р.Х.Ширинова доктор филологических наук, профессор

Л.Р.Раупова доктор филологических наук, профессор

©Ташкент “.....” 2020

The textbook “Introduction to linguistics” is intended for undergraduate students in philology and language teaching (Uzbek), as well as for those interested in linguistics. This textbook is based on an approved curriculum in the direction of 5 220 100 – Philology and language teaching (Uzbek language), relied on achievements in this area.

More crucially the editor

N.Q.Turniyozov The doctor of philological sciences, Professor

Reviewers

Y.Todjiyev The doctor of philological sciences, Professor

R.X.Shirinova The doctor of philological sciences, Professor

L.R.Raupova The doctor of philological sciences, Professor

KIRISH

Milliy istiqlol o‘zbek xalqiga nafaqat siyosiy va iqtisodiy mustaqillk bag‘ishladi, balki milliy o‘zligini anglash va, eng muhimi, uni jahonga yoyib, IX-XIV asrlardagi shuhrati-yu an’anasini mas’uliyat bilan davom ettirish imkoniyatini ham berdi. “Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘zbek modeli”, “Kadrlar tayyorlashning o‘zbek modeli” va “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”¹ kabi o‘z yo‘limizni tanlab olish imkonini beruvchi qator dasturilamal huquqiy hujjatlar xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy, ta’limiy o‘sishini ta’minalash bilan birga o‘zbek olimlarining mustaqil ilmiy yutuqlarini qo‘llab quvvatlash, dunyo miqyosida ommalashtirish imkonini ham berdi.

Sobiq sho‘ro tuzumi tarkibida bo‘lgan turli millat vakillarini (milliy o‘zligini hisobga olmay) sun’iy birlashtirishning muhim omillaridan biri bo‘lib kelgan “Ta’lim baynalmilaldir”, ”Grammatika baynalmilaldir” shiorlarining ta’lim tizimida hukmronligiga O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning ilk qadamlaridayoq, jumladan, 1992-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni bilan chek qo‘yilgan bo‘lsa-da, milliy ta’lim mazmunining amaliy tatbiqi ularni ijtimoiy bekor qilinishdan ko‘ra ancha qiyin va murakkab kechmoqda, chunki mazkur mash’um shiorlar asosidagi ta’lim yarim asrdan ko‘proq davr ichida xalqimiz ongini zaharlab, tilning grammatik qurilishi xususiyatlarining haqqoniy-milliy talqini bilan xalq ongiga sepiladigan milliylik urug‘larini cheklab keldi, milliy mafkurasini so‘ndirmoqchi bo‘ldi. Bu aksmilliy harakatning tafakkur va ongimizdagи salbiy ta’sirini yo‘qotish uzoq yillik maqsadli va mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Tilshunoslik siklidagi fanlar bu jarayonda alohida ahamiyat va mavqega egadir. Buning sababi shundaki, uzoq yillar davomida milliy til grammatik qurilishining mutlaq milliyligi sho‘ro tuzumi tasarrufidagi

¹Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни/ /Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б. – 20-29-б.; Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б. – 31-60-б.; www.uzxabardor.uz O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi».

xalqlardan (sobiq ittifoqning siyosiy tuzumiga tamoman zid ta’limot sifatida) sir tutib kelindi. Aksincha, mantiq, aniq fanlar singari grammatika ham nomilliy fan sifatida baynalmilal shaklda tahlil va talqin etildi, o‘qitildi. Vaholanki, turli tillarning grammatik qurilishidagi o‘xhashlik aldamchi, zohiriyligi, yuzaki hodisa, sarobdir va grammatika mohiyatini chuqr anglamagan kishi tasavvuri uchun xos. Buni (o‘z ustozlari so‘zlarini uqa olmagan yoki uqishni istamagan) sovet mafkurachilarining metodologik asoschilari Fridrix Georg Hegel qariyb ikki yuz yil oldin–1831-yilda “Mantiq fani” kitobi muqaddimasida shunday so‘zlar bilan ifodalagan edi: “*Mantiq ham, grammatika ham mohiyatan ikki turli va ikki xil ahamiyatga ega. Boshlovchilar, fan bilan yuzaki tanishayotganlar uchun u bir narsa bo‘lsa, fanlarni o‘zlashtirib, fan mohiyatini uqib unga qaytadiganlar uchun mantiq va grammatika tamoman boshqa olam... O‘z ona tili bilan bir qatorda boshqa tillarni ham biladigan, ularning grammatik xususiyatlarini o‘zaro qiyoslay oladigan kimsagina milliy tilning grammatik qurilishida xalqning ruhiyati va madaniyati aks etayotganligini ocha oladi. Endi unga oldin ham tanish bo‘lgan quruq shakl va qoidalar tamoman boshqa qiymat va qadriyat, mukammal mazmun va tugal mohiyat kasb etadi. Bunday kimsagina grammatika orqali ruhiyat – qat’iy mantiqiylig voqelanayotganligini tuya oladi*”.

Grammatik qurilishning chuqr milliy tabiatini va mohiyatini buyuklardan birortasi ham shu darajada qat’iylik va keskinlikda ta’kidlamagan. Afsuski, bu fikrni targ‘ib etish rasm emas, zeroki bu talqin kattami, kichikmi, hokimmi, tobemi – har bir til grammatikasiga xalqidek betakrorlik, teng huquqlilik va mustaqillik, milliy iftixor ruhini beradi. Bu esa hammaga ham yoqavermaydi, zo‘ravonlik bilan tuzilgan ko‘p millatli imperiyalar uchun esa u o‘ta xavflidir. Lekin mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgan millatlar uchun bu g‘oya milliy ravnaq yo‘lchi yulduzlaridan biriga aylanmog‘i zarur. Zeroki, ona tili grammatik qurilishini to‘g‘ri talqin qilish bilan kimsa ongidagi milliy tafakkur tarzi va milliy mafkura urug‘larining parvarishiga, ularning gullab yashnashiga erishish mumkin. Buning uchun ona tili grammatik qurilishi talqini sof milliy mohiyatli bo‘lmog‘i lozim.

Bugun milliy istiqlol sharofati bilan Vatanimizda ona tilimizning shunday talqinini yaratishga mustahkam poydevor yaratildi – ona tilimizning milliy tabiatini ochib berishga qaratilgan ilk tizimlar ishlab chiqildi, jiddiy qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, ta’lim tizimiga joriy etilmoqda va ommalashmoqda. Qiyinchiliklarning eng kattasi shu yo‘nalishdagi zaruriy adabiyotlarning yetarli emasligidadir. Zeroki, yetakchi tilshunoslar O.Azizov, A.Abduaazizov, A.Irisqulov, A.Sodiqov, S.Usmonov, Z.Xolmonovalarning tilshunoslik nazariyasi o‘quv fanidan darslik va qo‘llanmalari mavjudligini e’tirof etgan holda aytish mumkinki, mazkur darslik shu mazmundagi ishlarni to‘ldiradi.

Aytish joizki, jahon tilshunosligining bir bo‘lagi bo‘lgan o‘zbek tilshunosligida til yoki nutq hodisalari hozirgacha, asosan, to‘rt xil yondashuvda tadqiq etilganligini kuzatamiz. (Tilshunoslik yo‘nalishining nomi ham uning tadqiq usullari nomi bilan ataldi.) Bular quyidagilar:

*An’anaviy (formal) tilshunoslik*ning shakllanishi va rivojlanish davri 1940-1980-yillarga to‘g‘ri keladi. Rasmiy amalda bo‘lishi esa 1940-yillardan toki 1990-yillarga qadar davom etdi. Mazkur yo‘nalish tadqiqotlarida til va nutq farqlanmadı, to‘g‘rirog‘i, faqat nutqiy bosqich hodisalari tahlilga tortildi, tasnif etildi, qoidalashtirildi. (Shu o‘rinda nutqiy bosqich hodisalari ilk bora juda keng miqyosda an’anaviy tilshunoslikda tahlilga tortilganligini alohida e’tirof etish joiz.) An’anaviy tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi sho‘ro tuzumi davriga to‘g‘ri keldiki, sho‘ro mafkurasi (ijtimoiy hayotning barcha jabhalari kabi) mazkur ilmiy jarayonga ham ta’sir o‘tkazmay qolmadi. Oqibatda, o‘zbek tili qurilishining ilmiy talqini rus tili ilmiy talqiniga yaqinlashib ketdi; grammatika baynalmilal bo‘ldi. Ilmiy talqinlarda ham, yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim tizimida ham Moskva hamma uchun umumiyligi va majburiy namunaviy dasturlar chiqarar, milliy respublikalar shu namunaviy dasturlardan chetga chiqishlari mumkin emas edi.

Masalan, ona tili bo‘yicha darsliklarni Sergey Barxudarov yetakchiligidida 1938-yilda rus tilshunosligida o‘sha davrda ommalashgan **formal tahlil usuli** asosida tuzilgan va rus maktablariga mo‘ljallangan «Учебник русского языка» namunasida yaratish tavsiya etildi. Natijada, milliy tillar qurilishi S.Barxudarov rahbarligida tuzilgan mana shu

darslikda rus tili qurilishi qanday berilgan bo‘lsa, shunday talqin etildi. Chunki istagan bir tilda boshqa bir tilda ifodalangan mazmun bemalol berilishi, boshqa til birliklari (so‘zlar-u qo‘sishchalar) vositasida bayon etilishi mumkin. Shu asosda yaratigan talqinlarda qator g‘alizliklar, bir-birini rad etuvchi talqinlar yuzaga keldi. Ba’zi misollarni aytib o‘tamiz:

1) o‘zbek tilida «*shu yerda*» nutqiy hosilasi «*shu shaharda*», «*shu mактабда*» ... kabi minglab boshqa hosilalar singari tuzilishi jihatidan **aniqlovchili birikma** bo‘lib, uning asos shakli *shu yer* aniqlovchi+aniqlanmish (chunonchi, *shu shahar*, *shu mактab* kabi) bo‘lib, birikmada aniqlovchi *shu* ko‘rsatish olmoshi bilan, aniqlanmish ot so‘z turkumiga mansub *yer* so‘zi bilan ifodalangan. Shuning uchun

Shu yer

Shu shahar

Shu mактab

Shu bino..... mohiyatan bir xil qurilishli so‘z birikmalari ekanligi ko‘rinib turibdi.

Endi shu so‘z birikmalarining ruscha tarjimalariga e’tibor beramiz:

Shu yerda – здесь

Shu shaharda – в этом городе

Shu mактабда – в этой школе

Shu binoda – в этом здании

O‘zbekcha *shu yerda* birikmasiga rus tilida ravish turkumiga mansub bo‘lgan *здесь* so‘zi mos kelmoqda. Ruscha so‘zga o‘zbekcha so‘z birikmasi mos kelmoqda (yoki o‘zbekcha so‘z birikmasiga ruscha so‘z mos kelmoqda). Bu–tabiiy hol. Biroq har bir til o‘zining milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baholanmog‘i shart. (Dunyoda ikkita bir xil odam bo‘limgani kabi tillar va ularga xos xususiyatlar ham aynan bir xil bo‘lishi mumkin emas. Garchi, ikki til doirasida muayyan lingvistik hodisalar bir-biriga juda-juda monand bo‘lsa-da, ularni bir xil doirada tasniflash to‘g‘ri bo‘lmaydi.)

Ona (o‘zbek) tili bo‘yicha maktab va oliygoхlar uchun darsliklarda, ilmiy grammatikalarda, lug‘at va tadqiqotlarda *shu yerda*, *u yerda*, *bu yerda*, *bunda*, *unda* kabilar ravish turkumiga mansub so‘zlar deb qaralishi yuqorida aytib o‘tganlarimiz bilan bog‘liq.

2) bilamizki, ravish so‘zlar o‘zgarmas bo‘lib, ularning tarkibidagi aloqa-munosabat, lug‘aviy shakl qo‘sishchalar qotib qolgan. Aynan shu

qarashga qarshi holatda (sifatlarda qiyosiy darajani morfologik yo‘l bilan hosil etuvchi *-roq* qo‘shimchasini erkin qabul qila oladigan) *kam*, *oz*, *ko‘p*, *sekin*, *asta*, *tez* kabi o‘nlab so‘zlarni ravish tarkibida berish kulgili hol.

3) yana bir misol: *Men kelgach, dars boshlandi* gapining ruscha tarjimasi *Когда я пришел, урок начался* bo‘ladi. S.Barxudarov darsligida bu ruscha gap сложноподчиненое предложение с придаточным предложением времени (payt ergash gapli qo‘shma gap) deb tasnif etilgan. Vaholanki, ruscha *пришел* tuslangan fe’l, kesimlik shaklida, o‘zbekcha *kelgach* tuslanmagan fe’l (ravishdosh), kesimlik shaklida emas. (To‘g‘rirog‘i, o‘zbek tilida ravishdosh shakli kesim bo‘la olmaydi. Shuningdek, tilimizda ravish ergash gapli qo‘shma gap turi uchramaydi.)

4) *Oltin odam oltin uchun ishlamaydi* gapida birinchi *oltin* sifat, ikkinchisi ot turkumiga mansub so‘z deb baholanishi to‘g‘ri emas.

5) *Uy egasi dasturxonni mehmon oldiga yozguncha, Fotima ham barkashni olib keldi* gapida *yozguncha* so‘zshaklini kesim deb baholanishi yoki *Er yigitning uyalgani-o‘lgani* kabi to‘liqsiz gaplarda “kesim ravishdosh shakli bilan ifodalanyapti” deyish ilmiy talqinlarni g‘alizlashtiradi.

6) *It hurar, karvon o‘tar* gapida *hurar* va *o‘tar* tuslangan fe’l (fe’lning aniq mayli, hozirgi-kelasi zamon, III shaxs, birlik son) shakllarini sifatdosh deb baholash ham formal tavsif uchun xos bo‘lgan sifatdosh shakli bilan fe’lning tuslangan (mayl/zamon) shaklini qorishtirish oqibatidir. Zeroki, substansial talqinda, masalan, *Men ko‘rgan bolani akam ham ko‘rgan* gapida *ko‘rgan* so‘zshakli birinchi qo‘llanilishda sifatdosh sanaladi, ikkinchi qo‘llanilishda *ko‘rgan* so‘zshakli tuslangan (sof) fe’l bo‘lib, kesimlik kategoriyasining aniqlik mayli, bo‘lishli, o‘tgan zamon hikoya fe’lining uchinchi shaxs, birlik son shakli sifatida tasnif etiladi. Qo‘shimchalari shaklan monand (omonimik qo‘shimchalar) bo‘lgan sifatdosh va mayl/zamon shakllarini farqlash uchun tilshunoslikda azaldan fe’l shaklining tuslanishi (shaxs/son qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi /tuslangan/ zamonli fe’llarda) yoki o‘zgarmasligi – tuslanmagan fe’llarda qabul qilinganligi ham adashishdan xoli emas.

Buni aniqlash uchun foillarning (harakatni bajaruvchilarning) shaxsini o‘zgartirib ko‘rish lozim. Masalan,

<i>Men</i>		<i>sen ham ko 'rgansan.</i>
<i>Sen</i>	>	<i>men ham ko 'rganman.</i>
<i>Ular</i>		<i>siz ham ko 'rgansiz.</i>

akam ham ko 'rgan.

.....

Shu asosda *ko 'rgan* so‘zshaklini birinchi qo‘llanilishda tuslanmagan fe’l (sifatdosh tuslanmaydi, foil shaxsi o‘zgarsa ham, u o‘zgarmaydi), ikkinchi qo‘llanilishda tuslangan fe’l (o‘tgan zamon hikoya fe’l – foil shakli o‘zgarishi bilan o‘zgaradi, tuslanadi) ekanligi aniqlanadi.

7) *oydek go 'zal, oyday go 'zal, oycha go 'zal* birikmalaridagi tobe so‘z tarkibida qo‘llanilgan -dek, -day, -cha qo‘shimchalarini hech qanday murakkab tahlillarsiz *kabi* sof ko‘makchisi va uning muqobillari (*singari, yanglig’, misoli* va h.) bilan bemalol almashtirish mumkin. Ularning ravish yasovchi qo‘shimchalar sifatida talqin etilishi ham mantiqqa zid.

8) sintaksisda: *Qaratqich hech qachon qaralmishsiz qo 'llanmaydi* degan talqin beriladi. To‘g‘ri, nutqimizda *Bizning mакtabimiz chiroli ta'mirlangan* gapini (qaratqichsiz) *Maktabimiz chiroli ta'mirlangan* tarzida ishlata olamiz. Ammo zinhor *Bizning chiroli ta'mirlangan* shaklini qo‘llay olmaymiz. Xuddi shu mantiq iboralarning gap tarkibida qo‘llanilishida keskin buziladi. Jumladan, *Iboralar gap tarkibida yaxlit gap bo 'lagi bo 'lib keladi* degan talqin sintaktik omilning semantik omil bilan qorishtirilishidir.

Fikrimizni dalillaymiz: *Karimning tarvuzi qo 'ltig 'idan tushdi; Ayolning hafsalasi pir bo 'ldi; Biloljonning boshi ko 'kka yetdi* kabi hosilalarda *tarvuzi qo 'ltig 'idan tushdi; hafsalasi pir bo 'ldi; boshi ko 'kka yetdi* frazeologik birliklari sintaktik jihatdan yaxlit kesim deb talqin etiladi. Agar shu mantiqqa tayansak, berilgan gaplar tarkibidagi *Karimning; Ayolning; Biloljonning* kabi qaratqichlarning qaralmishi qani? (Axir bu *qaratqich hech qachon qaralmishsiz qo 'llanmaydi* degan talqinga zid-ku??)

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Bunday chalkashliklarning kelib chiqishida 2ta sabab bor:

1) botinga qaramasdan zohirni o‘rganish – nutqiy hosilalarga qarab xulosa chiqarish va, natijada, bir omilga boshqa omilning prizmasida qarash;

2) tilning ichki tabiatidan kelib chiqmasdan, lingvistik hodisalarini boshqa tillarning tasnif doirasiga solib o‘lhash.

Ammo e’tirof etish joizki, (kamchiliklar, chalkashliklar bo`lishiga qaramay) an’anaviy tilshunoslikda nutqiy bosqich hodisalari tahliliga oid juda katta ma’lumotlar bazasi yaratildi; bu ulkan xazinaning yaratilishida kuchli tilshunoslarning xizmatlari bor. An’anaviy tilshunoslikning tahlil metodologiyasi (o`lchov me’yorlari) hukmron mafkura manfaatlariga bo`ysundirilganligi uchun ham (Ayub G`ulomov boshchiligidagi yuzlab) daqiq o`zbek tilshunoslari faqat bevosita kuzatishda bo`lgan nutqiy bosqich hodisalari tadqiqi bilan shug`ullana oldilar. Zero, an’anaviy tilshunoslik o`zbek tilshunosligining (1999-yillardan keyingi) taraqqiyotini belgilovchi tilshunoslik yo`nalishlarining yuzaga kelishi uchun poydevor vazifasini bajardi.

Substansial tilshunoslikning shakllanish davri 1970-yillarga to`g`ri keladi. Tahlil usullarida “tildan →nutqqa” tamoyili asosida ish ko`rvuchi mazkur yo`nalish respublikamizda mustaqillikdan keyin (1999-yildan) rasman tan olindi. Substansial tilshunoslik (dastlab sistem, sistem-struktur, formal-funksional tilshunoslik nomlari bilan bilan ataldi. O`zbek tilshunosligi tarixiga esa substansial tilshunoslik (mohiyat tilshunosligi) nomi bilan kirdi.) Mazkur yo`nalishning metodologik asosini dialektika qonuniyatları va falsafaning umumiyligi, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va alohidalik, hodisaviylik, voqelik, oqibat (AHVO) kategoriyalari tashkil etadi.

Substansial tilshunoslik tilga umumiyligi, lisonga esa xususiylik sifatida; lisonga nisbatan esa lison umumiyligi, nutq esa xususiylik xarakterida bo`lishini e’tirof etadi. Asosan, lisoniy bosqich tadqiqi bilan shug`ullanadigan mazkur yo`nalish erishgan yutuqlar (tilning milliy tabiatidan kelib chiqqan holda) nutqiy bosqich hodisalarini o`z o`rniga

qo`yish va talqin etish imkonini beradi². (Unutmaslik kerakki, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari (Angliya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Rossiya va b.lar)da uzoq yillardan buyon tilshunoslikka oid tadqiq usullari “til va nutq” farqlanishi asosida olib boriladi.)

Substansial tilshunoslik tarixan qisqa muddat ichida qator yutuqlarga erishdi, hatto uning tadqiq natijalari dunyo miqyosiga ham chiqdi. (Mazkur darslik talqinlari til hodisalariga shu yo`nalish nuqtayi nazaridan yondashadi.)

Tavsifiy tilshunoslik yo`nalishi XX asrning 80-yillaridan keyin rivojlandi. Uning tahlil va tadqiq usullarida “nutqdan→tilga” qarab yondashish seziladi. Shu bois mazkur yo`nalishning qarashlarida goh an`anaviy, goh substansial tilshunoslik qarashlariga xayrixohlik kuzatiladi. (Ammo tilshunoslikning keyingi yillardagi umumiylar xulosalari shuni ko`rsatmoqdaki, lisoniy hodisalar va ularning nutqiy voqelanishi tahlillarida abstraksiyadan→bevositalikka, umumiylidandan→xususiylikka, mohiyatdan→hodisaga, imkoniyatdan→voqelikka, sababdandan→oqibatga qarab harakatlanish, mulohaza qilish, xulosa chiqarish to`g`ri yo`ldir.)

Antroposentrik tilshunoslik o`zbek lisonshunosligi uchun nisbatan yangi, jahon tilshunosligi uchun esa kamida ikki yarim asrlik tarixga ega bo`lgan yo`nalish hisoblanadi.

“Antroposentrizm” so`zi yunoncha *anthropos–adam* hamda lotinchcha *centrum–markaz* ma`nosini bildiruvchi so`zlar birikuvidan hosil bo`lgan³. Antroposentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining ”Inson koinot markazidir” degan g`oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo`llanilgan bo`lib, bu g`oya, ayniqsa, o`rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi⁴.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antroposentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda

² Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbanova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2010. – 403 b.

³ http://ph.ras.ru//elib_0215.html: Новая философская энциклопедия.

⁴ Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi⁵. Antroposentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so`zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog`liq. Demak, mazkur yo`nalishning tadqiq yo`nalishi mohiyatida “til–shaxs–nutq” dixotomiysi turadi. Antroposentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya’ni o`z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandı⁶. Juhon tilshunosligida matnni antroposentrik paradigma asosida o`rganish, asosan, lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko`zga tashlanadi.

Substansial yo`nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iborat bo`lgan bo`lsa, antroposentrik paradigmada inson asosiy o`ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur deb qaraladi. Zero, rus adibi S.Dovlatov to`g`ri ta`kidlaganidek: “Inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil etadi”. Shu bois ”inson aqlini, insonning o`zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo`lmaydi”.(V.A.Maslova)

Til, uning nutqiy voqelanishi, inson omilida tilning ahamiyati serqirra hodisalar bo`lib, aslida, yuqorida qisman sharhlab o`tgan yo`nalishlarimiz til mohiyatiga turlicha yondashuvlarning natijasidir.

Qo`lingizdagи mazkur kitob mavjud darslik va qo`llanmalardan yangi – milliy grammatik talqinlarga uyg`unligi bilan ajralib turadi. Ushbu darslik nafaqat o`rta va oliy ta`lim tizimida amalda bo`lgan dasturlar bilan uyg`un, balki “Tilshunoslikka kirish” o`quv fani oldida turgan muhim vazifani – kitobxon toliblarni yangicha grammatik talqinlarning asosiy atamalari, tushunchalari, tahlil usullari bilan tanishtirishni – ularni yangi tilshunoslik dunyosiga olib kirishni bajarishga, milliy grammatik talqinlar orqali

⁵ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи ўйларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

⁶ Нурмонов А. Танланган асарлар. З жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. З-жилд. – Б. 262-263.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси , 2008. – Б. 35.

ziyolilar ongidagi milliy tafakkur tarzi va mafkura ko‘chatlarini sug‘orishga ham xizmat qiladi.

Darslikni mukammallashtirishga qaratilgan o‘rinli taklif va mulohazalarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

“TILSHUNOSLIKKA KIRISH” FANI MAZMUNI. FANNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

- 1.“Tilshunoslikka kirish” fanining mundarijasi va vazifalari.
2. Til – ijtimoiy hodisa.
3. Til – fikr ifodalashning muhim vositasi.
4. Tilning ijtimoiy vazifalari.
5. Tilning falsafiy masalalari.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Lingvistika, ijtimoiy hodisa, tilning ijtimoiy tabiat, naturalizm, psixologizm, strukturalizm, tilshunoslik va falsafa, tilning kommunikativ vazifasi, tilning gnoseologik vazifasi, tilning ekspressiv funksiyasi, til qonuniyatlariga dialektik qonuniyatlarning tatbiq etilishi.

Tilshunoslik – til haqidagi qadimiy tarixga ega bo‘lgan mustaqil fan. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq, zero, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o‘rganish manbayi tilga aloqador. Manbalarda aytilishicha, jahon tilshunosligining rivojlanishiga qadimgi hind tilshunosligi, yunon tilshunosligi va o‘rta asrlarda shakllangan arab lingvistikasi turtki bo‘lgan. Qadimgi hind tilshunosligi miloddan avvalgi VI asrdan oldin yaratilgan **veda** deb ataluvchi kitoblarni til nuqtayi nazaridan sharhlash natijasida vujudga keldi. Qadimgi Yunonistonda esa dastlab tilning falsafiy tomoniga, chunonchi, predmetning nomi uning tabiatiga mos kelish kelmasligiga e’tibor qaratish oqibatida yuzaga keldi. Til va uni o‘rganishga bo‘lgan qiiziqish natijasida miloddan avvalgi III-II asrlarda Iskandariya grammatika vakillari tomonidan yunon tilining grammatisasi yozildi. Yunon tilshunosligi asosida lotin tilshunosligi yaratilgan degan fikrlar ham mavjud. Arab tilshunosligining o‘rta asrlardagi rivoji Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Javhariy kabi qomusiy olimlarning nomi bilan bog‘liq. O‘zbek tilshunosligining ibtidosi tarixini esa o‘rta osiyolik qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariy nomi bilan bog‘lash to‘g‘ri bo‘ladi.

Til insonlar o‘rtasidagi aloqa vositasi, kishilik jamiyatining mahsulidir. Jamiyat taraqqiyotini tilsiz va til ravnaqini jamiyatsiz tasavvur etish mumkin emas. Bugungi tillar uzoq asrlar mobaynida murakkab tarixiy jarayonlarni bosib o‘tish natijasida vujudga kelgan. Shunga ko‘ra jamiyat uchun suv va havodek zarur bo‘lgan til, ya’ni kishilik jamiyatidagi sof ijtimoiy, murakkab hodisa turli davrlarda tilshunoslar tomonidan turlicha talqin etilgan va bu tilshunoslik taraqqiyoti tarixida **naturalizm**, **logitsizm**, **psixologizm**, **sotsiologizm**, **strukturalizm** kabi o‘nlab tilshunoslik maktablari hamda oqimlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Tilshunoslik fani falsafa, psixologiya, tarix kabi ko‘plab ijtimoiy fanlar bilan bir qatorda turadi. Til nihoyat darajada murakkab va ko‘p aspektli hodisa bo‘lganligi uchun ham uni faqat tilshunoslik fani emas, balki yana bir qator fanlar ham o‘rganadi.

Tilshunoslik fani muayyan va umumiyligi tilshunoslik sohalaridan iborat. **Muayyan tilshunoslik** ma’lum bir tilning grammatikasini, ya’ni tilning turli, jumladan, fonetik-fonologik, leksik, grammatik sathlarini sinchiklab o‘rganadi. Masalan, o‘zbek tilshunosligi, ingliz tilshunosligi, rus tilshunosligi kabi.

Umumiyligi tilshunoslik esa umuman tillarning kelib chiqishi, ijtimoiy mohiyati, jamiyatdagi o‘rni va vazifalari, taraqqiyot yo‘llari, til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi, tillararo munosabatlarni umumlashtiruvchi, ilmiy xulosalar chiqaruvchi hamda shu asosda til qonuniyatlarini aniqlab beruvchi fandir.

Mazkur fan, ya’ni “Tilshunoslikka kirish” kursi talabalarni tilning eng zarur, boshlang‘ich tushunchalari bilan tanishtiradi. Tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o‘rni, turli til hodisalarini, til va nutq oppositsiyasi, tilshunoslikning turli sathlari xususida umumiyligi ma’lumotlar beradi. Dunyo tillarining turli tasniflari borasidagi alohida qarashlarni qiyoslab o‘rganadi, shuningdek, murakkab til hodisalarini to‘g‘ri tushunish uchun zaruriy lingvistik atamalar bilan tanishtiradi.

Ushbu darslikda “Tilshunoslikka kirish” va “Umumiyligi tilshunoslik” kurslarining bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini hisobga olib, til

hodisalarini jahon standartlari asosida izohlashga mumkin qadar harakat qildik. O‘zbek tilshunosligiga bog‘liq o‘rinlarda esa substansial yo‘nalish asosida yondashilgan ilmiy xulosalarga tayanildi.

“Tilshunoslikka kirish” kursining vazifasi Lingvistika va tillarni o`qitish bakalavriat tizimidagi filolog talabalarni til haqidagi fanning asoslari bilan tanishtirish, ularning lisoniy bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash, ularga zaruriy lingvistik atamalar haqida ma’lumot berish, ba’zi tillar orasida uchrovchi ayrim til hodisalaridagi umumiylilik va xususiyliklarni qiyoslab berishdan iborat.

“Tilshunoslikka kirish” to‘rt asosiy qismidan iborat bo‘lib, kirish qismida tilning ijtimoiylik tabiatni, ikkinchi va uchinchi bo‘limlarda lison va nutq farqlanishi hamda shu asosda lisonshunoslik bo‘limlari, nihoyat dunyo tillari tasnifi o‘rganiladi.

Til – ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lgan hodisa. Avvalo, “til”, “ijtimoiy” tushunchalari to‘g‘risida batafsilroq to‘xtalib o‘taylik. Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a’zolarining ongida mavjud bo‘lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiyligi, majburiy bo‘lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar hamda ularning o‘zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig‘indisidir. Til mohiyat, umumiylilik, zaruriyat va yashirin imkoniyatdir.

“*Ijtimoiy*” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, kishilik jamiyatiga, uning hayoti va qonuniyatlariga oid degan ma’noni ifodalaydi. Kishilik jamiyatni til bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til va uning voqelanishi bo‘lmish nutq yordamida kishilar o‘zaro fikr, axborot almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Demak, til kishilik jamiyatining eng muhim axborot almashish vositasi bo‘lib, jamiyat va uning a’zolariga xizmat qiladi. Shuningdek, u voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi, insoniy kechinmalar, histuyg‘ularni ifoda etuvchi, insonning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita hamdir.

Til ko‘p qirrali va murakkab hodisa bo‘lganligi uchun ham kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida til hamda uning muhim xususiyatlari haqidagi turli tushunchalar, fikr-mulohazalar-u nazariyalar

vujudga kelgan. Jumladan, XIX asrning o‘rtalariga kelib tabiiy fanlar sezilarli darajada rivojlandi; Charlz Darvining jonivor va o‘simliklarning turlari haqidagi ta’limoti⁷ning yuzaga kelishi natijasida ba’zi tilshunos olimlar tilni tirik organizm deb tushuna boshladilar. Mashhur nemis olimi Avgust Shleyxer (1821-1868) nomi bilan bog‘liq bo‘lgan “naturalistik oqim” vakillari tilni tirik organizm ekanligini isbotlashga uringanlar. (A.Shleyxer: “hind-yevropa tillari bir bobotildan kelib chiqqan” degan g‘oyani ham ilgari suradi va hind-yevropa tillarining taraqqiyotini “shajara daraxti” orqali tushuntiradi.) A.Shleyxer o‘zining “Darvin nazariyasi va tilshunoslik”⁸ (1863-yilda yaratilgan) asarida Darvining ta’limotini tilga ham tatbiq etish kerak, deb da’vo qiladi. Uning “Insonning tabiiy tarixi uchun tilning ahamiyati haqida” (1865-yilda yaratilgan) asari ham shu nuqtayi nazarda yaratilgan. A.Shleyxer va uning tarafdori bo‘lgan M.Myullerlarning yozishlaricha, tilning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va o‘lishi tabiat qonunlariga bo‘ysungan holda ro‘y beradi, ya’ni kishi tug‘ilganda til ham tug‘iladi, kishi o‘lganda til ham o‘ladi. A.Shleyxer, M.Myuller, G.Paul kabi olimlar shunday fikr tarafdorlari bo‘lganliklari uchun ham ular “***naturalistik oqim***” vakillari sirasiga kiritildi. “**Naturalizm**” yunoncha “***natura***” so‘zidan olingan bo‘lib, tabiiy degan ma’noni ifodalaydi. Naturalizm XIX asrning ikkinchi yarmida nafaqat tilshunoslikda, balki adabiyot va san’atda ham vujudga kelgan edi. Naturalizm yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tabiiy fanlar sohasida erishilgan katta yutuqlar ta’sirida maydonga keldi. Naturalizm namoyandalari, birinchi navbatda, fiziologiyaga tayandilar. Tilshunoslikda paydo bo‘lgan “naturalistik oqim”ni tilning tabiatini va mohiyatini faqat tabiat asosida, g‘ayritabiylidän xoli holda tushuntiruvchi universal prinsip deb tushunish mumkin. Tilshunoslikda bunday oqimning paydo bo‘lishiga hodisa mohiyatining serqirraligiga yetarlicha e’tibor qaratmaslik

⁷ Darwin, Charles (1859), On the Origin of Species by Means of Natural Selection, or the Preservation of Favoured Races in the Struggle for Life (1st ed.), London: John Murray.

⁸ Шлейхер, А. Теория Дарвина в применении к науке о языке : Публ. послание д-ру Эрнсту Генкелю, э. о. проф. зоологии и дир. Зоол. музея при Иен. ун-те, Августа Шлейхера. СПб.: тип. П.А. Кулиша, 1864.

oqibati ham sabab bo‘lgan. (Aslida, tilni “jonli organizm” deb ta’riflash A.Shleyxergacha ham mavjud bo‘lgan. Chunonchi, XVIII asrda Velgelm Gumboldt o‘z qarashlarida tilni to‘xtovsiz rivojlanib, o‘zgarib boruvchi sistema, jonli organizm sifatida tushuntiradi. Ammo V.Gumboldt bu o‘rinda “jonli organizm” tushunchasini biologik ma’noda emas, falsafiy ma’noda qo‘llaydi va “til o‘lik mexanizm yoki til belgilarining shunchaki mexanik birlashuvi emas, balki o‘zgaruvchan, doimo rivojlanishdagi o‘ziga xos qonuniyatlarga ega sistema” degan fikrni ilgari suradi.) Tilshunoslikning keyingi taraqqiyoti tilning ijtimoiylik tabiatiga yetarlicha ahamiyat bermagan A.Shleyxer nazariyasining noto‘g‘riligini isbotladi.

Nafas olish, ko‘rish, ovqat yeyish, uplash, yig‘lash, kulish, og‘riq sezish va hokazolar insonga xos bo‘lgan tabiiy-biologik xususiyatlar bo‘lib, ular tabiat qonunlariga muvofiq ravishda davom etaveradi. Tabiiy-biologik xususiyatlarning yuzaga kelishi yoki yo‘qolib ketishi uchun kishilik jamiyatining bo‘lishi shart emas, faqat qulay sharoit zarur, xolos. So‘zlashish, fikrlashish uchun esa qulay sharoitning o‘zi kifoya emas. Bu haqda ulug‘ Kaykovus bobomiz o‘zining “Qobusnoma” kitobida shunday yozadi: “*Ey farzand, toki qila olsang, so‘z eshitmakdan qochmag‘ilkim, kishi so‘z eshitmak bila suxango‘ylik hosil qilur. Avvalo buni shundoq dalillash mumkin: agar bir o‘g‘lon onadan tug‘ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u o‘g‘lon hech kishining so‘zin eshitmasa, ulug‘ bo‘lg‘onda lol (soqov) bo‘lur.*

Ko‘rmasmusankim, barcha lollar kar bo‘lurlar.....”

Til nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tadigan irsiy hodisa emas, balki jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda so‘zlay boshlashi uni o‘rab turgan til muhitiga bog‘liq. Chunonchi, “Oila va jamiyat” haftanomasining 1992-yil may oyida chiqqan 21-sonining birinchi sahifasida “Larisaning mulla o‘g‘li” sarlavhasi ostida suratli maqola e’lon qilindi. Unda moskvalik Larisa ismli rus qizi Abdujabbor degan qashqadaryolik yigitga turmushga chiqishidan oldin butun qonuniyatları bilan islom dinini qabul qilganligi, namoz o‘qib, ro‘za tutganligi, asosiysi,

oila qurgach, to‘ng‘ich farzandi Temurxon ga alla emas, “Qur’oni Karim” suralarini o‘qib uxlatganligi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Temurxonning birinchi aytgan so‘zi “Olloh” bo‘lgan va bola sakkiz oyligida “Lo iloha ilolloh” degan. Erta tili chiqqan bu bola bir yoshga to‘lganda “Kalimayi tayiba” hamda “Kalimayi shahodat”ni to‘liq aytgan. Ikki yarim yoshida o‘n uchta kichik surani yod bilgan va to‘qqiz yoshida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha o‘tkazilgan yosh qorilar musobaqasida birinchi o‘rinni egallab, ko‘plarni hayratga solgan.

Yana bir misol: sho‘ro hukumati davrida juda ko‘p o‘zbek ziyolilari oilasida tug‘ilgan farzandlar ta’lim-tarbiya rus tilida olib boriladigan bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilar edilar. Oqibatda o‘z ona tilida biror jumlanı aytishni eplolmaydigan “o‘zbek”lar paydo bo‘ldi, bu holatni bizning davrimizda ham ahyon-ahyonda bo‘lsa-da, uchratish mumkin. Taniqli shoir E.Vohidovning ushbu to‘rtligi ham fikrimizni dalillaydi:

*Parvoz chog‘i tayyoraning dilbar kelini
Ko ‘k toqini bizga taxi Sulaymon qildi.
Lekin e’lon o‘qiganda o‘zbek tilini
Davlat tili bo‘lganiga pushaymon qildi.*

Mashhur Robinzon Kruzoni eslang. U kimsasiz orolga tushib qolganda uzoq yillar davomida unga tildan foydalanishga deyarli ehtiyoj sezilmaydi. Tilning kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko‘ra sof ijtimoiy hodisa ekanligini isbotlovchi bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ammo til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatdagi boshqa ijtimoiy hodisalardan farq qiladi.

Faqat jamiyatning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat uchun xizmat qiladigan ijtimoiy hodisalarning turlari nihoyatda ko‘p. Ideologiya, bazis, ustqurma, demokratiya, pul muomalasi kabilar ham ijtimoiy hodisalar bo‘lib, ularning jamiyatda bajaradigan vazifalarining o‘z xususiyatlari va ma’lum doirada qo‘llanilish chegaralari bor. Chunonchi, ideologiya-muayyan jamiyatdagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy qarashlar va g‘oyalar sistemasi; bazis jamiyatning iqtisodiy

tuzilishini, ustqurma esa jamiyatning siyosiy, huquqiy, ideologik me’yorlarini belgilab beruvchi hodisalardir. Jamiyat bo‘lмаган joyda demokratiya, ya’ni xalq ommasining boshqaruv ishlarida qatnashuvi yoki fuqarolarning siyosiy huquqlardan foydalanish imkoniyatlari haqida gapirish mumkin emas. Pul muomalasi haqida ham shunday fikrni aytish o‘rinlidir. Kishilik jamiyatida ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarish har bir tuzumga tegishli bo‘lgan bazis, ustqurma, ideologiya kabilarni ham yangilaydi. TIL esa na bazis, na ustqurma, na ideologiyadir. Tilning yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy hodisalardan eng katta va asosiy farqi shundaki, til jamiyat faoliyatining barcha-barcha sohalariga xizmat qiladi. Til tuzumlar o‘zgarishi bilan butkul yangilanmaydi, o‘z xususiyatini, vazifasini o‘zgartirmaydi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan, sayqal topib borayotgan aniq-tarixiy me’yor sifatida jamiyat a’zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy fikr ifodalash vositasidir.

Demak, tillar paydo bo‘ladi, rivojlanadi, o‘ladi. Ammo bu jarayonlar biologik hodisalar emas, balki ijtimoiy hodisalardir. Ya’ni tilning o‘lishi bitta shaxsning o‘limiga bog‘liq emas, balki butun boshli xalq, millat yo‘qolsagina til o‘ladi.

O‘z davridayoq naturalistik oqim (A.Shleyxer)ning qarashlariga qarshi chiqishlar bo‘lgan. Avval A.Shleyxer bilan qarashlari bir bo‘lgan Maks Myuller (1861-yilda), keyinchalik Aleksandr Potebnya (1862-yilda), Boduen de Kurtene (1871-yilda) naturalistik qarashlarni keskin rad etadilar.

XVIII asrda tilshunoslikda *psixologizm oqimi* ham paydo bo‘ldi. Uning asoschisi nemis nazariyotchisi Geyman Shteyntal (1823-1899) bo‘lib, u tilni sof psixik, ruhiy hodisa sifatida talqin etgan. G.Shteyental o‘zining “Tilning paydo bo‘lishi” (1851), “Grammatika, mantiq va psixologiya” (1955), “Falsafa, tarix, psixologiya va ularning o‘zaro munosabati” (1863), “Psixologiya va tilshunoslikka kirish” (1871) kabi asarlarida tilni xalqning, yakka shaxslarning tafakkur quroli, fikr ifodalash vositasi sifatida ta’riflashga urindi. Tilning ijtimoiylik tabiatini inobatga

olmadi. (G.Shteyntal assotsiativ psixologiya nazariyasining asoschisi nemis psixologi Logan Gerbert (1776-1841)ning izdoshi sanaladi.)

Tilga nisbatan diniy, falsafiy qarashlar ham mavjud. Tilning faqat nutq bosqichini o‘rgangan (formal) yoki tilni nutqiy hodisalar nuqtayi nazarida turib baholagan (tavsifiy), tahlillari tildan nutqqa qarab yo‘nalgan (struktur), tilga shaxs nutqi orqali kirib borish zarur deb hisoblaydigan (antroposentrik) tilshunoslik oqimlari ham ma’lum davrlarda faoliyat ko‘rsatishgan va faoliyat ko‘rsatmoqda.

Til kishilik jamiyatidagi asosiy ijtimoiy hodisa sifatida kommunikativ, ekspressiv va akkumulyativ vazifalarni bajaradi.

“**Kommunikativ**” so‘zi rus tilidan olingen lingvistik atama bo‘lib, “fikr almashuvga oid” degan ma’noni ifodalaydi. Kishilarning o‘zaro aloqa-aratashuvda o‘z fikr-mulohazalarini, istak-xohishlarini, ichki kechinmalarini ifoda etib, bir-birlariga axborot yetkazishlari, ya’ni tilning jamiyatda aloqa vositasi funksiyasini bajarishi uning **kommunikativ vazifikasi** hisoblanadi.

“**Ekspressiv**” so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, asl ma’nosiga ko‘ra “kuchaytirilgan” demakdir. Bu atama tilshunoslikka ko‘chma ma’nosi bilan kirgan bo‘lib, “kuchli hissiy obrazlilik xususiyati” degan ma’noni ifodalaydi.

Tilning asosiy vazifikasi kommunikativ funksiya bo‘lsa-da, biroq kishilar aloqa-aratashuv jarayonida bildirilayotgan fikrga yoki tinglovchiga yetkazilayotgan axborotga o‘zlarining turli tipdagi hissiy-ta’siri, ya’ni emotsiyal munosabatlarini ham qo‘shib ifodalaydilar. Bu hodisa, ya’ni tilning suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatish xususiyati uning **ekspressiv vazifikasi** deyiladi. Emotsional munosabatlar suyish, erkalash, nafrat kabi insonga xos bo‘lgan qator jihatlarni qamrab oladi.

Til faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi bo‘lmay, millatlararo, davlatlararo aloqa quroli hamdir. Bundan tashqari til kishilik jamiyatida asrlar davomida to‘plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Tilning bu xususiyati uning **akkumulyativ** (lotincha “to‘plash” demakdir) **vazifasidir**. Tilga xos bo‘lgan akkumulyativ

vazifa ba’zi lingvistik adabiyotlarda tilning gnoseologik funksiyasi deb ham yuritiladi.

Til – serqirra hodisa. Shunga ko‘ra, til tilshunoslik bilan birga qator ijtimoiy fanlar tomonidan ham o‘rganishini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Tilni o‘rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o‘z munosabati bor. Bu munosabat har bir ijtimoiy fanning tilning qaysi aspektini o‘rganishi bilan xarakterlanadi. Tilshunoslik falsafa bilan chambarchas bog‘liq. Falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Ushbu qo‘llanmada tilning nazariy-falsafiy masalalari quyidagi besh yo‘nalish asosida talqin etiladi:

- 1.Tilning kelib chiqishi va rivojlanishi; til va nutq falsafiy masala sifatida.
- 2.Til va tafakkur, mantiq va tilshunoslik munosabatlari.
- 3.Til ramziy tizim sifatida.
4. Tillarning rivojlanishi va o‘zaro ta’siri masalalari.
5. Grammatik talqinlarning falsafiy masalalari.

Hozirgi zamon tilshunosligi til (lison) mohiyatini ochishda dialektik falsafa, lisoniy birliklar haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayoni dialektik gnoseologiya, jumladan, dialektik-logik kategoriyalardan onglilik va izchillik bilan foydalanishni taqozo etadi. Tilga falsafiy yondashish deganda dealektikaning umumiylit~xususiylik, mohiyat~hodisa, imkoniyat~voqelik, sabab~oqibat kategoriyalaring til tizimi birliklariga bevosita amaliy tatbiqini tushunish zarur.

Dialektika nima? **Dialektika** –yunoncha dialektike (techne) so‘zidan olingan bo‘lib, “suhbat olib borish”, “bahslashish san’ati” degan ma’nolarni anglatadi. Dialektika borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy ta’limot, fan hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubi hamdir.

Kategoriya nima? **Kategoriya** so‘zi qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, «izohlash», «tushuntirish», «ko‘rsatish», degan ma’nolarni anglatadi. Falsafa tarixida mazkur tushunchani Arastu “Kategoriylar”

kitobida ilk marta obyektiv voqelikning umumlashgan in’kosi sifatida talqin etgan.

Dialektikada xususiylik umumiylilikning, voqelik imkoniyatning, hodisa mohiyatning, oqibat sababning, tasodifiylik zaruratning yuzaga chiqish, voqelanish shakli ekanligi sizga o‘rta maktabning “Jamiyatshunoslik” fanidan yaxshi tanish.

Quyida dealektik kategoriyalar xususida biroz to‘xtalib o‘tamiz:

Umumiylik va xususiylik. Tevarak-atrofimizni o‘rab turgan olamdag‘i har bir narsa, har bir hodisa faqat o‘ziga xos alohidalik xususiyatlariiga egadir. Dunyoda mutlaq bir xil bo‘lgan narsalarni ham, bir xil bo‘lgan hodisalarni ham topib bo‘lmaydi. Hatto bir daraxtning barglari ham bir-biridan farq qiladi.

Biroq aynan bir xil narsa, voqe-a-hodisa bo‘lmaganidek, boshqa narsalar va hodisalar bilan umumiyl belgilari bo‘lmagan narsalar va hodisalar ham dunyoda yo‘q. Tol barglarining har biri bir-biridan farq qilganidek, terak yoki gujum barglaridan ajralib turadigan umumiyl belgilari-da bor. Shuningdek, tol, terak, gujumdan tortib to Afrikada o‘sadigan palma-yu azim baobab daraxtlarigacha ularni “daraxt” degan mushtarak tushunchaga birlashtirish imkonini beradigan ba’zi umumiyl belgilari bor. Umumiyl va xususiy belgilar o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Har qanday umumiyl xususiyliklarda yashaydi, mavjud bo‘ladi. Har qanday xususiylik, ayni zamonda, umumiyl belgi hamdir. (Masalan, [a], [o], [u], [o‘], [e], [i] – har biri alohida fonema, ularning har birida “unli” degan umumiyl belgi mavjud.)

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, bir tomondan, umumiyl kni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinci tomondan esa, umumiylilikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydi.

Umumiylig va xususiylik kategoriyalari borliqning, undagi narsa, voqealardan shuningdek, til hodisalarining birligini va xilmashillagini anglashga ko'maklashadi.

Mohiyat~hodisa. Biz narsalar bilan tanishganimizda, avvalo, shu narsalarning tashqi jihatlari: rangi, ko'rinishi, katta-kichikligi va boshqa belgilariga e'tibor qaratamiz. Keyinchalik esa yaxshilab o'rganish natijasida biz narsalarning xossalari, ichiga kiramiz, uning ma'nosi va vazifasini tushuna boshlaymiz. Biz o'rganayotgan narsaning tashqi jihatlari (zohiri) hodisa, ichki xossalari, ma'nosi va vazifasi (botini) esa mohiyatdir. Demak, til mohiyat, nutq esa hodisa sifatida mavjuddir.

Imkoniyat~voqelik. Mazkur kategoriya narsalar va hodisalarning vujudga kelishi va rivojlanishini aks ettiradi. Narsalar va hodisalar abadiy yoki o'zgarmas emas. Tegishli shart-sharoit mavjud bo'lgan taqdirdagina, biror narsa, voqelik paydo bo'lib, reallikka aylanadi. Bu shart-sharoitlarning yig'indisi narsa yoki voqelikning vujudga kelish imkoniyatidir. Odatda taraqqiyot jarayonida birgina imkoniyat emas, balki bir qancha imkoniyatlar maydonga keladi. Ammo bu imkoniyatlar doirasi cheksiz emas. Masalan, maktabni, litsey yoki kollejni tamomlab chiqayotgan yigit-qiz oldida istalgan oliy o'quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday sharoitda bitiruvchi o'z imkoniyati, ya'ni tayyorgarlik saviyasi, qobiliyati, zehniga qarab imkoniyatlardan birinigina voqelantira oladi. Ba'zan voqelantirilayotgan imkoniyat noto'g'ri tanlangan bo'lishi ham mumkin. Til, uning birliklari imkoniyat sifatida mavjud bo'lib, nutq ana shu imkoniyatning voqelanishidir. Hech qachon imkoniyat (til) bir paytning o'zida (nutqda) to'laligicha voqelanmaydi. Masalan, [idish] leksemasini eslaganimizda u bilan bog'lana oladigan [chinni], [sirli], [billur], [shisha], [plastmassa], [sopol], [katta], [kichik], [toza], [yog'li], [teshik], [siniq], [yapaloq]...; [yasamoq], [sindirmoq], [olib kelmoq], [olib ketmoq], [sotmoq], [sotib olmoq], [yuvmoq], [ko'rmoq], [keltirmoq], [yangilamoq], [chegalamoq].... kabi o'nlab leksemalar, [-ga], [-ni], [-ning], [-dan], [-da], [-lar] kabi morfemalar [idish] leksemasi bilan birga voqelana oladigan til imkoniyatlari sifatida

tayyor bo‘ladi. Nutqda esa nutq sharoiti, nutq taqozosiga ko‘ra (so‘zlovchining saviyasi, yoshi, kasb-kori, nutq momenti, o‘rnii va h.) ulardan biri yoki bir nechtasigina voqelana oladi, xolos.

Sabab~oqibat. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi umumiy zaruriy aloqani ifodalovchi tushunchalar bo‘lib, mazkur falsafiy kategoriya voqelikning barcha jabhalarida ro‘y beradi. Istalgan sohadagi yangilanishning ro‘y berishi, yangi o‘ziga xos narsa, voqe-a-hodisa, tushunchaning paydo bo‘lishi sabab~oqibat xarakteriga ega. Bir hodisa hayotda ikkinchi hodisani keltirib chiqarar ekan, birinchisi sabab, ikkinchisi oqibatdir. Masalan, farzandning sababchisi ota-onada. Farzand ota-onadan ilgari dunyoga kelishi mumkin emas, ya’ni ota-onada shu farzandning vujudga kelishidagi zaruriy shart hisoblanadi. Sabablar turli ko‘rinish, shakl va holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Falsafa tarixida narsa va hodisalar o‘zaro sababiy bog‘lanishda deb biluvchilar deterministlar, buni inkor etuvchilar indeterministlar deb ataladi. Sababning asosiy va asosiy bo‘lmagan, tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv shakllari bor. Sabab oqibatni vujudga keltirganidek, oqibat ham sababga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sabab va oqibat kategoriyalari aloqadorligi bo‘yicha Aristotel, Forobiy, Ibn Sinolarning maxsus asarlari bor.

Sabab zaruriy, umumiy xarakterga ega kategoriya hisoblanadi. Uni bahonadan farqlash zarur.

Til bizning ongimizda imkoniyat, umumiylit, munosabatlar, belgilarni sistemasi sifatida mavjud. U nutq orqali yuzaga chiqadi, nutqda muayyan moddiy shaklga, ko‘rinishga ega bo‘ladi. Til qonuniyatlarini dialektik qonuniyatlar asosida tadqiq etiladi. Biroq bu qonuniyatlarining har biri o‘z alohida tizimiga ega bo‘lib, ular aynan bir xil hodisa emas. Keyingi mavzularda bu xususda batafsил mulohaza yuritamiz.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Jahon tilshunosligining rivojlanishiga turtki bo‘lgan omillarni sanang.
2. Tilshunoslik taraqqiyoti tarixida qanday oqimlar paydo bo‘lgan edi?
3. Tilshunoslik fanining tarkibiy qismlarini sanang. Ularning o‘xshash va farqli tomonlari nimada?

4. “Tilshunoslikka kirish” kursining vazifasi nimalardan iborat?
5. Nima uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi?
6. “Naturalistik oqim” haqida bat afsil ma’lumot bering.
7. Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan asosiy farqi nimada? Misollar asosida tushuntiring.
8. Til bajaradigan asosiy funksiyalar haqida ma’lumot bering.
9. Tilning falsafiy masalalari nimalardan iborat?
10. Dialektik kategoriyalarning har biriga alohida ~~tav~~sif yozing va ularni til birliklariga tatbiq etishga harakat qiling.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 11; 24; 27; 28; 38; 47; 63]

TIL VA TAFAKKUR MASALALARI

Reja:

- 1.Til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligi.
- 2.Mantiq va tilshunoslik.
- 3.Umumiylar xulosalar.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Til va tafakkur, ong, bilish, mantiqiy kategoriyalar, grammatik kategoriyalar, aqliy bilish, hissiy bilish, mantiqiy va til kategoriyalarining mos tushish va tushmaslik hodisasi

***Ki har ishniki qildi odamizod,
Tafakkur birla qildi oni bunyod.***

(Mir Alisher Navoiy)

Inson tafakkuri, zakovati eng oliy ne’matdir. Fikrlash qobiliyati uning barcha muvaffaqiyatlari asosi bo‘lib keldi. Tafakkur orqaligina u obyektiv borliqni taniy boshladи, mantiqiy bilishga erishdi. Inson ong-u shuuri shu qadar murakkab oliy mahsulki, voqelikni idrok etish, qabul qilish jarayonini boshqaradi. Ong, tafakkur haqida fikr yuritar ekanmiz, bu murakkab insoniy hodisalarning nutq bilan, kishi, xalq tili bilan chambarchas bog‘liq ekanligini, tilsiz tafakkur va tafakkursiz til mavjud

emasligini yana bir karra uqtirishimiz zarur. Shuning uchun faylasuflar haqli ravishda: “Til fikrning bevosita voqe bo‘lishidir,” deb ta’kidlaydilar.

Til va tafakkur munosabati tilshunoslik fanining asosiy masalalaridan biri sanaladi. Tilsiz fikrni ifodalash mumkin bo‘lmaganidek, tafakkursiz til o‘z ifodasini shakllantira olmaydi. Shular bilan bog‘liq yana falsafiy, psixologik ong tushunchasi ham mavjud. Ong ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, insonning fikrlash qobiliyatini boshqaradi. Ong biologik hodisa bo‘lib, mantiqiy fikriy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Ong – voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o‘z ichiga olgan va ma’lum maqsadga yo‘nalgan holda aks etishi. Ong inson miyasiga berilgan mo‘jiza, sirli qobiliyatdir. Inson haligacha mukammal ong uskunasini yarata olgan emas. Xotirasi odamdan o‘nlab-yuzlab baravar ortiq bo‘lib, hatto yuzlab kattalik (gigabayt, megabayt)larni tashkil etuvchi kompyuterlarda ham ong – mustaqil fikrlash qobiliyati –yo‘q, ular inson ongi, ya’ni ularga yuklagan dasturni, ya’ni amaliyotlar algoritmini bajaradi, inson yukini ko‘taradi, yengillashtiradi, xolos.

Ong – bilish: obyektiv voqelikning inson miyasida aks etish jarayonida voqelanadi. Demak, ong tafakkurdan ham katta hodisa, tushunchadir. Tafakkur – bilishning eng yuqori bosqichidir. Bilish bu obyektiv voqelikning inson ongida aks etish jarayonidir. Fanda ikki xil bilish farqlanadi:

1. Sezgilar orqali bilish.
2. Aqliy bilish va tafakkur⁹.

Hissiy bilishda tashqi olamni sezgi a’zolarimiz orqali bilib olamiz. Bunday bilish hayvonlarda ham rivojlangan. Aqliy bilish esa insonlarga xos bo‘lib, tashqi olamni faqatgina his qilib qolmay, balki har bir hodisa, predmet, jarayonlarini fahmlaydi, ularni qayta ishlaydi, fikr yuritadi, xulosalaydi, tushunchaga ega bo‘ladi. Mana shu jarayon **tafakkurdir**. (Muayyan mantiqiy bilish – voqelikning inson ongida haqqoniy (adekvat) va puxta tasavvur etilishida asosiy rol o‘ynaydi.) “Tafakkur yordami bilan voqelikning umumiyligi tomonlarini aks ettirish orqali biz

⁹ Хайруллаев М., Ҳакбердиев М. Мантиқ.– Т., 1993.–11– 12- б.; Туленов Ж., Фафуров З. Фалсафа. –Т., 1997.

yakka, konkret predmetlar mohiyatini ham bilib olamiz. Tafakkur orqali biror narsani bilish uchun avvalo u haqda tushuncha hosil qilish zarur. Ongimizda predmet haqida tushuncha hosil qilishda umumiyligini qonun yoki umumiyligini tushunchadan foydalaniladi. Masalan, suv molekulasi ikki molekula vodorod va bir molekula kislorod atomlaridan iborat bo‘lgan murakkab kimyoviy modda ekanligini bilamiz. Bu o‘rinda “murakkab kimyoviy modda”, “vodorod” va boshqa shu kabi tushunchalardan foydalanib, hodisani umumiyligini qonunlarga moslashtiramiz”¹⁰.

Demak, tafakkur oliy bilish, fahm, idrok kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bilishning mahsuli sanaladi. Tafakkur – miyaning oliy mahsuli. Tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo‘ladi. U insoniyat jamiyatiga xos bo‘lgan mehnat va nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holdagini mavjuddir. Tafakkurning voqelikni bevosita aks ettirish qobiliyati insonning xulosa chiqarishga, isbotlashga bo‘lgan qobiliyatida ifodalanadi. Bu qobiliyat bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Inson tafakkuri turli fanlar (mantiq, psixologiya, gnoseologiya, kibernetika va sh.k.) tomonidan turli usullarda o‘rganiladi. Eksperimental tadqiqotlar orasida so‘nggi vaqtida tafakkurni turli kibernetik qurilmalar yordamida modellashtirish shaklida tadqiq qilish metodlari ancha keng rivojlangan.

Biz yuqorida tafakkurni bilish, ong, idrok kabi tushunchalar bilan bog‘liq ekanligini qayd etdik. Tafakkur til bilan ham chambarchas aloqador ekanligini ham unutmaslik kerak. Uning til bilan munosabati, aloqadorligi tilshunoslik fanining o‘rganilish doirasiga ham kiradi. Har qanday fikr so‘zlarda o‘z ifodasini topadi. Fikrning voqeligi, uning mavjudligi tilda namoyon bo‘ladi. Biz istalgan predmet, voqealari haqida til vositasiziz, so‘z va gaplarsiz fikrimizni ifodalay olmaymiz. Til – bilish jarayonining muhim sharti. Tilsiz tafakkur mavjud bo‘lmaganidek, tafakkursiz til ham mavjud emas. Hech qanday ma’noga ega bo‘lmagan, faqat ma’lum tovushlar tizimidan iborat bo‘lgan so‘zlar muayyan tushunchani

¹⁰ Хайруллаев М., Ҳакбердиев М. Мантиқ. –Т., 1993.–11– 13- б.

ifodalamaydi, tasavvur ham hosil qilolmaydi. Va nihoyat, fikr ifodalash funksiyasini bajarmagan bunday so‘zlar nutq uchun xizmat qilolmaydi.

Insonning go‘dalikdan umrinig oxirgi kunigacha oladigan butun ta’limi so‘z va til vositasida amalga oshadi. Shuning uchun olimlar tilning ma’rifiy va ta’limiy—inson tafakkuri mahsulining avloddan avlodga yetkazish vazifasini alohida ajratadilar. Haqiqatan ham, biz ta’limni tilsiz tasavvur ham eta olmaymiz. Demak, til – bilish jarayonining muhim sharti: *“...язык, ставший у людей главным средством получения знаний, обеспечил возможность каждому человеку пользоваться результатами познавательной деятельности всего человечества, и, напротив, запас общечеловеческих знаний обогащается с помощью языка. Он позволяет человеку познавать не только окружающую действительность, но и самого себя”*¹¹.

Til va tafakkur ajralmasligini oddiygina bir misol bilan ko‘rsatish mumkin. Biror tanishingizning ismi esingizdan chiqsa, uni atashga qiynalasiz, har xil belgilarini sanayverasiz (Nafisa)—oppoq, kulcha yuzli, kulib turadigan, ko‘k koftali, katta sumka ko‘targan v.h.), baribir ismini eslamaguncha, aniq ifodalay olmaysiz. Yoki, aksincha, ma’nosini bilmaydigan so‘zni bemalol o‘qiysiz, lekin tushunmaysiz. O‘zingiz bilmagan tilda(xorijiy, notanish tildagi) xatni o‘qish (yoki nutqni eshitish) ham xuddi shunday. Siz o‘qiy (eshita) olasiz, lekin mutlaqo hech narsani tushunmaysiz. Bu til (matn) siz uchun na tafakkurga ta’sir o’tkazish, na-da axborot uzatish – fikr bildirish yoki ilg‘ash funksiyasini bajara oladi. Demak, bu notanish til— siz uchun til ham, tafakkur vositasi ham bo‘la olmaydi. Mana shuning uchun, *o‘zga bir tilni egallash boshqa bir xalqning (millatning) tafakkur tarzini o‘zlashtirish demakdir*¹².

Zero, istalgan til o‘sha xalqning turmushini, tafakkurini, idrokini ifodalaydi. Bu xususda Velgelm Gumboldt shunday yozgan edi: “*Если*

¹¹ Потебня А.А. Из записок по русской грамматике.ч.1-2.– М.: Просвещение, 1976. –С. 149.; Общее языкознание. (Под общ. ред. А.Е.Супруна.)– Минск: Выш. школа, 1983. – С.106.

¹² Ne’matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. –Buxoro:Universitet., 2005.– В. 27-28.

мы разграничиваем интеллектуальную деятельность и язык, то в действительности такого разделения нет... Язык народа есть его дух, и дух народа есть его язык – трудно представить что-либо более тождественное”¹³.

Xullas, til va tafakkur munosabati o‘zaro dialektik aloqadorlikda bo‘lib, birgalikda rivojlanish va ta’sir etish qonuniyatlariga amal qiladi. Dialektik aloqadorlikdagi bu ikki hodisa o‘zaro ajralmas, bir-birini taqozo etuvchi murakkab butunlikdir, shuning uchun ularni o‘rganuvchi fan sohalari ham zich aloqador, ajralmas, lekin bir emas. Demak, til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Til grammatikaning o‘rganish manbayi bo‘lsa, tafakkur logika (mantiq) ilmining manbayidir. Shunga ko‘ra mantiqiy kategoriylar (tushuncha, subyekt, predikat, hukm va sh.k.) bilan grammatik kategoriylar (so‘z, ega, kesim, to‘ldiruvchi....) farqlanadi. Mantiq birliklari umumiyligi mavhumdir. Til birliklari, ayniqsa, nutqiy birliklar real, voqeiydir. Mantiqiy kategoriylar umumiyligi, metodologik bo‘lganligi bilan tillardagi grammatik kategoriylar o‘ziga xosdir. Chunonchi, rus tilida otlarning jonli va jonsizligini ifodalash kategoriysi mavjudki, bu o‘zbek tili uchun xos hodisa emas.

<i>Одушевленные</i>		<i>Неодушевленные</i>	
<i>Кто?</i>	<i>она</i>	<i>Что?</i>	<i>оно</i>
	<i>девочка</i>		<i>стол</i>
	<i>котёнок</i>		<i>книга</i>

Rus tilida rod kategoriysi mavjud bo‘lib, u mantiqiy **jins** kategoriysi bilan muvofiq va nomuvofiq holatda turishi kuzatiladi. Masalan, *мужчина, девочка* “женский род”ni ifodalaydi, ammo jins kategoriysi jihatidan erkak(мужской пол)lik belgisiga ega. Demak, mantiqiy jins kategoriysi grammatik rod kategoriysi bilan nomutanosiblik hosil qilgan. Mantiqiy sifat va miqdor kategoriysi o‘zbek tili grammatikasida ham ifodalanadi. Chunonchi, mantiqiy sifat kategoriysi sifat so‘z turkumi

¹³ Общее языкознание. (Под общ. ред. А.Е.Супруна.)– Минск: Выш. школа, 1983. – С.106.

ichida turli usullar (morphologik, leksik-semantik, takror) bilan aks ettirilishi mumkin. Falsafiy miqdor ma’nosи esa son kategoriyasida o‘z ifodasini topadi (birlik va ko‘plikda). Grammatikada miqdor ma’nosini ifodalash son so‘z turkumi (*yigirmata talaba*, *o`nta kitob*, *yuzta mashina*), ravish so‘z turkumi (*ancha*, *picha*), takrorlar (*qop-qop un*, *qavat-qavat ko`rpacha*, *savat-savat meva*) orqali ham ifodalanadi.

Xulosa shuki, til bilan tafakkur bir-biridan ajralmas dialektik birlikni tashkil etuvchi, ammo o‘z xususiyatlariiga, qonun-qoidalariga ega bo‘lgan hodisalardir. Til bilan tafakkurni bir hodisa deb tushunish qanchalik xato bo‘lsa, ularni bir-biridan ajratish ham shunchalik xatodir. Ferdinand de Sossyur ta’biri bilan aytganda: “**Язык можно сравнять также с листом бумаги. Мысль – его лицевая сторона, а звук оборотная...**”, demak, tilni fikrdan ajratish mumkin emas. Fikr va tilda voqeiy turmush, hayot namoyon bo‘lishi lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

- 1.Til, tafakkur, ong bilish kabi tushunchalarni izohlang.
- 2.Ong va tafakkur tushunchalarining bir-biridan farqi nimada?
- 3.Til va tafakkurning o‘zaro munosabati muammosida muhim va murakkab tomonlar nima bilan izohlanadi?
- 4.Mantiqiy kategoriyalarni sanab, ularni birma-bir izohlang.
- 5.Qanday grammatik kategoriyalarni bilasiz? Ularning mantiqiy kategoriylar bilan munosabatini qanday izohlash mumkin?
- 6.Til va tafakkur masalalarini yana qaysi fanlar nima maqsadda o‘rganadi? Fikringizni misollar asosida izohlang.
- 7.Til va tafakkur munosabatlari aks ettirilgan hikmatli so‘zlar, ko‘chirma (sitata)lar qatorini tuzing.
8. “Inson hech qachon jamiyat ongi va tafakkuridan ayri holda yasholmaydi“ degan fikr kimga tegishli? Mazkur fikrga munosabatingizni bildiring.
9. Mir Alisher Navoiy bundan qariyb olti yuz yil muqaddam ”Muhokamatul lug‘atayn“ asarida: ”...*alfoz va iborotdin murod*

ma’nidur“ deb yozgan edi. Hazrat Alisher Navoiyning so‘zlarini mavzu mohiyati bilan bog‘lab izohlang.

10. Akademik Lev Shcherba shunday yozgan edi: “**Язык и мышление составляют одно неразрывное целое, расчленить которое у человека, владеющего только своим родным языком, нет никаких поводов. Только когда появляется термин для сравнения, иностранный язык – начинает делаться возможным освобождение мысли из плена слов; только тогда мы начинаем понимать мысль как таковую, только тогда мы можем преодолеть все те пережитки в языке, которые сковывают по рукам и ногам и самую нашу мысль**”.¹⁴ Keltirilgan fikr mag‘zini o‘z so‘zingiz bilan izohlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [30; 36; 38; 39; 48; 54]

TIL ~ TAFAKKUR ~ NUTQ MUNOSABATI

Reja:

- 1.Til va nutqning farqlanishi. Lison va nutqni ajratishda Ferdinand de Sossyur ta’limoti.
2. Umumiylit, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) tabiatli lison (til) va yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat (YHVO) tabiatli nutq hodisasi.
3. Lisoniy va nutqiy birliklar haqida ma’lumot.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Lison va nutq farqlanishi, F.de Sossyur ta’limoti, tilning psixofizik hodisa ekanligi, UMIS (umumiylit, mohiyat, imkoniyat, sabab) YHVO (yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat) lisoniy birlikning shakliy va ma’noviy qiymati, lisoniy birliklar, nutqiy birliklar, fonema va tovush munosabati, leksema va so ‘z munosabati, morfema va qo ‘shimcha munosabati, qolip va hosila munosabati

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajratilib, o‘zicha alohida mustaqil fan sifatida tanilgan davrlardayoq til va nutqni farqlashga e’tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma jihatdan ham til bilan nutq

¹⁴ Общее языкознание. (Под общ. ред. А.Е.Супруна.)– Минск: Выш. школа, 1983. – С.102.

bir-biridan farqlanavermadı. Shuning uchun, ko‘pincha, nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib kelindi. Tilshunosligimizning keyingi taraqqiyotida til va nutjni farqlashga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Til va nutq hodisalariga o‘zaro farqlab yondashishni dastlab VIII-IX asrlarda arab tilshunosligida, keyinchalik tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o‘rganuvchi (XX asrning 20-yillarida shakllangan va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo‘lgan) tilshunoslik namoyandalari V.Gumboldt, A.Shteyntal, Boduen de Kurtene ta’limotlarida uchratamiz. Lekin til bilan nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni ilmiy va amaliy farqlash, shu tushunchalarni batamom yangi mazmunda qo‘llash Ferdinand de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta’limot bilan bog‘liqdir. Lison(til) va nutqning farqlanishi, tilga tizim sifatida yondashuv XX asr jahon tilshunosligida inqilobga teng hodisa sifatida baholandi. Chunki bu hodisa tilshunoslikdagi mavjud qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Tilga, xususan, o‘zbek tiliga sistema sifatida yondashuvning dastlabki yillarida lison o‘rnida til atamasi qo‘llanilib, bu so‘z ko‘p ma’nolilik tabiatiga ega bo‘lganligi sababli, ayrim chalkashliklarni keltirib chiqarardi, chunki insonning nutq so‘zlash qobiliyatı ham, nutqi ham shu atama bilan yuritilar edi. Atamalarga esa, odatda, bir ma’nolilik xosdir.

Lison deyilganda ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo‘yilgan, hamma uchun umumiylar majburiy fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikish qonuniyatları yig‘indisi tushuniladi¹⁵. Tilning bunday talqini uning psixofizik hodisa ekanligini, u o‘ziga umumiyligi, mohiyat, imkoniyat, sabab(UMIS) kabi sifatlarni mujassamlashtirganligini isbotlaydi. Til (lison) bunday xususiyatlarini aniq formalarda – xususiy hodisa va voqeliklar sifatida gavdalantiradi. Shu nuqtayi nazardan til va nutqning har biriga xos mustaqil birliklari mavjud. (Keyinroq, bu birliklar haqida to‘xtalib o‘tamiz).

¹⁵ Неъматов X., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент: Ўқитувчи, 1993.; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2010.

Lisonda birliklar va birikish qonuniyatları farqlanadi. Lisoniy birlik ikki tomonning bir butunligidan iborat bo‘ladi:

- a) lisoniy birlikning shakliy, tashqi tomoni;
- b) lisoniy birlikning ma’lum bir vazifasi, ma’noviy qiymati.

Lisoniy birlik ongda muayyan sxema, tarh, ramz sifatida saqlanadi. Masalan, [a] fonemasining talaffuz xususiyatlari haqida umumlashma tasavvur o‘zbek tilida so‘zlashuvchi barcha jamiyat a’zolari tilida bir xildadir. Bu [a] fonemasining tashqi tomoni bo`lib, uning ichki tomonini ma’no farqlash, chegaralash xususiyati tashkil etadi. Aslida ichki va tashqi tomonni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, biroq ular aynan bir xil jihat ham emas. Bir-birini shartlovchi, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan “**lison~nutq qobiliyati~nutq**” zanjirida faqat nutqqina tashqi shaklda (og‘zaki, yozma) namoyon bo‘ladi. (Eslatib o‘tish joizki, bunda lison hamisha tafakkurdan oziqlanadi. Tafakkur esa, tabiiyki, milliylikdan, tevarak-atrof, jamiyatdan oziqlanadi.) Ferdinand de Sossyur *lison~nutq munosabatini* shatranj o‘yini qoidalari asosida tushuntirib o‘tgan. Shaxmat donalari va har bir donaning yurish qoidasi ongimizdagи lisoniy birliklar va ularning birikish imkoniyatlariga o‘xshaydi. O‘yin qoidalari hamma uchun bir xil. O‘yinchи xuddi so‘zlovchi bo‘lib, shaxmat o‘yinini bilishi esa so‘zlovchining nutq qobiliyatiga o‘xshaydi. Donalarning harakatga keltirilishini nutqqa qiyoslash mumkin. Chunonchi,


shaxmat ~ o‘ynash qobiliyati ~ o‘yin;

lison ~ nutq qobiliyati ~ nutq.

Lison va nutqning o‘ziga xos birliklari mavjud:

Lisoniy birliklar	Nutqiy birliklar
fonema	nutq tovushi
morfema	qo‘shimcha
leksema	so‘z (mustaqil ma’noli so‘z, nomustaqil ma’noli so‘z; sodda tub so‘z, yasama so‘z, qo‘shma so‘z...)
frazema	ibora
qolip (model, qurilma)	so‘z birikmasi, gap

Buni chizmada quyidagicha ifodalash mumkin:




Lison va nutq, ularning birliklari munosabatiga dialektik, dialektika kategoriyalari nuqtayi nazaridan yondashilganda u haqdagi tasavvur va bilimlarimiz to‘laqonli bo‘ladi. Ya’ni

Til (lison) va uning birliklariga xos dialektik xususiyatlar(UMIS)	Nutq va uning birliklariga xos dialektik xususiyatlar(YHVO)
umumiylit	yakkalik
mohiyat	hodisa
imkoniyat	voqelik
sabab	oqibat

Shuningdek, til – bevosita kuzatishda berilmagan, takrorlanuvchan, chegaralangan, variantlari yo‘q va h. Nutq esa bevosita kuzatishda berilgan, takrorlanmas, chegaralanmagan, variantlari rang-barang va h.

Demak,



Quyida til va nutq birliklari orasidagi farq hamda bog‘liqliknini birmabir ko‘rib o‘tamiz.

1.Fonema va tovush. Lisoniy birliklar ichida eng kichigi – fonema. Fonema muayyan til egalarining ma’lum tovushlar tipi haqidagi umumiylasavvurlari yig‘indisidir. Har bir fonema so‘zlovchilar ongida o‘z tipini farqlovchi belgilari majmuyi asosida vujudga kelgan maxsus “akustik – artikulyatsion birlik” yoki “tovushlar asliyati” sifatida saqlanadi. Muayyan fonemaning farqlovchi belgilari uning artikulyatsion va akustik xususiyatlari asosida shakllanadi. Artikulyatsion belgilar muayyan tovushlarni talaffuz qilish uchun nutq a’zolarining bir xildagi harakatga moslashgan avtomatik, standart holatlari haqidagi tasavvur bo‘lsa, akustik belgilar sifatida bir turdagи tovushlarga xos talaffuz sifati va miqdori tushuniladi.

O‘zbek tilida so‘zlovchi shaxslarning ongida hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi 30 ta tovush tipi – fonemalar haqidagi ma’lumot bor. Bu ma’lumot kishi ongida uning til o‘rganishi, o‘zgalar va o‘zining nutqini ko‘rsatish natijalari sifatida jonlanadi. Masalan, o‘zbek tili sohibi o‘zining eshitish va so‘zlash a’zolari faoliyatini kuzatish natijasida [a] fonemasining unlilik, kenglik, lablanmaganlik, [u] fonemasining unlilik, torlik, lablanganlik, [p] fonemasining undoshlik, shovqinlilik, jarangsizlik, portlovchilik, lab – lablik kabi belgilarga ega ekanligi haqidagi “tabiiy” (go‘yoki o‘zi hosil

qilingan) bilimga ega bo‘ladi. Nutq so‘zlaganda, kishi ana shu tipik belgilarni jonlantirishga, ongidagi imkoniyatni voqelantirishga, fonetik umumiylilikni xususiylashtirishga harakat qiladi.

Lisoniy birliklar nutqiy birlklarga nisbatan miqdoran cheklangan bo‘lsa-da, ammo ularning soni ham sanoqli emas. Shu boisdan ularning xotirada saqlanish mexanizmini ochish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, inson narsalarni ularning umumlashtiruvchi va farqlovchi belgilari asosida esda saqlaydi. Esda saqlanishi lozim bo‘lgan narsa miqdor jihatdan ko‘p bo‘lsa, eslab qolishning asosiy yo‘li tasniflash, ya’ni guruhlarga ajratishdir. Tasnif esa o‘xhash va noo‘xhash, umumiy va farqlovchi belgilarini aniqlash asosida kechadi. Bu tamoyil barcha lisoniy birliklar, xususan, fonemalar tasnifida ham to‘la amal qiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida 30 ta fonema so‘zlovchi ongida, avvalo ikki guruh – unlilar va undoshlarga bo‘lingan holda mavjud bo‘ladi. Bu guruhlar tovushlar talaffuzidagi ovoz va shovqinning ishtiroki darajasiga qarab belgilanadi. Bo‘linish shu tarzda alohida fonemagacha davom etib boradi. Unlilar ham, undoshlar ham qarama-qarshi belgilari asosida kichik guruhlarga bo‘linib boraveradi. Masalan, o‘zbek tilidagi 6 ta unli bir tizim bo‘lib, ular shovqinsizligi bilan undoshlardan ajraladi. Biroq bu tizimchaning o‘zi ham unsurlarning qarama-qarshi belgilari asosida bo‘linadi. Unlilarning qarama-qarshi qo‘yilishi quyidagicha:

i ~ u	e ~ o'	a ~ o
-------	--------	-------

Umuman olganda, minimal lisoniy birlik bo‘lmish fonemalar inson nutq a’zolari yordamida vujudga kelgan tovush ko‘rinishlarining umumiy andozasi bo‘lib, cheksiz tovushlarning umumlashmalari qatori sifatida ongimizda yashaydi. So‘zlovchilar ongidagi ushbu psixo-akustik obrazlar asosida nutq a’zolarini harakatga keltirib tovushlarni hosil qiladi. Yoki tinglovchi o‘zgalar tomonidan hosil qilingan tovushlarni eshitish orqali ongidagi andozaga solishtirib ko‘radi.

Fonemalarning ma’no farqlash xossasi mavjud bo‘lib, bir fonemaning turli ko‘rinishlari bo‘lgan tovushlarda bu hodisa kuzatilmaydi. Bir fonemaning nutqiy ko‘rinishi bo‘lmish tovush boshqa fonemaning in’ikosi

bo‘lgan tovush bilan almashtirilsa, so‘z ma’nosi yangilanadi, ya’ni boshqa so‘zga aylanadi. Qiyoslang: [chol] va [chal], [urush] va [urish], [tush] va [tish], [ariq] va [oriq]. Shu boisdan ham fonemaga tilning ma’no farqlovchi eng kichik birligi deb ta’rif berildi. Bir fonemaning turli variantlari ma’no farqlamaydi. Masalan, til oldi va til orqa [o‘] unlilari quyidagi so‘zlarda ma’no farqlamagan: *o‘l – o‘l; bo`lmoq (olmani ikkiga bo`lmoq)–bo`lmoq (kelgusida tilshunos bo`lmoq)*.

Leksema va so‘z. Lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi birligi leksemadir. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydigan ikkita psixofizik-akustik struktura (tovush qobig‘i), ya’ni nomema hamda ma’lum bir tushuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya’ni sememaning birligidan iborat.

Lisoniy birlik sifatidagi leksemalarning tovush strukturasi fonetik birliklar ko‘rinishlar (variant)larining turlicha kombinatsiyalari asosida vujudga kelgan. O‘zbek tilida mavjud leksemalarning barchasining shakliy tomoni tilimizda mavjud 30 ta fonema asosida, xolos. Shu boisdan tashqi fonetik strukturasi asosida leksemalarni kuchli va kuchsiz ziddiyatlarga qo‘yish mumkin. Kuchli oppozitsiyalar bittadan (**u** – olmosh, **e** - undosh), ikkitadan (**ot** - ish), uchtadan (**bor** - **kel**), to‘rttadan (**qunt** - **band**) fonema variantining zidlanishi asosida hosil bo‘lgan bo‘lsa, kuchsiz ziddiyatlar leksemalarning tarkibidagi ayrim fonema variantlari asosida bo‘ladi.

Har bir leksema lisoniy birlik sifatida mazmun mundarijasiga ham ega. Leksemalarning mazmun rejasи **denotatlar** yoki **referentlar** deb ataladigan borliqdagi narsa, harakat, belgi, miqdor kabilarni ifodalovchi tushunchalarni bildiradi. Masalan, borliqda *yuz* deb ataluvchi kishi burnining ikki tomonidagi peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismi mavjud. Shu asosda kishilar ongida *yuz* tushunchasi vujudga kelgan. Mazkur tushuncha asosida esa semema (leksema ma’nosi) shakllanadi. Tushuncha bilan ma’no bitta narsa emas, ular farqli xususiyatlarga ega. Masalan, ingliz, rus, nemis tillarida so‘zlashuvchi kishilarning ongida *aka* va *uka* tushunchalari mavjud. Biroq bu tushunchalar *brother* (ingliz), *брат* (rus)

va *bruder* (nemis) leksemalarida bitta ma’no (semema)da birlashgan. Yoki [*yuz*], [*bet*], [*bashara*], [*chehra*], [*oraz*] leksemalari bitta tushunchani ifodalaydi, lekin ularning ma’nolari o‘zaro farqlanadi.

Leksemalarning mazmun silsilasi bo‘lgan sememani tashkil etuvchi uzvlar semalardir. Nomema tovushlarning turlicha kombinatsiyalari asosida tashkil topganligi kabi, ana shu semalarning turlicha birikuvi va ba’zilarining o‘rin almashinuvi asosida turli mazmundagi semema vujudga keladi. Bu sememalarning semik tarkibi quyidagicha:

[*yuz*] – “odamga xos”, “boshning old qismi”, “burunning ikki tomoni”, “peshonadan iyakkacha”, “burundan qulqqacha”, “qo‘llanishi chegaralangan”, “uslubiy betaraf”, “turkiy qatlamga oid”, “umumiste’mol”.

[*jamol*] – “odamga xos”, “boshning old qismi”, “burunning ikki tomoni”, “peshonadan iyakkacha”, “burundan qulqqacha”, “qo‘llanishi chegaralanmagan”, “badiiy uslubga xos”, “arabiy qatlamga xos”. Har ikkala leksema ham bir tushunchani ifodalaydi. Ularning mazmun rejasi – sememalarining semik tarkibi farqlanadi. Leksemalar sememalarining atash semalari denotatning in’ikosi – tushunchani ifodalaydi. Har bir leksema sememasini o‘xhash va farqlovchi semalarga ega. O‘xhash semalar ularni guruhlarga birlashtirishga, farqli semalar esa ajratish uchun xizmat qiladi.

Leksemaning nutqiy qo‘llanishidagi varianti so‘zlar bo‘lib, ular turlicha matniy qurshovlar asosida har xil xususiyatlar kasb etadi. Leksemalar tub yoki yasama bo‘lishi mumkin. Masalan, [*kitob*], [*savdogar*], *nonchi* birliklarini olaylik. Qatordagi [*kitob*], va [*savdogar*] birliklari tayyorlik, umumiylilik, ijtimoiylik xossalariiga ega. Biroq tilimizda *nonchi* degan lisoniy birlik yo‘q. U nutq jarayonidagina hosil qilinishi mumkin va yuqoridagi birliklar ega bo‘lgan xususiyatlardan xoli. *Nonchi* birligining nutq jarayonigagina xosligi tayyorlik belgisiga ega emasligini ko‘rsatadi.

3. Morfema va qo‘shimcha. Morfema leksemadan ajralgan holda o‘z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo‘lmagan mazmunning birligidan iborat bo‘lgan kichik lisoniy birlikdir. Qo‘shimcha

esa ana shu psixologicheskikh mohiyatning nutqda namoyon bo‘lishidir. Morfema ham tashqi (moddiy) va ichki (ma’no, vazifa) jihatlar yaxlitligidan iborat. Atov mustaqilligiga, mustaqil sintaktik mavqega ega bo‘lmagan bu birliklar o‘zida leksik va grammatik mohiyatlarni uyg‘unlashtirgan bo‘ladi:

- a) yangi so‘zlar hosil qiladi;
- b) so‘zlarga qo‘shimcha leksik – semantik qiymat beradi.

Har bir tilga xos birliklar boshqa tillarnikidan o‘zaro farqlanadi. Masalan, aloqasiz (amorf), yelimlovchi (agglyutinativ) va egiluvchan (flektiv) tillardagi leksemalar mohiyatan o‘ziga xosdir.

4.Qolip va hosila. Lisoniy birliklarning navbatdagi turi qurilma – qoliplardir. Qolip deganda yasama so‘z, so‘z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari tushuniladi. Qoliplar ikki xil bo‘ladi:

- a) so‘z yasash qoliplari;
- b) sintaktik (so‘z birikmasi va gap) qoliplari.

Qoliplar ham boshqa lisoniy birliklar kabi UMIS tabiatli bo‘ladi. Masalan, nutqimizdagi cheksiz yasama so‘zlar (masalan, (*nonchi*), (*sutchi*), (*uzumchi*), (*nisholdachi*) kabi bitta bevosita kuzatishda berilmagan lisoniy birlik (masalan, [*narsa/buyum oti+chi=shu narsa//buyum bilan shug‘ullanuvchi kishi*]), ya’ni so‘z yasash qolipining nutqiy hosilalaridir. *Kitobni o‘qimoq* nutqiy hosilasi boshqa o‘ziga o‘xhash cheksiz so‘z birikmalari (*qog‘ozni yirtmoq, uyni sotmoq* va h.k.) bilan birgalikda [*Ot^{t,k}+Fe’l]= vositasiz to‘ldiruvchili fe’lli birikma*] lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan nutqiy hosilalardir.

Qoliplar miqdoran cheklangan bo‘lib, masalan, o‘zbek tilida so‘z birikmasi hosil qilishning 18 ta ustivor qolipi ajratilgan¹⁶ va nutqimizda ulardan son-sanoqsiz so‘z birikmalari hosil qilamiz.

Lisoniy va nutqiy birliklar o‘zaro qarama-qarshi belgilarga ega bo‘ladi: lisoniy birliklar moddiylikdan xoli, cheklangan, ijtimoiy, barqaror kabi belgilarga ega bo‘lsa, nutqiy birliklar moddiylikka ega, cheksiz, individual, o‘tkinchi belgilarga egadir. Ya’ni:

¹⁶ Назарова С. Бирималарда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Филология фанлари номзоди даражасини олиш учун ёзилган автореферат.– Т., 1997.

Til (lison) va uning birliklariga xos umumiy xususiyatlar	Nutq va uning birliklariga xos umumiy xususiyatlar
<i>Bevosita kuzatishda berilmagan, moddiylikka ega emas</i>	<i>Bevosita kuzatishda berilgan, moddiylikka ega</i>
<i>Jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy</i>	<i>Jamiyatning har bir a'zosi uchun xususiy</i>
<i>Jamiyatning barcha a'zolari uchun majburiy</i>	<i>Jamiyatning har bir a'zosi foydalanishi uchun ixtiyoriy</i>
<i>Jamiyatning barcha a'zolari foydalanishi uchun imkoniyat</i>	<i>Jamiyatning har bir a'zosi uchun hosila</i>
<i>Jamiyatning barcha a'zolari foydalanishi uchun tayyor</i>	<i>Jamiyatning har bir a'zosi nutqida ixtiyoriy vogelik</i>
<i>Chegaralangan</i>	<i>Chegaralanmagan</i>
<i>Takrorlanuvchan</i>	<i>Takrorlanmas</i>

Til turli xil birlik (fonema, morfema, leksema, frazema, model)larning, ular orasidagi barqaror munosabatlarning majmuyi, nutq esa mazkur majmuaga doir bo'lgan birliklarning muayyan sharoitda ma'lum qismidan foydalanib, zaruriy kommunikativ maqsadlar uchun hosil qilingan moddiylik (so'zshakl, so'z birikmasi, gap)lardir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Lison nima? Ta'rif bering.
2. Lison va nutqning farqlanishini misollar bilan tushuntiring.
3. Til va nutq hodisalarini ilk bor farqlab yondashish tilshunoslikda qachon va qaysi olimlar ta'limotida shakllangan?
4. Lison va nutq munosabatiga dialektikaning qaysi kategoriyalari asosida yondashiladi?
5. Lisoniy va nutqiy birliklarni sanang. Ular orasida qanday farqlar bor?
6. Lisoniy va nutqiy birliklarni o'zaro farqlab o'rganishning ahamiyati nimada?
7. Tilshunoslikning qaysi yo'nalishi til hodisalariga til va nutq farqlanishi asosida yondashadi?
8. Til~tafakkur~nutq munosabatini sharhlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 11; 19; 20; 27; 28; 30; 53]

LISONIY PARADIGMA VA LISONIY MUNOSABATLARNING ASOSIY TUURLARI

(paradigmatik, sintagmatik va iyerarxik munosabatlar)

Reja:

1. Paradigma va paradigmatic munosabat haqida tushuncha.
2. Sintagmatik munosabatning lisoniy va nutqiy xususiyati.
3. Sintagmatik va sintaktik aloqa.
4. Til birliklari orasidagi iyerarxik munosabatlar.
5. Lisoniy ziddiyat va uning turlari. Noto‘liq, darajali, teng qiymatli ziddiyatlar.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Til birlklari orasidagi munosabat, paradigma, paradigmatic qator, sintagmatik aloqa, sintaktik aloqa, iyerarxiya, lisoniy ziddiyat, noto‘liq ziddiyat, darajali ziddiyat, teng qiymatli ziddiyat, ziddiyatning kuchli a’zosi, ziddiyatning kuchsiz a’zosi, binar ziddiyat, ternar ziddiyat.

Til va nutq birliklari orasidagi muhim farqlardan yana biri til birliklarining tanlanishga imkon beradigan **paradigmalarda**, nutq birliklarining esa tanlanish asosida birin-ketinlikda birlashadigan hosilalar - **sintagmalarda** voqe bo‘lishidir. Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xossasiga ega. Masalan, [a] fonemasi [o] fonemasini, [u] fonemasi [o‘] fonemasini, [i] fonemasi [e] fonemasini eslatadi. Lekin [a] fonemasi dabdurustdan [q] yoki [g‘] fonemasini eslatmaydi. Chunki ular ikki tizim – unlilar va undoshlar tizimiga kiradi. Bir-birini eslatuvchi birliklar umumiyligi o‘xhash belgilarga ega bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida kelishik shakllarining umumiyligi belgisi “so‘zni so‘zga bog‘lash”, ammo ular farqli belgilarga ham ega bo‘lmog‘i shart, ya’ni qaratqich kelishigi otni otga (*kitobning varag‘i, quyonning yuragi, bulbulning ovozi* kabi), tushum kelishigi otni fe’lga (*maktubni o‘qimoq, sevgini asramoq, tog‘larni tomosha qilmoq* kabi) bog‘laydi. Yoki unli fonemalar “sof ovozga egalik” umumiyligi ostida birlashadi. Ammo ular farqli belgilarga ham ega: [a] lablanmaganlik, [o] lablanganlik farqlovchi belgilariga ega.

Umumiy belgilari asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o‘ziga xos belgilari bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi p a r a d i g m a deyiladi. Paradigmani tashkil etuvchi birliklar p a r a d i g m a a’zo l a r i deb yuritiladi. Paradigmada kamida ikkita a’zo va ular bir lisoniy sathga mansub bo‘lishi shart. Bir paradigma a’zolari orasidagi o‘zaro munosabat **paradigmatik munosabat** deyiladi. Chunonchi, otlarning egalik affikslari orasidagi paradigmatic bog‘lanishni ko‘raylik. Paradigma qatorida olti affiks bo‘lib, ularning har biri “narsa-buyumning shaxsga qarashliligi” ma’nosiga ostida birlashadi. Ayni vaqtida ularning har biri o‘zining xususiy ma’nosiga ega, ya’ni ma’lum predmetning birlik yoki ko‘plikdagi shaxs turlaridan aynan biriga qarashlilikni ifodalash bilan bir-biridan farq qiladi va shu jihatdan o‘zaro oppozitiv sanaladi:

[- im] ~ [- imiz]

[- ing] ~ [- ingiz]

[- i] ~ [- lari]

Paradigmatik bog‘lanish fonema, morfema, leksema, konstruksiya kabi til birliklarini kishi xotirasida “zanjirsimon” tarzda ushlab turadi. Natijada ulardan birining eslanishi u bilan bog‘langan boshqa birliklarni yodga tushiradi, shu yo‘l bilan til birliklarining xotirada dastlabki kichik sistemalarga uyushuvi ta’minlanadi. Lisoniy birliklar tizimining qaysi lisoniy sathga mansubligiga ko‘ra fonetik, leksik, morfologik, sintagmatik paradigmalar farqlanadi. F.de Sossyurning talqini bo‘yicha **sintagmatik aloqa**, avvalo, til birliklarining yotiqlik chiziqliga bo‘yicha birin-ketin o‘zaro bog‘lanib munosabat hosil etishidir. Sintagmatik aloqa lisonda ham, nutqda ham mavjud bo‘ladi. Chunki sintagmatik aloqaga kirishish qobiliyati, imkoniyati til birliklarida mujassamlangan bo‘ladi. Chunonchi, predmetlikni ifodalovchi leksema son kategoriyasi morfemalari bilan sintagmatik aloqaga kirisha oladi, lekin **[-roq]** morfemasi bilan xuddi shunday aloqaga kirisha olmaydi. Shuningdek, *[kel -]* fe’li nisbat, mayl, zamon kabi kategoriyalarning morfemalari bilan sintagmatik aloqa hosil qila oladi, lekin otlarga mansub son va egalik morfemalari bilan bog‘lana

olmaydi. Qo'shimcha va o'zaklarda bo'lgani kabi lug'aviy birliklarda ham o'ziga xos qo'shnichilik (sintagmatik) munosabatlari mavjud. Lug'aviy birliklarning o'zaro qo'shnichilik munosabatlariga kirishishlari uchun ular orasida ma'no o'xshashligi, aloqadorligi, mantiqiy bog'lanish bo'lishi shart. Masalan, "*temir qoshiq*" birikmasini olaylik. Bunda "*qoshiq*" so'zi biror moddadan yasalgan narsani, "*temir*" esa shu moddaning o'zini bildirib keladi. So'zlar ifodalagan ma'nolar orasida ham mantiqiy, ham ijtimoiy bog'lanishlar mavjud. Ushbu birikmada lug'aviy birliklar o'z ma'nosida qo'llangan. Ammo "*temir iroda*" birikmasida qo'llanilgan "*temir*" so'zi ko'chma ma'no kasb etgan. Buning sababi shundaki, "*iroda*" biror moddadan tashkil bo'lmaydi. "*Temir iroda*" so'z birikmasidagi qo'shnichilik munosabati g'ayrioddiy, tasodifiy munosabatdir. Ko'rinish turganidek, sintagmatik munosabat nutqda ro'yobga chiqsa ham, bunday munosabatga ega bo'lish imkoniyati til birliklarida mujassamlangan bo'ladi.

Sintagmatik aloqani sintaktik aloqadan farqlash lozim. Sintagmatik aloqa keng tushuncha. *Sintagmatik va sintaktik aloqa butun~bo'lak munosabatidadir*. Boshqacha aytganda, sintaktik aloqa sintagmatik aloqaning bir ko'rinishidir. Sintagmatik aloqa barcha til birliklariga xos ketma-ket bog'lanish bo'lsa, sintaktik aloqa so'z va gaplarning hokim~tobelik munosabatidir.

Til birliklari orasida paradigmatic (o'xshashlik), sintagmatik (qo'shnichilik) munosabatlar bilan bir qatorda *iyerarxik* (pog'onali) munosabatlar ham farqlanadi. Bunday munosabatda til birliklari o'zaro butun – bo'lak, tur – jins aloqalari bilan bog'langan bo'ladi. Masalan, morfologik sathda qaratqich kelishigi bir otni ikkinchi ot yoki harakat nomiga bog'lashga xizmat qiladi, shu bilan u *kelishiklar* guruhibiga kiradi, kelishiklar so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar sifatida ko'makchilar bilan bиргаликда *tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi vositalar* guruhibiga kiradi. Tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi kelishiklar va ko'makchilar bog'lovchi va egalik kategoriysi bilan bиргаликда so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar sirasiga mansub bo'ladi. Ya'ni,

qaratqich kelishigi → *kelishiklar* (guruhiba kiradi) → *tobe so‘zni hokim so‘zga bog‘lovchi vositalar* (guruhiba kiradi) → *so‘zlarni bir-biriga bog‘lovchi vositalar* (guruhiba kiradi).

Leksik sathda [*o‘simlik*], [*daraxt*], [*tol*] lug‘aviy birliklari quyidagi iyerarxik munosabatda turadi: [*tol*] anglatgan ma’no va tushunchasiga ko‘ra [*daraxt*] ma’no tarkibiga, [*daraxt*] esa [*o‘simlik*] ma’nosining tarkibiga kiradi.

Biz yuqorida paradigmatic munosabatlar haqida gapirib, paradigma a’zolari o‘zaro ziddiyatda turadi, deb ta’kidlagan edik. Endi **lisoniy ziddiyat** va uning turlari haqida qisqacha so‘z yuritaylik.

A’zolari orasidagi munosabatlarga ko‘ra ziddiyatlar:

- a) noto‘liq (privativ);
- b) darajali (gradual);
- d) teng qiymatli (ekvipotent) kabi turlarga bo‘linadi.

Noto‘liq ziddiyatda a’zolardan biri ziddiyat belgisiga ko‘ra ijobiy boshqasi betaraf munosabatda bo‘ladi. Masalan, [*qo‘chqor*] va [*qo‘y*] leksemalariga murojaat qilaylik. [*qo‘chqor*] so‘zining ma’no tarkibidagi “erkaklik” belgisi doimiy, o‘zgarmas, [*qo‘y*] so‘zi esa urg‘ochi qo‘yni atab keladi. Ammo ba’zan [*qo‘y*] so‘zi “urg‘ochilik” ma’nosini yo‘qotib “erkak qo‘y”ni ham atab kelishi mumkin. Demak, [*qo‘chqor*] va [*qo‘y*] noto‘liq ziddiyatida ziddiyat belgisi “erkaklik”dir. Bu belgi [*qo‘chqor*] so‘zida ifodalangan, shuning uchun u ziddiyatning kuchli a’zosi sanaladi. [*Qo‘y*] so‘zida esa ifodalanmagan, shuning uchun u ziddiyatning kuchsiz a’zosidir. Ziddiyatning kuchli a’zosi (barqaror, o‘zgarmas) musbat alomati (+) bilan, kuchsiz a’zosi nol (0) belgisi bilan beriladi. Bunday misollarni [*tovuq*] va [*xo‘roz*]; [*o‘g‘il*] va [*bola*] leksemalari misolida ham tushuntirish mumkin. Ushbu noto‘liq ziddiyatda turuvchi [*tovuq*], [*bola*] leksemalari betaraf munosabatda, [*xo‘roz*] va [*o‘g‘il*] leksemalari ijobiy, barqaror, o‘zgarmas munosabatda turadi.

Noto‘liq ziddiyat tilning barcha sathlarida mavjud. Masalan, morfologiyada leksemalarni umumiy grammatik ma’nolariga ko‘ra mustaqil va nomustaqlil leksemalarga bo‘lish privativlik asosida amalga

oshiriladi. Bunda “lug‘aviy ma’no ifodalay olmaslik” noto‘liq ziddiyatning belgisi bo‘lib, ziddiyatda mustaqil leksemalar belgilanmagan, kuchsiz a’zo bo‘lsa, nomustaql leksemalar belgili, kuchli a’zo sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki nomustaql leksemalar barqarorlik, o‘zgarmaslik belgilariga ega. Mustaqil leksemalar o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, ba’zan yordamchi leksemalar o‘rnida ham kela oladi. Bunga yarim ko‘makchilar (*Xonaning ichi qorong‘i edi* (mustaqil ma’noda) – *Hafta ichi serg‘alva o‘tdi* (yarim ko‘makchi); *To‘rtburchakning tomonlari teng bo‘ladi* (mustaqil ma’noda) – *Universitet tomon yo‘l oldim* (yarim ko‘makchi)), yarim bog‘lovchilar (*Sizga bir so‘z aytgani keldim* (mustaqil ma’noda) – *Botirali bir menga, bir o‘tirganlarga qaradi* (yarim bog‘lovchi)ni misol keltirish mumkin.

Darajali ziddiyat a’zolari kamida uchta til birligi orasida bo‘lib, bir belgining o‘sib borishiga ko‘ra a’zolar qator hosil qiladi. Darajali ziddiyat ham tilning barcha sathlarida uchraydi. Masalan,

fonetikada: unli fonemalar tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra ziddiyat hosil qiladi: [o]~[o‘]~[u];

leksikologiyada: ijobiy baho belgisining [*tuzuk*]dan [*ajoyib*]ga qarab yoki nutqiy faoliyat fe’lining [*shivirlash*]dan [*hayqirish*]ga qarab o‘sib borishi ziddiyat hosil qiladi: [*tuzuk*] ~ [*durst*]~ [*yaxshi*]~[*ajoyib*]; [*shivirla*]~ [*pichirla*]~ [*ayt*]~ [*gapir*]~ [*baqir*]~ [*hayqir*]; yoki salbiy baho belgisi: [*anqov*]~ [*merov*]~[*ovsar*]~[*kalvak*]~[*pandavaqi*], [*go‘l*]; [*kekkaygan*] ~ [*gerdaygan*] ~ [*kerilgan*] ~ [*dimog‘dor*] ~ [*kalondimog‘*] ~ [*kerik*] ~ [*manman*]~ [*takabbur*]

morfologiyada: [*harakat nomi*] ~ [*sifatdosh*] ~ [*ravishdosh*] (fe’lning o‘zgalash darajasiga ko‘ra belgisi asosida) kabi darajali ziddiyatlar hosil qilinadi.

Darajali ziddiyatlar muayyan tilning lug‘at boyligini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, darajali ziddiyatlar tilning lug‘at tizimida nihoyatda keng tarqalgan. Masalan, [*buzoq*]~[*g‘unajin*]~[*sigir*]; [*lahza*]~[*on*]~[*soniya*]~[*daqiqqa*]~[*soat*]~[*kun*]~[*sutka*]~[*hafta*]~[*oy*]~[*yil*] ~ [*asr*] ~[*era*].

Teng qiymatli ziddiyatda ikki a'zo o'ziga xos xususiyatiga ko'ra qarshilantiriladi. Masalan,

fonetikada: *jarangli va jarangsiz undoshlar; shovqinlilar va sonorlar; lablangan va lablanmagan unlilar;*

leksikologiyada: *oq va qora; men va sen; ona va ota; yaxshi va yomon; issiq va sovuq; kam va mo'l; past va baland; uzoq va yaqin; tor va keng; saxiy va baxil;*

frazeologiyada: *oq ko'ngil va yuragi qora; yerga ursang, ko'kka sapchiydigan va qo'y og'zidan cho'p olmagan;*

morfologiyada: *birlik va ko'plik, o'timlilik va o'timsizlik, bo'lishli va bo'lishsizlik, asliy va nisbiy (sifatlar);*

sintaksisda: *mustaqil va nomustaqlil (kesimlar); egali va egasiz (gaplar); vositali va vositasiz (to'ldiruvchi) kabi bir-biriga qarama-qarshi ma'noli birliklar teng qiymatli ziddiyatda turadi.*

Ziddiyatlar a'zolari miqdoriga ko'ra ikki a'zoli (binar) va uch (ko'p) a'zoli (ternar) ziddiyatlarga bo'linadi. Noto'liq teng qiymatli ziddiyatlar binar va darajali ziddiyat ternar ziddiyat deyiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Til birliklarining o'zaro munosabati deganda nimani tushunasiz?
2. Paradigmatik munosabatda til birliklari qay tarzda joylashadi?
3. Sintagmatik munosabat til birliklari uchun xosmi yoki nutq birliklari uchun?
4. Sintaktik aloqa nima? Uning sintagmatik munosabat bilan qay darajada bog'liqlik tomoni mavjud?
5. Iyerarxik munosabat nima? Misollar keltiring.
6. Iyerarxik munosabatda til birliklari qay tarzda bog'langan bo'ladi?
7. Sintagmatik munosabat til birliklarining qanday joylashuviga asoslanadi?
8. Noto'liq, darajali, teng qiymatli ziddiyatlarning bir-biridan farqli tomonlarini sanang.
9. Lisoniy ziddiyat turlariga tilning fonetik, leksik, morfologik sathlaridan misollar keltiring

10. Lisoniy ziddiyatlar barcha turlar uchun xosmi va ular qay darajada o‘rganilgan?

11. Ikki (binar) va uch (ko‘p, ternar) a’zoli ziddiyatlar atamasini izohlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [19; 22; 23; 27; 28; 30; 37; 46; 49; 56]

NUTQ KO‘RINISHLARI: OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ

Reja:

1. Uslubiyat –nutq ko‘rinishlarini o‘rganuvchi soha.
2. Og‘zaki va yozma nutqning vazifaviy uslublari.
- 3.Til imkoniyatlarining uslubiy ifodalarda namoyon bo‘lishi.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Nutq ko`rinishlari, uslub, uslubiyat, nutq madaniyati va uslubiyat, til vositalaridan foydalanish, adabiy til uslubi, ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, so‘zlashuv uslubi, badiiy uslub, fonetik uslubiyat, leksik uslubiyat, morfologik uslubiyat, sintaktik uslubiyat

Nutq ko‘rinishlarini o‘rganuvchi soha uslubiyat hisoblanadi. Uslub, uslubiyat so‘zлari – o‘zakdosh. **Uslub** arabcha so‘z bo‘lib, **tartib**, **sistema** demakdir. O‘zbek tilida bu so‘z ma’nosining qamrovi asliga nisbatan bir qadar kengroq bo‘lib, “*biror faoliyatni bajarishdagi, boshqarishdagi o‘ziga xos yo‘l*” yoki “*biror narsa yoki hodisa uchun xos bo‘lgan xususiyatlar*” kabi ma’nolari ham mavjud. Tilshunoslikda “uslub” atamasi zamirida tilning alohida ma’no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, sintaktik va frazeologik vositalari tushuniladi. Tilshunoslikning tildan foydalanish usullarini o‘rganuvchi tarmog‘i stilistika, ya’ni uslubiyat deb yuritiladi. Demak, uslubiyat tilshunoslik fanining alohida sathi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalaridan maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatları bilan tanishtiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin: “uslubiyat” atamasi tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi. U, avvalo, til vositalaridan nutqda o‘rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni anglatadi. Ayni zamonda til vositalarini nutqda tanlab ishlatish qonun-qoidalarini o‘rganadigan fanning nomini ham bildiradi.

Uslubiyat muomala madaniyati, nutq odobi – nutq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq.

Nutq madaniyati insoniyat umummadaniyatining bir qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Nutq jarayonida yuksak axloqiy me’yorlarga rioya qilish, ta’sirchan, chiroyli va o‘rinli so‘zlash, tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, bahs-munozara madaniyati, tildan nutqda e’tibor va ehtiyotkorlik bilan foydalanish shoirona so‘zlar bilan aytganda “har bir so‘zni yor tanlagandek” saylab ishlatish nutq madaniyatining asosini tashkil etadi. Uslubiyat bilan nutq madaniyati aynan bir narsa emas, ular bir-birini taqozo etuvchi, bir-birini to‘ldirib, yuksaltirib boradigan alohida-alohida hodisalardir.

Uslubiyatni o‘rganish tarixi sharqda, jumladan, O‘zbekistonda ham ancha qadimiydir. Uslubiyat garchi hozirgiday alohida soha sifatida shakllanmagan bo‘lsa ham, biroq tilshunoslik (sarfl, nahv, lug‘at), adabiyotshunoslik (ilmi bade’, sharh tafsir), shuningdek, ilmi insho, ilmi munozara, voizlik san’ati kabi fanlar tarkibida o‘rganib kelingan. Abu Mansur Saolibiyning «Muntaxab ul-ijoz vad a’joz» (XI asr), Abulqosim al-Lays Samarqandiyning “Risolat ul-istiorat” (XV asr), Xondamirning “Nomai nomiy” (XV asr), Mahmud Giloniyning “Manozirat ul-insho” (XV asr), Sodiq Jondoriyning “Kitob ul-insho” (XVIII asr) kabi asarlari stilistik tadqiqotlarga bag‘ishlagandir. Rus tilshunosligida uslubiyat XIX asr tilshunoslari A.A.Potebnya, Sh.Balli, K.Fossler, keyinchalik V.V.Vinogradov ishlarida o‘rganildi.

O‘tgan asrning elliginchi yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligida til uslubiyati bilan bog‘liq nomzodlik va doktorlik ishlari, o‘nlab ilmiy asarlar yuzaga keldi va uslubiyat fanining alohida soha sifatida rivojlanishiga turki bo‘ldi. Bu borada o‘zbek tilshunos olimlari A.G‘ulomov, Sh. Shoabdurahmonov, I.Qo‘chqortoyev, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov, Y.Tojiyev, E.Qilichevlarning xizmatlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Uslubiyat filologiyada adabiyotshunoslik va tilshunoslik o‘rtasidagi oraliq fan bo‘lib, fikrni, maqsadni har bir sohaning o‘z talablariga mos

ravishda til vositalari orqali aniq, ravon, ixcham va mukammal ifodalab berish san'atini o'rganadi.

Ijtimoiy hayotda shaxslar til vositalaridan turlicha foydalanadilar. Chunonchi, olimlar o‘z ilmiy asarlarida ilmiy atamalarni qo‘llasalar, yozuvchi yoki shoirlar badiiy asarlarda tasviriy-ta’siriy vositalarni ko‘proq ishlata dilar. Masalan: 1. *Na’matak – atirguldoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 1-1,5 metr, guli yirik, pushti, sariq, kishini o‘ziga jalb qiladigan butadir. Hozirgi kunda ekiladigan turfa atirgullarning ko‘pchiligi shu na’matakdan kelib chiqqan.*

2. *Nafis chayqaladi bir tup na’matak,
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko‘tarib bir savat oq gul,
Vigor-la o‘shshaygan qoya labida... (O.)*

Har ikkala matnda ham bir narsa haqida fikr yuritilgan. Birinchi matnda botanik olim na’matak o‘simpligi to‘g‘risida ilmiy izoh beradi – ta’riflaydi. Shoир esa nazmiy misralarda shu butaning rangli obrazini yaratadi, na’matakka ta’sirli, jozibali va shoirona tavsif beradi.

Yoki

3. «*Dunyoda kir qidiruvchi (hammadan, har narsadan ayb, nuqson, kamchilik topuvchi, maydakash) bo‘lsang, xudodan topasan!*» Ayovsiz, ammo aniq mantiq so‘zlashuv uslubiga xos.

Bu mantiqni ustoz Sadriddin Salim Buxoriy badiiy uslubda shunday ifodalaydi:

*Illat izlaganga illatdur dunyo,
G‘urbat izlaganga g‘urbatdur dunyo.
Kim neni izlasa, topar begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdur dunyo.*

4. «*Xalqiga xizmat qilmagan odam odam emas, hayvondir!*» Bu so‘zlashuv uslubida achchiq haqiqatning yalang‘och ifodasi, aslida.

Buni hazrat mir Alisher Navoiy ta’biri bilan badiiy uslubda aytasak:

*Odami ersang demagil odamiy,
Onikim yo‘q xalq g‘amidan g‘ami.*

Darhaqiqat, elning, yurtning bir kuniga, har koriga yaramasang, o‘zingni qanday qilib odamlar safiga qo‘sha olasan?!

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

Nutqimizda, ayniqsa, og`zaki nutqimizda (muloqot jarayonida) nafaqat so‘z, ibora yoki birikmalar, ya’ni lisoniy vositalargina emas, nolisoniy vosita(*ohang*, *sukut*, *imo-ishora* va b.)lar ham asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, birgina ohangning o‘zi ham, ko‘z qarash yoki ko‘z qirini tashlashning o‘ziyoq yangi bir mazmun, yangi bir fikr yoki munosabatni ifodalaydi. Zero, ma’lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish uchun til tizimida mavjud bo`lgan bir necha teng qiymatli hodisalardan aynan “bittasi yoki bir nechtasi” qo’llanilgani ko`p hollarda nolisoniy omillar – nutq sharoiti, vositasi, muloqot jarayoni, so`zlovchi hamda tinglovchining kontakt va distant vaziyati, ruhiy holati, bir-biriga munosabati, milliy-madaniy, yosh, jins kabi xususiyatlar bilan bog`liq. Struktur tilshunoslik bularning barchasini nolisoniy omillar sifatida baholab, tilshunoslikdan “chetga” chiqarib qo`yardi. Bunday hodisalar “nolisoniy” (ekstralingvistik, paralingvistik...) sifatida nolingvistik baholanishining o‘ziyoq, tabiiy ravishda, tilshunoslarning diqqatini o`ziga jalb etmagan, fanimizda bu vositalarga yetarli e’tibor berilmagan. Vaholanki, ko`p hollarda kommunikatsiya jarayonida, amaliy faoliyatda – samara-ta’sirchanlik nuqtayi nazaridan – bunday tilshunoslikka aloqador bo`lmagan vosita/hodisalar tilning o`z hodisalari – nutqiy birliklardan ko`ra ko`proq ahamiyat va qiymat kasb etadi.

Shunday nolisoniy hodisalardan biri *ohang*dir. Tilshunos olim Hasanboy Jamolxonov: “Ohang og`zaki nutqning majburiy fonetik komponentidir, usiz gap yoki nutq shakllanmaydi va ifodalanmaydi”, deb yozadi¹⁷. Nutqimizda mazkur fikrni dalillovchi misollarga har kuni har qadamda duch kelamiz. Masalan, mashhur latifani eslaylik: Afandi boy, biroq o‘ta xasis qo‘shnisidan jahllanib unga: ”*Siz ahmoq, odam emmassiz!*” deydi qat’iy ohangda. Tabiiyki, xasis boy Afandini qoziga sudraydi.

¹⁷ Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Т.: Фан, 2009.

Qozining talabiga ko‘ra Afandi deganiga ”iqror” bo‘lib aytgan gapini oddiygina qilib, hayajonsiz ohangda takrorlaydi: ”*Siz, ahmoq odam emassiz*”. Gap talaffuzida to‘xtamning “siz”dan keyin berilishi, tabiiyki, gap mazmunini butkul o‘zgartirib yuboradi...

Yana bir misol. Keyingi 4-5 yilda oziq-ovqat do‘konlarimizda maxsus qog‘oz qutilarda “tabiiy sut”lar ko‘payib qoldi. (Saqlanish muddati naq bir yil. Xayriyatki, sigirlarning savodi yo‘q. Bo‘lmasa, ular bu “tabiiylik”dan yoqa tutib, sut bermay qo‘yishlari hech gap emas edi...) Sutqutilarning yuzida yozilgan reklamalarni ikki xil ohangda o‘qib ko‘ramiz: *Tabiiy, quruq sut qo‘silmagan.– Tabiiy quruq, sut qo‘silmagan.* (1-gap mubolag‘a qiladi, 2-gap esa “haqiqat”ni so‘zlaydi.)

Yana bir misol. *Nafisa, opam keldi* (so‘zlovchi Nafisaga opasi kelganligini bildiryapti) – *Nafisa opam keldi* (so‘zlovchi (noma’lum tinglovchiga) Nafisa ismli opasi kelganligini bildiryapti).– *Nafisa, opam keldi.*(so‘zlovchi (sanash ohangidan foydalanib) Nafisa va opasi kelganligini bildiryapti).

Yana bir misol. *Mani yorim gul andom* (“*Mening yorim gul yuzli*” degan mazmunni uqamiz ”*gul andom*”ning bo‘lib aytilishidan)–*Mani yorim Gulandom* (“*Yorimning ismi Gulandom*” degan axborot yetib keladi qulog‘imzga). Keltirgan misollarimiz tilimizning ifoda imkoniyatlari nihoyatda keng va rang-barangligidan dalolat beradi¹⁸. Zero, millatning o‘zligini, dunyoda borligini, o‘ziga xosligini belgilovchi omillardan asosiysi uning ona tilidir.

Sukut ham nutqiy muloqot jarayonining muhim nolisoniy vositalaridan biridir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”¹⁹da **sukut** arabcha so‘z sifatida talqin etiladi va jumjilik, gapirmaslik, kamgaplik ma’nolarini ifodalashi aytiladi. Bu so‘z tilimizga arab tilidan kirgan *sukun*, *sukunat* va o‘zbek tilidagi *sukunatli* yasama so`zi bilan asosdosh bo`lib, u nutqiy muloqot jarayonida o‘ziga xos pragmatik qiymatga ega lingvomadaniy

¹⁸ Cho`lliyeva G.T. Ohang nutqiy muloqotning tarkibiy qismi sifatida// BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).– Buxoro, 2020, № 5 (75).

¹⁹ www.ziyouz.com/kutubxonasi Ўзбек тилининг изоҳли лугати/. «С» ҳарфи.–585-6.

xususiyatlarni ifoda etadi. Andijonlik olim Ma'murjon Saidxonovning "Aloqa-arahashuv va imo-ishoralar" kitobida (T.:Fan,2008) sukutni "muomalaviy mazmunga ega" va "muomalaviy mazmunga ega bo`lman" turlarga ajratadi. Kuzatilishicha, "muomalaviy mazmunga ega" sukut nutqiy muloqot jarayonida ellikka yaqin ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Chunonchi,

isyon ma'nosи: *Qizcha bolalarga xos qaysarlik bilan boshini eggancha jim turar, uning sukutida, butun xatti-harakatida nimagadir qarshi so`zsiz isyon bor edi.* (Mirmuhsin, Umid)

tushunmaslik ma'nosи: *Sukut saqlamoq hamma vaqt ham aqlilikdan darak beravermaydi, ammo bilganingni shaqillab gapira berish-o`z obro`yingni paqirlab to`kish demak.* (Mirmuhsin, Umid)

"indamasdan indash" ma'nosи:

Dardim eshitib, etsa sukut dildorim,

Shul jimligi menga ming javobdir, javob. (J.Rumi) va b.

Sukutning "muomalaviy mazmunga ega bo`lman" turiga muloqot jarayonidan tashqaridagi holatlar (masalan, *Dunyoda shunday qo`sinq borki, yangraganda butun olam sukutga cho`madi* kabi) misol bo`la oladi.

Xalq maqollarida, turli hikmat-u aforizmlarda quyidagilarni o`qiymiz: *Aqlning go`zalligi – fikr bilan, Ruhning go`zalligi – shukur bilan, Tilning go`zalligi – sukut bilan, Qalbning go`zalligi – zikr bilan* (Maqol); *Ahmoqqa javob – sukut* (Maqol); *Sukut–donishmandlikning boshlanishi* (Maqol); ...*iymon keltirgan kishi yaxshi so`zlarni so`zlasin yoki sukut saqlasin!* (Qur'oni Karimdan); *Kim sukut saqlasa, najot topadi.*(Hadisdan) va b.

Demak, azal-azaldan xalqimiz sukutni donishmandlik, aqlilik, iymonlilik, til go`zalligi sifatida e'tirof etgan. Biroq nutqiy muloqot jarayonida sukut hamisha ham ijobjiy xarakter kasb etavermaydi. Masalan, *Siz sukut saqlasangiz, dunyo ham sizga sukut saqlaydi.*(Aforizm); Mozor uzra sukut etarlar...(A.Oripov) "Sen nega jimsan?" ma'nosida; Sukut o`ldiradi (Maqol) va h.

Zero, sukut ham nutqiy muloqot – og`zaki nutqning (nolisoniy) nutqiy komponentidir²⁰.

Demak, adabiy tilda bir-biridan farq qiladigan uslublar mavjud. Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma'lum bir sohasida qo'llanadigan ko'rinishi adabiy til uslubi deyiladi. Uslublar tilning asosiy vazifalari (kommunikativ, ekspressiv)ga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi. Shunga ko'ra, ular vazifaviy uslublar deb ham yuritiladi. Ya'ni nutq uslublari til ifoda vositalarining maqsadga muvofiq uyushgan sistemasidir.

Tilshunoslikda nutq uslublarining besh ko'rinishi mavjudligi va bu uslublarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi qayd etiladi. Bular quyidagilar: ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, so'zlashuv uslubi, badiiy uslub.



Fan-texnika, san'atning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar, ilmiy-texnik xabarlar, maqolalar, tezislар ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (qoidalar, ta'riflar, aksiomalarga) boy bo'lishi bilan boshqa nutq uslublaridan farqlanadi.

Ilmiy uslubdagi nutq monologik xarakterga ega bo'lib, unda obrazlar, obrazli tasvirlar, ko'chma ma'noli so'zlar, majoz, bo'yoqdor so'zlar, iboralar deyarli uchramaydi. Bu uslubga mantiqiy fikrlash, abstraksiya, analiz, sintez, tushunchalarga mos keladigan atamalar bilan ish ko'rish - xos xususiyatlardir. Shuning uchun u o'rganuvchining his-tuyg'ulariga emas, ongiga, tafakkur –shuuriga ta'sir etadi. Ilmiy uslubda har bir fanning

²⁰ Yuldasheva D.N. Sukut nutqiy muloqotning (nolisoniy) komponenti sifatida// BuxDU ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2020, № 6 (75).

o‘ziga xos ilmiy terminlaridan foydalanadi. Masalan, tilshunoslikda *morfologiya*, *sintaksis*, *fe'l*, *tuslanish*, *kesim*, *giponimiya* kabi atamalar; matematikada *teorema*, *tenglama*, *kosinus*, *sinus*, *parallelopiped*, *gipotenuza* kabi atamalar; meditsinada *analgin*, *adeopen*, *glyukoza*, *validol*, *baralgin*, *glitserin* kabi atamalar ishlatiladi.

Ilmiy uslubda so‘zlar, odatda, o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan izoh bo‘laklar, kirish so‘z, kirish birikma va kirish gaplar, shuningdek, ergashgan qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalaniladi. Gaplarning kesimi, odatda, aniq yoki majhul nisbatdagi fe’llar bilan ifodalanadi; moslashuvli birikmalar deyarli hamma vaqt belgisiz (gap bo‘lagi, unlilar tasnifi, so‘z o‘zagi kabi): sonlar raqamlar bilan; birinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi (men) ko‘plik shaklida (biz) beriladi. Ilmiy uslubda gap bo‘laklari tartibida inversiya uchramaydi. Ilmiy uslubga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar deyarli barcha tillarga, jumladan, rus, ingliz, nemis, fransuz va h.larga ham tegishlidir.

Hukumat idoralari tomonidan chiqarilgan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar, ariza, ~~tilxat~~, ma’lumotnama, shartnama, chaqiruv qog‘ozi, taklifnama, tavsifnama, e’lon, tarjimayi hol, hisobot kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Bu uslubdagi nutq boshqa uslublarga qaraganda ancha siqiq va chegaralangandir. Masalan,

TAKLIFNOMA

Hurmatli Sayfullayeva Ra’no Raupovna!

Sizni 2020-yil 8-9-fevral kunlari hazrat Mir Alisher Navoiy tavalludining 579 yilligiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan «Hazrat Navoiyga ehtirom» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga taklif etamiz.

Anjumanning yalpi yig‘ilishi 2020-yil 8-fevral soat 9.30da
BuxDUNing bosh yig‘ingohida boshlanadi.

*Anjuman ishtirokchilari 8-fevral soat 8.30dan 9.30ga qadar
BuxDUNing bosh binosi(1-qavati)da ro‘yxatga olinadi.*

Rasmiy-idoraviy uslubning ham o‘ziga xos lug‘aviy va grammatic xususiyatlari mavjud: so‘zlar o‘z ma’nosida ishlatiladi, qisqartma so‘zlardan, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi.

Chunonchi, sud jarayoni bilan bog‘liq ish qog‘ozlarida *jinoyat, hukm, qonun, ...-modda* kabi; universitet ish qog‘ozlarida *rektorat, dekanat, kafedra, dotsent, fan doktori, professor* kabi so‘z va birikmalar ishlataladi.

Bu uslubda darak va buyruq gaplardan foydalanilib, gap bo‘laklarining odatdagি tartibiga rioya qilinadi.

Publitsistik uslub davriy matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, ommaviy-siyosiy mavzudagi ma’ruzalar uslubidir. Bu uslubdan targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda keng foydalaniladi. Odatda, gazetalarning bosh maqolalari publitsistik xarakterda bo‘lib, ularda kundalik turmushdagi tarbiyaviy, iqtisodiy va siyosiy masalalar yoritiladi. Publitsistik nutqda ta’sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan, ritorik so‘roq gaplardan, takror, murojaat, undov, yoyiq undalmalar, chaqiriqlardan foydalaniladi. Publitsistik uslubda *qurultoy, anjuman, deputat, kengash, hukumat rahbarlari, davlat* kabi ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Gap bo‘laklari, ko‘pincha, odatdagи tartibda bo‘ladi, gap kesimlari buyruq va xabar maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi.

So‘zlashuv uslubi uchun xos bo‘lgan eng asosiy xususiyat bu uslubda adabiy til me’yorlariga rioya qilinishi va nutqning dialogik xarakterda ekanligidir. Bu uslub uchun xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilar:

- 1) uslubiy bo‘yoqdir so‘zlardan foydalaniladi: *do‘ndiq, vaysamoq, bashara* kabi;
- 2) nutq jarayonida tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi kuzatiladi: *matbachi (matbaachi), mazza (maza), haqqi (haqi)* kabi;
- 3) izohlovchilardan ko‘proq foydalaniladi: *Salima opa, Toshpo ‘lat do ‘xtir* kabi;
- 4) iboralar, maqol, matal, hikmatli so‘zlar ko‘p uchraydi: *jonim chiqdi, boshi ochiq, ...* kabi;
- 5) so‘zlar tarkibidagi unli, undoshlarni cho‘zish: *ka-a-atta, huv-v-v* kabi;
- 6) gap bo‘laklarining tartibi erkin bo‘ladi, to‘liqsiz gaplardan, undalmali gaplardan foydalaniladi.

Nasriy, nazmiy va sahna uchun mo‘ljallangan dramatik asarlar badiiy uslubda bo‘ladi. Badiiy asarlar kishiga ma’lumot berishi bilan birga obrazlar vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi. Badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi, chunki bu uslubda yozuvchi tilda mavjud bo‘lgan vositalarning hammasidan foydalana oladi. Hatto tasvirlana **yotgan** davrning ruhini yoki nutq momentida asar qahramonining holatini tasvirlash uchun eskirgan so‘zlar, vulgarizmlar, shevaga xos so‘zlardan ham foydalanishi mumkin.

Barcha nutq uslublari o‘zaro aloqador bo‘lib, bir uslubda boshqa nutq uslublarining ko‘rsatkichlari ham uchraydi. Ayni zamonda har bir uslub o‘ziga xos fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarga ega.

So‘zlashuv uslubida hamda badiiy uslubda fonetik vositalardan ko‘proq foydalaniladi. Fonetik vositalar deganda ba’zi nutq tovushlari, urg‘u, ohang va ularning nutqiy ta’sirchanligi tushuniladi.

So‘zdagi unlilarning cho‘zib talaffuz qilinishi ajablanish, ta’kid, kuchaytirish, hayajon, olqish, erkalash, yalinish kabi konnotativ ma’nolarni ifodalaydi. Chunonchi, *Qorako ‘z opaaa, sizga xaaat! Katta konvertda xaaat!!!* (N.Qobul) Undoshlarni ikkilantirish kuchli hayajonni, qo‘rquv yoki nutqiy kamchilikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *Bbbo ‘la qoling, ssovqotib ketdim-ku!* (M.Ismoiliy)

Leksik uslubiyat deganda denotativ va konnotativ ma’noli so‘zlardan, ko‘chma ma’noli so‘zlardan, so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari (omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, partonim...)dan, chegaralangan qatlAMDagi so‘zlar (eskirgan so‘zlar, jargon, argo, dialektizmlar, vulgarizmlar...)dan, evfemizmlardan, iboralardan nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri foydalana olish usullari tushuniladi.

Funktional-uslubiy bo‘yoqqa ham, hissiy-ta’sirchan bo‘yoqqa ham ega bo‘lgan grammatik shakllarning barchasi morfologik uslubiyatning o‘rganish obyektini tashkil etadi.

Sintaksisning ham o‘ziga xos uslubiy imkoniyatlari mavjud. Nutq uslublariga xos turli sintaktik vositalar, so‘z birikmalari va gaplardagi

sinonimiya, polisemiya, omonimiya hodisasi, so‘z tartibi, ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko‘ra gap turlarining nutqda ishlatalishi, ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarning uslubiy xususiyatlari va boshqalar sintaktik uslubiyatning asosini tashkil etadi. Sintaktik konstruksiyalarning uslubiy bo‘yog‘i shu konstruksiyalarda ifodalangan so‘zlar, shaxs-son, kelishik, modallik va so‘z tartibi kabi grammatik ma’nolar bilan bevosita bog‘lanadi. Chunki tovushlar va qo‘shimchalar, lug‘atning hamma qatlami faqat jumlada ma’lum bir mazmun ifodalaydi. Har bir so‘z va grammatik shaklning mazmuni hamda ijtimoiy qimmati gap ichida ravshanlashadi. Chunonchi,

*Navdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar,
Olib ketdi gulning totini... (H.Olimjon.)*

Ushbu she’riy misralardagi hamma so‘zlar badiylikka, go‘zallikka, zavq-shavqqa xizmat qilgan. Deyarli barcha so‘zlar ma’no jihatidan ko‘chgan. Ayniqsa, salbiy bo‘yoqli **qurg‘ur** so‘ziga ijobiy tus berilgan.

Dunyo tillarining deyarli barchasida so‘zlashuv, badiiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik, ilmiy uslub mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy hayotda, o‘zaro munosabatlarda, nutqning og‘zaki va yozma ko‘rinishlarida til imkoniyatlaridan me’yoriy foydalanishni ta’minlaydi.

Biroq til imkoniyatlari har bir tilda o‘sha tilning tabiatini, qonun-qoidalariga bo‘ysungan holda turlicha bo‘lib, ular o‘ziga xos uslubiy vazifalarni bajaradi. Har bir tilning o‘ziga xos bo‘lgan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalarini bilish, ularning har qaysisidan o‘z o‘rnida ustalik bilan foydalana olish muhimdir. Ma’lum bir nutq uslubiga mansub bo‘lgan jihatlarni boshqa uslubda asossiz (noto‘g‘ri) qo‘llash nutqiy g‘alizlikni keltirib chiqaradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1.Tilshunoslikdagi “uslub”, “uslubiyat” atamalari ifodalagan ma’nolarni tushuntiring.
- 2.Uslubiyatning o‘rganilish tarixi haqida ma’lumot bering.

3. “Uslubiyat adabiyotshunoslik bilan tilshunoslik o‘rtasidagi oraliq fan” ekanligini isbotlashga urining.
4. Nutqning vazifaviy uslublarini sanab bering. “*Yuragi hapriqib ketdi*” gapini turli uslublarda ifodalang.
5. Ilmiy uslubning rasmiy–idoraviy uslubdan farqli tomonlarini va o‘xhash jihatlarini aytib bering.
6. So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
7. Aralash uslub haqida ma’lumot bering.
8. Publitsistik uslubga xos nutq ko‘rinishlaridan birini tanlang (istalgan gazeta yoki jurnaldan foydalanishingiz mumkin) va uni uslubiyat nuqtayi nazaridan tahlil qiling.
9. Fonetik uslubiyat haqida ma’lumot bering.
10. Leksik uslubiyat deganda nimani tushunasiz?
11. Morfologik va sintaktik uslubiyatning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot bering.
12. Nutqning vazifaviy uslublari faqat o‘zbek tili uchun xosmi?
13. O‘zbek va rus tillaridagi ilmiy uslubni taqqoslashga harakat qiling.
14. Nutq uslublariga rioya qilmaslik nutqiy g‘alizlikni keltirib chiqarishini misollar asosida dalillang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [18; 19; 24; 27; 28; 62; 66; 67; 68]

TIL – RAMZLAR TIZIMI

Reja:

1. Ramz tushunchasi haqida.
2. Tilning semiotik munosabati.
3. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Ramz, ramzning tabiat, ramzning muhim jihatlari, semiotika, semiotik munosabat, til va ramz

Qomusiy adabiyotlarda **ramz** (ruscha – *знак*, inglizcha – *signe*, nemischa – *zeichen*) tushunchasiga turlicha tavsif beriladi:

1.Ramz (*знак*) – moddiy material sifatida qabul qilinadigan predmet (hodisa, ko`rinish) bo`lib, hissiy bilish jarayonida va odamlar orasidagi munosabatlarda biror bir predmet yoki predmetning muayyan xususiyati, munosabatini ifodalash hamda axborot saqlash va uning ma`lum bir komponentini uzatish uchun xizmat qiladi²¹.

2. Ramz (*знак*) – boshqa bir predmetning, belgi yoki munosabatining vakili sifatida namoyon bo`luvchi va axborot (informatsiya, bilim)ga ega bo`lish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun ishlatiladigan moddiy predmet (hodisa)²².

3. Ramz (*знак*) – boshqa bir narsa, voqeа-hodisa, harakatni atash, ifodalash, undan xabar berishga xizmat etuvchi va bevosita kuzatishda berilgan (sezgi organlariga ta`sir etadigan) moddiylik²³.

Odatda, nutqda *ramz*, *ishora*, *belgi* va *timsol* (*simvol*) tushunchalari ma’nodosh sifatida ishlatiladi. Ammo ular orasida ma’lum farqlar mavjud. *Belgi*, asosan, predmetning ma`lum bir xususiyati, muhim, ajralib turuvchi sifati bo`lsa, *timsol* muayyan bir g`oyaning, ideal hodisaning moddiylashtirilgan ifodasi, narsaning o`zi emas, balki uni eslatib turuvchi, ko`z oldimizda gavdalantiruvchi moddiylik ma’nosiga ega bo`lib, unda ko`pincha ko`tarinkilik, tantanavorlik bo`yog`i, qo`shimcha ma’nosi hisoblanadi: *Kabutar – tinchlik timsoli*. *Humo qushi – baxt timsoli*. *Burgut-mag`rurlik, ozodlik timsoli*. *Oq bayroq-sulh timsoli* kabi. *Ramz* esa biror bir predmetning voqeа-hodisa yoki xususiyatiga ishora qiluvchi, anglatuvchi, uning o`rnida kela oluvchi, uni muloqot jarayonida almashtira oluvchi, moddiylik bo`lib, *timsol* atamasiga xos bo`lgan bo`yoqlardan xolidir²⁴.

Ramz muayyan bir mazmunni, g`oyani boshqalarga yetkazish vazifasini bajaradi. Chunonchi, yo`l chetidagi qoshiq va sanchqi (yoxud shunga o`xhash) tasviri yaqin yerda oshxonada, tamaddi qilish imkoniyati mavjud joyni bildiradi. Demak, qoshiq va sanchqi tasviri oshxonada ramzidir.

²¹Философская энциклопедия. I. II. –М., 1962.

²² SES.–М.,1981.

²³ Философский словарь.Под ред. М.М.Розенталя, П.Ф.Юдина.– М.:ИПЛ. 1968. –С.120.

²⁴ Ne'matov H. Til ramziy tizim sifatida.–Buxoro, 2002.–3-б.

Ramz uchun umumiyligi ontologik (tabiiy, zotiy) xususiyat sezuvchiga o`zi haqida emas, boshqa bir narsa haqida axborot berishdir. Demak, ramzning asosiy xususiyati uning o`zi sezilib (ko`rilib, eshitilib, tuyilib v.h.) turib boshqa narsa haqida ma'lumot berishi hisoblanadi. Ramzning ikki tomoni bor: a) moddiy (material), tashqi, zohiriyligini ifodalovchi tomoni va b) ma'noviy (mazmuniy, ideal), ichki, botiniy tomoni.

Shuningdek, ramzlar tabiiy yoki sun'iy bo`lishi mumkin. Yo`tal, odatda, tumov va shamollashning belgisi (simptom). Bu –tabiiy, biologik ramz. Yo`talni shartli ijtimoiy (konvensional) ramzga aylantirish mumkin. Masalan, ikki kishi (Javohirjon va Biloljon) o`zaro kelishib, shartlashmoqda. Biloljon:

–Quyosh botishi bilan boraman.

– Xonamga kirayotganda, yoningda hech kim bo`lmasa, uch marta yo`talib kir. Sen ekanligingni bilaman va o'rnimdan turaman.

Bu holatda kasallikning tabiiy ramz-belgisi bo`lgan yo`tal tamoman boshqa – ma'lum bir kishilar uchun sun'iy ijtimoiy vazifada qo'llanilmoqda. Istagan sun'iy ijtimoiy ramz ma'lum bir jamiyatdagina (yuqoridagi misolda ikki o`zaro shartlashgan kishi orasida) va faqat boshqa bir ramz bilan bog`lanib (boshqa bir ramz bilan oppozitiv bo`lib) butunlik – sistema tuzgandagina belgilangan bir vazifani bajara va yashay oladi. Sun'iy ijtimoiy ramzlarning yashash tarzi ma'lum bir butunliklarda, sistemalarda birlashishidir. Bunday sistemalar **ramziy sistemalar** yoki **semiotika** deb ataladi.

Istalgan narsa yoki harakat ma'lum bir ramziy tizimda sun'iy ijtimoiy ramz sifatida istalgan turdagini voqe-a-hodisa, g`oyaning darakchisi, xabarchisi sifatida voqelanishi mumkin. Bu esa jamiyat uchun juda ulkan va qulay imkoniyatlari yaratib beradi – bitta oddiygina ramz juda katta miqdordagi axborotni hech qanday ziddiyatsiz mujassamlashtirish – kodlashtirish, turli-tuman shakllarda unga ishlov berish, saqlash, uzatish, qabul qilishga yo`l ochadi. Jamiyatimizda bu masalalar bilan shug`ullanuvchi va ommaviy yutug`i zamonaviy kompyuterlar bo`lgan

maxsus fan *semiotika fani* mavjud. Bizga yaqin ko`makdosh bo`lgan informatika fani mana shu semiotikaning bir tarmog`idir.

Semiotika (*semiologiya* yunoncha *sema – ramz* so`zidan olingan) ramzlarni va ramziy sistemalar xususiyatini o`rgatuvchi maxsus fandir. Semiotika barcha fanlarga aloqador – ham ulardan oziqlanadigan, ham ularni oziqlantiruvchi fan hisoblanadi. Zeroki, barcha fanlar, hayotimizning barcha jabhalari hamisha ramzlar bilan ish ko`radi. Hayotimizdagи barcha jabhalarning, barcha fanlarning ramziy tizimlarining, ramzlarining o`z xususiyatlari bor. Semiotika ramzlarning, ramziy tizim (sistemalar)ning umumiy qonuniyatlarini o`rganuvchi va o`rgatuvchi fandir. Shu bois uning boshqa fanlar bilan bog`lanishi ikki tomonlamadir – ham oziqlanadi, hamda oziqlantiradi.

Semiotika asoschisi amerikalik faylasuf, matematik va mantiqshunos Charlz Pirs (1839-1914) sanaladi. Mustaqil fan sifatida bizda u XX asrning 60-yillaridan keyin shakllandı. Kundalik hayot va faoliyatimizda har kuni, har soatda biz xilma-xil ramziy tizimlardan foydalanamiz. Yozuv va harflar, yo`l harakati qoidalari va ramzları (belgilari), dars jadvali, turli xil qo`ng`iroq, gudok, muassasa va binolardagi lavha va shiorlar, transport vositalaridagi yozuv va raqamlar...

Tilimiz ham ramziy sistema bo`lib, shu tizim qonuniyatları asosida yashaydi, ishlaydi va rivojlanadi. Shu sababli tilni o`rganuvchi fan-tilshunoslikni shved olimi Ferdinand de Sossyur semiotikaning bir tarmog`i deb tasniflagan edi.

«*Til – g`oyalarni ifodalovchi ramzlar sistemasi, nutqiy qobiliyatning ijtimoiy mahsuli, ijtimoiy jamoa tomonidan hosil qilingan zaruriy ramzlar (imkoniyatlar) majmuyidir*», degan edi Ferdinand de Sossyur²⁵. Haqiqatan ham, mohiyatga e'tibor qaratilsa, tabiiy til o`zining xususiyatlari bilan ramzlar tizimini eslatadi. Chunonchi, voqelikdagi bitta predmetni, masalan, har kim va har kun foydalanadigan suyuqlik *suv* so`zini olamiz. O`zbek bu suyuqlikni *suv* deb, tojik *ob* deb, rus *voda* deb, arab *mo`* deb, ingliz *water* deb ataydi. Nega bir xil suyuqlikni besh xalq

²⁵ Ф.де Соссюр. Труды по языкоznанию. Курс общий лингвистики. –М.: Прогресс. 1977. –С. 99-100.

besh xil nomlaydi? Buning sababi shundaki, narsaning nomi bilan shu narsaning o`zi (ilmiy atamalar bilan aytganda atalmishi, denotati, borliqdagi muqobili) o`zaro ramziy, shartli bog`langan; nom bilan narsaning o`zi orasida hech qanday tabiiy-ontologik bog`lanish yo`q. Aks holda, bir denotatning nomi turli tillarda bir xil bo`lardi²⁶.

Til har bir jamiyat uchun “azaldan tayyor” qabul qilinishi umumiyligi va majburiy bo`lgan, avlodlar merosi hisoblanadi. Jamiyat a’zolari tilning qanday paydo bo‘lganini, uni kim yaratganini-yu, kim tuzgani, undagi ramzlarni kim hosil qilganini (ya’ni, predmetlarni muayyan bir nomlar bilan kim ilk marta atagani v.h.) kabi masalalar bilan, tabiiyki, qiziqmaydi. Kundalik hayotimizda, jamoadoshlarimizga: “Nega bu predmetning nomi shunday (masalan, *kitob*)?” degan savolni hech kim bermaydi. Jamiyat a’zolari tilni “qanday bo‘lsa, shundayligicha” qabul qilib ko‘nikishgan. Ular ramzlarning ichki xususiyati, tarixi v.h. kabilarga qiziqishga yoki bir ramz o‘rnida boshqa ramzni qo‘llashga ehtiyoj sezmaydilar. Hatto o‘zgartirmoqchi bo‘lsalar ham, o‘zgartira olmaydilar: til alohida kimsalarning farmoni va xohishuga bo‘ysunmaydi.

Tilning qurilish (struktur) birlklari bo‘lmish fonema, morfema, leksema va qoliplar (qurilmalar chizmalari)dan fonemadan tashqari barchasi ramz tabiatiga ega. Masalan, *-lar* unsurining tashqi – darakchi tomoni tilda ma’lum fonemalarning (yozuvda harf va takaffuzda tovushlarning) barqaror butunligi bo‘lsa, uning ichki – xabar tomoni o‘zbek tili uchun xos bo‘lgan son kategoriyasining ko‘plik shakli uchun xos bo‘lgan ma’nolarni ifodalash va vazifalarni bajarishdir. *-lar* unsurida bu ikki tomonning bog‘lanishi zotiy yoki tabiiy emas; jamiyatdan biz bu bog‘lanishni tayyor holda qabul qildik (bizni shunga o‘rgatdilar) va unga rioya qlamiz. Demak, bu unsurda tomonlarning bog‘lanishi shartli, konvensionaldir va *-lar* ramz mohiyatida ega.

Leksemaning ramziy tabiatini yuqorida ko‘rib o‘tilgan *suv* so‘zi misolida ko‘rsatildi. Qoliplar (qurilmalar) esa tilda morfema va leksemalar

²⁶ Ne’matov H. Til ramziy tizim sifatida.–Buxoro, 2002.–21-b.

asosida tuziladi va qurilish materiali ramziy tabiatga molik bo‘lgach, qurilmalar ham shunday mohiyatga ega bo‘lishi shart.

Tilning struktur (qurilish) birliklaridan fonemaning ramziy mohiyati tilshunoslikda munozaralidir, chunki fonemlar tilning bir timonli – faqat moddiy tomonli birliklari bo‘lib fonemalar ichki tomon (ma’no va mazmun) bilan bevosita bog‘lanmagan. Shu asosda uni ko‘pgina olimlar ramz deb hisoblamaydilar. Lekin fonemalarda ma’no farqlash vazifasi bo‘lganligi sababli ayrim tilshunoslar ularni ham ramz deb sanash lozim degan fikrni ilgari suradilar – ramziy tizimda hej bir narsa ramziylikdan xoli bo‘lmasligi kerak.

Inson insoniyligining muhim belgilaridan biri bo‘lgan til mohiyat va qurilish jihatidan ramziy tizim. Lekin u boshqa ramziy tizimldan keskin farqlanadi. O‘tgan asrning bosh va o‘rtalarida (F.de Sossur va ilk strukturalizm davrida) tilning ramziy tizim ekanligiga alohida urg‘u berilar edi. Hozir esa tilning boshqa ramziy tizimlardan farqiga urg‘u berish asridir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tabiiy til barcha ramziy tizimlardan ustun, chunki u istalgan sun`iy ramziy tizimni almashtira olishi, o‘rnini bosishi mumkin. Aslida, barcha ramziy tizimlar lisoniy tizim asosida yaratiladi, ularning asosida tabiiy til yotadi. Ramziy tizimlarrni birlamchi-ikkulamchilik asosisida tasnif etishda til birlamchi - qolgan barcha sun`iy ramziy tizimlar uchun asos ularni almashtira oladigan sifada tasnif etiladi, Ikkilamchi ramziy tizimlar qulaylik uchun sof pragmatik maqsadlarni ko‘zlab tuziladi.

Til o`z-o`zidan rivojlanish, o`zgarish, ta’sirga berilish, jamiyat talablari asosida yangilanish, biologik organik sistemalar singari ehtiyojlarga moslashish, zaruriyatni qondirish, eksiklik(yetishmaydigani)ni to`ldirish xususiyatlariga ega, boshqa ramziy tizimlarda esa muqimlik, ular faqat tabiiy til asosida, ya’ni inson ongi va faoliyati orqali yangilanishi, o`zgarishi, rivojlanishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1.Ramz atamasini qanday izohlagan bo`lardingiz?
2. Ramzning sinonimlari bilan o`xshash va farqli tomonlari nimada?

- 3 . «Ramz-kelishilgan, ijtimoiy hodisa» deganda nimani tushunasiz?
- 4 . O`zingiz shartli (kelishilgan) ramz hosil qilishga harakat qiling .
- 5 . Ramziy tizim nima?
- 6 . Semiotika nima va uning qanday ahamiyati bor?
7. Tilni ramziy tizim sifatida tavsiflab bering.
- 8.Tilga ramziy sistema sifatida yondashgan olimlar (Sossyur va b.lar) qarashlarini tahlil qiling.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [18; 19; 24; 27; 28; 62; 66; 67; 68]

TILSHUNOSLIK FANI BO‘LIMLARI. FONETIKA

Reja:

1. Tilshunoslik fani bo‘limlari haqida.
2. Fonetikaning o‘rganish manbayi haqida.
3. Nutqning fonetik jihatdan bo‘linishi.
4. Bo‘g‘in haqida ma’lumot.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Til sathlari, fonetika, umumiylar xususiy fonetika, qiyosiy va eksperimental fonetika, jumla (fraza), takt, bo‘g‘in, enklitika, proklitika, diftong, ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in, berkitilgan - yopiq bo‘g‘in, tovush.

XX asrda til fanining quyidagi bo`limlari tadqiq etildi:

1. Fonologiya. Fonetika.
2. Semasiologiya. Leksikologiya.
3. Leksikografiya.
4. Derivatsiya.
5. Grammatika (morfologiya va sintaksis).
6. Punktuatsiya.
7. Dialektologiya.
9. Uslubiyat.
10. Til tarixi.
11. Orfografiya.
12. Orfoepiya.
13. Etimologiya.
14. Frazeologiya.
15. Grafika.

XX asr oxiri va XXI asrning birinchi choragida esa quyidagi sohalar bo`yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda:

1. Sotsiolingvistika.
2. Psixolingvistika.
3. Pragmalingvistika.
4. Lingvokognitologiya.
5. Lingvokulturologiya.
6. Neyrolingvistika.
7. Kompyuter lingvistikasi.
8. Korpus lingvistikasi.
9. Lingvoma'naviyatshunoslik.
10. Antroposentrologiya.

Tilshunoslikning bu yo`nalishlari bir-birini to`ldirib boradi, albatta. Avvalo, formal, so`ngra substansial yo`nalish oldiga qo`yilgan ijtimoiy buyurtmani bajarib bo`lgan bo`lsa-da, o`z tadqiq tamoyillari asosida sohaning yechilmagan ayrim masalalari bilan shug`ullanishni davom ettiraveradi.

Tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug`at tarkibini ilmiy asosda har tomonlama o`rganish natijasida tilshunoslikning bir qancha sohalari yaratildi, chunonchi, fonetika morfologiya, sintaksis, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya va stilistika kabilar. Fonetika – tilning tovush tizimini, leksikologiya – lug`at tarkibini, morfologiya - so`zshakllarini, sintaksis – so`z shakllarining gapdagи vazifalarini, morfemika - so`z tarkibini, stilistika – nutq uslubini, semasiologiya - so`z ma`nolarini, etimologiya – so`zlarning kelib chiqishini o`rganadi. Tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug`at tarkibining har biri alohida-alohida tizimni tashkil qiladi. Ammo til sohalari (fonetika, leksika, grammatika) shu tilga xos qonun-qoidalar asosida bir-biri bilan o`zaro munosabatda bo`lib, bir tizimni hosil qiladi.

Lisoniy sathlar sirasida **fonetika** eng kichik tashkil etuvchi bo`lib, boshqa sathlar (leksikologiya, grammatika...) birliklari uchun moddiy asos vazifasini o`taydi. Insonning nutq faoliyati nutq birliklari bo`lmish

tovushlar tizimi vositasida ro‘yobga chiqadi. Nutq tovushlari o‘zida uch jihatni birlashtiradi: *fiziologik, akustik (fizik), funksional*.

Nutq tovushlarining fiziologik jihat deganda talaffuz a’zolarining boshqarilishi, *fizik jihat* deganda tovushning akustikasi (eshitilish darajasi) tushunilsa, *funksional jihat* nutq tovushlarining sotsial tomonini, aloqa vositasi ekanligini belgilaydi. Tilshunoslikda har uchala jihatni bir-biridan ajratmagan holda tadqiq qilish kerakligi masalasida olimlar turlicha qarashlarni ilgari surganlar. Pirovard natijada, tilshunoslikda ikki – fonetika va fonologiya sohalari ajralgan. Fonetika nutqiy xususiyliklarni, fonologiya lisoniy umumiylıklarni tadqiq qilish bilan mashg‘ul bo‘ladigan bo‘lib qoldi.

Fonetika grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “tovushga xos” yoki “tovush qutisi” degan ma’nolarni bildiradi. Fonetika nutq tovushlarini hosil qiluvchi talaffuz a’zolarini, ularning vazifasini ham tekshiradi. Tilning fonetika sathida boshqa fan sohalari - adabiyotshunoslik, fiziologiya, fizika, psixologiya kabi fanlar bilan aloqa yaqqol seziladi. Yaqingacha fonetika nutqdagi tovush o‘zgarishlari va almashinishini, urg‘u, bo‘g‘in va ularning turlarini ham o‘rganar edi. Hozirda nutqdagi tovush o‘zgarishlari va almashinishini morfonologiya nomli nisbatan yangi soha o‘rganadi. Fonetikaning amaliy ahamiyati orfografiya masalalarini hal qilishda, chet tillarni o‘rganishda, tili chuchuk bolalarning nutqini ravonlashtirishda, adabiy va dialektal talaffuz farqlarini aniqlashda namoyon bo‘ladi.

Fonetika *umumiylar*, *xususiy* va *qiyosiy* fonetikaga ajraladi. **Umumiylar** barcha tillarga xos bo‘lgan talaffuz xususiyatlarini o‘rganadi. Unda intonatsiya uchun qo‘llaniladigan vositalar (tovush balandligi, kuchi, cho‘ziqligi, tezligi (tempi)), pauza, tembr kabi masalalar tekshiriladi. **Xususiy fonetikada** yoqorida aytilgan masalalar muayyan tillar misolida tekshiriladi. Xususiy fonetika tarixiy (dioxron) va zamonaviy (muosir) fonetika, tasviriy va eksperimental fonetika kabi ko‘rinishlarda ish yuritadi. Alovida apparatlar yordamida nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyadagi artikulyatsion – akustik xususiyatlar **eksperimental**

fonetikada o‘rganiladi. **Tarixiy fonetika** esa tildagi fonetik xususiyatlarning rivojlanishini tekshiradi .

Qiyosiy fonetika bir nechta qarindosh yoki qarindosh bo‘lмаган tillarning yoxud bir qancha dialekt va shevalarning unli va undosh tovushlari, ulardagi fonetik o‘zgarishlar va boshqa hodisalar qiyosiy aspektda tekshiriladi. Qiyosiy fonetika umumiy va xususiy **fonetika** oralig‘idagi vaziyatni egallaydi.

Nutqda tovushlar alohida-alohida talaffuz etilmaydi. Nutq quyidagi fonetik birliklardan iborat: 1) fraza; 2) takt; 3) bo‘g‘in; 4) tovush.

1. Jumla (fraza) - nutqning yirik mustaqil birligi bo‘lib, aloqa vositasi sanaladi. U o‘ziga xos intonatsion birlikdir. Har bir jumla chuqr to‘xtam bilan bo‘linib turadi.

2. Takt - jumlaning bir bo‘lagi bo‘lib, bir urg‘u yordamida bir yoki bir necha bo‘g‘inlarning ulanishidan tashkil topadi. Ko‘p tillarda urg‘u mustaqil ma’noli so‘zlarning o‘zida bo‘lgani uchun ularning har qaysisi bir takt bo‘ladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil ma’noli so‘zlar bilan birikib, bir taktni hosil qiladi. Mustaqil ma’noli so‘zlardan oldin kelgan yordamchi so‘zlar **proklitika** (prokliza), mustaqil so‘zlardan keyin kelgan yordamchi so‘zlar **enklitika** (enkliza) deyiladi. Turkiy tillarda enkliza hodisasi uchrasa, ovrupa tillari uchun esa ham prokliza, ham enkliza hodisasi xosdir. Chunonchi,

O‘ZBEK TILIDA	RUS TILIDA	INGLIZ TILIDA
<i>Stol ustida</i>	<i>На столе</i>	<i>on the table</i>
<i>O‘quvchilar uchun</i>	<i>Для учеников</i>	<i>for pupils</i>
<i>Ukam bilan</i>	<i>С братом</i>	<i>for my brother</i>

Taktlar bo‘g‘inlarga ajraladi. **Bo‘g‘in** ham nutqning bir bo‘lagidir. Bo‘g‘in bir yoki bir necha tovushlar birikmasining bir havo zarbi bilan ayttilishidan hosil bo‘ladi. Har qanday tovush bo‘g‘in hosil qilavermaydi. Odatda, unli tovushlargina bo‘g‘in hosil qiladi. Masalan, *maktabimiz* so‘zida to‘rt unli ishtirok etganligi tufayli bu so‘z to‘rt bo‘g‘inga, *nafosat* so‘zida uch unli ishtirok etganligi tufayli bu so‘z uch bo‘g‘inga ajraladi: *mak –ta –bi –miz*, *na-fo-sat* yoki rus tilidagi *книга, вода, напиток* so‘zlari

tarkibidagi unlilarga qarab ikki bo‘g‘inga ajraladi: *кни-га, во-да, nap-ma*. Ba’zi tillarda bir bo‘g‘in tarkibida ikki va undan ortiq unli ishtirok etishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda **diftong** atamasi bilan qo‘llaniladi. **Diftong** yunoncha so‘z bo‘lib, “qo‘sh tovush” degan ma’noni bildiradi. Ayrim tillarda bu hodisani kuzataylik:

Qirg‘iz tilida – *tooda – tog‘da*

Ingliz tilida – *you – siz*

Fransuz tilida – *moi – men*

O‘zbek tilida bir unli bir bo‘g‘inni hosil qilganligi tufayli bu tilga **monoftong** (bir tovush) hodisasi xosdir. Bundan tashqari, ba’zi tillarda bir bo‘g‘inda uch unli tovushning birikib bo‘g‘in hosil qilish hodisasi ham uchraydi. Bu **triftong** (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib “uch unli” degan ma’noni bildiradi) deb aytiladi. Masalan, ingliz tilidagi *eyes-ko ‘zlar; tennis player-tennischi, year-yil* kabi. Bo‘g‘in tuzilishi jihatdan ham tillar bir-biridan farq qiladi. Juhon tillarida eng ko‘p uchraydigan bo‘g‘in tipi “undosh + unli” bo‘lib, u qulay talaffuzi bilan ajralib turadi : *qo-ra, to‘-ra; my-ka, py-ka* kabi. Tillarda juda ko‘p uchraydigan bo‘g‘in chizmalari: cv , vc , vcv, cvc , ccv, vcc, cccv , cvcc va boshqalardir.

Bo‘g‘in tipi	O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
cv	<i>kema</i>	<i>py-ка</i>	<i>ve -ry (juda)</i>
vc	<i>osh</i>	<i>оҳ</i>	<i>al -so (ham)</i>
vcv	-	-	<i>one (bir)</i>
		-	<i>are (fe'l)</i>
cvc	<i>non</i> <i>qon</i> <i>son</i>	<i>нас</i> <i>шаг</i> <i>суд</i>	<i>big (katta)</i> <i>bag (sumka)</i> <i>boy (bola)</i> - -- -
ccv		<i>тру</i> <i>все</i>	<i>cry (yig‘lamoq)</i> <i>sky(osmon)</i>
vcc	<i>ost</i> <i>ust</i>		<i>arm (qo‘l)</i> <i>inn (mehmonxona)</i>
ccccv	-	<i>иск</i>	--
cccv	-	<i>встре-ча</i>	--
cvcc	<i>tort</i> <i>surt</i>	<i>стра-на</i> <i>банк</i> <i>бинт</i>	<i>tint -(ton)</i> <i>help –(yordam bermoq)</i>

Shunday qilib, o‘zbek tilida cv, vc, cvc, c, cvcc, cccv kabi bo‘g‘in chizmalari ko‘proq uchrasa, rus tilida ccv, cvc cvcc, cccv kabi bo‘g‘in chizmalari, ingliz tilida esa o‘zbek va rus tillari uchun xos bo‘lmagan vcv , vcc kabi bo‘g‘in shakllari ko‘proq uchraydi.

Bo‘g‘inlar ulardagi boshlang‘ich va oxirgi tovushlarga qarab tiplarga bo‘linadi: ochiq bo‘g‘in (unli bilan tugagan – *to‘la*, yopiq undosh bilan tugagan *o‘t, osh*) va berkitilgan – yopiq bo‘g‘in (*bog‘, tosh*).

Bo‘g‘inni morfemadan farqlamoq kerak. Morfema – so‘zning ma’noli qismi. Bo‘g‘inga ajratilgan qism ma’no ifodalashi ham, ifodalamasligi ham mumkin. Demak, so‘zni morfema va bo‘g‘inga ajratish har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, *mehnatkashlarimizni* so‘zining bo‘g‘in va morfemaga ajratilishi quyidagicha: *meh-nat-kash-la-ri-miz-ni* – *mehnat-kash-lar-imiz-ni*. Bir bo‘g‘inli hisoblangan xitoy, tibet tillarida ko‘p hollarda bo‘g‘in va morfemaga ajratish mos tushadi.

Nutqning eng kichik birligi bu **tovushdir**. Bo‘g‘inlar tovushlarga bo‘linadi. Masalan, *inson* so‘zi ikki bo‘g‘indan iborat bo‘lib, birinchi bo‘g‘ini ikki tovushdan (in), ikkinchi bo‘g‘ini uch tovushdan (son) tashkil topgan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1.Tilshunoslikning qanday sohalari bor?
- 2.Lisoniy sathlarning uzviy bog‘liqligini misollar asosida tushuntiring.
- 3.Fonetika nimani o‘rganadi?
- 4.Umumiyligining xususiy fonezikning bir-biridan farqli tomonlari nimada?
- 5.Qardosh va qarindosh bo‘lmagan tillarning fonezik xususiyatlarini qaysi fonetika o‘rganadi?
- 6.Nutq birliklariga nimalar kiradi?
- 7.Fraza va taktning bir-biridan farqli tomonlarini sanang.
- 8.Tillarning bo‘g‘in tuzilishiga ko‘ra farqlanishini misollar bilan izohlang.
- 9.Qaysi mezonlar asosida so‘z bo‘g‘inga ajraladi?
- 10.Bo‘g‘inning amaliy ahamiyati nimada?
- 11.Diftong hodisasi qaysi tillar uchun xos?

12. Morfonologiya sathi haqida ma'lumot to'plang va uni tilshunoslik daftaringizga ko'chiring.

13. So'zlarni bo'g'inga ajratish tamoyillari barcha tillar uchun bir xilmi?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 17; 19; 20; 29; 35; 38]

NUTQ A'ZOLARI VA ULARNING TUZILISHI


Reja:

1. Nutq organlari va ularning vazifalari.
2. Tovush hosil bo'lishidagi asosiy bosqichlar.
3. Nutq artikulyatsiyasi haqida.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar

Nutq apparati, faol va nofaol nutq a'zolari, ovoz paychalari, bo'g'iz, artikulyatsiya, artikulyatsiya bazasi, artikulyatsiya o'rni va usuli, portlovchi, sirg'aluvchi, til oldi, til o'rta, til orqa, lab undoshlari

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi qismlar nutq a'zolari (apparati) deyiladi. Nutq tovushlarining hosil bo'lishida quyidagi a'zolar ishtirok etadi: o'pka, kekirdak, ovoz paychalari, bo'g'iz, bo'g'iz qopqog'i, kichik til, tanglay, til, tish, lab. Bular orasida faol ishtirok etadigan organlarga ovoz paychalari, til, lab, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, pastki jag' kiradi.



Nutq apparati 3 qismdan iborat:

1. **Ovoz paychalaridan pastki qism.** Bu qismga o'pka, nafas olish yo'llari, kekirdak va diafragma (ko'krak qafasi bilan qorin bo'shlig'i

o‘rtasidagi pardasi kiradi. Bu a’zolar havo manbayi bo‘lib, o‘pkadan chiqqan havo tovush psychalarining yordami bilan ovoz hosil qiladi.

2. **Bo‘g‘iz.** Halqasimon va qalqonsimon tog‘aylar bo‘g‘izda joylashgan. Bu ikki tog‘ay o‘rtasida ovoz psychalari o‘rnashgan. Bo‘yin chetlarida tovush psychalari bir-biriga to‘la yoki deyarli to‘la jipslashib turadi. Ovoz psychalarining ishtirokisiz ovoz chiqarish mumkin emas.

3. **Ovoz psychalaridan yuqori qism.** Bu qismga bo‘g‘iz qopqog‘i , og‘iz bo‘shlig‘i, burun bo‘shlig‘i, qattiq va yumshoq tanglay, til, kichik til, ustki va pastki tishlar, ustki va pastki lablar kiradi. Bular orasida eng harakatchan a’zo tildir. **Til** harakati orqali til oldi, til o‘rta, til orqa, chuqur til orqa tovushlari (unli va undoshlar) hosil qilinadi. **Lab** ham ancha faol nutq a’zosi bo‘lib, *b, p, m, v, f, o, o‘, u* kabi tovushlar hosil qilishda ishtirok etadi. **Kichik til** qattiq tebranib, xitoy va fransuz tillariga xos bo‘lgan tovushlarni hosil qiladi. **Bo‘g‘iz qopqog‘i** ham ayrim tillarda tovush hosil qiluvchi a’zo sanalib, arab tilida *ع* (ayn) tovushini hosil qiladi. Nutq apparatining, ya’ni nutq a’zolarining harakati natijasida tovush hosil bo‘lish jarayoni **artikulyatsiya** deyiladi. Jahondagi barcha kishilarning nutq organlari bir xil tuzilgan bo‘lsa ham, har bir tildagi tovushlarning talaffuzida ularning harakati turlicha bo‘lishi mumkin. Ma’lum bir tilga xos bo‘lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati **artikulyatsiya bazasi** deb ataladi. Bir tilning artikulyatsiya bazasi shu tilga xos nutq tovushlarini hosil qiladi. Shuning uchun ham har bir tilga moslashgan nutq artikulyatsiyasi bazasi ikkinchi bir tilning tovushlarini birdan to‘g‘ri talaffuz eta olmaydi. Buni ingliz tilini, koreys tilini o‘rganish jarayonida kuzatish mumkin yoki, aksincha, ingliz xalqining rus, o‘zbek tilida so‘zlashish jarayoni ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Nutq artikulyatsiyasi 3 holatda bo‘ladi:

- 1) tovush hosil qilishga o‘tish;
- 2) tovush chiqarish uchun to‘xtab olish;
- 3) asl holatga qaytish.

Masalan, [b] tovushini hosil qilish uchun shu tovushni hosil qilishda ishtirok etuvchi nutq a’zolari uni talaffuz qilishga tayyorlanadi. Shu vaqtida

ustki lab bilan pastki lab jipslashib, o‘pkadan keladigan havoni to‘sadi, bir zum to‘xtamdan so‘ng o‘pkadan kelgan havo kuchining zarbi bilan lablar yana ochilib, [b] tovushi hosil bo‘ladi. Shundan so‘ng nutq a’zolari yana o‘z asliga qaytadi. Artikulyatsiyada ikki hodisa muhim rol o‘ynaydi: birinchidan, artikulyatsiya o‘rni, ikkinchidan, artikulyatsiya usuli. Tovush hosil qilishda nutq a’zolarining harakat etgan qismi **artikulyatsiya o‘rni** deyiladi. Masalan, **b, p, m, v, f** kabi tovushlarni hosil qilishda lab ko‘proq harakat qiladi, to‘g‘rirog‘i labda hosil bo‘ladi. Shuning uchun bu tovushning artikulyatsiya o‘rni labdir va shunga ko‘ra lab undoshlari deyiladi. Yoki **d, t, s, z, ch** tovushlari tilning ustki tishlar va milkka tegishi bilan hosil bo‘ladi. Bu tovushlarning artikulyatsiya o‘rni tilning old qismidir, shuning uchun bu tovushlar til oldi undoshlari nomini olgan.

Artikulyatsiya usuli deganda tovush hosil qilish paytida nutq a’zolarining qanday holatda harakat qilishi tushuniladi. Masalan, **v, z, y, x, sh, h** kabi tovushlarni talaffuz qilganda nutq a’zolari bir-biriga yaqinlashadi, ammo havo oqimining chiqishi uchun torgina oraliq qoladi, havo oqimi ana shu oraliqdan sirg‘alib chiqadi va bunday tovushlar artikulyatsiya usuliga ko‘ra sirg‘aluvchi tovushlar nomini oladi. Portlovchi tovushlarni hosil qilishda esa havo oqimi jipslashgan a’zolar orasidan portlab chiqadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nutq apparati nima? Nutq a’zolarini sanang.
- 2.Ovoz paychalaridan pastki qism a’zolariga qaysi organlar kiradi?
- 3.Bo‘g‘izda hosil bo‘luvchi tovush haqida ma’lumot bering.
- 4.Ovoz paychalaridan yuqori qismda joylashgan nutq organlari va ularning vazifasini tushutiring.
- 5.Nutq artikulyatsiyasi nima? Tovush hosil bo‘lishida nutqiy a’zolarning harakatini kuzating va xulosalar chiqaring.
- 6.Barcha tillarda nutq artikulyatsiyasi bir xilmi?
- 7.Til ishtirok etadigan tovushlardan o‘ntasini sanang.
- 8.Unli va undosh tovushlar artikulyatsiyasini xarakterlang.
- 9.Turli tillardan bo‘g‘izda hosil bo‘ladigan tovushlarga misollar keltiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 13; 17; 19; 38; 47; 50; 68]

NUTQ TOVUSHLARINING UMUMIY TAVSIFI. UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR

Reja:

1. Tildagi unlilar tizimi va ularning paradigmasi.
2. Unli fonemalarning nutqiy xususiyatlari.
3. Undosh fonemalar va ular o‘rtasidagi ziddiyatlar.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Vokalizm, tilning ko‘tarilish darajasi, lablanish – lablanmaslik, aralash qator unlilar, qattiq va yumshoq unli, cho‘ziq va qisqa unli, portlovchi va sirg‘aluvchi undosh affrikat, titroq tovush, jaranglilik va jarangsizlik, shovqinlilar va sonorlar, bo‘g‘iz undoshi, korrelyativ belgi, binar ziddiyat

Nutq a’zolari tomonidan hosil qilingan nutq tovushlari dastlab ikki katta guruhga bo‘linadi:

1. Unli tovushlar;
2. Undosh tovushlar.

Unli tovushlar artikulyatsiyasiga ko‘ra undosh tovushlardan farq qiladi. Unlilar talaffuzida o‘pkadan chiqadigan havo og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramaydi, nutq a’zolarining holati bir xil bo‘ladi. Musiqiy ohanglarga ega bo‘ladi. Bunday xususiyatlarni undoshlar talaffuzida kuzatib bo‘lmaydi. Undosh tovushlar og‘iz bo‘shlig‘ida hosil bo‘ladi, o‘pkadan keladigan havo turli to‘siqlarga uchraydi, musiqaviy ohangga ega emas. Undoshlarda, asosan, shovqin ustun turadi, unlilarda esa ovoz.

Har bir til o‘ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi **vokalizm** (**lotincha unli, ovozli degan ma’noni bildiradi**) deyiladi. Tilda unlilar o‘zi alohida bir tizimni, paradigmani tashkil qiladi va fonetik paradigmaning bir mikrosistemasini tashkil etadi. **Tilning ko‘tarilish darajasi** (yuqori, o‘rta, quyi) va **lablanish – lablanmaslik** belgilari unli fonemalarning **asosiy belgilari** bo‘lib, bu belgilar ularning sistema hosil

qiluvchi belgilari sanaladi. Unlilarning tilning gorizontal holatiga ko‘ra (old qator, o‘rta qator, orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi. Chunki bu belgilar ularda nutqiy yondosh tovushlar ta’sirida o‘zgarib turadi. Masalan, [q] undoshi bilan qo‘schnichilik munosabatida [a] unlisi til orqalik xossasiga ega bo‘lsa, [k] undoshi qurshovida o‘z holatini saqlaydi: *qarg‘a, qurbaqa, kamalak, katta, kassa, katastrof* kabi. Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifi quyidagicha:

<i>Unli fonemalar</i>	<i>Asosiy belgilar</i>				
	<i>tilning ko‘tarilish darajasi</i>			<i>lablanish belgisiga ko‘ra</i>	
	<i>yuqori</i>	<i>o‘rta</i>	<i>quyi</i>	<i>lablangan</i>	<i>lablanmagan</i>
[i]	+				+
[u]	+			+	
[o‘]		+		+	
[o]			+	+	
[e]		+			+
[a]			+		+

Demak, chizmadan ko‘rinib turganidek, unli fonemalar tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra uch pog‘onali, lablanish belgisiga ko‘ra ikki pog‘onali sistemani hosil qiladi. Jadvalda berilganidek, unli fonemalar o‘zaro o‘xhash va farqli belgilari bilan ziddiyatni hosil qiladi. Masalan, [a] va [e] fonemalarining birlashtiruvchi (farqlanmovchi) tomoni ularning lablanmaganligi bo‘lsa, tilning ko‘tarilish darjasiga ko‘ra [a] quyi keng, [e] o‘rta keng fonema ekanligi bilan ziddiyatni hosil qiladi.

Demak, o‘zbek tilidagi unli fonemalarning oppozitsiyalari tilning ko‘tarilish darjasasi va lablarning ishtiroki bilan belgilanadi. Qator belgisi (til oldi, til orqa) o‘zbek tili unlilari uchun fonologik farqlanish belgisi emas, chunki u yondosh undoshlarning ta’sirida o‘zgarishi mumkin.

Rus adabiy tilida esa unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifi quyidagi chizmada o‘z aksini topgan:

	<i>Tilning gorizental holatiga ko‘ra</i>		
	<i>til oldi</i>	<i>til o‘rta</i>	<i>til orqa</i>
	<i>lablanmagan</i>		<i>lablangan</i>

Yuqori (yopiq)	и	ы	у
O‘rtalik (yarim yopiq yoki ochiq)	e(ə)		о
quyi (ochiq)		a	

Ushbu jadvalda ko‘rsatilganidek, unli fonemalar tilning oldinga, orqaga harakati ko‘rsatkichi belgisi bilan ham ziddiyat hosil qilgan. Ushbu holatda “oraliq uchinchi” tabiatiga ega bo‘lgan til o‘rtalik yoki aralash qator unlilari mavjudki, ularning talaffuzida tilning “bel”i va uchi bir oz yuqori ko‘tariladi va tilning o‘zi yassi holatda bo‘ladi. Bunday aralash qator unlilar ingliz tiliga xos: [ə] [ɜ:]. Rus tilidagi [ы] va [а] unlilarining artikulyatsiyasi ham aralash qator unlilariga yaqindir. O‘zbek tilidagi [и], [е], [а] rus tilidagi [у], [ə], ingliz tilidagi [i], [e], [ж] unlilari til oldi unlilari sanalsa, o‘zbek tilidagi [о], [о’], [у], rus tilidagi [о], [ы] va ingliz tilidagi [у], [^] orqa qator unlilari hisoblanadi. O‘zbek tilida bo‘lgani kabi rus tilida ham lablarning ishtirokiga ko‘ra, tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra unlilar ziddiyat hosil qiladi. Chunonchi, [и], [е] unlilari “lablanmagan, til oldi” belgilari bilan “lablangan, til orqa” [у], [о] unlilariga qarama-qarshi qo‘yiladi. Bu unlilarning yana o‘zi ichki ziddiyatda turadi, ya’ni [и], [у] tilning ko‘tarilish darajasiga ko‘ra yuqori (yopiq) unli sanalsa, [е], [о] o‘rtalik (yarim yopiq yoki ochiq) unli sanaladi.

Unli fonemalar nutqda ayrim hollarda cho‘ziq, ayrim holda qisqa, qattiq va yumshoq talaffuz qilinadi. Turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan turkman tilida cho‘ziq va qisqa unlilar ko‘p uchraydi. Turkman tilida cho‘ziq va qisqa unlilarning har qaysisi mustaqil fonema bo‘lib, ular so‘z ma’nolarini ajratib boradi: *at (aat – nom, ism) – at (at - ot), ot (oot - olov)-ot (ot – o’t , giyoh)*. O‘zbek tilida esa so‘zlarni ajratib beruvchi maxsus cho‘ziq unli fonemalar mavjud emas. Ammo o‘zbek tili tarkibiga kirgan *da’vo, va’da, ra’no* kabi so‘zlarda “ayn” tovushdan oldin kelgan unlilar cho‘ziq talaffuz qilinadi yoki yopiq bo‘g‘inli *til, bir, qiziq* kabi so‘zlarda [и] fonemasi nutqda qisqa talaffuz etiladi: *til, bir qeleq* kabi. Rus tilida urg‘u tushgan unli cho‘ziq talaffuz qilinadi: *parta, doska, direktor* [1,22;].

Undosh fonemalar tasnifi. O‘zbek tilida 25 ta undosh bo‘lib, ularni farqlovchi asosiy belgilar quyidagilar sanaladi:

- a) hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra;
- b) hosil bo‘lish usuliga ko‘ra;
- d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra.

Undosh tovushlarning hosil bo‘lishida bo‘g‘iz bo‘shlig‘i, og‘iz bo‘shlig‘i va til muhim ahamiyatga ega. O‘pkadan chiqadigan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to‘siqlarga duch keladi.

Undoshlar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra:

1.Lab undoshlari:

a) lab-lab undoshlari: *b, p, m, v*;(Izoh: *v* undoshi *val, vahima, vahiy* kabi so‘zlar tarkibida lab-tish undoshiga moyil talaffuz etiladigan, ammo *suv, suluv, ovunchoq* kabi sof turkiy so‘zlar tarkibida asliga ko‘ra talaffuz etiladigan lab-lab undoshidir.)

b) lab-tish undoshi: *f*.

2.Til undoshlari:

- a) til oldi: *d, t, z, s, sh, j (dj), ch, n, l, r;*
- b) til o‘rta: *y;*
- d) sayoz til orqa: *k, g, ng;*
- e) chuqur til orqa: *q, x, g‘.*

3.Bo‘g‘iz undoshi: *h* tovushlariga bo‘linadi.

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra esa undoshlar quyidagi kichik guruhlarga bo‘linadi:

- 1.Portlovchilar: *b, p, d, t, k, g, q;*
- 2.Sirg‘aluvchilar: *v, f, z, s, y, l, sh, g‘, x, h, j;*
- 3.Titroq: *r ;*
- 4.Qorishiqlar : *dj, ch;*
5. Yon: *l*
6. Burun: *n, m, ng.*

Undosh tovushlar **ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra** ikki guruhga ajraladi:

1. Jaranglilar : *b, v, g, d, z, j, dj, y, g‘, m, n, ng, l, r ;*
- 2.Jarangsizlar : *p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h.*

Undosh tovushlar akustik jihatdan **shovqinli va sonor** tovushlarga ham bo‘linadi. Shovqinli undosh tovushlar talaffuz qilinganda shovqin ovozga nisbatan kuchli bo‘ladi : *b , f , g‘ , h , x , p* kabi . Sonor tovushlarda esa ovoz kuchli bo‘ladi : *m , n , ng , l , r* kabi. Undosh fonemalar ham boshqa sath birliklarida bo‘lgani kabi turli ziddiyatlarda turadi. Jumladan 8 ta undosh fonema “jarangli – jarangsizlik ” belgisi bilan **korrelyativ** (ziddiyatda turgan fonemalarning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo‘lmagan belgi) munosabatga kirishadi. Ular quyidagilar: *[b]-[p]*, *[d]-[t]*, *[k]-[g]*, *[s]-[z]*, *[j]-[ch]*, *[dj]-[sh]*, *[g‘]-[q]*, *[v]-[f]*.

Yuqorida ko‘rsatilgan tasnif asosida undosh fonemalar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra quyidagi **binar** ziddiyatli munosabatlarga kirisha oladi:

- a) “lab-lab – til oldi”: *[p]-[t]*; *[m]-[n]*; *[v]-[z]*; *[v]-[r]*
- b) “lab-lab – til o‘rta”: *[b]-[y]*; *[v]-[y]*;
- d) “lab-lab – til orqa”: *[p]-[k]*; *[b]-[k]*; *[m]-[x]*; *[v]-[g]*;
- e) “lab-lab – bo‘g‘iz”: *[p]-[h]*; *[v]-[h]*;
- f) “til oldi- til orqa”: *[t]-[k]*; *[t]-[q]*; *[d]-[g]*; *[s]-[x]*; *[z]-[g]*; *[n]-[g]*.

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra undosh fonemalar quyidagi ziddiyatli munosabatlarda bo‘ladi:

- a) “portlovchi – sirg‘aluvchi”:
[p]-[f]; *[b]-[v]*; *[t]-[s]*; *[d]-[z]*; *[t]-[sh]*; *[k]-[x]* ...
- b) “portlovchi – affrikat (qorishiq)”:
[t]-[ch]; *[d]-[dj]*;
- d) “sirg‘aluvchi - affrikat”: *[sh]-[ch]*; *[j]-[dj]*;

Demak, o‘zbek tilida undosh fonemalarning soni ko‘pligi tufayli oppozitsiyalar ham anchadir. Unli fonemalar esa bir belgi asosida uch (tor unlilar, o‘rta unlilar, keng unlilar) va ikki a’zoli ziddiyatni (lablangan va lablanmagan unlilar), ikki belgi (“tilning ko‘tarilish darajasi va lablangan - lablanmaganlik”) asosida olti a’zoli ziddiyatni hosil qiladi. Bunday xususiyatlar rus, ingliz, nemis, fransuz kabi qator tillar uchun ham xos.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1.Bilish jarayonida zid qo‘yishning qanday ahamiyati bor?

- 2.Tovushlarning farqlovchi va biriktiruvchi belgilari deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun o‘zbek tili unlilarida qator belgisi fonologik farqlanish belgisi bo‘la olmaydi?
4. Korrelyativ ziddiyatli munosabatlarga misollar keltiring.
5. Binar ziddiyatli munosabatlarga misollar keltiring.
6. She’riy parcha yozing. Undagi unli va undosh tovushlarga tasnif bering.
7. Unli va undosh tovushlar soni barcha tillarda bir xilmi?
8. Qaysi tovushlarni talaffuz qilganda til, til uchi, tish faol ishtirok etadi?
9. Qorishiq (affrikat) tovushlar ishtirok etgan so‘zlar qatorini tuzing.
- 10.“Portlovchi – sirg‘aluvchi” belgili ziddiyatlar qatoriga misollar keltiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 22; 33]

NUTQ JARAYONIDAGI FONETIK HODISALAR

Reja:

1. Kombinator tovush o‘zgarishlari.
2. Pozitsion tovush o‘zgarishlari.
3. Fonetik o‘zgarishlarning imlo bilan bo‘g‘liq tomonlari.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Kombinator va pozitsion o‘zgarishlar, singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, proteza, epenteza, eliziya, diereza, reduksiya, apakopa, sinkopa, sinerezis, epiteza, prokopa

Fonema nutqda voqealanar ekan, uning variantlari nutqiy sharoit (yonma-yon kelgan tovushlar yoki qo‘srimchalar ta’siriga uchrashi) tufayli turlicha namoyon bo‘ladi. Ayrim tovushlar yondosh tovushlarga moslashadi, ayrimlarida o‘zgarishlar kuchayib, boshqa tovushlarga almashadi. Nutq jarayonida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar tovushlarning **kombinator-pozitsion o‘zgarishlari** deyiladi. Masalan, rus tilidagi *лодка* va *город* so‘zlarida [d] tovushi [t] tarzida talaffuz qilinadi, ya’ni jarangsizlashadi. O‘zbek tilida *yutdi* va *obod* so‘zlarida ham shu holat yuz beradi. *Лодка* va *yutdi* so‘zlarida jarangsizlanish qo‘sjni tovush ta’sirida

yuz bersa, *zopod* va *obod* so‘zлari talaffuzida o‘zgarish tovushning so‘z tarkibidagi mavqeyi bilan bog‘liqdir. Birinchi holat kombinator o‘zgarish bo‘lsa, ikkinchi holat pozitsion o‘zgarishdir. Biz quyida shu o‘zgarishlar haqida fikr yuritamiz.

1. Singarmonizm. Bu hodisada unli va undoshlarning o‘zgarishi farqlanadi. Unlilarning nutq jarayonida o‘zgarishi **singarmonizm** deyiladi. Singarmonizm unlilarning moslashishi, uyg‘unligi demakdir. Singarmonizm faqat turkiy tillarga xosdir. Uning ikki asosiy ko‘rinishi mavjud:

- a) til garmoniyasi;
- b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovushlar yumshoqlik va qattiqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Masalan, *qalam* so‘zidagi [q] undoshi chuqur til orqa undoshi bo‘lganligi bois, birinchi bo‘g‘indagi [a] unlisi ham til orqalik xususiyatiga ega bo‘ladi. Buning natijasida esa keyingi bo‘g‘inda [a] tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, birinchi [a] unlisi [q] undoshiga, keyingi bo‘g‘indagi [a] esa oldingi bo‘g‘indagi [a] unlisiga moslashadi.

Lab garmoniyasida unlilarning moslashishi ikki tomonlama bo‘ladi. Bunda unlilar ham til oldi - til orqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan o‘zaro, shuningdek, undoshlarga ham moslashadi. Bunga ko‘ra, so‘z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo‘lsa, so‘z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So‘z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo‘lsa, so‘z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo‘ladi. Masalan, *boshqird*, *sog‘in*, *bo‘g‘in* so‘zlaridagi kabi.

2. Assimilyatsiya. Nutq tovushlari qator kelganda ba’zan bir-biriga ta’sir qilib, biri ikkinchisini o‘ziga moslashtiradi. Nutqdagi bunday hodisa **assimilyatsiya** deyiladi. Assimilyatsiya ikki xil bo‘ladi: progressiv assimilyatsiya va regressiv assimilyatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o‘ziga o‘xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilyatsiya yuz beradi: *ket+di=ketti*, *ayt+di=aytti*, *ot+dan=ottan*, *yurak+ga=yurakka*, *pichoq+ga=pichoqqa*...

Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilyatsiya yuz beradi: *yigit+cha=yigichcha*, *yoz+sin=yossin*, *uch+so 'm=usso 'm*, *tuz+sin=tussin*.

Rus tilida *омдамъ* so'zi *оддамъ* tarzida talaffuz etiladi. Bu ham regressiv assimilyatsiyaga misol bo'ladi. Regressiv assimilyatsiya odatda progressiv assimilyatsiyaga nisban nutqda kamroq uchraydi. Chunki assimilyatsiyaning bu turida keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi. Demak, talaffuz jarayoni boshlanmasdan burun so'zining talaffuz texnologiyasi haqidagi tasavvur ham hosil bo'lmog'i lozim.

Assimilyatsiya to'liq va qisman bo'lishi mumkin.

To'liq assimilyatsiyada bir tovush ikkinchi tovushga aynan moslashadi va to'lig'icha uning tusiga kiradi. Yuqorida keltirilgan so'zlarning hammasi to'liq assimilyatsiyaga misol bo'ladi. Qisman assimilyatsiyada nutq tovushlaridan biri ikkinchisini biror tomondan qisman o'xshatadi (moslashtiradi): *osh+ga* (*oshka*), *ish+ga* (*ishka*) so'zlarida jo'nalish kelishigidagi [g] tovushi oldingi [sh] tovushining ta'sirida [k] tovushiga aylanmoqda. Bu so'zda qisman assimilyatsiya yuzaga kelmoqda, ya'ni [g] jarangli tovushi o'zidan oldingi [sh] tovushiga faqat bir tomonlama – jarangsizlanish tomonidan o'xshamoqda, xolos, lekin to'liq uning tusiga kirgan emas. [*Uchta*] leksemasing *ushta*, [*pochta*] leksemasing *poshta* deb talaffuz qilinishi ham shu hodisaga misol bo'la oladi. Rus tilidagi *карбка*, *водка*: inglizcha: *goods*, *cats* so'zlarida ham shu turdagi assimilyatsiya mavjud.

Dissimilyatsiya. Og'zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o'xshay bermasdan, ba'zan uning aksi bo'ladi. Ayrim paytda talaffuzda ikki o'xshash tovush bir joyda yoki bir so'zda kelgan vaqtda ulardan biri noo'xshash tovushga aylanib ham qoladi. Bunday hodisa assimilyatsiya kabi progressiv va regressiv bo'ladi. Keyingi tovush noo'xshash tovushga aylansa progressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *zarar-zaral*, *zarur-zaril*, *birorta-bironta*, *muyassar-muyastar*, *kissa-kista*, *halol-halor* kabi.

Oldingi tovush o'zgarsa, regressiv dissimilyatsiya yuz beradi: *malol-malor*, *koridor-kalidor*, *ittifoq-intifoq* kabi.

Dissimilyatsiya hodisasi odatda juda kam uchraydi. Hatto assimilyatsiyaning regressiv turiga nisbatan ham ancha kam qo'llanadi. Chunki dissimilyatsiya hodisasi nutqda, odatda o'xshashlikdan noo'xshashlikka, ixchamlikdan noqulaylikka qaratilgan harakat bo'lib, tavtologiyadan qutilishga xizmat qiladi. Og'zaki nutqda *tumba-tunba*, *shanba-shamba*, *Vavilon-Vabilon*, *tramvay-tranvay*, *konbayn-kombayn* deb talaffuz qilishimiz ham dissimilyatsiyaga misol bo'ladi.

Metateza. Og'zaki nutqda ba'zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o'rni almashishi mumkin. Nutqdagi bunday jarayon **metateza** deyiladi: **r-y:** *daryo-dayro*: **m-g':** *yomg'ir-yog'mir*, **b-r:** *tebratmoq-terbatmoq*: **m-l:** *yamlamoq-yalmamoq*: **h-v:** *ahvol-avhol*: **p-r:** *tuproq-turpoq*, **r-g:** *o'rganmoq-o'granmoq*: **g'-r:** *to'g'ramoq-to'rg'amoq*, **n-m:** *aylanmoq-aynalmoq* va b. Chunonchi, rus tilidagi *mapelka* so'zi aslida nemischa *talerka* shaklida bo'lган, arabcha *oqvot* so'zi o'zbek tiliga *ovqat* tarzida qabul qilingan. Demak, bu hodisa chetdan kirgan so'zlarda ko'proq uchraydi.

Proteza. So'z boshida bitta unlining orttirilishi **proteza** hodisasi sanaladi. Odatda, sonor [r] tovushidan oldin [o'] va [i] unlilari orttiriladi: *ro'mol-o'ramol*, *ro'za-o'raza*, *rayhon-irahon*, *rozi-irozi*, *rais-iraiz*, *rang-irang*, *ro'zg'or-o'razg'or* kabi. Ayrim holatda so'z boshida sirg'aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda [i] unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf*, *sprafka-isparafka*, *stol-istol*, *shtraf-ishtarap*, *stansiya-istansa*, *Stambul-Istanbul*.

Epenteza. So'z boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda ular orasida [i], ba'zan [u] va [a] unlisi orttiriladi: *fikr-fikir*, *hukm-hukum*, *doklad-dakalad*, *klass-kilass*, *ilm-ilim*, *zikr-zikir*, *zulm-zulum*, *bakr-bakir*...

Epiteza. So'z oxirida bir o'rinda kelgan ikki undoshdan so'ng [a] tovushining qo'shilish hodisasidir: *disk-diska*, *bank-banka*, *tank-tanka*, *kiosk-kioska*, *otpusk-otpuska*, *propusk-propiska*, *shtamp-shtampa*, *blank-blanka* kabi.

Prokopa. Bunda so‘z boshida ba’zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi: *yiroq-iroq, yigna- igna, yog‘ach-og‘och, yirik-iri...*

Sinkopa hodisasiga binoan so‘z o‘rtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *valochka-valichka, traktor-traktir, avtor-avtir, director-direktir, generator-generatir, muomala–muomila* kabi.

Apakopa so‘z o‘zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *do‘st-do‘s, xursand-xursan, gazeta-gazit, smena-smen, baland–balan, qand–qan, rost–ros* va h.

Sinerezis hodisasiga ko‘ra so‘z o‘rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinci unli fonema esa cho‘ziq talaffuz etiladi: *maorif-mo:rif, saodat-so:dat, qiroat-qiro:t, jamoat-jamo:t, sanoat–sano:t*. Bu hodisa asl o‘zbekcha so‘zlarga xos emas.

Reduksiya. So‘zning birinchi bo‘g‘nida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* sozlari bir bo‘g‘inli bo‘lganligi va urg‘u shu so‘zdagi [i] unlisiga tushganligi tufayli bu so‘zlardagi [i] unlisi me’yordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu so‘zlarning oxiriga ikkinchi bir bo‘g‘in qo‘shilishi bilan urg‘u ham ikkinchi bo‘g‘inga ko‘chadi. Natijada birinchi bo‘g‘indagi [i] unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Birinchi bo‘g‘indagi urg‘ularning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol bo‘la oladi (reduksiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi “kuchsizlanish”, “orqaga qaytish”, “pastga tushish” demakdir). Reduksiyaga quyidagi so‘zlarning birinchi bo‘g‘nida kelgan [i] ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol bo‘la oladi: *pishiq, shira, pishak, qiliq, ichak, bilan* kabi. Reduksiyaning ikkinchi bo‘g‘inda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa so‘zga uchinchi bo‘gin qo‘shilganda sodir bo‘ladi - ikkinchi bo‘g‘indagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun- burni, bo‘yin-bo‘yni, egingegni, keyin-keyni* singari.

Eliziya. Unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir.

Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) bиринчи со‘з oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi-yozoladi, bora oladi- boroladi, qora ot- qorot, Ali aka-Alaka*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi so‘zning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan-borarkan, borar emish- borarmish, yozgan ekan-yozgankan* kabi; v) *Abdusalom* so‘zining *Absalom, Abdujabbor* so‘zining *Abjabbor, olib kel* so‘zining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan formasi hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida so‘zlarning qisqargan shakli hosil bo‘ladi.

Diereza. So‘z tarkibida birorta tovushning tushib qolishi. O‘zbek tilida *go’sht, do’st, rost, bo’lsin* so‘zlari tarkibida kelgan [t] va [l] tovushlari tushirib talaffuz qilinadi: *go’sh, do’s, ros, bo’sin* kabi. Rus tilidagi *счастливо, известно* so‘zlari nutqda *счастливо, известно* tarzida aytildi.

Demak, nutq tovushlari har bir til qonun- qoidalariiga muvofiq ma’lum tartib bilan tutashib, birikib so‘z hosil qilar ekan, so‘z tarkibida aks ettirilgan harflarga nisbatan o‘zgargan holda ham talaffuz etilishi mumkin. Ba’zi hollarda bu imloda ham o‘z aksini toptadi. Bunda o‘zbek adabiy tilidagi [-ga] qo‘sishimchasing variantlarini misol qilish mumkin: *terak+ga=terakka, buloq+ga=buloqqa*. Rus tilida *безплатно-бесплатно, рассказать-рассказать* so‘zlarida qo‘llangan jarangli [z] o‘rnidagi [s] ham orfografiyada o‘z aksini topgan. Eliziya hodisasiga uchragan ba’zi so‘zlar ham shular jumlasidandir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Fonetik hodisalar qanday ro‘y beradi?
2. Fonetik hodisalar unlilarga ham xosmi?
3. Xorijiy tillardan kombinator va pozitsion o‘zgarishlarga misollar keltiring.
4. *Do’stlik shishaga monand, sinsa- ulay olmaysan.* Ushbu maqolda uchragan fonetik hodisalarni izohlang.
5. Imlodagi fonetik yozuvning fonetik hodisalar bilan bog‘liq tomoni nimada?

6. Har bir tilga xos bo‘lgan fonetik o‘zgarishlar va ularning sababini tushuntiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 11; 27; 28; 38; 47; 50]

FONOLOGIYA – FONEMANI O‘RGANUVCHI SOHA

Reja:

- 1.Fonemaning til birligi ekanligi.
- 2.Fonologik ziddiyat va uning ko‘rinishlari.
- 3.Fonemalarning variantlashuvi.
- 4.Fonema nazariyasi tarixidan.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Fonologiya, fonema va tovush munosobati, fonologik dipozitsiya , bir o ‘lchovli va ko ‘p o ‘lchovli ziddiyat, doimiy va neytrallashgan ziddiyat , kuchli va kuchsiz pozitsiya, fanema va gradema, gradema va harf, harf va tovush, fonologik nazariyalar

Fonologiyaning kelib chiqishida fonetika katta rol o‘ynagan. Fonologiyaga XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshiga kelib, tilshunoslikning fonetika bobidan ajralib chiqqan alohida soha sifatida qarala boshlandi. Fonologik sathning taraqqiyotida mashhur rus va polyak olimi I.A.Boduen de Kurtene, rus olimi N.S.Trubeskoy, R. Yakobsonlarning xizmati kattadir. Turkiy tillar fonologiyasini tadqiq qilishda V.V. Radlov, E.D. Polivanov, N.K. Dmitriyevlarning tadqiqotlari ahamiyatga egadir. Umuman olganda, fonologiya nutq tovushlarning fiziologik – akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo‘ldi. Praga funksional strukturalizmi oqimining taniqli namoyondasi N.S. Trubeskoy fonetikani odam nutqining material tomoni, ya’ni artikulyatsiyasi va akustikasi haqidagi fan deb, fonologiyani esa, tildagi tovushlarning ma’noni farqlashga xizmat qiluvchi alomatlari va funksiyalarni o‘rganuvchi fan, deb ta’riflagan edi. Bu ta’rifda tilni nutqqa, tovushlarning material tomonini ularning funksional tomoniga

qarama-qarshi qo‘yish yorqin ko‘rinadi²⁷. Fonetikaning birligi bevosita kuzatishlarda berilgan nutq tovushlari bo‘lgani kabi, fonologiyaning birligi so‘zlovchilarning ana shu bevosita kuzatishda berilgan nutq tovushlari asosida yotgan tovush tipi haqidagi ijtimoiy tasavvurlaridir. Har bir fonema kishilar ongida umumiy farqlovchi xususiyatlari asosida vujudga kelgan maxsus “akustik orginallik” yoki ”tovush asliyati“ sifatida yashaydi. Bu farqlovchi belgilar tovushlarning artikulyatsion va akustik belgilari asosida vujudga keladi va barqarorlashadi. Fonologik jihatdan fonemalar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi, to‘g‘rirog‘i, fonemalar boshqa lisoniy birliklar kabi paradigmatic munosabatda yashaydi. **Fonologik oppozitsiyalar** fonemalarning farqli belgilarini o‘zida ifodalaydi. Masalan, [p]-[t] “lab – til oldi” belgisi bilan, [a]-[o] “lablanmagan- lablangan”lik belgisi bilan, [h]-[q] “bo‘g‘iz chuqur til orqa” xossalari bilan farqlanadilar.

Tilshunoslikda fonologik ziddiyatlarning turli tip va ko‘rinishlari farqlanadi. N.S.Trubeskoy “Fonologiya asoslari” asarida fonologik ziddiyatlar haqida ko‘pgina ma’lumotlar beradi. Ziddiyatlar **bir o‘lchovli** va **ko‘p o‘lchovli ziddiyatga** bo‘linadi. **Bir o‘lchovli ziddiyatda**, fonemalar bir belgi asosida zidlanadi. Masalan, [b] va [p] fonemalaridan biri jarangli va ikkinchisi jarangsiz bo‘lib, ular bir belgi “jarangsizlik” xossasiga ko‘ra qarama-qarshi turadi. Yoki [p] va [y] fonemalaridan biri lablanmagan va ikkinchisi lablangan bo‘lib, bunda ular bir belgi – “lablanganlik” xususiyatiga ko‘ra qarama-qarshi turadi. **Ko‘p o‘lchovli ziddiyatda** ziddiyat a’zolari birdan ortiq belgi asosida qarama-qarshi qo‘yiladi: [h] [q] ziddiyatida [h] bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi undosh bo‘lsa, [q] til orqa, portlovchi undosh sanaladi. Yoki [i]- [o] ziddiyatida [i] yopiq va lablanmagan bo‘lsa, [o] yarim yopiq, lablangandir. Barqarorlik darajasiga ko‘ra zidlanishlar barqaror (doimiy) va barqaror bo‘lmagan (neytrallashgan) turlarga bo‘linadi. **Barqaror zidlanishda** fonemalarning qanday nutqiy vaziyatda bo‘lishidan qat’i nazar, ulardagi ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, til oldi unlisi til orqa undoshi bilan kelgan vaziyatda til orqa undoshi sifatida namoyon bo‘ladi. Unli va undoshlar orasidagi

²⁷ Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш.–Т.: Ўқитувчи, 1999.

qarama-qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo‘la oladi. Yoki undoshlarning paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra, unlilarning tor – kenglik xossalariغا ko‘ra, zidlanish ham barqaror ziddiyatlardir. **Barqaror bo‘lman zidlanishda** fonemaning belgisi kuchsizlanadi. Masalan, [b] fonemasi so‘z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning [p] fonemasiga zidligi saqlanadi. Va bu **kuchli pozitsiyadir**. Ba’zi hollarda esa jarangli undoshlar so‘z oxirida jarangsizlashadi: *лук* (*lyuk*), *город* (*gorod*), *kitob* (*kitob*), *aktiv* (*aktiv*). Bunday neytrallanish, so‘nishga olib keluvchi pozitsiya **kuchsiz pozitsiyadir**. Bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror ziddiyat deyiladi. Fonema va tovush munosabati invariant-variant dialektikasini o‘zida aks ettiradi. Nutqiy variantlanishlarda fonemalar turli – tuman tovush sifatida yuzaga chiqadi va ularni shartli ravishda, masalan, (b1), (b2), (b3), (b4), (b5),..... (bn) tarzida belgilash mumkin. Nutqda voqelangan barcha (b) larni bitta [b] fonemasiga birlashtirishda ularning umumiyligi xossalari “yig‘ildi”. Bunday umumiyligi xossalardan biri ularning akustik va artikulyatsion o‘xshashliklaridir. Turli talaffuz sharoitlarida bu umumiyligi belgilar o‘zgarishga uchrashi mumkin. Lekin bu o‘zgarishlar miqdor o‘zgarishlari darajasida bo‘lib, sifat o‘zgarishi bosqichiga yetmaydi. Masalan, [u] fonemasi “yuqori” va “lablangan”lik mohiyatiga ega. Shu boisdan nutqda [u] voqelanganda, qanchalik o‘zgarishga uchramasin, baribir, tovush bu fonemaning varianti hisoblanishi uchun mazkur “yuqori tor”, “lablangan”lik mohiyati chegarasidan chiqmasligi kerak. Masalan, *qurbaqa* va *kunbotar* so‘zlarida 2 ta “**у**” tovushi va 3 ta “**а**” tovush mavjud bo‘lib, “**у**” tovush “yuqori tor, lablanganlik” umumiyligi belgisiga, “**а**” tovush “quyi keng, lablangan”lik belgisiga ega. Nutqda bu tovushlar turli miqdor o‘zgarishlariga uchrasha ham, ular “**а**” va “**у**” fonemasining **varianti** hisoblanadi. *Kunbotar* so‘zidagi “**у**” bilan *qurbaqa* so‘zidagi “**у**” tovushlari qattiq – yumshoqligi bilan farq qiladi. Bu belgilar “**у**” fonemasi zotiy mohiyatida mavjud bo‘lmay, balki talaffuz jarayonida “**қ**” va “**к**” tovushlari ta’sirida yuzaga kelgan hodisadir. Boshqacha aytganda, *kunbotar* so‘zidagi “**у**” tovushiga xos bo‘lgan yumshoqlik, *qurbaqa* so‘zidagi “**у**”ga xos bo‘lgan qattiqlik boshqa bir fonemaning,

zarraning “u” fonemasiga yopishgan taxallusidir. Bir fonema ham jarangli, ham jarangsiz bo‘la olmaganidek, “u” fonemasi ham yumshoq, ham qattiq yoki “a” fonemasi ham til oldi, ham til orqa tovush sifatida voqelana olmaydi. Demak, fonemaning zotiy mohiyati doirasidan chiqqan tovush uning varianti sanalmaydi. Deylik ruscha *zopod* so‘zi nutqda *zopom* tarzida talaffuz etiladi. “p” tovush jarangsizlanadi, “p” tovushi “b” tovushining varianti sanalmaydi. Bu ikki so‘zda “b” alohida va “p” alohida lisoniy mohiyat kasb etadi.

Fonema variantlari ma’no farqlash qobiliyatiga ega emas. Fonemaning o‘zi funksional ma’no farqlash xossasiga ega, ya’ni bir fonemaning nutqiy varianti o‘rnini ikkinchi bir fonemaning nutqiy varianti egallasa, so‘z ma’nosi o‘zgaradi: *besh – bet, ot – o’t, tog‘ – tosh* kabi.

Ba’zi tillarda undosh fonemalar, ba’zi tillarda esa unli fonemalar ko‘p bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida 25 undosh va 6 unli fonema, nemis tilida 18 undosh va 15 unli fonema, abxaz xalqining tilida esa 68 undosh va 3 unli fonema bor. Demak, fonema va tovush bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi va ular aynan bir narsa ham emas. Fonema umumiylilik, mohiyat, sabab belgilariga ega bo‘lsa, tovush yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat kabi belgilariga egadir. Fonemaning ongdagi shartli ifodasi **grafemadir**. Harf esa tovushning ifodasi. Qog‘ozga tushirgan harflarimizda grafemalarning xossalari namoyon bo‘ladi. Demak, fonema bilan grafema, tovush bilan harf o‘zaro munosabatga kirishadi. Har qanday tovush fonema varianti, har qanday harf grafema varianti sanaladi. Fonema haqidagi nazariya, asosan, rus tilshunos olimlari tomonidan ishlangan .

1.Boduen de Kurtenening **psixologik fonema nazariyası** mavjud. Ubu nazariyasida ilk bor fonemaning umumiy tushuncha ekanligi, tovushning fonemani tallafuz qilishdagi aniq tassavur ekanligi qayd etilgan.

2.Boduen de Kurtenening shogirdi mashhur tilshunos L.B.Shcherbaning **fizik fonema nazariyası** ham bor. Olim nutq jarayonida aniq talaffuz qilinuvchi yakka tovushlarni fanemalarning ottenkalari deb atagan.

3.N.S.Trubeskoyning **fonologik nazariyasi**. N.S.Trubeskoy ilk bor fonologik oppozitsiya (ziddiyat)larni o‘rgangan. Borliqdagi barcha narsalar bir – biriga qarama-qarshi qo‘yilib farqlanganidek, tildagi tovushlar ham oppozitsiyalar yordamida farqlanadi. Olimning ziddiyatlarning tiplari borasidagi fikrlari xususida biz yoqorida to‘xtalgan edik.

N.S.Trubeskoy fonema va uning variantlari xususida ham qimmatli fikrlar aytgan. Fonema, fonologik oppozitsiyalarni o‘rganishda N.S.Trubeskoy, A.A.Reformatskiylarning nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Fonema va fonologiya atamalarini izohlang.
2. Fonologiya sathining taraqqiyotida qaysi olimlar qanday nazariyalarni yaratganlar?
3. Fonema va tovush munosabati haqida nima bilasiz?
4. Fonologik ziddiyatlar deganda nima tushuniladi va ularning qanday turlari bor?
5. Fonema va tovush munosabatida invariant - variant dialektikasi qanday aks etadi?
6. Fonema variantlari ma’no farqlash xususiyatiga egami?
7. Barcha tillarda unli va undosh fonemalar soni bir xilmi?
8. Grafema nima? Uning fonema bilan munosobati.
9. Quyidagi jumlanı izohlang :

Har qanday tovush fonema varianti, har qanday harf grafema variantidir.

10. Rus tilshunosi N.S. Trubeskoyning fonologiya sohasidagi nazariyasi qanday ahamiyatga molik ?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [5; 6; 10; 11; 28; 51]

TOVUSH IFODASI. TRANSKRIPSIYA

Reja:

1. Tovush ifodasi haqida.
2. Transkripsiya – nutq tovushlarining barcha xususiyatlarini yozuvda aniq ifodalash vositasi.
3. Transkripsiya tamoyillari to‘g‘risida.
4. Ba’zi diakritik belgilarning vazifasi va ahamiyati.
5. Fonetik va fonologik transkripsiya.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Nutq tovushlarining ifodasi sifatida: harf, fonema, transkripsiya; transkripsiyaning asosiy tamoyillari, transkripsion belgilar va alifbo, diakritik belgilar, fonetik transkripsiya, fonologik transkripsiya, grafematik transkripsiya

Havoning to‘lqinlanishidan tovush paydo bo‘ladi. Tevarakkatrofimizdagi tovushlar (bir predmet ikkinchi bir predmetga urilganda, tekkanda chiqadigan tovushlar; shamolning ovozi, mashinaning g‘izzillashi kabi) mexanik tovushlar hisoblanadi. Sizga ma’lumki, mexanik tovushlarni fizika fani o‘rganadi.

Nutq tovushlari ulardan farq qilib, o‘pkadan chiqqan havo oqimining tovush psychalarini tebratib o‘tishi, nutq uzvlarining talaffuz jarayonidagi faoliyati natijasida vujudga keladi. Nutq tovushlarining tabiatdagi boshqa tovushlardan asosiy farqi ularning kishilar o‘rtasidagi nutqiy aloqa qilish vositasining eng kichik, asosiy tarkibiy qismi ekanlidigadir. Demak, nutq tovushlari ijtimoiy qimmatga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Nutq tovushlarining, asosan, uch xil ifodasi mavjud bo‘lib, bular **harf**, **fonema** va **transkripsyadir**.

Nutq tovushlarining, yozuvdagagi shartli ifodasi harf hisoblanadi. Tovush bilan harfni farqlash lozim, ular bir narsa emas. Tovush nutqqa xos birlik bo‘lsa, harf yozuvga tegishlidir. Harf ham ijtimoiy qiymatga ega, biroq u o‘z ijtimoiy xizmati bilan tovushga teng kela olmaydi. Tovushga nisbatan harfning vazifasi bir qadar chegaralangan. Chunonchi, *o‘t (olv)*, *o‘t (maysa)*, *o‘t (fe'l)*, *o‘tkazmoq*, *o‘tqazmoq*, *noo‘rin*, *do‘ppi*,

o'n, o'q so'zlarining hammasida [o'] tovushi ishtirok etadi. Ammo bu so'zlar tarkibidagi [o'] tovushining talaffuzi aynan bir xilda emas, ma'lum darajada farqlanadi. Yozuvda esa tovushning serqirraligi hisobga olinmaydi va birgina harf bilan ifodalanaveradi. Zero, harf yuqorida ta'kidlaganimizdek, tovushning barcha xususiyatlarini aks ettira olmaydi.

Tovush so'zning faqat moddiy qobig'igina bo'lib qolmay, balki so'z va so'zshakllarni o'zaro farqlash, ma'no ajratish vazifasini ham bajaradi. Bu sizga "Fonema" mavzusidan yaxshi tanish. Demak, nutq tovushlari ifodasining yana bir ko'rinishi **fonema** bo'lib, fonemani harfdan farqlash juda zarurdir. Ma'lumki, fonema eng kichik til bo'lagi bo'lib, so'zlarni, morfemalarni o'zaro farqlashga xizmat qiladi. Masalan, *tor, tar, ter, tir, tur, to'r* so'zlarida [a], [o], [e], [i], [u], [o'] unlilari fonemalar hisoblanadi. *Sor, bosh, qol, dog', nok, goh, joy* kabi so'zlarda [s], [r], [b], [sh], [q], [l], [d], [g'], [n], [k], [g], [h], [j], [y] undoshlari ma'no farqlovchi fonemalardir.

O'rdak so'zidagi har bitta tovush (harf) alohida fonemadir. Ammo o', r, d, a, k, tovush (harf)lari alohida olib qaralganda fonema bo'la olmaydi. Fonema bilan harf tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq, ammo ular aynan bir narsa emas. Harf yozuv birligi, fonema esa tilshunoslikning "Fonologiya" sathida o'rganiluvchi til birligidir.

Transkripsiya (*transcriptio ko'chirib yozish*) – yozuvning nutq tovushlari talaffuzini aniq ifodalash uchun ishlataladigan sun'iy (chartli) turi; nutq bo'laklari (tovush, bo'g'in, so'z)ning tovushiy sifatlarini yozuvda aniq aks ettirish usuli. Transkripsiya, eng avvalo, 2 ga bo'linadi: ilmiy transkripsiya va amaliy transkripsiya. Ilmiy transkripsiya o'z xususiyatiga ko'ra, fonetik va fonematik transkriptiyalarga bo'linadi. Fonetik transkripsiya og'zaki nutq (talaffuz)ni barcha xususiyatlari bilan yozuvda aniq aks ettirishni ko'zda tutadi va xorijiy tillar (masalan, ingliz tili) lug'atlarida, til darsliklari va notiqlik qo'llanmalarida, jonli tilni yozib olishda (dialektologik yozuvlar, fonetika darsliklari va boshqalar) qo'llanadi. Fonetik transkriptiyaning asosiy prinsipi shundaki, talaffuz etilgan har bir tovush yozuvda alohida qayd etilishi kerak. Fonetik transkripsiya amaldagi biror alifbo asosida, unga nutq a'zolaridagi ayrim

artikulyatsiyalarni aks ettiruvchi ostust belgilari yoki ixtiyoriy o‘ylab topilgan belgilar tizimini qo‘sish bilan yaratiladi. Masalan, o‘zbek shevalarini o‘rganish maqsadidagi dialektologik yozuvlarda amaldagi alifboda bo‘limgan e, o (til oldi a), o‘, ’ (i ning variantlari), o, q (o‘ ning variantlari) va boshqa belgi (harf)larning qo‘llanishi. Universal transkripsiya sifatida Xalqaro fonetik uyushma – IPA (International Phonetic Association) tomonidan 1886-yilda lotin grafikasi asosida yaratilgan va doimo takomillashtirib boriladigan xalqaro fonetik alifbo qo‘llanadi.

Fonematik transkripsiya har bir so‘zni fonema tarkibiga ko‘ra aks ettiradi, bunda kuchsiz pozitsiyalarda paydo bo‘ladigan variantlar aks ettirilmaydi. Ushbu transkripsiyaning prinsipiga ko‘ra, har bir fonema, pozitsiyasidan qat’i nazar, doimo ayni bir belgi bilan aks ettiriladi. Fonematik transkrepziyada fonetik transkripsiya karaganda kamroq belgi ishlataladi, chunki fonemalar miqdori doimo variantlar miqdoridan kam bo‘ladi.

Amaliy transkripsiya muayyan milliy alifbo vositalari orqali boshqa tillardagi atoqli otlar, terminlar, maxsus nomlar va shu kabi tarjima qilinmaydigan so‘zlarni aks ettiradi va shu yo‘l bilan ularni qabul qiluvchi tilning bosma matnlariga kiritadi. Amaliy transkripsiya qabul qiluvchi til alifbosidagi belgilar chegarasidan chiqmaydi, lekin belgilarning ayrim g‘ayriodatiy qo‘llanishlariga yo‘l qo‘yadi. Amaliy transkripsiya qo‘yiladigan asosiy talablardan biri qabul qilinayotgan birlikning talaffuzini imkon qadar aniq saqlab qolishdir. Shu bilan birga, amaliy transkripsiya so‘zning morfem tuzilishini, uning grafik xususiyatlari va boshqani saqlab qolishi hamda muayyan so‘zning oson o‘zlashishini ta’minlashi kerak.

Fan olamida transkripsiya so‘zi boshqa ma’nolarda ham qo‘llaniladi. Masalan, biologiyada tirik hujayralarda matritsa – dezoksiribonuklein kislota (DNK)da ribonuklein kislota (PNK) biosintezining amalga oshish jarayoni tushinilsa, musiqada ayrim musiqa asarini boshqacha tarzda –

biror so‘zga moslab ifodalash (aranjirovka) yoki erkin qayta ishlash tushiniladi.

Tilshunoslikda esa keng ma’noda atoqli – geografik, tarixiy va boshqa nomlarning ma’lum bir qoida asosida berilishi; tor ma’noda esa transkripsiya yuqorida berilgan ta’rif asosi anglashiladi. Bu atama ko‘pincha keyingi ma’noda ishlatiladi. Demak, transkripsiya nutq tovushlarining barcha xususiyatlarini yozuvda aniq ifodalish vositasi bo‘lib, yozuvning shartli, sun’iy turidir.

Transkripsiya o‘rganish nima uchun kerak? Bu savolga shunday javob berish mumkin:

–birinchidan, transkripsiya og‘zaki nutq jarayonida talaffuzning yozuvda aks ettirilmagan tovush xususiyatlari va yozuvdagi matnlarni to‘g‘ri va juda aniq ifodalash uchun zarur;

–ikkinchidan, qadimgi yozuvlarni to‘g‘ri o‘qish, o‘rganish, o‘qilishi qiyin va murakkab bo‘lgan ieroglifik va bo‘g‘inli yozuvlarni o‘rganish uchun zarur;

–uchinchidan, orfografiya qoidalariда tarixiy- an’anaviy tamoyil saqlangan tillarni o‘rganish ishlarini osonlashtiradi;

–to‘rtinchidan, chet tillarning talaffuzini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Transkriprisiya tamoyillari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy va tarixiy – an’anaviy prinsiplaridan farq qiladi. Transkripsiyaning asosiy tamoyiliga ko‘ra so‘zlar qanday eshitilsa, shunday yozib olinadi. Bu holat qisman orfografiyaning fonetik prinsipiiga o‘xshaydi. Biroq orfografiyada odatda bir tovush bitta harf bilan ham, ba’zan bitta tovush ikki harf bilan ham yoki, aksincha, ikki tovush bitta harf bilan (bunda kirill alifbosidagi *e*, *ë*, *ю*, *я* grafemalari nazarda tutilmoqda) berilishi ham mumkin. Transkripsiyada esa hamma vaqt bir tovush harf (belgi) bilan beriladi.

Transkripsion belgilar xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan an’anaviy alifbolar asosida tuziladi. Ularga qo‘sishimcha belgilar ham qo‘shiladi. Transkripsion belgilar soni asos qilib olingan alifbo harflari sonidan ko‘p

bo‘ladi. Asosiy transkripsion belgilarga qo‘shiladigan qo‘shimcha belgilar **diakritik belgilar** deyiladi.

Transkripsiyada yozib olinayotgan materialni mumkin qadar aniq qilib berish maqsadida shartli belgilardan ham foydalaniladi. Transkripsiyada ishlatalishi mumkin bo‘lgan ba’zi shartli ifoda va diakritik belgilar haqida ma’lumot beramiz.

[] – umumiylar matndan ajratilib, transkripsiya uchun tanlangan so‘zlar ko‘rsatiladi.

// - bu belgi ikkita shaklning bajaradigan funktsiyasi (vazifasi) jihatdan teng huquqqa ega ekanligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi: - *dek* // - *day*

= - bu belgi tarjima bilan asl matn yoki asosiy mant bilan transkripsiyadagi izoh orasiga qo‘yiladi.

> - biror so‘z yoki shaklning boshqa so‘z yoki shaklga o‘tganligini ifodalaydi. Masalan, *durur* > *dir*, *bu kun* > *bugun* kabi.

< - bu belgi biror so‘z yoki shakl qaysi so‘zdan yoki shakldan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi. Chunonchi, *bilan* < *ila* , *uchun* < -*chun* kabi.

/ - bir shevadagi shakllarning variantlarini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Masalan, qipchoq shevalaridagi – *di* / -*ti*, -*di*’ / - *ti*’ kabi.

: - bu belgi o‘zidan oldingi unli tovushning to‘la cho‘ziqligini bildiradi:

sha: r (shahar), sa: r (sahar) kabi.Bu belgi undosh tovushdan keyin qo‘yilganda [i] unlisining kuchsizlanishini ko‘rsatadi: b: *lak*, t: *lak*, p: *choq* kabi.

Transkripsiya, asosan, ikki xil ko‘rinishga ega: fonetik transkripsiya va fonologik transkripsiya.

Fonetik transkripsiyada har bir tovush maxsus belgi bilan ifodalanadi va u, asosan, dialektologik ishlarda qo‘llaniladi. Uning vazifasi tildagi tovushlarni mumkin qadar, to‘liq va barcha qirralari bilan ifodalashdir. Fonetik transkripsiyada tovushlarning muayyan holatlarda artikulyatsion – akustik tomondan o‘zgarishi hisobga olinadi va so‘z tarkibidagi ma’no farqlovchi tovushlarning har bir varianti uchun alohida belgi qabul qilinadi. Transkriptsiyaning bu turida transkriptsion belgilar kvadrat qavs ichida

beriladi. Chunonchi, [k], [t], [p] fonemalarining unlilardan oldin talaffuz qilinuvchi variantlari [kh], [th], [ph] belgilari bilan ifodalanadi. Fonetik transkripsiyaning imkoniyatlari keng bo‘lib, u ba’zan allofonik transkripsiya deb ham yuritiladi.

Fonologik transkripsiya so‘zshakl va morfemalarni farqlay oluvchi har bir fonema uchun bir belgi qo‘yish tamoyiliga asoslanadi. Bunda fonemalar variantlari, ya’ni tovushlarning turlicha talaffuzi hisobga olinmaydi. Fonologik transkripsiya belgilari vertikal chiziqdagi qavs ichida beriladi: /k/, /t/, /p/ kabi. Transkripsiyaning bu turi fonematik transkripsiya deb ham yuritiladi.

Hozirgi kunda kirill alifbosi asosida tuzilgan rus, o‘zbek va boshqa tillardagi transkripsiylar sistemasi mavjud. Yozuvdagagi harflarni ba’zi tuzatishlar va o‘zgartirishlar asosida tuzilgan belgilar **grafematik transkripsiya** deb yuritiladi. Tilshunos olimlar – V.V.Reshetov va Sh.Sh. Shoabdurahmonovlar tomonidan tuzilgan grafematik transkripsiya o‘zbek dialektlarida uchraydigan tovushlarni ifodalashga mo‘ljallangan. Bu transkripsiya sistemasida o‘zbek kirill alifbosidagi barcha harflar va qo‘shimcha diakritik belgilar qo‘llaniladi.

Olim A.K.Borovkov tomonidan taklif etilgan va keyinchalik akademik L.V.Shcherba, professor E.V.Polivanovlar tomonidan takomillashtirilgan lotin alifbosi asosidagi transkripsiyanidan hozir ham foydalаниlib kelinmoqda. Lotin alifbosi asosida tuzilib tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan transkripsiya xalqaro fonetik alifbo nomi bilan yuritiladi.

O‘zbek tilida unli fonemalarining quyidagi variantlari bor:

a – til orqa, lablanmagan, keng unli. U ko‘proq qipchoq shevalaridagi **o** ni ifodalaydi. Chunonchi, *ata* (*ota*), *bala* (*bola*), *bash* (*bosh*) kabi.

ə - a unlisining tor va qisqa varianti: *ə k ə* (*aka*), *ana* (*ə n ə*)

o - o' unlisining urg‘u tushmagan varianti: *otin* (*o ‘tin*), *g’oza* (*g ‘o ‘za*), *jora* (*jo ‘ra*) kabi.

o - o' unlisining til orqa, lablangan, o‘rta keng varianti. Bu variant juda ko‘p qishloq shevalarida uchraydi: *yol* (*yo ‘l*), *qol* (*qo ‘l*), *oraq* (*o ‘roq*) kabi.

Rus tilida unli tovushlarning (fonemalarning) variantlarini aks ettirish uchun (ъ, б, ^ ъ) kabi diakritik belgilar qabul qilingan.

Transkripsyada yumshoq undoshlar alohida belgi (‘) bilan ko‘rsatiladi.

Masalan, (быть-быт`, любов-л` увоф) kabi.

O‘zbek tilidagi undoshlar transkripsyada o‘z holicha alifbodagi harflar kabi qo‘llaniladi. Faqat **l**, **v** undoshlarining variantlariga maxsus diakritik belgilar qo‘yiladi. Va yana **ng** undoshi **n** tarzida, sirg‘aluvchi **j** undoshi **jı** tarzida belgilanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nutq tovushlarining ijtimoiy qiymatga ega ekanligini isbotlashga harakat qiling.
2. Tovushning harf va fonemadan qanday farqi bor?
3. Transkripsyasi nima? Bu so‘z qaysi sohalarning o‘ziga xos atamasi hisoblanadi?
4. Transkripsyani nima uchun o‘rganamiz?
5. Transkripsyasi tamoyillarini orfografiya prinsiplaridan qanday farqi bor?
6. Transkripsion belgilar qanday tuziladi? Diakritik belgi nima? Misollar asosida tushuntiring.
7. Fonetik transkripsyyaning fonologik transkripsyadan qanday farqi bor?
8. Grafematik transkripsyasi nima?
9. Xalqaro fonetik alifboden nima maqsadda foydaniladi?
10. Quyidagi kichik matnni transkripsyada yozing: *Fikrni chiroylı va ravon ifodalay olish, tushunarli qilib so‘zlash va aniq, lo‘nda javob berish jamiyat a’zolari uchun eng zarur va yaxshi xislatdir.*

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 40; 47; 55; 60; 68]

URG‘U VA UNING TURLARI HAQIDA

Reja:

1. So‘z urg‘usi haqida.
2. Dinamik urg‘u, miqdor urg‘usi, musiqiy urg‘u.
3. Mantiq urg‘usi to‘g‘risida.
4. Fraza urg‘usi.

5. Ohang haqida.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

So‘z urg‘usi, fraza urg‘usi, erkin va bog‘liq urg‘u, dinamik urg‘u, miqdor urg‘usi, musiqiy urg‘u, bosh va ikkinchi darajali urg‘u, intonatsiya (ohang), ritm, tovushning asosiy toni, nutq tempi, ovoz tembri.

Bo‘g‘in yoki so‘zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan aytilishi **urg‘u** deyiladi .Tilshunoslikda, odatda, urg‘uning tushish o‘rniga qarab ikki turi ajratiladi: so‘z (leksik urg‘u) urg‘usi va mantiq (logik urg‘u) urg‘usi. Leksik urg‘u so‘zning biror bo‘g‘iniga xos bo‘lgan fonetik hodisa bo‘lsa, logik urg‘u gapning ma’lum bir bo‘lagiga tegishli bo‘lgan sintaktik hodisadir. Ilmiy adabiyotlarda urg‘u haqida gapirilganda, odatda, asosan so‘z urg‘usi nazarda tutiladi. So‘z urg‘usida so‘zning ma’lum bir bo‘g‘inidagi unli tovush boshqalariga qaraganda kuchliroq ohang bilan talaffuz qilinadi. So‘z urg‘usini uch tomonlama tasnif etish mumkin:

- 1.Urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushishiga ko‘ra.
- 2.Urg‘u sifatiga ko‘ra.
- 3.Ko‘p bo‘g‘inli, qo‘shma va murakkab tuzilishli so‘zlarda urg‘u miqdoriga ko‘ra.

Ilmiy adabiyotlarda urg‘u so‘zning qaysi bo‘g‘iniga tushishiga ko‘ra ikki turga– erkin urg‘u va bog‘liq urg‘uga bo‘linishi qayd etiladi. So‘z bo‘g‘inlaridan bo‘g‘inlariga ko‘chib, uning ma’nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan urg‘u **erkin urg‘u** deyiladi. Erkin urg‘u rus, ingliz, italyan va qisman o‘zbek tiliga ham xosdir.Chunonchi, *урган* (*a’zo, mucha*) - *органи* (*musiqa asbobi*), *здурое* (*juda, rosa*) - *здоруе* (*salom, yaxshimisiz*) kabi ruscha so‘zlarda; *suzmб* (*taomning nomi*)- *сузма* (*buyruq shaklidagi fe’l*), *sizsiz* (*olmosh; Ishonganim sizsiz*)- *sizsiz*(*sifat*; *Sizsiz o‘tgan damlar behuda*) kabi o‘zbekcha so‘zlarda bu holatni kuzatish mumkin.

Urg‘uning o‘rni har doim so‘zning muayyan bir bo‘g‘ini bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday urg‘u **bog‘liq urg‘u_deb** ataladi. Fransuz, polyak va turkiy tillar uchun bog‘liq urg‘u xosdir. Chunki bu tillarda urg‘uning o‘rni, odatda

so‘zning oxirgi bo‘g‘inida bo‘ladi. Masalan, *triky*, *palty* (fransuzcha); *gulchi*, *gulchilik*, *gilchilikdōn* (o‘zbekcha).

So‘zlardagi bir yoki undan ortiq bo‘g‘inlarni ajratib talaffuz qilish turli nutqiy vositalar orqali amalga oshadi. Nafas kuchi, kuchli talaffuz va tovush psychalarining tebranishi so‘zga urg‘u qo‘yishning asosiy vositalari hisoblanadi. Artikulyatsion-akustik vositalar urg‘uning sifatini belgilaydi. Urg‘u sifatiga ko‘ra uch turga bo‘linadi: dinamik urg‘u, miqdor urg‘usi va musiqiy urg‘u.

Tillarning boshqa tillardan so‘z olib, olinma so‘zlar hisobiga ham boyib borishini nazarda tutsak, dinamik urg‘u deyarli barcha tillar uchun xosdir. “Dinamika” so‘zi sizga o‘rta mакtabdagи fizika fanidan yaxshi tanish. Bu so‘z yunon tilidan olingan bo‘lib, “kuch” demakdir. Tilshunoslikda so‘z tarkibidagi urg‘u qabul qilgan unli tovushning bir qadar kuchli va cho‘ziq talaffuz etilishi **dinamik urg‘u** hisoblanadi. Ayrim tillarda dinamik urg‘uning ta’siri natijasida so‘z tarkibidagi urg‘usiz unli tovushlar pozitsion o‘zgarishlarga uchraydi. Ya’ni urg‘u qabul qilgan unli tovush baland ovoz bilan, shiddat bilan aytilganda, urg‘usiz unlilar talaffuzida noaniqlik, qisqalik, bilinar-bilinmaslik yuzaga keladi. Bu holatni slavyan tillarida, chunonchi, rus tilidagi ayrim so‘zlar talaffuzida kuzatish mumkin. Ruscha *трактор* so‘zida birinchi bo‘g‘indagi **a** unlisiga dinamik urg‘u tushadi, shuning uchun u o‘z artikulyatsiyasi bilan aniq va to‘liq talaffuz etiladi. Ikkinchchi bo‘g‘indagi **o** unlisi urg‘u tushmaganligi bois o‘z sifatini o‘zgartirib, ancha noaniq, bilinar-bilinmas aytildi. *Трактору* (*traktori*) so‘zida esa urg‘u oxirgi bo‘g‘indagi **i** tovushiga tushganda, o‘rta bo‘g‘indagi **o** unlisi endi a tarzida aniq talaffuz etiladi. *Композитор* (*bastakor*)-*композитора* (*bastakorni*), *город* (*shahar*)-*города* (*shaharlar*) kabi so‘zlar talaffuzida ham yuqoridagi kabi o‘zgarishlar yuz beradi. Bunday tillarda urg‘uning roli beqiyosdir. Avvalo, urg‘u so‘zlar orfoepiyasi uchun o‘ta muhim, ikkinchidan, nutqdagi shakldosh (omonim) so‘zlarning ma’nosini farqlaydi: *мука*(*un*) - *мука* (*azob*) kabi.

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida rus tilidan farqli o‘larоq so‘z tarkibidagi urg‘uli unli tovush ta’sirida urg‘usiz bo‘g‘inlardagi unlilar artikulyatsiyasi deyarli o‘zgarmaydi. Masalan, *bilimdonlikdan, yoshlarimizning* kabi. Talaffuz jarayonidagi urg‘uli bo‘g‘inning cho‘ziqligi asosiy xizmatni bajarsa, **miqdor urg‘usi** yoki **kvantitativ urg‘u** deyiladi. So‘zlar talaffuzida sof miqdor urg‘uni ajratish qiyin. Chunki u ko‘proq dinamik urg‘u bilan qarishiq holda bo‘ladi. Shunga ko‘ra rus, o‘zbek, nemis tillaridagi urg‘u dinamik-kvantitativ urg‘u sanaladi.

Asosiy ton (ohang)ning harakati yordamida amalgam oshiriluvchi urg‘u **tonal** (melodik) yoki **musiqiy urg‘u** deyiladi. Qadimgi grek, qadimgi hind, hozirgi xitoy, yapon, serb, litva tillarida muzikal (musiqiy) urg‘u uchraydi. Norveg, island, shved tillarida urg‘u ovoz kuchi va ohang bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bu tillarning urg‘usi dinamik-musiqiy urg‘u hisoblanadi.

Dunyodagi barcha tillar ham so‘z urg‘usiga ega bo‘lavermaydi. Shimoliy Osiyo, Shimoliy-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika tillarining ko‘philigida so‘z urg‘usi yo‘q.

Ko‘p bo‘g‘inli qo‘shma va murakkab tuzilishli so‘zlarda urg‘u miqdoriga ko‘ra bosh urg‘u hamda ikkinchi darajali urg‘uga bo‘linadi. Ma’lumki, o‘zbek tilida urg‘u asosan so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi. So‘zga ma’lum bir yasovchi, turlovchi, tuslovchi qo‘shimchalar qo‘shilganda urg‘u oxirgi bo‘g‘inga kochaveradi: *paxta – paxtakor – paxtakorlari – paxtakorlarimizga; keljak – keljakda – keljakdagi* kabi. Biroq ayni vaqtida shu misollardagi kabi ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda ham urg‘u bo‘linib tushadi. Bunday vaqtida asosiy urg‘u so‘z oxiriga tushsa, qo‘shimcha urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga yoki so‘zning o‘rtaliga bo‘g‘inlariga tushadi. Yordamchi urg‘u olgan bo‘g‘inni talaffuz qilishda nafas kuchi asosiy (bosh) urg‘u olgan bo‘g‘indan kam bo‘ladi, biroq u urg‘usiz bo‘g‘inlarga qaraganda bir oz kuchliroq aytiladi. Shu jihatiga ko‘ra, bunday yordamchi urg‘ular ikkinchi darajali urg‘ular sanaladi. Ikkinci darajali urg‘uning so‘zning qaysi o‘rniga tushishi so‘zning qanday ohang (intonatsiya) bilan aytilishiga va shu ohangning xarakteriga ham bog‘liq.

Masalan, *вольна* (*erkin, bemalol*) – *вольнодумец* (*hurfigr*), *дело* (*ish, yumush*) – *деловито* (*jiddiy, ish bilarmon odamdek*) kabi.

Ma'lumki, o'zbek tilida affiks yuklamalar urg'u qabul qilmaydi. Ammo bu ularga urg'u butunlay tushmaydi degani emas. *-mi, - chi, - ku, - da, -oq (-yoq), -a (-ya), -gina (-kina, -qina)* kabi affiks yuklamalar ko'p bo'g'inli so'zlarga qo'shilganda, urg'uning bo'linishi natijasida hosil bo'lgan ikkinchi darajali urg'u shu yuklamalarga ham tushishi mumkin. Chunonchi, *yuraversang-chi, nordonroq-ku* kabi.

Xuddi shunday *[-miz], [- siz]* tuslovchi qo'shimchalarga ham ikkinchi darajali urg'uning tushish tushmasligi shu affikslar qo'shilgan so'zning aytishlari ohangiga bog'liq. Shuni ham ta'kidlash lozimki, turli sheva vakillarining nutqdag'i urg'uning qaysi bo'g'inga tushishi har xil ko'rinishda bo'ladi. Toshkent, Farg'ona sheva vakillari nutqda *boramiz, kelamiz* kabi so'zlarning oxirgi bo'g'ini kuchsiz talaffuz etiladi va so'z oxiridagi **z** undoshi jarangsizlashib s tarzida eshitiladi. Aynan shu so'zlar Buxoro, Samarqand shevalarida boshqacharoq talaffuz etiladi, ya'ni oxirgi *[-miz]* qo'shimchasiga yordamchi urg'u tushiriladi, natijada so'z oxiridagi **z** undoshining aniq talaffuz saqlaniladi.

Mavzuning kirish qismida sintaktik hodisa sifatida xarakterlanuvchi mantiq urg'usining mavjudligi to'g'risida ham aytib o'tgan edik. Mantiq urg'usi gapdagi so'z shaklni mazmun jihatdan ajratib ko'rsatish uchun ishlataladi. Mantiq urg'usi tilshunoslikda logik urg'u, gap urg'usi, intonatsion urg'u kabi nomlar bilan ham yuritiladi. So'zlovchining maqsadiga qarab, gapdagi biror so'z shakl yoki so'zshakllar guruhiга alohida etibor berilib, ular boshqa so'z shakllarga qaraganda kuchliroq ohang bilan aytildi va bu bilan tinglovchining diqqati gapdagi o'sha so'zshakl yoki so'zshakllarning ma'nosiga jalb etiladi. Odatda, o'zbek tilida mantiqiy urg'u olgan so'zshakl kesim oldida keladi. Gapda nechta so'zshakl bo'lsa, shuncha miqdorda so'z urg'usi bo'ladi. Biroq qanchalik darajada yoyiq yoki yig'iq bo'lishidan qat'iy nazar, unda mantiq urg'usi bitta bo'ladi. Masalan,

Salimaxon bugun institutga boradi.

Bugun institutga Salimaxon boradi.

Salimaxon institutga bugun boradi.

Tilda emfatik emotsional urg‘u ham mavjud. Urg‘uning bu ko‘rinishi ham gapdagi ma’lum bir so‘zshaklni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bu bilan u mantiqiy urg‘uga o‘xshab ketadi. Biroq, mantiqiy urg‘udan farqli o‘laroq emfatik urg‘uda hissiylik kuchli bo‘ladi. O‘zbek tilida emfatik urg‘u ostidagi so‘z tarkibida unli yoki undosh cho‘ziladi. Masalan, *Havo t - o- o- za ekan. Ch - i - royli qiz keldi.*

Mantiqiy va emfatik urg‘u ostidagi so‘zlarda pauza ham ko‘maklashuvchi vosita sifatida qatnashadi. Bu kabi urg‘ularni olgan so‘zlardan oldin ko‘p hollarda pauza paydo bo‘ladi.

Fraza nutqqa xos fonetik birlik bo‘lib, har ikki tomonidan chuqur pauza bilan bo‘lingan eng katta segment hisoblanadi. Fraza va gaplardagi so‘zlarning biror bo‘g‘inini ajratib talaffuz qilish **fraza urg‘usi** deyiladi. Fraza urg‘usi intonatsyaning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Fraza urg‘usi, musiqiylik, ritm, tovushning asosiy toni, cho‘ziqlik, temp, membr kabi unsurlar birligidan iborat bo‘lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va hissiy – ta’siriyligi ma’nolarni ifodolovchi murakkab hodisa **intonatsiya** (ohang)dir.

Musiqiylik va fraza urg‘usi ohang uchun birlamchi, qolgan unsurlar esa ikkilamchi qismlar hisoblanadi.

1. Nutq ohangining tushishi yoki ko‘tarilishi **musiqiylik** (melodiya) bo‘lib, nutqda har bir fraza o‘z melodiyasiga ega. Musiqiylik frazalarni ularash va nutqni ifodali qilish vazifalarini bajaradi.

2. **Fraza urg‘usi** nutqning biror qismini so‘z, bo‘g‘in yoki so‘z birikmasini ham alohida ajratib talaffuz etishi bilan xarakterlanadi.

3. Fraza va taktlarda urg‘uli va urg‘usiz hamda cho‘ziq va qisqa bo‘g‘inlarning almashib turishi **ritmdir**.

4. **Tovushning asosiy toni**, ya’ni intensivlik deganda kuchli va kuchsiz talaffuz, nafas kuchi nazarda tutiladi.

5. Talaffuz vaqtin, talaffuz tezligi (sekin, o‘rta va tez) **nutq tempi** deyiladi.

6. Nutq jarayonida ovozning turli xil o‘zgarishi va shu orqali hissiy – ta’siriy jihatdan ifodalanishi **ovoz tembri** deb ataladi.

Ohang – so‘z va gapning libosi bo‘lib, bu til va nutq birliklari qanday ifoda etilishiga ko‘ra, uning ma’nolari ham o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham “gap so‘zda emas, ohangda, qaysi so‘zning qanday talaffuz etilishida” deydi taniqli rus so‘zshunosi V.G.Belinskiy. Bu narsa qadimdan ham ma’lum. Xalq og‘zaki ijodidagi Afandi latifalaridan biri shu fikrimizni isbotlaydi. Afandi bilan bahslashgan boyning jahli chiqib, Afandining nafsoniyatiga tegadi. Afandi esa “Ahmoq ekansiz-ku!” deb yuboradi. Boy, tabiiyki, Afandini qoziga sudraydi. Qozi boyning yonini oladi va Afandidan so‘zini qaytarib olishini talab qiladi. Afandi noiloj: “Siz ahmoq, odam emassiz” deya uzr so‘ragan ekan.

Ohang gapning mazmunini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkinligini “O‘lim, yo‘q shafqat!”, “O‘lim yo‘q, shafqat!” yoki “Tabiiy, quruq sut qo‘shilmagan”, “Tabiiy quruq, sut qo‘shilmagan” tipidagi gaplar misolida ham ko‘rish mumkin.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1.Urg‘u turlari haqida ma’lumot bering.
- 2.So‘z urg‘usi qaysi jihatlariga ko‘ra tasnif qilinadi?
- 3.“Urg‘u sifatiga ko‘ra” deganda nimani tushundingiz?
- 4.Dinamik urg‘uning miqdor va musiqiy urg‘udan farqini tushuntiring.
- 5.Qaysi tillarda so‘z urg‘usi uchramaydi?
- 6.Urg‘uning miqdoriga ko‘ra turlarini ayting.
- 7.Shevalarning so‘z urg‘usiga ta’siri haqida ma’lumot bering. Fikringizni misollar asosida isbotlashga harakat qiling.
8. Mantiq urg‘usi haqida gapiring.
9. Emfatik urg‘u nima?
- 10.Fraza urg‘usining so‘z urg‘usidan farqini tushuntiring.
- 11.Ohangni hosil qiluvchi asosiy birliklarning har biriga ta’rif bering.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 11; 27; 28; 40; 47; 50; 55]

LEKSIKOLOGIYA. LUG‘AVIY SATH. LEKSEMA VA SO‘Z MUNOSABATI

Reja:

1. Leksikologiyada so‘z muammosi.
2. Leksemaning til birligi, so‘zning nutq birligi ekanligi.
3. Leksemaning ikki tomoni: nomema va semema.
4. Mustaqil va yordamchi leksemalar. Leksema ta’rifining mustaqil leksemalarga daxldorligi.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Leksikologiya, tilning lug‘at tarkibi, leksema, semema, nomema, sema, lisoniy birlik, nutqiy birlik, denotativ ma’no, grammatik ma’no, leksemaning tayyorligi, majburiyligi, ijtimoiyligi va umumiy belgiga ega ekanligi

Leksikologiya grekcha «leksika» so‘zidan olingan bo‘lib, tilning lug‘at tarkibini o‘rganadi. Tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning hammasi lug‘at tarkibi yoki leksika deb yuritiladi. Lug‘at tarkibining quyidagi aspektlari mavjud:

- a) tilning asosiy birligi bo‘lgan so‘z muammosi;
- b) til lug‘at tarkibi qurilishi;
- d) lug‘aviy birliklarning qo‘llanilishi;
- e) lug‘at tarkibining boyishi, taraqqiyoti va boshqalar.

Ushbu masalalar keyingi mavzularda batafsilroq tahlil qilinadi. Demak, so‘z muammosi leksikologiyaning asosiy o‘rganish manbayidir. O‘zbek tilshunosligida leksema va so‘z atamasining hozirgacha yonma-yon qo‘llanayotganligi va leksemani lisoniy sath birligi atamasi, so‘zni nutqiy sath birligi sifatida qarashga intilish kabi ziddiyatli nuqtayi nazarlar yashab kelayotganligini aytish joizdir. Tilshunoslardan Arastu davridan boshlab leksikaga ta’rif berish ustida bosh qotirganlar. Ularning barchasi so‘zning alohida-alohida qirralariga berilgan ta’riflar bo‘lib, leksemaning barcha jihatlarini qamrab olishga qodir emas. «*Bugungi kunda sintaksis bo‘yicha tilshunoslik nazariyasida yaratilgan kesim haqidagi yangi ta’limotga tayangan holda o‘zbek tilshunosligida o‘zbekcha kesim*

tushunchasini ishlab chiqish mumkin ekan, bunga bevosita metodologik omil sifatida tayanib, uni umumiy va xususiy leksema nazariyasiga ham tadbiq qilish lozim», deydi professor H. Ne'matov. Darhaqiqat, leksemaga ta'rif berilar ekan, har bir tilning ichki tabiatidan kelib chiqish zarurati mavjud bo'lishi kerak. Ma'lumki, yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif beradilar, chunki flektiv tillar, jumladan, rus va arab tillarida o'zaklar mustaqil qo'llanishga ega emas, o'zak morfemaning bir turi sifatida qaraladi. Chunonchi, *нишу*, *читаю*, *друзья*, *уши* kabi ruscha, *ktb*, *qr'* kabi arabcha so'zlarda o'zak qo'shimchalar bilan qorishib ketgan, o'zak bilan affiks orasida chegara aniq emas. Turkiy tillarda o'zak va qo'shimcha orasida chegara aniq bo'lganligi tufayli, leksemaga morfema orqali emas, balki lisoniy sathning alohida bir birligi sifatida qarash lozim.

Leksema nima? Bu savolga shunday javob qaytarish mumkin: *Jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiyl, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqeylikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi leksemadir.* Ma'lumki, formal tilshunoslikda til va nutq hodisalari, birliklari farqlanmas edi. Shunga ko'ra, leksema va so'z ham bir-biridan farqlanmagan. Sistem tilshunoslik nuqtayi nazaridan bevosita kuzatishda berilgan matn va lug'atlarda qayd etilgan so'zlar nutq birliklari hisoblanadi. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, til birliklari bevosita kuzatishda berilmagan bo'lib, ular jamiyat a'zolari uchun tayyor va majburiy bo'ladi.

Til birliklari (fonema, morfema, leksema, konstruksiya)dan fonemaning to'la ta'rifi bilan tanishmiz. Morfemalarni keyingi ma'ruzalarimizda atroflichcha o'rganamiz. Leksemaning nutqdagi voqeligi so'zdir. Leksemalar konstruksiyalarda mustaqil o'rinni egallay olish yoki egallay olmasligiga ko'ra, mustaqil va yordamchi leksemalarga bo'linadi.

Mustaqil leksemalar nutqda alohidalik xususiyatiga, o'zidan keyin grammatik morfemalarni ergashtirish qobiliyatiga ega. Biroq leksemalar ichida shundaylari ham borki, ular gapda mustaqil o'rinni egallay

olmaydilar. Bunday leksemalar sirasiga yordamchi so‘zlar (bog‘lovchilar, sof ot, fe’l, ravish, ko‘makchi, yuklama, nisbiy so‘zlar va b.: *ham, hamda, biroq, lekin; uchun, bilan, sari, sayin; tag, ost, bo‘y, old; qara; boshla, yubor, bo‘l, so‘ng, kabi, yanglig‘, burun....*) kiradi. Mohiyatan ushbu yordamchi leksemalar grammatik morfemalardir. Ular leksemalarga o‘xshab, alohidalik xususiyatiga ham ega bo‘ladi. Boshqacha aytganda, yordamchi so‘zlar leksemalar va qo‘srimchalar orasida « oraliq uchinchi » bo‘lib, ham lekmemalar, ham grammatik morfemalar xususiyatini o‘ziga mujassamlashtiradi. Ammo ular na leksemalarga, na grammatik morfemalarga to‘liq teng bo‘la olmaydi.

Leksema jamiyatning barcha a’zolari uchun tayyor, umumiy va majburiy sanalishi bilan bir qatorda yana bir qancha xususiyatlarga egadir.

1. Jamiyat a’zosi leksemani yasamaydi, uni tayyor holda qabul qiladi.
2. Jamiyat a’zosining ongida har bir leksema boshqa leksemalar bilan o‘xshashlik qatorlarida (paradigmalarda) yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [bloknot]; [daftar] ~ [oynoma] ~ [ro‘znama]; [daftar] ~ [qissa] ~ [roman]; [daftar] ~ [muqova] ~ [varaq] ~ [bet] ~ [bob]* kabi. *Daftar* so‘zi shu munosabatlar asosida turlicha ma’no beradi.
3. Leksemalar inson ongida qo‘sni chilik munosabatlarida (sintagmatik) ham yashaydi. Masalan: *[daftar] ~ [yoz] ~ [ol] ~ [sifatli] ~ [matematika] ~ [ona tili]; [daftar] ~ [son qo‘srimchalari] ~ [egalik qo‘srimchalari] ~ [kelishik qo‘srimchalari]....*

Bu o‘xshashlik va qo‘sni chilik munosabatlari, ma’no va vazifa imkoniyatlari nutqda oydinlashadi, aniqlashadi. Demak, leksemalar til egalari ongida voqelashgan va voqelashadigan nutqiy imkoniyatlar yig‘indisi hamdir.

Leksema til birligi sifatida turlicha imkoniyatlar majmuasi bo‘lsa, so‘z uning voqelanishi, ro‘yobga chiqishi, aniq shakl, mazmun va vazifa kashf etgan moddiy ko‘rinishidir. Har bir leksema nutqda muayyan so‘z sifatida namoyon bo‘ladi. Leksema ikki tomonga ega bo‘lgan til birligidir. Aniqrog‘i, u shakl va mazmun tomonlaridan iborat ramzdir. Sistem

tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni **nomema** deyiladi. Nomema faqat leksemaning shakliga (moddiy qobig‘i, tashqi tomoniga) nisbatan ishlataladi. Leksemaning mazmun tomoni (ma’nosи, ichki tomoni....) esa **semema** nomi bilan yuritiladi. Demak, leksema= nomema+sememadir.

Nomema leksemaning tilga xos tomonidir. U ongimizda muayyan fonemalar tizmasi sifatida mavjud. Nomemaning fonemalar tizmasidan iboratligi ichki nutq jarayonida (kishi fikr yuritganda, ma’lum matnni ichida o‘qiganda) aniq seziladi. Chunki odam ichki nutq jarayonida so‘zlarni, qo‘sishmchalarni ketma-ket tizib, xuddi gapirayotgandek, ularni grammatik jihatdan shakllantiradi. Demak, inson faqat ovoz chiqarganda emas, balki ovozsiz ham fonemalarga moddiy shakl bera oladi. Tashqi muhitda nomema tovushlar (yoki harflar) tizmasi sifatida voqelashadi. Substansional tilshunoslik leksemalarning moddiy tomoniga – nomemalarga ko‘p ahamiyat bermaydi. Chunki nomema leksemaning mohiyatiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Leksemaning mohiyati esa uning ichki tomoni – semema orqali va shunga ko‘ra leksemaning boshqa til birliklariga munosabati, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi.

Nomemaning ahamiyati nazmiy nutqda behad katta bo‘ladi (qofiya, radif, tajnis turlari, saj’....). Shu sababli she’riyatda nomemaga asosiy e’tibor qaratiladi. Lingvistika nuqtayi nazaridan esa asosiy e’tibor faqat sememaga qaratiladi. **Semema** leksemaning ichki tomoni, uning mazmuni, ma’nosи, nimani ifodalab kelishidir. Sememalar ko‘pincha ongimizda muayyan bir tushuncha bilan bog‘liq bo‘ladi. Tushuncha – ong, mantiq birligi, semema esa leksemaga xos birlikdir. Masalan, [o‘rik] leksemasining sememasini quyidagi tushunchalarda namoyon bo‘ladi:

- 1) ho‘l meva turi;
- 2) shu mevaning quritilgani;
- 3) shu mevani beradigan daraxt.

Sememaning tushunchalar bilan bog‘liqligini faqat mustaqil leksemalardagina kuzatish mumkin. Yordamchi leksemalarda, olmoshlarda esa bunday bog‘lanishni ko‘rmaymiz. Tilshunoslikda sememani hosil

qiluvchi ma’no bo‘laklari **sema** deyiladi. Masalan: *[daraxt]* leksemasining semalari quyidagilar:

- 1) predmet; 2) o‘simlik; 3) yerda o‘suvchi; 4) tanali; 5) ildizli; 6) shoxli; 7) bargli.

Sistem tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri leksemalarni tizim sifatida tahlil qilishdir. Leksemalarni shu nuqtayi nazardan o‘zaro ichki munosabatlar asosida muayyan qatorlarga, guruhlarga, tur va turkumlarga birlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, leksema «o‘zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma’no birligidan iborat mustaqil anglanish va qo‘llanish tabiatiga ega bo‘lgan lisoniy birlik» deb tariflanar ekan, bu ta’rif faqat mustaqil leksemalar uchun xosdir. Chunki yordamchi leksemalar denotativ xususiyatlarga ega emas. Yordamchi leksemalar (masalan, *ilan*, *uchun*, *sari*, *sayin*, *uzra*, *kabi*, *yanglig*; *va*, *hamda*, *ammo*, *lekin*, *biroq*; *ham*, *faqat*...) uchun grammatik ma’no xosdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. So‘z nima? Uning til sistemasidagi o‘rnini izohlang.
2. Leksema atamasining ma’nosini ochib bering.
3. Leksemaga barcha tillar uchun bir xil ta’rif berib bo‘ladimi?
4. Leksemalar jamiyat a’zosi ongida qanday munosabatlarda yashaydi?
5. Quyidagi matnni o‘qing. Mustaqil va yordamchi leksemalarni aniqlang. Ularning ma’nolari orasidagi farqni tushuntiring.

*Ibodat ne? Yaratganga itoat ham ibodatdir,
Haqiqiy bandalik birlan sadoqat ham ibodatdir.*

*Ibodatdir tiriklikni etolsang ma’rifat bog‘i,
Mashaqqatli ilm, san’at, qiroat ham ibodatdir.*

*Onang birlan otang qalbi o‘tar Ka’ba tavofidan,
Alar ko‘nglini shod etsang, shu xizmat ham ibodatdir.*

Xabar oldingmi bemordan, qarindosh, do‘st, musofirdan?

Birovni yo ‘qlasang dildan, ziyyorat ham ibodatdir.

*Umrni etmayin isrof, o ‘zung ro ‘za, vujuding sof,
Agar pok holda uxlarsen, shu rohat ham ibodatdir.*

*Mudom Allohniz zikr etsang, halol boriga shukr etsang,
Qiyomat kunni fikr etsang, tijorat ham ibodatdir.*

*Butun borliq, nabotot ham yaratganga etar tasbih,
Bobo dehqon ekib yursa, ziroat ham ibodatdir.*

*Ibodatdir biror zolim, jafokorga desang haq so ‘z
Va nodonga sukut etsang, sukunat ham ibodatdir.*

*Agar jufti halol birla ko ‘ngilxushlik etar bo ‘lsang,
Falak shohid, malak hozir shu fursat ham ibodatdir.*

*Tamal iymon-u ixlosdir, bu qullik bandaga xosdir,
Xudo deb qilganing har ish va niyat ham ibodatdir.*

*Bu islomdir hama xublik ibodat holiga kelgay
Ki ogohlik bilan o ‘tgan bu fursat ham ibodatdur.*

*Sevib, mirzo, faqat do ‘stlik bilan dillarni obod et,
Agar Alloh uchun sevsang, muhabbat ham ibodatdir.
(Mirza Kenjabek she’ri)*

**Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 11; 17; 19; 22; 28; 30; 35; 46;
47; 50]**

LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABAT TURLARI **Reja:**

1. Lisoniy munosabatlar: sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, partonimiya, giponimiya.
2. Lug‘aviy ma’no guruhlari (LMG) haqida ma’lumot.
3. Lug‘aviy ma’no to‘dalari (LMT) haqida

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Lisoniy munosabatlar: sinonimiya, antonimiya, partonimiya, giponimiya; lug‘aviy ma’no guruhlari, LMGlarida asos va qurshov, lug‘aviy ma’no to‘dalari

Til birikmalarini yaxlit bir tizim sifatida o‘rganish borasidagi tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, leksik birliklar lisonda turli semantik munosabatlar asosida har xil paradigmalar hosil qilgan holda mavjud bo‘ladi. Sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, partonimiya, giponimiya kabilar ana shunday lisoniy munosabatlar sirasiga kiradi. Quyida ularning har birini alohida-alohida ko‘rib o‘tamiz.

Sinonimiya. Shaklan turlicha, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenkalar bilan ifodalaydigan leksemalar sinonimlardir. Ma’nodosh leksemalar orasidagi aloqadorlik s i n o n i m i k m u n o s a b a t deyiladi. Ma’lumki, o‘zbek nutqida ishlatiladigan so‘zlarning juda katta qismini ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlar tashkil etadi. Ko‘p ma’noli so‘zlarda so‘zning asl bosh (yetakchi) ma’nosidan o‘sib chiqqan turli hosila ma’nolar kuzatiladi. Aslida leksemalar o‘zaro sememalari asosida boshqa leksemalar bilan ma’nodoshlik munosabatida bo‘ladi. Aniqrog‘i, ko‘p sememali (ma’noli) leksemalar har bir sememasi bilan alohida-alohida ma’nodoshlik qatoriga kiradi. Chunonchi, [bosh] leksemasi «tananing bo‘yindan yuqori qismi» semasi asosida [kalla] leksemasi bilan, «rahbarlik qilmoq, boshqarmoq» semasi asosida [yetakchi], [yo‘lboshchi], [sardor], [boshliq], [rahbar] leksemalari bilan, «tik narsalarning tepe qismi» semasi asosida [uchi], [cho‘qqisi] leksemalari bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Demak, sinonimiya hodisasi haqida gap ketganda, bu hodisani *semantik* sinonimiya deb atash to‘g‘riroqdir.

Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa sememalari aynan bir xil bo‘lib, faqat ifoda semalari farqlanadi. Masalan, *kulmoq ~ iljaymoq ~ tirjaymoq ~ ishshaymoq ~ hiringlemoq ~ tabassum qilmoq*. Ma’nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: «xursandligini yoki zavq-shavqini, ichki quvonchini kulgi bilan ifodalamoq». Ammo ifoda semalari har bir leksemada o‘ziga xos. Ya’ni

«shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqacha namoyon bo‘lgan. Bu munosabat [*kulmoq*] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko‘rinishida bo‘lsa, [*ishshaymoq*] leksemasida «o‘ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzidadir.

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semalari turli-tumandir. Chunonchi,

- 1) ijobjiy yoki salbiy baho semalari;
- 2) leksemaning qo‘llanilish davri bilan bog‘liq holatdagi «arxaik», «tarixiy», «umumiste’moldagi», «yangi» semalar;
- 3) leksemaning qo‘llanilish doirasini ko‘rsatuvchi «shevaga xos», «so‘zlashuvga xos», «kitobiy», «ko‘tarinkilik» va h. semalar.

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning bittasi *dominanta* (bosh bo‘lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi va ma’nodoshlik qurshovini hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semalariga nisbatan neytral, betaraf bo‘ladi. Dominantaning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilar: dominanta leksemaning ma’nodoshlik qatoridagi boshqa leksemalarnikiga nisbatan «kambag‘alroq» bo‘ladi. Chunonchi, *oriq*, *nozik*, *qotma*, *qiltiriq*, *ramaqijon*. Ushbu qatordagi [*oriq*] leksemasida [*nozik*], [*qotma*], [*qiltiriq*], [*ramaqijon*] leksemalaridagi kabi hissiy-ta’siriy bo‘yoq yo‘q;

1) dominanta leksemaning qo‘llanilish doirasi boshqa ma’nodosh birliklarnikiga nisbatan keng;

2) dominanta leksema istalgan vaqtda o‘z ma’nodoshlarini almashtira oladi;

3) ma’nodoshlik qatori mansub bo‘lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi va boshqa leksemalar bilan paradigma hosil qila oladi. Masalan, «kishi tana a’zolari» lug‘aviy ma’no guruhiga *yuz*, *aft*, *bashara*, *turq*, *oraz*, *bet*, *diydar*, *tal’at*, *chehra* sinonimik qatoridan faqatgina [*yuz*] dominanta leksemasi kirib, [*quloq*], [*burun*], [*lab*], [*qosh*], [*peshona*] leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasidagi ifodalar «betaraf» bo‘lolmaganligi bois yuqoridagi paradigmaga kira olmaydi.

Sinonimiya hodisasini deyarli barcha tillar doirasida kuzatish mumkin: *nizo*, *kelishmovchilik*, *ixtilof*, *nifoq*, *adovat*; *oqil*, *aqli*, *bama'ni*, *dono*; ruscha: *светлый*, *ясный*, *яркий* (*ravshan*); *положение*, *состояние*, *обстоятельство* (*ahvol*); *пуманый*, *запутанный*, *сложный*, *трудный* (*chatoq*); inglizcha: *look*, *stare* (*qaramoq*); *misfortune*, *failure* (*baxtsizlik*); *whole*, *full* (*butun*) kabi.

Antonimiya. Leksemalar orasidagi zidlik munosabati antonimlikdir: *katta-kichik*, *oq-qora*, *baland-past*, *yosh-qari*; ruscha: *чёрный-белый*, *хорошо-плохо*, *лежать-вставать*; inglizcha: *necessary-needless* (*kerakli-keraksiz*), *light-dark* (*ochiq-to'q ranglar*), *rich-poor* (*boy-kambag'al*) kabi. Antonimik leksemalarning asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisalarning in'ikosi bo'lgan o'zaro zid tushunchalar yotadi.

Antonim leksemalarda umumiy va birlashtiruvchi semalar ham, qarama-qarshi semalar ham bo'lishi lozim. Masalan, [yoz]:[qish] leksemalari umumiy «yil fasli» semasiga va qarama-qarshi [qish] – «yilning eng sovuq fasli», [yoz] – «yilning eng issiq fasli» semalariga ega.

Antonimlar tuzilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) har xil o'zakli antonimlar: *chiroyli-xunuk*, *issiq-sovuq*, *muhabbat-nafrat*;
- 2) bir xil o'zakli antonimlar: *ongli-ongsiz*, *o'rinli-noo'rín*, *guldor-gulsiz*, *odobli-beodob*.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki ko'rinishdagi qarama-qarshilik tashkil etadi: a) kontrast qarama-qarshilik va b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrast antonimiya darajalanuvchi leksemalar qatorining birinchi va oxirgi a'zosiga tegishli bo'ladi, ya'ni ikki antonim leksema orasida har xil antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in mavjud bo'ladi. Masalan, *yosh~o'smir~balog~at~o'rta* *yosh~qari*; *past~o'rta~baland* daraja qatorlarining birinchi va oxirgi a'zosi antonimlik hosil qiladi. Demak, leksemalarning kontrast qarama-qarshiligidini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash zarur.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo‘g‘insiz bo‘ladi: *oson-qiyin, rost-yolg‘on, arzon-qimmat* kabi.

Graduonimiya. Lug‘aviy birliklarning o‘zaro ma’noviy munosabatlariga ko‘ra ma’lum darajalanish qatorlarini hosil etishi graduonimiya hodisasidir. Darajalanish qatori kamida uchta a’zodan iborat bo‘ladi.

Darajalanish munosabatlari bilan bog‘langan so‘zlar qatorini ikki omilga tayanib ajratish mumkin: 1) *g‘ayrilisoniy* asoslar va 2) *sof lisoniy* asoslar.

G‘ayrilisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi, xususiyatlarda sifat farqlari bilan birga miqdor farqlar ham mavjud. Inson ongida miqdoriy va sifatiy o‘zgarishlar o‘z aksini topadi va ular alohida-alohida leksemalar bilan ifodalanadi. Chunonchi, *nihol-ko ‘chat-daraxt; ninni-chaqaloq-go ‘dak-bola...; buzoq-tana-g‘unajin-sigir*.

Demak, ongda aks etgan miqdoriy farqlarning tildagi in’ikosi *g‘ayrilisoniy* omilning asosini tashkil etadi.

Darajalanish qatorlarini ajratishning lisoniy asosi ma’noviy omil hamda so‘zlarning paradigmatik munosabatlarini qamrab oladi. Bir qator leksemalar sememalarida bir belgining oz-ko‘pligi, turli xil darajalariga ishora ma’noviy omil bilan bog‘liqdir. Masalan,

-							+
	-3	-2	-1	0	1	2	
	gulobi	pushti	qizg‘ish	qizil	ol	qirmizi	

Gulobi - pushtiga moyil rang; **pushti** – shaftoli guli rangidagi och qizil, gulobidan to‘qroq rang; **qizg‘ish** – pushtidan to‘qroq rang; **qizil** – qon rang; **ol** – qizildan to‘qroq rang; **qirmizi** – to‘q rangdagi qizil.

Demak, yuqoridagi chizmada har bir leksema ma’lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora qilmoqda. Shu asnoda ma’noviy omilning o‘zi ham ikki jihatni – bir-biriga yaqin va o‘xhash tushunchalarni ifodalashni hamda ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishni qamrab oladi.

Graduonimik qatorlar lug‘aviy paradigmalarga qo‘yiladigan talablarning barchasiga javob bera oladi.

Leksik graduonimiya o‘zbek tilshunosligida buxorolik olma Shoira Orifjonova tomonidan ishlangan. Serg‘ayrat olma Nofiza Vohidova leksik graduonimiya hodisasini nemis tilshunosligiga tatbiq etdi va mazkur mavzuning dunyo tilshunosligida e’tirof etilishini ta’minladi.

Giponimiya. Leksemalararo semantik munosabatlarning yana bir turi gipo-giperonimiya bo‘lib, unda tur-jins munosabatlari o‘z ifodasini topadi. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) farqlanadi.

Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko‘pgina ma’nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy leksemasidir. Giponim esa muayyan jins turlarining nomlarini hamda o‘zining semantik tarkibida jins ma’nosini ham ifodalovchi, giperonimga nisbatan boy bo‘lgan lug‘aviy birlikdir. Chunonchi, *daraxt* (jins) – *terak, olcha, dub, chinor, olma, archa...* (tur); *meva* (jins) – *olma, olcha, shaftoli, o‘rik, nok...* (tur).

Giponimik munosabat barcha tillar uchun xosdir. Chunonchi, *depeeo* (jins) – *группа, вишня, яблоко, персик* (tur); *the man* (jins) – *women, man* (tur); *der Baum* (jins) – *der Tannenbaum, der Aafelbaum, der Abrikosenbaum* (tur).

O‘zbek tilshunosligida gipo-giperonimik munosabat turi professor Rohatoy Safarova tomonidan tadqiq etilgan.

Partonimiya. Partonimik munosabatlarda butun-bo‘lak tushunchasi o‘z aksini topadi. Tarkiban murakkablik, bo‘laklarga bo‘linuvchanlik borliq ashyolarining umumiyligini qurilish qonuniyati bo‘lib, bu qonuniyat ong orqali lisonda o‘z aksini topadi va shu asosda partonimik munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, *daraxt* (butun), *shox, tana, ildiz* (qismlar); *odam* (butun), *bosh, tana, qo‘l, oyoq* (qismlar). Tirnoq barmoqqa nisbatan, barmoq qo‘lga nisbatan, qo‘l esa odamga nisbatan butun-bo‘lak munosabatida bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida partonimiya hodisasi tilshunos olim Bayramali Qilichev tomonidan tadqiq etilgan.

Omonimiya. Shaklan bir xil, mazmunan esa turlichalik nutqiy bosqichga xos bo‘lib, lisoniy birliklarda omonimlik yo‘q.

Nutqda ba’zan so‘zlarning shakli ham, talaffuzi ham shakldosh bo‘lib qoladi va uning ma’nosini kontekstda oydinlashadi. Chunonchi, *Topgan gul keltirar, topmagan bir bog‘ piyozi. Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘*.

Omonimlar so‘zlarning har biri lug‘atlarda alohida yoziladi va yuqorida berilgan misollardagi kabi rim rahamlari bilan belgilanadi. Omonimlar bir so‘z turkumi doirasida ham, turli so‘z turkumlari doirasida ham bo‘lishi mumkin. Chunonchi,

*chang (ot; musiqa asbobi) - chang (ot; to‘zon),
kuya (ot; qazonning qorasi) - kuya (ot; hashorot),
yozmoq (fe`l; qalam bilan yozmoq) - yozmoq (fe`l; dasturxonni yozmoq) - yozmoq (fe`l; qanotini yozmoq);
tut (ot; daraxt turi) - tut (buyruq maylidagi fe`l),
chaqmoq (ot; tabiat hodisasi) - chaqmoq (fe`l; danakni chaqmoq),
til (ot; tana a‘zosi) - til (buyruq maylidagi fe`l),
tik (ot; kanopdan to‘qilgan qalin matoning nomi) - tik (fe`l; kuylakning chokini tikmoq) - tik (ravish; Betiga tik aytmoq),
pir (ot; tasavvufda ustoz ma’nosida) - pir (sifat; eski, so‘nik) - pir (taqlidiy so‘z; kichik qush uchganda qanoti chiharadigan tovush),
lang (ot; qorin kasalligi) - lang (sifat; cho‘loq, oqsoq) - lang (ravish; Darvoza lang ochiq edi.).*

Bir so‘z turkumiga tegishli bo‘lgan omonimlar grammatik jihatdan shakllanganda ham omonimligini saqlaydi.

Shakldosh so‘zlar so‘z o‘yiniga asoslangan badiiy san`at (tajnis, jinos)da muhim vosita vazifasini bajaradi. O‘zbek adabiyotida shakldosh so‘zlarga asoslanib yaratiladigan she`r turi tuyuqdir. Chunonchi,

*La’lidin jonimga o‘tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur,
Men vafosi va ’dasidin shodmen,
Ul vafo, bilmanki, qilmas yo qilur. (A. Navoiy)
Bodasiz betobmen bu kecha men,*

*La 'lidin istab endi jondin **kechamen**,
 Sohili maqsadg 'a yetkurarmu, deb,
 Ko 'z yoshim daryosida suv **kechamen**. (Muqimiy)*

Omonim so‘zlarda ma’no bog‘liqligi bo‘lmaydi, ular shu jihatiga ko‘ra ko‘p ma’noli so‘zlardan farqlanadi.

Leksmalarning mazmun guruhlari (LMG) semasiologiyaning eng zarur tushunchalaridan biri hisoblanadi. LMG deganda, muayyan birlashtiruvchi semasi asosida ma’lum guruhga birlashtiruvchi, ayni paytda farqlovchi semalariga ko‘ra o‘zaro farqlanib, ajralib turuvchi leksemalar tushuniladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan ma’nodoshlik qatorlari, mazmuniy darajalanish qatorlari LMGlarning bir turidir.

Leksemalarni LMGlaringa birlashtirishda ularni shunday belgilar asosida umumlashtirish lozimki, bu guruhga birlashuvchi leksemalar ma’lum sohaga, muayyan turkumga oid bo‘lib, ular orasida o‘xhashlik juda ko‘p, farq esa oz bo‘lsin. Masalan,

- 1) qoramol LMG: (*sigir, buzoq, tana, g‘unajin, ho‘kiz, buqa, govmish...*);
- 2) o‘ragichlar LMG: (*ro‘mol, qiyiq, belbog‘, tasma, peshonaband, gardanband, bo‘yinbog‘, paytava, kamar...*).

LMGlar ikki qismdan – asos va qurshovdan iborat bo‘ladi. LMG asosi, odatda, bir necha (taxminan ikki - besh) leksemadan tashkil topadi va doimiy barqarorlikka ega bo‘ladi. Qurshov esa o‘zgaruvchandir. Chunonchi, «Osmon jismlari» LMGning markazi (XV asrdan to hozirgacha) to‘rtta leksemadan iborat: [*quyosh, oy, yulduz, sayyora*]. Bu leksemalarning qurshovi har bir davr uchun o‘ziga xos bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turishi tabiiydir.

XV asrda: [*quyosh*] = [*kun*] ~[*gunash*] ~[*oftob*]~[*shams*]~ [*mehr*]~ [*mehrihovar*]~ [*shahi*]~ [*mehr va anvar olamtob*]~ [*olamso‘z*]~[*hovar*]

Hozirgi kunga kelib [*quyosh*] leksemasi qurshovida [*kun*], [*oftob*] so‘zлари qolgan xolos. Qolgan uchta markaz leksema va uning qurshovi haqida ham yuqoridagi kabi fikrlarni ayta olamiz.

Umumiy bir mavzuga oid bir necha LMGlarning o‘zaro birlashuviga lug‘aviy ma’no to‘dalari(LMG) deyiladi. Masalan, o‘zi bir necha LMGlardan iborat bo‘lgan «Uy hayvonlari» LMGlari, «Qushlar» LMGlari shular jumlasidandir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Leksik-semantik munosabatlar deganda nimani tushundingiz?
2. Sinonimik munosabatlar va darajalanish qatorlari o‘rtasida qanday farqlar hamda o‘xhash jihatlar bor?
3. Antonimlarning mantiqiy asosini tashkil etuvchi zidlikning 2 turi haqida ma’lumot bering.
4. «Tur», «jins» so‘zlarining lug‘aviy ma’nolarini sharhlang.
5. Butun-bo‘lak munosabatlariga misollar keltiring.
6. LMGlari haqida nimalar bilasiz? Ularga misollar keltiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 10; 11; 22; 27; 28; 32; 37; 49]

LEKSIKOGRAFIYA – LUG‘ATLARNI O‘RGANUVCHI SOHA

Reja:

1. Lug‘atlar haqida umumiy ma’lumot.
2. Leksikografiya sohasi.
3. Lug‘at va uning turlari haqida.
4. O‘zbek lug‘atchilikdagi muammolar.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar:

Lug‘at tushunchasi, leksikografiya, uning tadqiq manbai, o‘zbek lug‘atchiligi tarixi, lug‘at turlari, umumiy va maxsus lug‘atlar, qomuslar, lingvistik lug‘atlar, ularning turlari, tarjima lug‘atlar, izohli lug‘atlar, etimologik lug‘atlar, lug‘atchilikdagi muammolar, o‘quv lug‘atlari

So‘z – serqirra hodisa. So‘z – insonlarning fikr, tushunchasi, histoyg‘ularini ifodalabgina qolmay, uni o‘z-o‘zini yuksaltirishga, rivojlantirishga xizmat qilishi shubhasizdir. Chunki, so‘z tafakkurning in’ikosi bo‘lmish tilning mahsulidir. Ulug‘ bobokalonimiz Mir Alisher shunday deya e‘tirof etganlar:

*Insonni so 'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo 'q ondin.*

So‘z hodisasi tilshunoslikda deyarli barcha sohalarda, lingvistik bo‘limlarda tadqiq etiladi. Xususan, leksikografiyada ham. Bizga ma’lumki, **leksikografiya sohasi** – (grekcha lexicon – lug‘at, leksika, grafo – yozmoq) lug‘atlarni yaratish nazariyasi bilan shug‘illanadi. Ho‘sh, lug‘at nima? U qanday tuziladi? Bu kabi savollarga javob berish uchun qomusiy lug‘atlar va lingvistik adabiyotlarga murojaat etamiz.

“So‘zlearning biror maqsadda to‘planib, tartribga solingan yig‘indisiga - **lug‘at** deyiladi.”

“Lug‘at -1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi leksika; 2) so‘zlar (yoki morfemalar, so‘z birikmasi, iboralar va b.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma’nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasi haqida ma’lumotlar jamlangan kitob”.

Turli turdagи lug‘atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lug‘at alfavit tartibida tuzilib, qulay qo‘llanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy – oqartuv funksiyani bajaradi.

Lug‘atlar ma’naviy madaniyat sohasida muhim o‘rin egallaydi, ularda jamiyatning ma’lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug‘atlar har birimizga ilmiy jarayonda to‘g‘ri va aniq ishlashga, real va obyektiv fikrlash va tasavvur qilishga yordam beradi. Ilk o‘zbek lug‘ati Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari bo‘lib, u qomusiy lug‘at hisoblanadi.

Mahmud Zamahshariyning “Asos ul-balogs‘a”, “Muqaddimat ul-adab”, Navoiy asarlariga bag‘ishlangan “Abushqa” (16 asr) lug‘ati, Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” lug‘ati, Chingiyuning “Temurnoma”, Sulaymon Buxoriyning “Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy”, Tole Imoni Hiraviyning “Badoye‘ ul-lug‘at” singari qimmatli asarlari lug‘atchilikning nodir xazinasidan o‘rin olgan.

Yuqorida leksikografiyaning lug‘atchilik nazariyasi bilan ham shug‘ullanishi, ya’ni nazariy leksikografiyaga ishora qilib o‘tgan edik. Bu soha lug‘atshunoslik deb ham ataladi. Nazariy leksikografiya lug‘atlarning umumiyligi prinsiplari va tipologiyasini ishlab chiqish hamda yangi lug‘at turlarini yaratish, lug‘at strukturasini yaratish yoki o‘zgartirish (masalan, maqola va havolalar tartibi, illyustratsion materiallar, so‘z va tushunchalarga izohli yoki lingvistik tasnif berish va h.) singari dolzarb vazifalar bilan shug‘ullanadi.

Lug‘atlar, asosan 2 turga bo‘linadi: qomusiy (ensiklopediya) va filologik (lingvistik). Ensiklopedik lug‘atlar so‘zlarning qisqacha ma’nosini, tushunchalar izohini berish asosida tuziladi. Qomusda barcha narsa va hodisalar, kishilar, fan-texnika haqida ma’lumotlar keltiriladi. Zaruriy xarita va rasmlar, sxemalar beriladi. So‘zning o‘zi haqida faqat uning kelib chiqishini ko‘rsatish bilan chegaralanadi. Shuning uchun bunday lug‘atlar tushuncha lug‘at, g‘arbda esa “Husanrus” deb ham yuritiladi. Qomusiy lug‘atlar umumiyligi va xususiy bo‘lishi mumkin. Masalan, «**O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi**» (13 tomlik. T., 2005) umumiyligi qomusdir. Ammo adabiyotshunoslikka oid ensiklopedik lug‘atlar, qishloq xo‘jaligiga oid lug‘atlar, tilshunoslikka oid (Ахманова С. Словарь лингвистический терминов. М., 1966) bo‘lishi mumkin.

Filologik lug‘atlar lisoniy birlik bo‘lmish so‘zning turli lisoniy xususiyatlarini yoritish, ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ular aniq qoida va lingvistik prinsiplar asosida yaratiladi. Filologik lug‘atlar quyidagi turlarga ega:

1. Izohli lug‘at. So‘zlarning ma’nosini, qo‘llanishi, nutqdagi semalari, fonetik va grammatik xususiyatlarini ochib beruvchi lug‘at. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. М., 1981, 1-2 jildlar (O‘TIL – 60.000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasini o‘z ichiga oladi); “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Т., 2006, 5 jildli (O‘TIL – 80.000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasini o‘z ichiga oladi); С.И.Ожеговning “Толковый словарь русского языка. 20-е изд., М., 1988. va b..

2. Tarjima lug‘at. Bir tilga oid so‘z va iboralarni boshqa bir yoki bir necha tilga o‘girib ifodalovchi manbalar. Bunday lug‘atlar har bir til leksikografiyasida juda ko‘p tuzilgan va yaratilmoxda. Masalan:

Nemischa – o‘zbekcha lug‘at. T., 1964;

O‘zbekcha- nemischa lug‘at. T.,1967;

Inglizcha – ruscha, ruscha- inglizcha lug‘at. Bishkek, 1995.

Ruscha –o‘zbekcha lug‘at. M., 1954.

Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. M., 1950-1955;

Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. 1986 va h.

3. O‘zlashma so‘zlar lug‘ati. Bunday lug‘atlar bir tilga o‘zlashgan, lekin tarjima va izohni talab qiladigan so‘zlar asosida tuziladi. Usmonov O., Doniyorov R. “Ruscha –internatsional so‘zlar lug‘ati”ni nashr ettirganlar. (T., 1965) Yana «Словарь иностранных слов». 18-е изд., М., 1989. lug‘ati ham mavjud.

4. Tarixiy lug‘atlar. So‘zlarning qachondan boshlab va qanday kelib chiqishi, dastlabki fonetik, semantik, morfemik va gramma tik shakllari rivojini ochib beruvchi lug‘atlar. O‘zbek tilida tom ma’noda bunday lug‘atlar hali yaratilmagan, biroq E.Fozilovning “Староузбекский язык: Харезмские памятники. XIV века” (ч.1-2., Т., 1966, 1971) asarini shunday manbalar sirasiga kiritish mumkin.

5. Imlo lug‘ati. Muayyan bir tilning orfografik qoidalari, imloviy prinsiplari asosida to‘g‘ri yozishni o‘rgatuvchi lug‘atlar. O‘zbek lug‘atchiligida hozirga qadar 20 dan ortiq imlo lug‘atlari yaratilgan. Shulardan eng mukammali 1975-yilda nashr qilingan, 6500 so‘z va so‘z shakllarini o‘z ichiga oluvchi lug‘atdir. Lotin grafikasiga asoslangan Yangi o‘zbek imlo lug‘ati esa 1995-yilda bosilib chiqdi.

6. Qiyosiy (tipologik) lug‘atlar. Bir oilaga mansub tillarni o‘zaro chog‘ishtirib izohlovchi manbalar: Будагов Л. «Сравнительный словарь турецко-татарских наречий». ч. 1-2., 1869; Радлов В.В. «Опыт словаря тюркских наречий. 1-4. С.-Пб. 1888-1911.

7. Sheva lug‘ati. Bir til doirasidagi sheva. Dialekt va lahjalariga xos bo‘lgan fonetik yoki semantik jihatlarni adabiy til bilan solishtiruvchi

lug‘atlar: O‘zbek xalq shevalari lug‘ati, 1971; Словарь русских народных говоров. М., 1965-74.

8. Orfoepik lug‘at. To‘g‘ri talaffuz qoidalarini, ya’ni adabiy talaffuz me’yorlarini ko‘rsatuvchi lug‘at. Sodiqova M., Usmonova O‘.O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati. Т., 1977.

9. Frazeologik lug‘at. Frazeologik so‘z va iboralar ma’nosini sharhlaydigan manba: Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Т., 1978. Sodiqova M. Ruscha – o‘zbekcha frazeologik lug‘at. 1972; Jukov V. Фразеологический словарь русского языка. М., 1967.

10. Morfem lug‘at. So‘zlarning morfem tarkibini tahlil qiluvchi qomus: G‘ulomov A. va b. O‘zbek tilining morfem lug‘ati. Т., 1977.

11. Ma‘lum bir yozuvchi yo asar tilini sharhlovchi lug‘at. Bular sirasiga: A.Navoiy asarlari tiliga bag‘ishlangan “Abushqa” lug‘ati; Navoiy asarlari lug‘ati, 1972; A.Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, 1-4-j.lar. 1983-1984; Словарь языка Пушкина. 1-4, М, 1956-61; Hasanov B. “Qur’oni Karim” so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha ko‘rsatkichli lug‘ati, 1995.

12. Etimologik lug‘atlar. So‘zlarning kelib chiqishini beruvchi lug‘at. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. Т., 2000; Севортиян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков, shuningdek, Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. М., 1964-73.

13. Sinonimlar lug‘ati: Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Т., 1980; Словарь синонимов русского языка. 3-е изд. М., 1971.

14. Omonimlar lug‘ati. Ахманова О.С. Словарь омонимов русского языка. М., 1974, o‘zbek tilida ham omonimlarning izohli lug‘ati mavjud.

15. Antonimik lug‘at. Rahmatullayev Sh. va b. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. Т., 1980.

16. Antroponimik lug‘at. Begmatov E. O‘zbek ismlari lug‘ati. T., 1991.

17. Toponimik lug‘at. Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining izohli lug‘ati. T., 1977.

18. Paronimlar lug‘ati. Ma’rufov A. Paronimlar lug‘ati. T., 1974.

19. Terminologik lug‘at. Bunday lug‘atlar- ensiklopedik lug‘atga ham, lingvistik lug‘atga ham yaqin turadi. Ulardan maxsus lingvistik lug‘at bo‘lmish Axmanova O. ning “Словарь лингвистических терминов” (1966) lug‘ati alohida o‘rin tutadi. 1925-yildan hozirgacha O‘zbekistonda 50dan ortiq mutaxassislik bo‘yicha 140qa yaqin atama lug‘atlari nashr qilingan. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlari lug‘ati. T., 2002 .

20. Chastotali lug‘atlar. So‘zlarining qo‘llanilish darajasini statik aniqlab beradigan lug‘atlar: Штейнфельдт Э.А. Частотный словарь современного русского литературного языка. Тал., 1973.

21. Chappa (ters) lug‘atlar. So‘zning tugagan harfi asosida tuzilgan lug‘atlar, masalan: *bola*, *pona*, *shona*, *dona* kabi. Qo‘ng‘urov R., Tixonov A. Обратный словарь узбекского языка. М., 1968; Обратный словарь русского языка. М., 1974.

O‘zbek leksikografiysi uzoq va boy tarixga ega. Biroq hozirgi kun nuqtayi nazaridan olib qaraganda, lug‘atchiligidizda ba’zi muammolar ham mavjud. Ayniqsa, kundan kunga rivojlanib borayotgan davlatimiz, fanimiz va madaniyatimizni yuksaltirish singari ezgu vazifalar lug‘atchilik muammosini va lug‘atxonlik madaniyatini keskin hal qilish lozimligini ko‘rsatmoqda. Mustaqillikka erishgan o‘zbek xalqining ma’naviy-ma’rifiy yuksalishi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va uning oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish, xususan, ijodiy tafakkur sohibini tayyorlash, ta’limning ilk bo‘g‘inlaridanoq lug‘atlardan keng, maqsadli foydalana oladigan, izchil va mantiqiy so‘z bankiga ega o‘quvchini tarbiyalash ham aynan o‘zbek lug‘atchilagini rivojlantirish va ommalashtirish tamoyili bilan uzviy bog‘liq.

Lug‘atchiligidagi bugungi eng dolzarb muammo – o‘quv lug‘atlarining yo‘qligidir. Afsuski, soha bu borada ancha orqada qolgan. O‘quv lug‘atlari –har qanday tur va hajmdagi, aynan biror tilda so‘zlashishni o‘rgatishga mo‘ljallangan leksikografik asar hisoblanadi. O‘zbek leksikografiyasida lug‘atlar yaratish borasida ancha yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsa-da, o‘quv lug‘atchiligi oqsab kelmoqda. Hozirgi kunda o‘quvchilarimiz quyidagi lug‘atlardan foydalanib kelishmoqda:

1. “O‘zbek tilininig imlo lug‘ati”: (Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. Toshkent, 1995. Tiraj: 15000 nusxa).
2. “Imlo lug‘ati” (Hojiyev A., Abdullayev Y., Zafarova S. T. 1-nashri, 1964. 4-nashri 1981. Tiraj: 100000).
3. “O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati” (Hojiyev A. tahr. ostida T., 1977. Tiraj: 13000).

Lug‘atlardan foydalanish madaniyati saviyasining shakllanganligining yorqin dalillaridan biri shuki, 1995-yilda atigi 150.000 nuxsada nashr etilgan, «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»ni hozir ham kitob do‘konlaridan topish mumkin. Vaholanki, agar maktab o‘quvchilarining har yillik miqdori qariyb 6.000.000 ekanligini nazarda tutsak, bu imlo lug‘atidan 400 o‘quvchiga bitta lug‘at to‘g‘ri keladi. Shunisi ham borki, lotin yozuviga asoslangan hamda hozirgi davr talabi bo‘lgan bu imlo lug‘atidan nafaqat o‘quvchichilar, balki talabalar, ma’rifat va madaniyat xodimlari, davlat va tashkilot organlari foydalanishga ehtiyojmand. Demak, bu holda, 1500-2000 kishiga atigi bitta lug‘at to‘g‘ri kelishi kelib chiqmoqda. Imlo lug‘ati bilan ta’minlanish rivojlangan davlatlarda 15-20 talabgorga bitta to‘g‘ri kelishini hisobga olsak, O‘zbekistonda amaliy imlo lug‘ati bilan ta’minlanish qariyb 70-100 baravar kamdir. Maktab o‘quvchilari uchun yangi yozuvda chiqarilgan “**Imlo va talaffuz lug‘ati**” ham mavjud bo‘lib, sanoqli nusxalarda chiqarilgan. Bu lug‘atdan ham keng omma foydalanish imkoniyatiga ega emas. Shunisi achinarlik, o‘zbeklarda umuman 2000 kishiga 1 ta lug‘at to‘g‘ri kelsa, ruslarda bitta oilaga 4-5 ta lug‘at to‘g‘ri keladi. Bunaqada madaniy saviyaning yuksalishi-yu, ilm-fan taraqqiyoti haqida so‘z borishining o‘zi foydasizdir.

Xullas, shu kabi jiddiy muammolarni hisobga olib, hozirgi o‘zbek leksikografiyasi o‘quv lug‘atlarini, xususan, uyadosh so‘zlar lug‘ati, o‘quvchilar uchun sinonimik so‘zlar lug‘ati, shakldosh so‘zlar lug‘ati, o‘quvchilar uchun izohli lug‘at (hayvon nomlari asosida (qar: Jumayeva Saodat, Murodova Zulkumor. MB. Buxoro -2004), ideografik lug‘atlar tuzish kabi masalalarini o‘z oldiga dolzarb vazifa qilib qo‘ydi.

Endi, O‘TIL haqida to‘xtalsak. Ma’lumki, bu lug‘at 2 jildli, 1981-yilda nashr qilingan bo‘lib, umumiylizohli lug‘at hisoblanadi. 60.000 so‘zning izohiga bag‘ishlangan bu lug‘at o‘zbek lug‘atchiligining yutug‘i, desak xato bo‘lmaydi. Biroq, uzoq yillar ba’zi bir ko‘z yumib o‘tolmaydigan kamchiliklarning guvohi bo‘ldik. Jumladan, lug‘at maxsus mutaxassislarga mo‘ljallangan. Bu esa o‘zbek xalqi uchun nisbiy qiyinchiliklarni, hatto tushunmovchiliklarni keltirib chiqargani sir emas. Lug‘atda keltiriladigan ko‘pchilik tavsiflar o‘zbek ongi-shuuri, tafakkuriga mos emas. Bundan tashqari, lug‘atga kiritilgan so‘zlarning 40 foizi rus tilidan kirib kelgan, qo‘pol qilib aytganda tarjima qilingan (buni olma – meva va daraxt: яблоко – яблоня misolida). Shuningdek, milliy g‘oyalarimizga muvofiq kelmaydi. Ana shu va boshqa ko‘plab jihatlarni e’tiborga olgan holda O‘zRFA “Til va adabiyot instituti” ilmiy jamoasi ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni yaratishga kirishdilar va nihoyat 5 jildli 80.000dan ortiq so‘z va so‘z birikmasini o‘z ichiga olgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (T., 2006) dunyoga keldi.

Xuddi shu fikrlarni 70-yillarda yaratilgan “**O‘zbek sovet ensiklopediyasi**” to‘g‘risida ham aytish mumkin. Sovet voqeligi, sho‘ro siyosati ta’siri aks etib turuvchi, milliy tariximiz va ma’naviyatimiz buzib ko‘rsatilgan qomuslarni yangilash maqsadida, Prezidentimizning sa’y-harakatlari bilan 13 jildli “**O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi**”ni yaratishga kirishildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1997-yil 20-martda “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyotini tashkil etish to‘g‘risida 154-qarorni qabul qilgach, bu katta ishni amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlar yuzaga keldi.

Darhaqiqat, mustaqil diyormizning poydevori bo‘lmish kelajak avlod mana shu sifatlarni mujassam etishi lozim.

Lug‘at – bilimlar xazinasи, madaniyatimiz, ilm-fan va san’at, dunyoqarashimizni yuksaltirishga qaratilgan ulkan zahmatlar mevasи. Lug‘atlar tuzilishi, ya’ni leksikografiyani – igna bilan quduq qazishga o‘hshatish mumkin. Shuning uchun har bir leksikografik asar – yuksak tahsinga, hurmatga loyiq javohirdir.

Lug‘atlardan olam-olam bilim, ma’lumot olamiz. U fan – texnika, san’at, adabiyot bo‘yicha yangiliklarni bayon etib, nutq madaniyatimiz va so‘z boyligimizni oshiradi. Lug‘at bilan ishslash - maroqli, qiziqarli va zavqli. Lug‘atlar, ensiklopediya va ma’lumotnomalar bilan ishslashni tamoyil qilib olgan kishi esa savodli, ongli va madaniyatli insondir.

Leksikografiya – tilning mana shunday dolzarb masalalari bilan shug‘ullanuvchi sohasi ekan, ishonch bilan ayta olamizki, o‘zbek madaniyatini, ilm-u fanini, ma’naviyatini yuksak rivojlangan mamlakatlar safiga olib chiqishdek mas’uliyatli vazifalarni bajarishga o‘zbek lug‘atchiligi munosib hissa qo‘sha oladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Lug‘atchilik va lug‘atshunoslik orasida farq bormi?
2. Jahon leksikografiyasidan qanday manbalarni va qaysi leksikograf olimlarni bilasiz?
3. O‘TIL haqida fikr bildiring.
4. Hozirgacha mavjud bo‘lgan lug‘at va qomuslarning qanday muvaffaqiyatli va nuqsonli jihatlari bor?
5. Siz foydalanadigan qaysi lug‘atlarda (yoki ensiklopediyalarda) milliy tariximiz va o‘zligimiz noto‘g‘ri talqin qilingan yoki umuman hisobga olinmagan? Misollar asosida tushuntiring.
- 6.O‘TILDan biror so‘zni olib (izohi bilan), boshqa lingvistik lug‘atlardan (frazeologik, sinonimik, antonimik) berilishi, izohlanishi bilan tanishing.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 6; 10; 11; 27; 28; 47; 54; 58; 59; 60; 61; 62; 63; 64; 68; 71]

FRAZEOLOGIYA SATHI HAQIDA

Reja :

1. Frazeologiya sohasi, uning shakllanish bosqichlari.
2. Frazeologik ma’no. Ibora.
3. Iboralarning semantik tabiati.
4. Frazeologizmlarning grammatick xususiyatlari.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Frazeologiya bo‘limi, o‘zbek frazeologiyasining taraqqiyoti, o‘zbek frazeologiyasiga muhim hissa qo‘sghan tilshunos-olimlar, frazeologik ma’no, ibora, frazeologik polisemiya, qarama-qarshi ma’noli iboralar, iboralar sinonimiysi, frazeologik paronimiya va paroforma, iboralar omonimiysi va polisemiya, iboralar variatsiyasi, frazeologizmlarning grammatick xususiyatlari, kalkalash va tarjima

Frazeologiya – tilshunoslikning mustaqil sohasi bo‘lib, leksikologiya bag‘ridan XX asrning 50-yillaridan boshlab mustaqil bo‘lim, yangi soha sifatida ajralib chiqdi. Frazeologiyaning alohida lingvistik yo‘nalish bo‘lib shakllanishida, jumladan, o‘zbek frazeologiyasining dunyoga kelishida V.V.Vinogradovning muhim xizmatlari bor. Chunki, sobiq sho‘rolar davrida mustamlaka xalqlar tillari frazeologiyasi shu olim ta’limoti asosida paydo bo‘ldi. Bu sohaning rivojlanishida akademik A.Shaxmatov, V.Vinogradov, A.Yefimov, N.Shanskiylar, o‘zbek tilshunoslida esa Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, M.Husainov, I.Qo‘chqortoyev, B.Yo‘ldoshev kabi zabardast olimlar ulkan xizmat qildilar.

O‘zbek frazeologiyasining izchil ilmiy asosda tadqiq qilinishi Sh.Raxmatullayev nomi bilan bog‘liqdir. Olim bu sohaga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlari bilan milliy frazeologiyamizning yaratilishiga asos soldi. Jumladan, olimning quyidagi tadqiqot ishlari mavjud: «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» (T.,1978), «O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati» (T.,1964), «O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari» (T.,1966), «Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка» (М., 1952),

«Hozirgi zamon o‘zbek tili» (T.,1957), «Frazeologik birikmalarining asosiy ma’no turlari» (T.,1955) va h.

Shuningdek, Y.Pinjasov ham frazeologizmlarni o‘rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Olimning – «Фразеологические выражения в языке произведений Хамида Алимджана» (Т.,1953), «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (Leksikologiya va frazeologiya.) (T.,1969), «O‘zbek tili frazeologiyasi haqida» (T.,1957) kabi asarlari tilshunoslik xazinasidan o‘rin olgan.

O‘zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B.Yo‘ldoshev, Abdumurod va Abdug‘ofur Mamatovlarning xizmatlari katta bo‘ldi. B.Yo‘ldoshev frazeologizmlarning konnotativ ma’nolari, badiiy tasvir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini atroflicha yoritib berdi. Abdumurod Mamatov frazeologik norma muammosini ko‘tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatib berdi. Abdug‘ofir Mamatov esa, o‘zining qator asarlarida frazeologik shakllanish muammolarini o‘rtaga qo‘ydi va uning paydo bo‘lish omillarini yoritib berdi. Frazeologizmlarning muhim farqlovchi belgisi mazmuniy qayta shakllanish ekanligini ko‘rsatdi.

Ma’lumki, til birliklari shakl va ma’no munosabatida yashaydi. Til birligi bo‘lishi uchun ma’lum shaklga ma’lum bir ma’no biriktirilgan bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra so‘zlar leksik ma’no va grammatic ma’noga ega. Leksik ma’no – biror bir predmet, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi ma’no bo‘lsa, grammatic ma’no leksik ma’nolarni bir tur, turkum ostida birlashtirish, umumlashtirish hodisasini namoyon etadi.

Odatda, ikki va undan ortiq mustaqil so‘zning semantik va grammatic jihatdan aloqaga kirib, ma’lum tushuncha yoki tasavvurni, ba’zan nisbiy tugal fikrni bildiradigan birliklar-so‘zlar bog‘lanmasi uch ko‘rinishda ajratiladi:

1. Erkin so‘zlar bog‘lanmasi;
2. Qo‘shma so‘zlar bog‘lanmasi;
3. Frazeologik bog‘lanmalar.

Frazeologik bog‘lanmalar yoki frazeologizmlar ikki va undan ortiq so‘zning birikib ko‘chma ma’no ifodalashidan tashkil topgan, gapda bir butun bo‘lak vazifasida keladigan, yaxlitlashgan, tarkiban barqaror, tayyor, obrazli tasavvurlarga ega lug‘aviy birliklardir. Iboralar kamida ikkita mustaqil so‘zdan (leksemadan) iborat bo‘ladi. Shunga ko‘ra iboralar o‘zining ifoda tomoni bilan so‘zdan farq qiladi: so‘zning material tomoni – tovush bo‘lsa, frazeologizmni so‘zdir. Iboralarning ma’no planiga bittadan ortiq so‘zlarning yaxlitligicha, ma’lum bir obraz asosida, ko‘chim asosida semantik bog‘lanishi hodisasi xos bo‘lib, bu **frazeologik ma’no** deyiladi. Masalan, *ko‘zini ochmoq* birikmasi frazeologik ma’noni mujassamlashtirgan:

1. *Ko‘zingni och!* (*uyg‘on*); 2. *Ko‘zingni och!* (*ogoh bo‘l, g‘aflatda qolma*).

So‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi:

- 1) shakl tomoniga ko‘ra: omonimlar, paronimlar;
- 2) mazmun tomoniga qarab: polisemiya, antonimiya va h.z.

Xuddi shuningdek, frazeologizmlarda ham shakl va mazmun munosabati aks etadi. Frazeologik sinonimiya, antonimiya, polisemiya, frazeologik paronimiya va omonimiya hodisalari mavjud.

Frazeologik ko‘p ma’nolilik. Ikki va undan ortiq ma’noning iborada mavjud bo‘lishi: ***xayoliga kelmoq*:** 1) «*o‘ylanmoq, fahmlamoq*»;

2) «*xotirasida tiklanmoq*»; ***o‘ziga kelmoq*:** 1) «*tushunmoq, anglamoq*»;

2) «*hushiga kelmoq, sog‘aymoq*».

Frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo‘lganidek, bosh ma’no va hosila ma’no bo‘ladi. Biroq frazeologik polisemiyadagi bosh ma’no ham ko‘chma (obrazli) bo‘ladi, chunki har qanday frazeologik ibora ko‘chma ma’no asosida yuzaga keladi.

Iboralar sinonimiyasi. Shaklan, tarkiban har xil bo‘lgan iboralarning mazmunan bir-biriga yaqin kelishi leksik sinonimiyaga juda o‘xshab ketadi: *yer bilan yakson qilmoq – kulini ko‘kkasovurmoq – dabdala qilmoq...*; *boshdan-oyoq – ipidan-ignasigacha – miridan-sirigacha – ikir-*

chikirlarigacha – *qilidan-quyrug‘ichgacha...*; Shu yerda iboralar mazmunan o‘xhash bo‘lgani bilan, ba’zi bir qirralarida, obrazlilik darajasida farq qilishi mumkinligi ko‘rinadi: birinchi misolda *kulini ko ‘kka sovurmoq* iborasida frazeologik obrazlilik, bo‘rttirish birmuncha kuchli.

Frazeologik sinonimlarni ibora variantliligidan ajrata olish lozim: *jonini hovuchlab* – *yuragini hovuchlab*, *esi chiqmoq* – *esxonasi chiqmoq*, *ko ‘ngliga tugmoq* – *yuragiga tugmoq*, *esidan ko ‘tarilmoq* – *xayolidan ko ‘tarilmoq* kabi iboralar variantlar xolos. Odatda iboralar ma’nosи so‘zga teng keladi: *qochmoq* – *quyon bo ‘lmoq*, *dumini qismoq*; *shafqatsiz* – *bag ‘ri tosh*; *xursand* – *boshi osmonga yetmoq*, *do ‘ppisini osmonga otmoq*, *og ‘zi qulog ‘ida, terisiga sig ‘maslik*, *og ‘zining tanobi qochmoq* va h.z.

Sizni qarang, men «to ‘rt» olsam, do ‘ppimni osmonga otgan bo ‘lardim! (O.Yoqubov. «Muqaddas».) *Rizvon xola terisiga sig ‘may gapira-gapira o ‘choq boshida ivirsirdi* (A.Muxtor. “Opa-singillar”).

Qarama-qarshi ma’noli frazeologizmlar. Bu hodisa iboralar orasida juda keng tarqalgan hodisa bo‘lib, leksik antonimiyyaga yaqin turadi:

Ko‘kka ko‘tarmoq – yerga urmoq, yuragi keng – yuragi tor, ko‘ngli joyiga tushdi – yuragiga g‘ulg‘ula tushdi *kabi*.

Iboralar antonimiysi ba’zan o‘zaro zid ma’noli so‘zlar asosida, ba’zida esa o‘zga tarkibli iboralar orasida sodir bo‘lishi kuzatiladi. Masalan, *savol bermoq* – *javob bermoq*, *ko ‘kka ko ‘tarmoq* – *yerga urmoq*, *ko ‘zi to ‘q* – *ko ‘zi och*, *kalavaning uchini yo ‘qotmoq* – *kalavaning uchini topmoq*, *ruhi ko ‘tarilmoq* – *ruhi tushmoq* singari misollarda so‘zlarning ma’noviy ziddiyati natijasida frazeologik antonimiya kelib chiqmoqda. *Ko ‘ngli joyiga tushdi* – *yuragiga g‘ulg‘ula tushdi*, *jonini jabborga bermoq* – *qo ‘l uchida* kabi misollar esa har xil tarkibli, grammatik tuzilishli birikmalararo zidlikni bildirmoqda.

Frazeologik iboralarda, shuningdek, shakldoshlik hodisasi ham mavjud bo‘lib, ikki yoki uch ibora orasida yuzaga keladi. Masalan, *bosh ko ‘tarmoq* iborasi quyidagicha ma’nolarga ega:

- 1) *Bosh (ini) ko ‘tarmoq.* Zulfizar asta boshini ko ‘tardi (fizik harakat).
- 2) *Qo ‘zg ‘olon.* Xaloyiq bosh ko ‘tardi (isyon ma’nosи).

Boshiga ko ‘tarmoq birikmasi ham omonimiyanı hosil qiladi:

- 1) *Anvar onasini boshiga ko ‘tarib e’zozlar, maqtar edi* (hurmat).
- 2) *Bolalar butun hovlini boshlariga ko ‘tarib o ‘ynashar edi* (to‘polon, shovqin, tartibsizlik).

Omonim iboralarning o‘ziga xos jihatni shundaki, bunday birikmalar ayni bir leksik ma’nosini bilan qatnashadi, ya’ni so‘z komponentlarga yo sinonimlariga tayanib bo‘lmaydi, balki iboralar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan, *ichagi uzildi* (I) va *ichagi uzildi* (II) iboralaridagi so‘z komponentlar ayni bir leksik ma’nosini bilan qatnashgan, ammo bu iboralar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: 1-iborada qattiq va uzlusiz kulganda ichaklar silkina-silkina uzilib ketgudek bo‘lishidan, 2-sida esa uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzhish darajasiga yetishi obrazli tasvirlangan.

Iboralarning paronimligi ham mavjud. Ular frazeologik paronimlar yoki frazeologik paraformalar deyiladi. Masalan, *jon kirmoq – joni kirmoq; esiga kelmoq – esiga keltirmoq; tumshug‘ini suqmoq – tumshug‘ini tiqmoq* va h.z. Paronimlar o‘zaro bir so‘z-komponenti bilan farq qiladi:

- 1) tarkibidagi hol komponent boshqa-boshqa, ammo o‘xshash so‘z bo‘ladi: *yurag(i) tars yorilib keta yozdi – yurag(i) qoq yorila yozdi;*
- 2) tarkibidagi to‘ldiruvchi komponent boshqa-boshqa, ammo o‘xshash so‘z bo‘ladi: *o‘z(i)ni qayerga qo‘yishni bilmaslik – o‘zini qayoqqa urish(i)ni bilmaslik;*
- 3) tarkibidagi boshqaruvchi fe’l komponenti boshqa-boshqa, ammo o‘xshash so‘z bo‘ladi: *etti uqlab, tush(i)ga kirmaslik va etti uqlab tush(i)da ham ko‘rmaslik; ikki oyog‘ini bir etikka suqmoq – ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq* kabi;
- 4) Bizga ma’lumki, frazeologik iboralarning asosiy grammatik xususiyati gapda bir butun bo‘lak vazifasida qatnashishidir: *Ishongan bog‘im, suyangan tog‘im – sensan, bolam!* (ega vazifasida). *Ziyodani holi-joniga qo‘ymay olib kelaverdim* (hol vazifasida). *Hamma joyga birma-bir ko‘z yogurtirib chiqdi* (kesim o‘rnida), *Yuragi tosh ukangiz yaxshiligidini*

bilarmidi?! (aniqlovchi), *Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi-ya...* (gap).

Frazeologizmlar grammatik (sintaktik va morfologik) tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, fe'l va boshqa so'z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarining sintaktik birikuvi ham turlicha bo'ladi: *olam guliston, ta'bi xira, kayfi buzuq, temsa-tebranmas, qorasi o'chmoq, yuragi qora, o'ziga kelmoq, o'rta ga tashlamoq, katta gapirmoq* kabilar. Tarkibida taqlid so'zlar bo'lgan frazeologizmlar alohida obrazliligi bilan ajralib turadi: *yuragi duk-duk qilmoq*. Ba'zi frazelogizmlarning tarkibida boshqa tillardan kirgan so'zlar ham ishtirok etishi mumkin: *infarkt qilmoq, gapning indallosini aytmoq, doklad o'qimoq*.

Xususan, iboralarning kalkalash asosida voqe bo'lishi ham grammatik omildir:⁴

- a) to'liq kalkalar: *bir ovozdan* (ruscha единогласно, единодушно), *ko'zga tashlanmoq* (бросаться в глаза), *o'rniga keltirmoq* (tojikcha bajo ovardan);
- b) yarim kalka: *dil(i) siyoh bo'lmoq* (dilash siyoh shud); *yer bilan yakson qilmoq* (bo zamin yakson kardan) va h.z.

Aslida, iboralarni kalkalash juda murakkab hodisa bo'lib, odatda so'zma-so'z tarjima emas, balki ma'noviy munosiblikka asoslaniladi. Masalan, inglizcha *have a drop in one's eye* rus tilida «быть под хмельком» deb tarjima qilinadi. Aslida (so'zma-so'z) esa bu ibora “иметь капельку в одном глазу” ma’nosini bildiradi. Shuningdek, *make good* iborasi – делать хорошо (yaxshi bajarmoq) ma’nosini bildirsa-da, *va'dasini bajarmoq, so'zida turmoq* deb tarjima qilinadi (kalkalashtiriladi). Qiziqlarisi, nemis tilidagi *im Dreck sitzen* iborasi rus tilida терпеть нужду (ehtiyojmand bo'lish), нуждаться в деньгах (zoriqish, pulga zor bo'lish) deya o'girilsa-da, o'z ma’nosida «сидеть в грязи» tushunchasini anglatadi.

B.N.Golovinning ko'rsatishicha, hatto idiomalar (frazeologizmlarning bir turi) ham tarixan muayyan mazmunga egadir. «Birgina V.N.Dalning «Izohli lug'ati»ga murojaat qilishning o'zi kifoya, - deydi u qarashlari davomida, - ko'ramizki, бить баклушки iborasidagi баклуша so'zi ham

qachonlardir yog‘och idishlar (chashka, qoshiq) tayyorlash anjomi ekanligi anglashiladi. Bu keraksiz yog‘och bo‘laklari, payraxalari bilan bo‘lgan faoliyatdir. Demak, zamonaviy *бить бақлуши* idiomasining mazmuni, ya’ni ishyoqmaslik, ishdan qochish, bekorchilik ma’nosini mana shu faoliyatdan kelib chiqqan ekan».

Xullas, har bir tilning frazeologik qatlami o’sha til egasi bo‘lmish xalqning urf-odatlari-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta’sirchan va bo‘yoqdor iboralar nutqimiz ko‘rki, tilimizning boyligidir. Frazeologizmlar leksik birliklar kabi iste’mol doirasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi, ya’ni umumiste’moldagi iboralar va qo‘llanishi chegaralangan iboralar farqlanadi. Umumiste’moldagi iboralarga *shunga qaramay, holdan toymoq, ro‘yobga chiqmoq* kabilar kirsa, qo‘llanilishi keng bo‘lmagan iboralar ilmiyligi (*imkoniyatlar doirasi, nazar tashlamoq, og‘riqli nuqtalar*), badiiyligi (*sabr kosasi to‘lmoq, ko‘ngli ochiq*), dialektalligi (*halak bo‘lmoq – ovora bo‘lmoq*), eskirganligi (*alifni kaltak demoq, dumi xurjunda*) bilan xarakterlanadi. Bunday xususiyatlar har bir tildagi frazeologik birliklar uchun xosdir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, iyerarxonimiya kabi semantik munosabatlarni, sintaktik xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunonchi, frazema sof semantik butunlik bo‘lganligi sababli uning "semantik butunligi"ni sintaktik butunlikka ko‘chirish mumkin emas-istagan turdagи frazema (uni biz tor tushunamizmi, kengmi, baribir) sintaktik tahlilda faqat sintaktik belgilarga ko‘ra tasnif etilmog‘i zarur. Shuning uchun, masalan, *Mushuk tomdan tushdi* gapi sintaktik jihatdan ega-o‘rin holi-kesim sifatida sintaktik bo‘laklarga ajratilgani kabi *Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi* gapi ham shunday bo‘laklarga ajratilishi lozim.

Frazemalar tarkibidan ajralgan holda qo‘llanilmaydigan so‘zlar (chunonchi, *abjaq, almisoq, hash-pash, ozmoq, bino, bino qo‘ymoq, chog‘, jin/jini suymaydi*/ v.h.), frazemalar tarkibidagi numerativlar ham (*chimdim, shingil, og‘iz / bir og‘iz gap/* v.h.) gapni sintaktik bo‘laklarga ajratish

jarayonida alohida-alohida qismlarga ajratilishi zarur. Shuning uchun *yutuq chiqdi* birikmasi qanday tahlil etilsa (ega - kesim), *abjag'i chiqdi*, *dong'i ketdi* ham s i n t a k t i k nuqtayi nazardan shunday tahlil etilishi lozim.

Aytigan fikr nafaqat predikativ, balki noperediktiv frazemalarga ham aloqadordir. Chunonchi, *tosh yurak*, *ko'ngli bo'sh*, *ipidan ignasigacha*, *ko'zi to'rt* kabi frazemalar ham *tosh ko'prik*, *qopi bo'sh*, *uydan universitetgacha*, son *qiymati to'rt* kabi erkin birikmalar sintaktik jihatdan qanday tahlil qilinsa, shunday talqin etilishi shart.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Frazeologiya sohasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlar haqida gapirib bering.
2. Frazeologizm yoki iboralarning so'zdan farq qilib turuvchi qanday asosiy xususiyatlari bor?
3. Iboralarning qanday tasniflarini bilasiz?
4. Iboralarning semantik tabiatini so'zlararo ma'noviy munosabatlar bilan qiyoslagan holda sharhlab bering.
5. Gap yoki gap bo'lagi vazifasida keluvchi frazeologizmlarga misol keltiring.
6. Iboralar har bir xalqning milliy xususiyatlarini aks ettiradi, deganda nimani tushunasiz?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 10; 19; 20; 28; 33; 42; 47; 50; 68]

MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS MUNOSABATI

Reja :

1. Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi.
2. Nutqiy voqelanishdan umumiylukka—zotiy mohiyatdan qo'llanishga.
3. O'zbek tili morfologiyasining asosiy tamoyillari.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar

Morfologiya va sintaksisning dialektik birligi, [WPm] – gapning minimal qolipi, dialektik munosabatlarning morfologik sathda namoyon bo‘lishi, qatorlanish (sintagmatik) tushunchasi, guruhlanish (paradigmatik) va pog‘onaviylik (iyerarxik) tushunchalari, birlik va ko‘plik son shakllarining umumiy ma’nolari

Ma’lumki, grammatika deganda tor ma’noda morfologiya va sintaksis, keng ma’noda esa tilning barcha qurilish sathlari tushuniladi. Til sathlari deganda fonetika va fonologiya, leksika va semasiologiya, frazeologiya, morfologiya, sintaksis va stilistika tushuniladi. Morfologiya va sintaksis bir-birini taqozo etuvchi sathlar sanaladi. Lisoniy birliklarga zotiy yondashuv morfologiya va sintaksisning dialektik birligi haqida hukm chiqarish imkonini berdi. Morfologiya – grammatikaning so‘zshakl ma’nosи haqidagi sohasi bo‘lsa, sintaksis grammatikaning so‘zshakl vazifasi haqidagi sohasi sanaladi. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi aloqa-aratashuv, insonlar orasida fikr almashtirish vositasi bo‘lganligi sababli sintaksisning o‘rganish manbai bo‘lgan gaplarda tilning barcha sathlarining -fonologiya va fonetikaning, leksika va semantikaning, morfemika va morfologiyaning birliklari voqelanadi, yuzaga chiqadi. Bu birliklardan har birini tilshunoslikning alohida-alohida bo‘limlari o‘rganadi. Lekin sintaksisning o‘rganish manbai bo‘lgan gaplarda barcha sath birliklarining belgilari jilvalanadi. Masalan: 1. *Kitobni ukamga oldim. Kitobni ukam uchun oldim.* 2. *Salima xafa bo‘ldi. Salimaning kapalagi uchdi* kabi hodisalar sintaktik hodisalar -sintaktik sinonimiya deb talqin etiladi. Lekin 1-holatda morfologik birliklarning ma’no va vazifadoshligi, 2-holatda so‘z va ibora ma’nodoshligini kuzatish mumkin. Bunday morfologik hodisalarga sintaktik jihatdan qaraladi va sof sintaktik hodisani o‘rganish chetda qoladi.

Yoki: - *u/-yu*
 -*da*
 lekin / ammo
 yoki

<i>Lola keldi</i>	<i>-yu,</i>	<i>men ketdim.</i>
	<i>shuning uchun</i>	
	<i>-ki</i>	
	<i>deb</i>	

kabi gaplar bog‘langan qo‘shma gaplar, ergashgan gaplar va ularning ko‘rinishlari sifatida an’anaviy tilshunosligimizda o‘rganilib kelinmoqda. Agar diqqat bilan e’tibor bersak, bu misollarda turli xil gaplar (sintaktik hosilalar) ni emas, balki turli bog‘lovchi vositalar bilan shakllangan morfologik hodisalarni - bog‘lovchilar paradigmasini ko‘rish mumkin. Bu yerda ham morfologik birliklarning sintaksisda "qorishilgan"ini sezish mumkin. "Sintaksis boshqa sathlar (ayniqsa, leksika va morfologiya) birliklari tajallisidan xoli bo‘lgach, behad sodda va hammaga oson tushunarli qoliplarning o‘zaro munosabat chizmalari shaklini oladi..." [2, 29-30;]. Jumladan, [WPm] sintaktik qolipi ham xuddi shunday keltirib chiqarilgan. Buning uchun nutqdagi oddiy bir gapga murojaat qilamiz: (*Bu kunda Latofatning murg‘akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi*). Bu nutq hosilasida barcha til sathlarining birliklari o‘z ifodasini topgan. Bu gapning sintaktik qurilishini aniqlash uchun, nutqdagi gapning nosintaktik kategoriyalar ko‘rinishlarini birma-bir olib tashlaymiz:

1. Intonatsion tugallanganlik. Yuqoridagi gap intonatsion tugallikkiga ega. Agar biz shu gapga boshqacha bir tus bersak, u intonatsion jihatdan tugal bo‘lmasligi ham mumkin, ya’ni "*Bu kunda Latofatning murg‘akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi va uning ko‘zi oldida borliq o‘zgacha libos kiydi*". Gapning birinchi qismi ohang jihatdan tugallanmagan. Bunday xususiyatlar nutqdagi gaplar uchun xarakterli holat sanaladi. Ammo gapning qolipiga ahamiyatsizdir, chunki gaplarni ohang jihatdan o‘rganish fonetika, fonetik tahlilning obyektiidir.

2. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Yuqoridagi nutqiy hosila ham so‘roq, ham buyruq, ham his - hayajon gap bo‘lib shakllanishi mumkin. Ammo gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari gap semantikasida o‘rganilishi lozimligi uchun, shuningdek, bunday

xususiyatlar gapning eng kichik qolipiga dahldor bo‘lmaganligi tufayli bu nosintaktik hodisadan ham voz kechamiz.

3. Modal ma’nolariga ko‘ra turlari. Nutqda gap turli modal (gumon, taxmin, ishonch, qat’iylik...) manolarida bo‘lishi mumkin. Jumladan, yuqorida bergen gapimizni quyidagi shaklda qo‘llasak: (*Bu kunda*) *Latofatning murg‘akkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashlaganga o‘xshaydi*. Bu gapda endi gumon ma’nosи o‘z ifodasini topgan. Bu hodisa ham gapning sintaktik qurilishi uchun ahamiyatsiz bo‘lganligi va tilning modallik kategoriyasida o‘rganilishi lozimligi tufayli tajalli sifatida gapdan chetlashtiramiz. Qisqasi, shunga o‘xhash nosintaktik hodisalarni gapdan chetlashtirgandan so‘ng gapning bo‘laklari qoladi.

Mashhur fransuz tilshunosi L.Tenyer grammatikasida (gap bo‘laklarining gap ichidagi mavqeи, darajalanishi) asoslangan holda gapdagi markaziy bo‘lakni aniqlashga kirishamiz. Bu gapning eng kichik qolipini aniqlashdagi ikkinchi tayangan bosqichimiz bo‘ladi “(*Bu kunda*) *Latofatning murgakkina qalbiga shunday nogahoniy sevgi otash tashladi*” gapini bo‘laklardan birma-bir xoli qilgach, fikrni ifodalay oladigan markaziy bo‘lak–kesim vazifasidagi so‘zforma (“otash tashladi”) qoldi.

I, II, III bosqichda tobe bo‘laklar aniqlanildi. Bu so‘z, so‘z birikmalari atash, nomlash xususiyatini ifodalaydi. Fikr ifodalash esa “*Otash tashladi*” frazemasida mujassamlashgan. “*Otash tashladi*” so‘zining valentligi asosida yuqoridagi gap hosil qilingan. Bu so‘zshakl ikki qismidan iborat: *otash tashla* – lug‘aviy ma’no ifodalovchi qism, *-di* – kesimlik ko‘rsatkichlari qismi, ya’ni bu [WPm]ga tengdir.

Yuqorida biz nutqiy voqelanishdan umumiylukka qarab intildik va umumiyl hosilani vujudga keltirdik. Bu chizma, qolip (WPm) yuz minglab gaplarda voqelanadi, ro‘yobga chiqadi. Ya’ni zotiy mohiyat nutqda rang-barang ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, biz yuqoridagi misolimiz bilan, dastlab, xususiyliklardan umumiyluk keltirib chiqardik va bu umumiyluk yana

pastga qarab turli xususiyatlarini namoyish etadi. Bundan morfologiya va sintaksisning bosh maqsadi kelib chiqadi. "...xususiyliklarni ma'lum tamoyillar asosida umumiylklarga birlashtirish va, aksincha, muayyan umumiylarning bevosita kuzatishda turlicha namoyon bo'lish imkoniyatlarini ochib berishga, boshqacha aytganda, induktiv usulga tayangan holda xususiyliklardan umumiylklarga o'tish, umumiylklar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ochish – nazariy morfologiyaning bosh maqsadi sanaladi" [3,8;]. O'zbek tili nazariy morfologiyasining asosiy xususiyatlari, vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Til – nutq zidlanishi asosida umumiylilik – xususiylik, imkoniyat – voqelik dialektik munosabatining morfologik sathda namoyon bo'lishini ko'rsatib berish;
2. Morfologiya morfologik birliklar munosabatiga tayanadi;
3. Til birliklari o'rtasidagi uch xil munosabat tadqiqot markazida bo'ladi: qatorlanish (sintagmatik) guruhanish – (paradigmatik) – pog'onaviylik (iyerarxik). Qatorlanish – til birliklarining ketma-ket joylashuvi. Guruhanish munosabati ma'lum birlashtiruvchi belgi asosida muayyan sinfga birlashtiruvchi birliklar o'rtasidagi munosabat sanalib, u "fahmiy bog'lash" orqali hosil qilinadi. Pog'onaviylik kichik birliklarning o'zidan kattaroq birliklar tarkibiga kirish munosabati. Bu munosabat butun va bo'lak aloqasini namoyon etadi. Masalan, morfema affiksal morfema bilan so'z morfemalardan tashkil topadi, morfema so'zshakl tarkibida real voqelanadi.
4. Morfologik birliklarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari ularni ma'lum paradigma tarkibida zidlash asosida aniqlanadi. Shuning uchun ham har qanday grammatik paradigma zaminida zidlanish yotadi. Tilshunoslikning vazifasi ana shu zidlanish belgilarini ochishdan iborat. Bu zidlanishlar nutqiy konkret ma'nolar asosida emas, balki grammatik (morfologik) shaklning umumiyl - lisoniy ma'nosini asosida quriladi. Umumiyl - lisoniy ma'nolar esa o'zaro mutanosib grammatik shakllarning aloqadorligi asosida ochiladi. Chunonchi, birlik son bilan ko'plik son shakllarining nutqiy ma'nolarini qiyoslasak:

Birlik son	Ko‘plik son
<i>kitob</i>	<i>kitoblar</i>
<i>kitob</i>	<i>ko‘p kitob</i>
<i>1 ta kitob</i>	<i>10 ta kitob</i>
<i>kitob</i>	<i>bir shkaf kitob</i>

Ikki son shakli ma’nolarini qiyoslab hukm chiqara olamizki, birlik son aniq miqdorni ham, noaniq miqdor (*ko‘p kitob*)ni ham, birlikni ham, aniq va noaniq ko‘plikni ham ifodalay oladi. Ko‘plik son esa hamisha noaniq ko‘plikni ifodalaydi. Mana shu noaniq ko‘plikni ifodalash ko‘plik sonning umumiyligi ma’nosini, birlikni ham, ko‘plikni ham, aniqlikni ham, noaniqliknini ham ifodalay olish esa birlik sonning umumiyligi ma’nosidir.

Morfologik paradigmalarda shakllar mana shunday umumiyligi ma’nolar asosida zidlanadi. Mana shunday umumiyligi morfologik (grammatik) ma’nolarni ochish va paradigma a’zolarining zidlanish belgilarini tavsiflash bugungi o‘zbek tili nazariy morfologiyasining tadqiq manbaidir. Bu ishga o‘zbek tilshunosligi endigina kirishdi va uning rivoji bevosita iqtidorli yoshlarning kelajakdagi faoliyatlar bilan bog‘liq.

Morfologik shaklning mana shu usulda ochilgan umumiyligi ma’nosini bu formaning qo‘llanilishida – sintaksisda voqelanadi. Shuning uchun morfologik shakl umumiyligi ma’nosini imkoniyat sifatida unda yashiringan bo‘ladi. Nutqda esa u ro‘yobga chiqadi va morfologiya va sintaksisning uzviy aloqadorligi, bir-biridan ajralmasligi ta’minlanadi. Morfologik shakl imkoniyat bo‘lsa, sintaktik qurilma voqelanishdir. Chunonchi, “*ukamga*” so‘zshaklini olib ko‘raylik. Bu shaklda –

- 1) lug‘aviy ma’no o‘zidan kichik, erkak jinsidagi bir ota-onadan bo‘lgan bir avlodagi qarindosh;
- 2) ma’lum bir so‘z turkumi (ot)ga mansublik;
- 3) miqdor jihatdan noaniqlik;
- 4) qandaydir boshqa so‘zga tobe (to‘ldiruvchi yoki hol) mavqeida kelib, harakat yoki biror narsaning unga yo‘nalganligi;
- 5) I shaxsga aloqadorlik ma’nolari mujassamlangan.

Bu ma'nolarning barchasi "*ukamga*" so'zshaklida noaniq va umumiyyidir. Bu so'zshakli nutqda boshqa so'zlar bilan aloqadorlikda voqelanganda yuqoridagi ma'nolar muayyanlashadi. "*Kitobni ikkinchi ukamga oldim*", "*Bu gapni kenja ukamga aytdim*", "*Boshimni ko'tarib o'rtancha ukamga qaradim*".

Bundan biz yana bir xulosaga kelamiz: morfologik shakl nafaqat sintaktik qo'llanishi bilan, balki lug'aviy ma'no va lug'aviy to'ldirilishi bilan ham uzviy bog'langan. Bu leksika, morfologiya va sintaksisning o'zaro uzviy aloqadorligi va tilning yaxlitligi bilan tabiatan bog'liqdir. Biz tilni, uning birliklarini turli sathlarga sun'iylik bilan ajratamiz, ayrim maqsadlarni ko'zlab ajratamiz. Haqiqatda esa ular bir butunlikda yashaydi, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Lekin har bir sath uchun faqat shu sath uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida biz o'rganilayotgan sath birligini boshqa sathlar tajallisidan sun'iy ravishda ozod qilishimiz kerak. Masalan, "*Ahmadlar*" so'zshaklida [-*lar*] qo'shimchasining ma'nosи "*kitoblar*" so'zshaklidagi [-*lar*] ma'nosidan farq qiladi. Bu farq, shubhasizki, yakka shaxs nomi bo'lgan. "*Ahmad*" va bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi bo'lgan "*kitob*" so'zining lug'aviy ma'nosи bilan va morfologik shakl bo'lgan ko'plik sonning umumiy morfologik ma'nosiga aloqador emas. Xuddi shunday [-*ni*] tushum kelishigi qo'shimchasini qabul qilgan vositasiz to'ldiruvchi quyidagi birikmalarda har xil ma'noga ega: *Uyni qurdik*. *Uyni buzdik*. *Uyni bezadik*. *Uyni ko'rdik*. *Uyni o'yladik*...

Lekin bu rang-baranglik [-*ni*] shaklining umumiy morfologik ma'nosidan emas, balki unung qanday so'zlar bilan birikib kelgani bilan bog'liq. Tushum kelishigining umumlisoniy ma'nosи ot yoki ma'nosи toraygan so'zni o'timli fe'l bilan tobe bo'lak (vositasiz to'ldiruvchi) mavqeida bog'lashdan iborat, xolos. Shuning uchun grammatika umumiy ma'nolar bilan ham, xususiy nutqda voqelangan ma'nolar bilan ham ish ko'rganligi sababli biz bu ikki xil ma'no ustida alohida to'xtalishimiz lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nutqiy voqelanish tushunchasi nima?
2. Morfologiya grammatikaning qanday sathi?
3. [W P_m] qolipi qanday hosil qilingan?
4. [W P_m] chizmasi qanday gaplarda reallashadi ?
5. Til birliklari orasida qanday munosabatlar yotadi?
6. Paradigmatik (guruhanish) munosabati haqidagi tushunchangizni misollar bilan izohlang.
7. Sintagmatik (qatorlanish) munosabat nima?
8. Iyerarxik (pog'onaviy) munosabatda til birliklari qanday joylashadi?
9. O'zbek tili morfologiyasining asosiy tamoyillarini sanang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 10; 14; 17; 19; 20; 22; 25; 29; 31; 35; 46; 55; 56; 70; 72; 73]

MORFEMIKA

Reja:

1. Morfemika sathi haqida umumiy ma'lumot.
2. O'zak morflar va affiksal morflar.
3. Morfema va bo'g'in munosabati.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar

Morfemika, o'zak morf, affiksal morf, so'z yasovchi affikslar, aloqa-munosabat shakllari, lug'aviy shakllar, affiksal omonimiya, affiksal polisemiya, affiksal sinonimiya va anotomiya, allamorflar, bo'g'in va morfema

Nutqqa xos bo'lgan eng kichik birlik so'z (yoki so'zshakl) bo'lib, ma'lumki, mustaqil so'zlar ham leksik, ham grammatik ma'nolarga, yordamchi so'zlar esa faqat grammatik ma'noga egadir. So'zshakllar grammatik ma'no ifodalash xususiyatiga qarab ma'noli qismlarga bo'linadi. Vaholanki, har qanday so'z material (tovush) va ma'no tomonlarining yig'indisidan iborat.

So'zlar yoki so'zshakllar tarkibida ajratiladigan eng kichik ma'noli qismlar morf (yunoncha **morphe – shakl** demakdir)lar deyiladi. Morflar til

faning morfemika sathida o‘rganiladi. Demak, morfemika – so‘zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limot. Morflar ikki turga bo‘linadi: o‘zak morflar va affikslar morflar. Chunonchi, *tinchimoq*, *mehnatkashlarning*, *kitobxonlarimiz*, *to‘qimachilik*. Ushbu so‘zshakllarning har birida to‘rttadan morf bo‘lib, ularning bosh qismlari (*tin*, *mehnat*, *kitob*, *to‘qi*) o‘zak morflar, o‘zaklarga qo‘shilgan qismlar (*-ch*, *-i*, *-moq*, *-kash*, *-lar*, *-ning*, *-xon*, *-imiz*, *-ma*, *-chi*, *-lik*) esa affiksal morflar hisoblanadi.

Har bir so‘zshaklda ishtirok etishi shart bo‘lgan, lug‘aviy ma’no ifodalovchi qism **o‘zak** deyiladi. So‘zga turlicha affikslar qo‘shilganda ham o‘zak morf o‘z ma’nosini yo‘qotmaydi va so‘zshaklning umumiyligi ma’nosini o‘zak morfning ma’nosini bilan zinch bog‘langan bo‘ladi. Masalan, *tinch*, *tinmoq*, *betinim*, *tinchi* kabi so‘zlar *tin* o‘zagidan, *boshla*, *boshliq*, *boshchi*, *boshoq*, *boshsiz*, *boshqalar* so‘zlarini *bosh* o‘zagidan; rus tilidagi *опытник* (*tajribachi*), *опытчество* (*tajribachilik*), *опытный* (*tajribali*) so‘zlarini *опыт* o‘zagidan; *братание* (*birodarlashuv*), *братьаться* (*aka-uka tutinmoq*), *брата* (*birodarlar*), *братья* (*og‘ayni*) so‘zlarini *брать* o‘zagidan; ingliz tilidagi *worker* (*ishchi*), *working* (*ishlaydigan*), *workshop* (*ishxona*) so‘zlarini *work* (*ish*) o‘zagidan yasalgan.

Affiksal morflar mustaqil ravishda ishlatilmaydi, faqat so‘zshakl tarkibidagina grammatik ma’no ifodalaydi, o‘zak asosida yangi leksik ma’noli so‘zning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Ifodalaydigan ma’no mohiyatiga ko‘ra affiksal morflar uch turga bo‘linadi:

- 1) so‘z yasovchi affikslar;
- 2) aloqa-munosabat shakllarini hosil qiluvchi affikslar;
- 3) lug‘aviy shakl hosil qiluvchi affikslar.

So‘z yasovchi affikslar turli so‘zlarga qo‘shilib, uning ma’nosini bilan bog‘liq yangi so‘zlar hosil qiladi. Yasovchi affikslar bir so‘z turkumi doirasiga mansub yangi so‘zlar yasashga: *mulk* ~ *mulkdor*, *san’at* ~ *san’atkor*, *uzum* ~ *uzumzor*, *zina* ~ *zinapoya*, *odam* ~ *odamgarchilik* (ot); *киоск* (*do‘koncha*) ~ *киоскёр* (*do‘konchi*), *кран* – *крановщик* (*kranchi*), *глаз* (*ko‘z*) ~ *глазница* (*ko‘z kosasi*) (ot) va bir turkuordan boshqa turkum

so‘zlarini yasashga ham xizmat qiladi. Jumladan, *gul* (ot) – *gulli* (sifat) – *gulla* (fe’l), *keng* (sifat) - *kengay* (*moq*) (fe’l), *o‘yin* (ot) – *o‘yna* (fe’l), *yelpi* (fe’l) – *yelpig‘ich* (ot), *chida* (fe’l) – *chidam* (ot); *зрубо* (*qo‘pol-sifat*) – *зрубостъ* (*qo‘pollik*-ot), *зруз* (*yuk*-ot) – *зрузить* (*yuklamoq*-fe’l), *ax* (*oh-undov*) – *аханье* (*ohlamoq* - fe’l) kabi.

O‘zakka birdan ortiq yasovchi affikslar qo‘shilishi ham mumkin. Bunday holatlarda so‘z tarkibi murakkablashadi: *choy-xona-chi-lik*, *suvo-q-chi-lik*, *be-g‘araz-lik*.

So‘z yasovchi affikslarning so‘z yasash darajasi ham bir xil emas. Juda ko‘p miqdorda yangi so‘z yasashga xizmat qiluvchi affikslar unumli affikslar hisoblanadi. *Jangchi*, *tarixchi*, *aqli*, *g‘ayratli*, *oqla*, *tuzla*, *moslama*, *qatlama*, *yoshlik*, *bolalik* so‘zlari tarkibidagi [-chi], [-li], [-la], [-lik] affikslari shular jumlasidandir. Miqdoran kamroq so‘z yasovchilar kamunum affikslar deyiladi. Chunonchi, *qamoq*, *tirnoq*, *toshqin*, *qirg‘in*, *ekin*, *tugun* kabi.

Tarixan yangi so‘z yasashga xizmat qilgan, hozirda esa bunday xususiyatini yo‘qotgan affikslar unumsiz affikslardir. Masalan, [-vul], (*qorovul*), [-dak] (*kekirdak*), [-chil] (*epchil*)...

Aloqa-munosabat affikslari so‘z birikmalarida so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga, shuningdek, gap bo‘laklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Aloqa-munosabat qo‘shimchalari guruhiga 1) egalik affikslar; 2) kelishik affikslar; 3) kesimlik kategoriyasi qo‘shimchalari (zamon, mayl, shaxsson) kiradi. Masalan,

Bu gapni hech kimga aytmaganingiz juda yaxshi bo‘libdi, buni hozircha sir tutganimiz ma’qul.

Lug‘aviy shakl hosil qiluvchi affikslar sirasiga otlardagi son shakli, kichraytirish-erkalash shakllari, sifatlardagi daraja lug‘aviy shakllari, fe’llardagi nisbat, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi va harakat tarzi shakllari kiradi. Bunday shakllar o‘zaklarga qo‘shilib, ularning lug‘aviy ma’nosiga qo‘shimcha ma’no beradi. Lug‘aviy shakl hosil qiluvchi affikslar deyarli barcha agglyutinativ tillar uchun xosdir. Masalan, *kitobcha*, *qizaloq*, *kichikroq*, *o‘qigan*, *yurib*; *книжска* (*kitobcha*), *домик*

(*uycha*), *девчонка* (*qizaloq*); *smaller* (*kichkinaroq*), *more komfortable* (*qulayroq*).

Nutqiy bosqichda so‘zlarda bo‘lgani kabi qo‘shimchalarda ham shakl va ma’no munosabati asosida omonimiya, sinonimiya, polisemiya antonimiya kabi hodisalar uchraydi. Affiksal omonimiya, ya’ni qo‘shimchalarining bir xil bo‘lib qolishi faqat nutqiy bosqichga xos, lisoniy bosqichda har bir affiksal morf alohida zot sifatida mavjud bo‘ladi. Qo‘shimchalarda omonimlik ikki yoki uch so‘z turkumi doirasida ro‘y beradi. Jumladan, *tuzdon* (ot) – *bilimdon* (sifat), *bostirma* (ot) – *yasama* (sifat) – *yugurma* (fe’lning bo‘lishsiz shakli), *ukam* (egalik shakli) – *o‘qidim* (shaxs-son shakli) – *to‘plam* (ot).

Affiksal polisemiya deganda so‘z yasovchi affikslarning bir so‘z turkumiga xos bo‘lgan xilma-xil ma’noli so‘zlarni yasashi tushuniladi: *tortma* (joy oti), *isitma* (mavhum ot), *surma* (narsa oti); *supurgi* (narsa oti), *sevgi* (mavhum ot) kabi.

Adabiyotchi – *adabiyotshunos*, *badavlat* – *davlatli* – *serdavlat* – *bodavlat* – *davlatmand*, *childirmachi* – *childirmakash* kabilar affiksal sinonimiyaga; *baxtli-baxtsiz*, *noumid-umidvor*, *sertashvish-betashvish*, *itoatkor-itoatsiz* kabilar esa affiksal antonimiyaga misol bo‘la oladi.

Affiksal morflar o‘zakka nisbatan joylashish o‘rniga ko‘ra uch xil ko‘rinida bo‘ladi:

1.Old qo‘shimchalar (prefikslar). O‘zak-negiz oldidan qo‘shilishi mumkin bo‘lgan bunday qo‘shimchalar, odatda, so‘z yasovchi affikslar bo‘ladi. O‘zbek tilida prefikslar fors-tojik tili va rus tili ta’sirida paydo bo‘lgan. [ba-], [bo-], [be-], [no-], [ser-], [bad-], [xush-], [ham-] affikslari fors-tojik tilidan o‘zlashgan: *bahaybat*, *boadab*, *befarosat*, *noinsof*, *serchiqim*, *badbo‘y*, *xushbichim*, *hamfikr*. [anti-], [pan-], [ultra-], [eks-] kabilar esa rus tili ta’sirida o‘zlashgan affikslardir: *antidemokratik*, *antifashist*, *panturkizm*, *panislomist*, *ultratovush*, *ultrabinafsha*, *ekschampion*, *eksprezident*; *безграмотный*, *безопасно*, *изгнать*, *починить*, *наилучший*, *перечитать* (ruscha); *rewrite*, *impossible*

(inglizcha), *beenden*, *Vorgang* (nemischa); *combattre*, *ossasion* (fransuzcha).

2. **Infikslar.** Infiksal morflar o‘zakning ichiga joylashgan bo‘ladi. Masalan, *gul-tojix-o‘roz*, *ishqiboz*, *undan*.

3. **Postfikslar.** O‘zakdan keyin qo‘shiladigan qo‘shimchalar ko‘pchilik tillarga xosdir. Chunonchi, *sinf-dosh*, *paxtadan*, *oynadek*; *спутник*, *белый* (ruscha); *beautiful*, *lovely*, *tables* (inglizcha); *weifheit*, *Freunds chraft* (nemischa).

Bir affiksal morfemaning turli ko‘rinishlari, variantlari allamorflar deyiladi. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi [-ga], uning variantlari [-ka], [-qa], [-g‘a] allamorflardir yoki sifatdosh shakli qo‘shimchasi [-gan], uning variantlari [-kan], [-qan], [-g‘an] allamorflar hisoblanadi.

Morfemalarni bo‘g‘inlar bilan aralashtirilmaslik kerak. Birinchidan, morflar tilning eng kichik ma’noli birligi bo‘lib, ular hamma vaqt bo‘g‘inlarga to‘g‘ri kelavermaydi va bo‘g‘inlar ham doimo morfemalarga mos bo‘lavermaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi *sharoit* so‘zi uch bo‘g‘indan, lekin bir morfemadan tashkil topgan, *bolam* so‘zi esa ikki bo‘g‘in va ikkita morfemadan tashkil topgan bo‘lsa ham, ularning chegarasi bir-biriga to‘g‘ri kelavermaydi. Fonetik jihatdan *bo-lam* tarzida bo‘g‘inlarga ajratiladi, morfemalarga esa quyidagicha ajratiladi: *bola-m*. Ba’zi holatlarda morfemalar bo‘g‘inlarga tasodifan mos kelib qolishi ham ehtimol: *sinf-dosh-lar*, *gul-lar-ning* kabi.

Ma’lumki, bo‘g‘in bir yoki bir necha tovush (harf)lardan tarkib topadigan, bir havo zarbi bilan talaffuz etiladigan bo‘lakdir. Har bir bo‘g‘inda bitta unli ishtirok etishi shart. Bo‘g‘in ma’no anglatilishi ham, anglatmasligi ham mumkin. Morfema esa ma’no (leksik va grammatik ma’no nazarda tutilmoqda) ifodalashi shart. Ularning biri fonetik birlik, ikkinchisi esa morfemikaga xos birlik sifatida farqlanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. So‘z tarkibining tuzilishi haqida ma’lumot bering.
2. O‘zak va affiksal morflarning bog‘liq hamda farqli tomonlarini tushuntiring.

3. Lisoniy bosqichdagi affikslarda omonimlik yo‘q degan fikrni sharhlang.
4. Bo‘g“in va morfemaning farqli jihatlari nimada? Javobingizni tillar doirasida misollar keltirib izohlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 10; 17; 21; 28; 47; 50; 55; 68; 71]

GRAMMATIK MA’NO VA UNING TURLARI. ULARNING MUNOSABATI. UMUMIY MA’NONI OCHISH YO‘LLARI

Reja:

- 1.Grammatik ma’noning yangicha talqini xususida.
- 2.Xususiy ma’nolar lisondagi umumiylar ma’nolarning tajallisi, voqelanishi, yuzaga chiqishi.
- 3.Umumiylar ma’noni ochish yo‘llari (paradigmatik munosabat).

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Grammatika, grammatik ma’no (GM), xususiy grammatik ma’no (XGM), umumiylar ma’no (UGM), oraliq grammatik ma’no (OGM), son shakllarining XGM va UGMlari, UGM ni ochish yo‘llari, bo‘lunavchan yoki bo‘linmaslik tushunchalari, aniq miqdor, noaniq miqdor, noaniq miqdoriy ko‘rsatkich (NMK)

Grammatik ma’no deganda nima tushuniladi? Grammatik ma’no deganda har bir tilning qurilish tizimi nutqda ifodalanishini zaruruy va majburiy deb talab etadigan va turli xil shakliy ko‘rinishlar bilan beriladigan umumlashgan ma’nolar tushuniladi. Chunonchi, “Bolalar qiziqarli kitobni o‘qiydilar” gapini olsak, “Bolalar” so‘zida 2 xil ma’no ajralib turadi:

1) lug‘aviy ma’no, ya’ni bu so‘zning borliqdagi odam jinsiga mansub bo‘lgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxsni yoki voyaga yetgan kimsaning farzandi, avlodini atab kelish; 2) ko‘plik sonda, bosh kelishikda, gapda ega vazifasida kelgan turdosh ot. Bu ma’nolardan birinchisi lug‘aviy, leksik ma’no bo‘lsa, ikkinchisi grammatik umumlashgan ma’nodir. Grammatik ma’nolar har bir til uchun shu til uchun o‘ziga xos bo‘ladi va rang-barang shakliy usullar bilan (biz bularni navbatdagi mavzuda ko‘rib o‘tamiz) ifodalanadi.

Grammatik ma'noni yangicha talqin qilishda ham til va nutq farqlanishi mezonida yondashiladi. Zohiriylarsa tez-tez yo'qolib, o'zgarib turadi. Lekin u mohiyatning yashash usuli sifatida ahamiyatlidir. Nutq hech qachon til haqida to'liq ma'lumot berolmaydi. Bizning til haqida nutq orqali olgan ma'lumotlarimiz hamisha noto'liq. Nazariyotchi ularni umumlashtirar ekan, til haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Grammatik ma'no (GM)ning an'anaviy talqini nutqiy hodisalarga tayanadigan empirik talqindir. An'anaviy talqindagi /GM/ ni /XGM/ desak to'g'ri bo'ladi.

UGM XGMga qarama-qarshi turadi. UGM XGM orqali voqelanadi. UGM hamma XGMlarni o'z ichiga oladi. UGM va XGMlar haqida gapirishdan oldin, biz umumiylilik va xususiylik nima, umumiylilik va xususiy ma'noning o'zi nimaligi haqida bahs yuritaylik.

Biz ko'ra oladigan, sezaga oladigan, o'lchay oladigan, kuzata oladigan narsa, belgi, voqe - hodisa xususiylikdir. Masalan; *daraxtni* biz ko'ra olamiz, paypaslaymiz, shoxlari va barglarini, mevasini sanay olamiz. *Daraxtning moddiyligi* uning ildizi, tanasi, shox-shabbasida. Har bir *daraxt* takrorlanmas, chunki bir yilda ekilgan 2 ta *olma daraxti* 2 ta alohidalikdir-mevasi, tanasi bir xil bo'lsa-da, barglar miqdori bilan farqlanishi mumkin. Demak, yer yuzida nechta *daraxt* bo'lsa, shuncha xususiy *daraxt* bor. Ularning hisobi nisbiy, chunki sanaguncha nechtasi quriydi, nechtasi yonib ketadi va hokazo...

Bir ashulani san'atkori 2 marta aytar ekan, bu bir emas, ikki xususiylikdir. "*Men ma'ruza o'qiyapman*" gapini 2 marta takrorlasak, bunda ikki xususiylik voqelangan bo'ladi. Chunki bu ikki gap hech bo'limganda zamonda farqlanadi.

Umumiylilik nima? Xohlagan xususiylikda umumiylilikning belgisi yotadi. Minglab daraxtlar uchun (*olma, anjir, chinor... daraxtlari*) umumiylilik bo'lgan tomon - tanasi, shoxi bor o'simlik. Bizning ongimizda *daraxt* xuddi shu ma'no bilan yashaydi. "Umumiylilik - bevosita kuzatishda berilgan alohida xususiyliklardagi belgilarning ongimizdagi obrazsi" [1,8;]. Umumiyliklar mayda - chuyda belgilarni o'z ichiga olmaydi,

umumiylit xususiyliklarda takrorlanib turadi. Demak, xulosa shuki, xususiylik-takrorlanmas, chegaralangan; umumiylit-takroriy, chegaralanmagan.

Istalgan butunlik shakl va ma'no tomondan iborat bo'ladi. Yana *daraxt* misoliga qaytamiz. *Daraxtning* shakl tomoni bizga ma'lum: qattiq tanali o'simlik. *Daraxt* nima uchun kerak?

- a) soya soladi;
- b) meva beradi;
- v) yog'och beradi...

Mana shu vazifalar *daraxtning* mazmun tomonidir, ya'ni vazifasidir.

Nutqiy hosilalarning mazmuni turli nutqiy sharoitda qanchalik xilma - xil bo'lmasin, ma'lum bir lisoniy umumiylit ma'nosining tajallisidir. Masalan, bir oddiy *piyola* ham ichish quroli, ham o'lchov andazasi, ham aylana chizish mumkin... Lekin *piyolaning* umumiylit mazmuni-choy yoki boshqa suyuqlik ichish uchun mo'ljallangan o'zbek milliy ro'zg'or buyumi. Ongimizda *piyola* mana shunday yashaydi. Chunki "nutqdagi xususiy ma'nolar lisondagi umumiylit ma'nolarning tajallisi" [1,11;]. Umumiylit ma'no ma'lum bir fonema, morfema, leksemaning paradigmadagi o'rni, mavqeidan ochiladi. Masalan, leksemalardagi umumiylit ma'no shu leksemaning o'zi munosabatdosh bo'lgan leksemalar qatoridan anglashiladi. "*Ota*" leksemasi ongimizda quyidagi paradigmada yashaydi va UGMsi o'shandan ochiladi:

/bobo/: /buvi/
/ona/: /ota/
:
/bola/
:
/nevara/:

Ushbu paradigmadan "*ota*" so'zining UGMsi kelib chiqadi: birinchi avlod, bevosita qon-qarindosh, katta, erkak. Leksemalardagi UGM s e m e m a deyiladi. Demak, umumiylitning mohiyati ma'lum bir

umumiylilikni o‘ziga o‘xshash va farqli umumiylilar bilan munosabatidagina ochilishi mumkin.

Sh. Shahobiddinova ishida XGM va UGMlar atroflicha talqin qilingan. Jumladan, son kategoriyasi shakllarining XGM va UGMlari.

[-lar] ning XGMlari:

- a) ko‘plik - *Unda shirin - shirin bananlar bor* (Sh. Yul.);
- b) jamlik - *ishchilar sinfi - ishchi sinfi*;
- d) bog‘liqlik va o‘xshashlik - *Avvalgi sarvigullar o‘qishni tugatishdi* (Sh. Yul.);
- e) taxmin - *Soat beshlarda keldi*;
- f) kuchaytirilgan ma’no - *Tillarimga ko‘cholmaydi bo‘g‘zimdagi azobim...* (U. Azimov).

[o] shakl XGM lari:

- a) jamlik - *Gadoning dushmani gado bo‘ladi* (A.O.);
- b) ko‘plik - *Majlisga yigirma kishi keldi* (aniq ko‘plik); *U qishloqda uch - to‘rt kun qoldi* (noaniq ko‘plik);
- d) birlik ifodalash - bunda ko‘rsatish olmoshlari, "bir" so‘zi ko‘proq ishtirok etadi: *Ushbu yodgorlikka murojaat qilar ekanman, mening maqsadim bitta...* (O.Matjon).

Demak, son kategoriyasi shakllari uchun quyidagi UGMlarni ko‘rsatish mumkin: *[-lar]* UGMsi—bo‘linuvchan/ bo‘linmas sifat va noaniq miqdor ifodalash. *[o]* UGMsi — bo‘linmas va aniq/ noaniq miqdor ifodalash.

Bo‘linuvchanlik/ bo‘linmaslik deganda, quyidagini tushunish kerak: har bir xususiylik alohidalik ekanligini ko‘rib o‘tdik. "*Qovunlar*" degan so‘zshakli bir necha qovunlarni atab keladi. "*Qovunlar*" so‘zshakli bir to‘plamni ifodalaydi va u bir necha alohidaliklarga bo‘linadi. "*Ahmadlar*" deganda *Ahmad* va uning o‘rtoqlari, oilasi... tushuniladi. Ya’ni *Ahmadlar* bir to‘plamni ifodalaydi va bu to‘plam bo‘linuvchan. "*Suvlarni stolga qo‘ydi*" deganda kola, mineral suvlar... tushuniladi. "*Toshkentlarni kezib chiqdi*" so‘zshakl Toshkentni bo‘lib beryapti, tumanlari hisobga olingan. "*Tillarimga ko‘cholmaydi bo‘g‘zimdagi*

azobim" misrasida til, gap, so'z, og'iz ajratib berilgan. Shuning uchun "*ishchi sinfi*" va "*ishchilar sinfi*"; "*o'qituvchi odati*" va "*o'qituvchilar odati*" kabi so'z birikmalarida birlik va ko'plik son ma'nolari yaqinlashsa ham, orasida nozik farq bor. "*Ishchilar*"da sifatiy bo'linuvchanlik sezilib turadi. Birlik sonda yaxlitlik ma'nosi ko'proqdir. Demak, bir jihatdan birlik va ko'plik son ko'plik sonning bo'linuvchanlikni ta'kidlashi, birlik sonning esa yaxlitlikni ko'rsatishi bilan qarama-qarshi turadi. Miqdoriy jihatdan esa birlik son birlik, aniq/noaniq miqdorni ifodalay olishi bilan hamisha noaniq miqdoriy ko'plikni ifodalovchi ko'plik son shakliga qarama - qarshi turadi. Shuning uchun "*Bu kitobni ol*", "*Stol ustida to'rt kitob bor*", "*Kitob - bilim manbai*" gaplarida 3 xil ma'no voqelangan: *Kitoblar* so'zshakli hech qachon aniq miqdorni ifodalay olmaydi. Quyidagi gaplarni qiyoslang:

Uch kun (uch kunlar) dan keyin keldi;

O'ninchi yil (yillar) da tug'ildi.

Shuning uchun birlik sonning umumiy grammatik ma'nosi quyidagicha ko'rsatilishi mumkin: birlik — aniq yo noaniq miqdorni bo'linuvchan/ bo'inmas ma'noda berish. Ko'plik sonning ma'nosi — noaniq miqdoriy ko'plikni bo'linuvchan sifatda berish. Mana shu umumiy grammatik ma'nolar bilan birlik va ko'plik morfologik son shakllari til tizimida, ongimizda yashaydi. Bu umumiy ma'nolar nutqda muayyan moddiy shakllarda cheksiz rang-baranglikda voqelanadi.

Ko'rib o'tdikki, *daraxt* umumiyligi o'ta sodda va u "o'simlik + tana + shox" dan iborat, xolos. Lekin borliqdagi milliard *daraxt* behad rang - barang. Xuddi shunday ko'plik sonning ma'nosi "miqdoriy noaniq ko'plik + sifatiy bo'linuvchanlik" kabi soddadir. Nutqda esa u milliard xususiy ko'rinishlarda voqelanadi. Birlik sonining ma'nosi "miqdoriy aniq/noaniq ko'plik + sifatiy bo'linmas" kabitdir. Lekin yuqorida ko'rsatilgan UGM nutqda XGM sifatida voqelanar ekan, u umumiylilik bilan xususiylik orasida oraliq ma'nolar yotadi. Oraliq ma'nolar xususiy ma'nolar uchun ma'no tiplari, ya'ni "o'xhash ma'nolar majmuasi", UGM uchun esa "umumiylikning ko'rinishlari",

turlari mavqeida bo‘ladi. Chunonchi, birlik sonning UGMsi "aniq / noaniq va birlik" kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Va UGM XGM sifatida voqelanguncha yuqorida ko‘rsatilgan aniqlik, noaniqlik, birlik kabi uch OGM ma’noning biridan o‘tadi. Chunonchi,

XGM	OGM	UGM
Bu kitobda	birlik	aniq/noaniq
Uch kitobda	aniq	sifatiy bo‘linmas
Kitobda	ko‘plik	miqdor
shunday yozilgan.	noaniq	

OGM hamisha so‘zning lug‘aviy ma’nosи, matn, qurshov bilan aloqador bo‘ladi. Chunonchi, [-lar] ko‘plik sonning umumiylar ma’nosи - "sifatiy bo‘linuvchan, miqdoriy noaniq ko‘plik" UGMsi bir necha OGMga ega. Bularidan asosiyalar:

1. Bir yoki turli jinsdagi predmetlarning NMK(noaniq miqdoriy ko‘rsatkichi)ni ifodalash (*kitoblar, odamlar...*);
2. O‘lchanmas moddalarni alohidaliklarga ajratib noaniq miqdoriy ko‘plikni ko‘rsatish (*Toshkent suvlari...*);
3. Turli tur va jinslardan iborat NMKnini ko‘rsatish (*yog‘lar-sariq yog‘, paxta yog‘i; ichimliklar-aroq, mineral suv, kola*);
4. Narsani yondoshlari bilan birgalikda NMK sifatida ifodalash (*Ahmadlar keldi; Toshkentlarni aylandik.*);
5. Taxmin ifodalash: *70-yillar;*
6. Bo‘linmasni bo‘linuvchan etib ko‘rsatib, ekspressiv ma’no berish (*Yuraklarimga to‘kildi*). Mana shunday har bir morfologik shaklda XGM, OGM va UGMlar mavjud bo‘ladi. Siz 1940-80-yillarda nashr etilgan darsliklarda tanishgan grammatik shakllarning ma’nolari asosan XGM va OGMlardir. UGMlarni ochish bosqichiga o‘zbek tilshunosligi endi ko‘tarilmoqda. Jumladan, ushbu mavzular mana shu UGMlarni ochishga bo‘lgan ilk qadamlardan biridir.

Shunday xulosaga kelish mumkinki, UGM til birligining minglab turli xil matnlarda yuzaga chiqadigan va bevosita kuzatishda berilgan xususiy grammatik ma’nolari (XGM)ning umumiylar yig‘indisi emas,

XGMlar negizida yotgan, XGMlarga nisbatan umumiylit vazifasini o‘taydigan ma’nodir.

XGMlar bilan UGMlar orasidagi munosabat bilvositadir. Bu ikki bo‘g‘inni bog‘lovchi ma’no tipi – bu OGMdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Grammatik ma’no nima ?
2. Grammatik ma’noning formal talqini nimadan iborat?
3. Xususiy grammatik ma’no (XGM) nima?
4. Umumiy grammatik ma’no (UGM) nima?
5. Son kategoriyasi shakllarining XGM va UGMlari haqida nima bilasiz?
6. [- lar] ning XGMlarini sanang.
7. [0] shaklning XGMlarini sanang.
8. [- lar] va [0] shaklning UGMlarini nima tashkil etadi?
9. Oraliq grammatik ma’no (OGM) nima? Misollar keltiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [4; 10; 19; 20; 29; 35; 464 50; 56; 57]

GRAMMATIK MA’NO IFODALASH USULLARI. GRAMMATIK SHAKL TURLARI

Reja:

1. Grammatik ma’no–grammatik munosabat ifodalaydigan umumiylit ma’no.
2. Grammatik ma’no ifodalovchi vositalar haqida.
3. Umumiy xulosalar.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Grammatik ma’no, grammatik shakl, grammatik ma’no ifodalovchi usullar, suppletivizm, ichki fleksiya, grammatik ma’noning turli usullar bilan ifodalanishi, bir grammatik shaklning polifunktionalligi

Grammatik ma’no, grammatik shakl va grammatik kategoriya grammatikaning eng muhim tushunchalaridir va bular o‘zaro uzviy bog‘langan. Grammatik ma’no tilda rang-barang usullar bilan ifodalanadi. Dastlab, grammatik ma’no to‘g‘risida mufassal to‘xtaylik. Grammatik

ma'noning tashuvchisi va ifodalovchisi gramatik shakl sanaladi. Tabiatan agglyutinativ va sintetik bo'lgan o'zbek tilida qo'shimchalardan aloqa - munosabat qo'shimchalari va lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar, asosan, gramatik ma'no ifodalaydi. Masalan, *kitobi* so'zshakliga e'tibor bersak. Bu shakldagi [-i] qo'shimchasi kitobning qandaydir uchinchi bir shaxsga tegishliligini ifodalasa, "*O'tkan kunlar*" *kitobi*" birikmasida tur va jins nomini o'zaro bog'lab birikma hosil qilyapti. Shu ma'nolar [-i] qo'shimchasida mujassamlangan va shu ma'no ushbu affiksal morfema orqali yuzaga chiqmoqda. Kelishik qo'shimchalar grammatik ma'no ifodalaydi. Masalan, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapida [-dan] qo'shimchasi ma'lum bir manbadan biror narsa ajralayotganini ifodalasa, "*Vijdondan qo'rqing*" gapida [-dan] vijdon va *qo'rqmoq* so'zlarini bir-biriga bog'lashga xizmat qilyapti, "*Anvar uydan chiqdi*" gapida esa *Anvar* degan shaxsning chiqish joyini ko'rsatmoqda. Yuqorida keltirgan misollarimizdan shunday xulosaga kelish mumkinki, grammatik ma'no lisoniy va nolisoniy munosabatlarning muayyan shakl(qolip) da mujassamlangan mavhum inikosidir. Chunki, yuqoridagi *kitobi* so'zidagi [-i] qo'shimchasida, "*Javondagi kitoblardan oldi*" gapidagi [-dan] qo'shimchasida nolisoniy munosabat yotsa, "*O'tkan kunlar*" *kitobi*" birikmasidagi [-i] va "*Vijdondan qo'rqing*" gapidagi [-dan] qo'shimchalarida sof lisoniy munosabat mujassamlangan. Shuning uchun grammatik ma'no tarkiban murakkab bo'lib, lisoniy va nolisoniy munosabatlar inikosining birikishidan iboratdir.

Fe'l zamonlari ham gramatik ma'no ifodalaydi. Bu zamonlar faqat nutqdagi, matndagi so'zlarning qaysi zamonga oid ekanligini ko'rsatish bilan chegaralanmay, balki tashqi dunyoda sodir bo'ladigan voqeа va hodisalarning qachon bo'lib o'tganini, ya'ni aynan gapirilayotgan vaqtida yoki gapirilayotgan vaqtdan oldin yo keyin sodir bo'layotganligini ifodalash uchun ham xizmat qiladi: *Lola o'qidi; Lola o'qiydi; Lola o'qiyotir; Лола прочитала; Лола читаетъ...*

Sifat darajalari ham gramatik ma'no anglatadi. Ular narsa, predmet, hodisalarning borliqdagi nisbiy farqini aks ettiradi: *tor/ torroq*

/eng tor; go'zal/ go'zalroq/ eng go'zal; красивый-красивее-самый красивый.

Mana shunday ma'lum bir shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur bo'lgan umumlashgan, lug'aviy ma'no ustidagi ustama ma'no — **grammatik ma'no** sanaladi. Grammatik ma'no aytib o'tganimizdek, rang-barang usullar bilan ifodalanadi. Bular quyidagilar: 1. **Affiksatsiya.** 2. **Yordamchi so'zlar.** 3. **So'z tartibi.** 4. **Takror.** 5. **Ohang.** 6. **So'zlarni juftlash.** 7. **Ichki fleksiya.** 8. **Urg'u.** 9. **Suppletivizm.**

1. **Affiksatsiya** tilimizda grammatik ma'noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, tilimizga xos bo'lgan grammatik ma'nolarning deyarli barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir usuli), bo'lishli-bo'lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl- zamon, shaxs-son affiks - qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida, asosan, suffikslar, ya'ni o'zak yoki asosdan keyin qo'shiladigan qo'shimchalar ishlataladi. Tilimizda eroniy tillardan kirgan bir qator [be-], [bo-], [ser-], [no-], [ba-] kabi prefikslar — o'zak va asosdan oldin keladigan qo'shimchalar ham o'zlashib qolgan. Lug'aviy shakl va aloqa - munosabat qo'shimchalari vositasida yasaladigan shakllar tilshunoslikda sintetik shakllar deb aytildi. Chunonchi, *kitoblar, akamga, uylarimizda, kelmasaydingiz, yaxshiroq, o'nta* kabi shakllar sintetik shakl sanaladi. O'zbek tilida kelishik shakllari standart holda(tushum kelishigi faqat — **ни** orqali ifodalanadi) bo'lsa, rus tilida kelishik ma'nosи turli shakllar orqali ifodalanadi. Qaratqich kelishigining birlik ma'nosи: **а** (окна), **и** (тетради), **я** (коня) va h.

2. **Yordamchi so'zlar.** Bular ham grammatik ma'no ifoda qilish uchun qo'llaniladi. Ko'makchilar ot, ma'nosи toraygan so'zlar bilan birga kelib, o'zi aloqador bo'lgan so'zni boshqa so'z bilan munosabatga kiritadi: *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz* (A.Q.) - holat ma'nosи voqelangan; *Telefon orqali gaplashdim* –vosita ma'nosи voqelangan; *Do'stlik biz uchun hamisha ilhom va kuch-quvvat manbayi bo'lib kelgan* (O'.U.) – atalganlik ma'nosи voqelangan. O'zbek tilida yordamchi so'zlar juda katta

guruhni tashkil etadi, ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarning yarim bog‘lovchi, yarim ko‘makchi, yarim yuklama kabi turlari mavjud bo‘lib, bunday so‘zlar ham mustaqil, ham yordamchi ma’noga ega. Chunonchi, *Ishning boshida Abdurahim turar edi.*

Yordamchi so‘zlar sifatida o‘zbek tilida *juda, eng, bag‘oyat, nihoyatda, o‘ta, sal, birmuncha* kabi ravishlar ham, *olmoq, bermoq, qolmoq, o‘tirmoq, chiqmoq, ketmoq, boshlamoq, bo‘lmoq* kabi 40 dan ortiq fe’llar ham keng qo‘llaniladi. Yordamchi so‘zlar vositasida yasalgan shakllar a n a l i t i k shakllar deb ataladi. Tilimizda juda ko‘p holatlarda ayni bir grammatik ma’no sintetik shakl bilan ham, analitik shakl bilan ham ifodalanishi mumkin. Chunonchi, *Kitobni akamga (akam uchun /akamga deb / akamga atab/ akamga mo‘ljallab/...)* oldim. Ingliz tilida *the* va *a (n)*, fransuz tilida *le, un*, nemis tilida *der, das* kabi artikllar grammatik ma’no ifodalaydi. Masalan, *the table* ingliz tilida aniqlik grammatik ma’nosini ifodalayapti. Rus tilida *в, на, под* kabi predloglar turli ma’nolarni ifodalaydi.

3. **Takror** (reduplikatsiya)- bir so‘zni aynan ikki marta takrorlash sanalib, bunda ham turli grammatik ma’nolar hosil qilinadi: predmetning ko‘pligi, belgining oshirilishi, ma’noning kuchayishi, harakatning takrorlanishi hamda uzoq davom etishi va boshqalar. Chunonchi, *etak-etak paxta – miqdoriy ko‘plik; ayta- ayta charchamoq* – harakat davomiyligi.

Grammatik vosita sifatida takror malay (indoneziya tili), hind, xitoy singari tillarda ishlatiladi. Masalan, **xitoy tilida**: син – yulduz, син-син – yulduzlar; **hind tilida**: бхай – birodar, бхай-бхай – birodarlar; **malay tilida**: orang – kishi, orang-orang–kishilar kabi. Tilimizda bu usulning to‘liq takror (*etak- etak paxta*) va qisman takror (*qip - qizil, ko‘m- ko‘k, yam - yashil*) tilimizgagina xos bo‘lib, fanda "sadodosh takror" (слово-эхо) deb atalgan ko‘rinishi ham keng tarqalgan (*mayda- chuyda, she’r-pe’r, kitob -mitob, ko‘k- mo‘k, qizil- pizil*).

4. **So‘z tartibi** - grammatik ma’no anglatishning yana bir vositasi. So‘zlarning gapda ma’lum tartibda oldinma-keyin joylashtirilishi ham grammatik ma’no ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilimizda ba’zan shu

vosita orqali so‘zning qaysi kelishikda ekanligi aniqlanishi mumkin. Masalan, bunday holatlar xususan poetik nutqda keng uchraydi. So‘z tartibi so‘z birikmalarini hosil qilishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Chunonchi, *keng dalalar* (so‘z birikmasi) - *Dalalar keng* (gap). So‘z tartibi grammatic omili nutqda hamisha ohang bilan birga ish ko‘radi. Shuning uchun yuqoridagi hosilalarning ohangi bir-biridan tubdan farq qiladi. Chunonchi, *bir, ikki kitob- bir- ikki kitob* birikmalarining ohangi har xildir. So‘z tartibi xitoy-tibet tillari oilasiga kiruvchi tillar uchun juda muhimdir. Bu usul ingliz, fransuz tillarida so‘zlarning gapdagi vazifalarini, turkumini ko‘rsatadi.

5. **Ohang** ham grammatic ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Bu vosita yordamida:

- a) gapning turini ajratish mumkin: *Imtihon topshirdi. Imtihon topshirdi? Imtihon topshirdi!*
- b) gap bo‘laklarini ajratish mumkin: *Gulnora, singlim keldi. Gulnora, singlim keldi! Gulnora singlim keldi.* Birinchi gapda “*Gulnora*” va “*singlim*” so‘zlarini uyushib kelgan bo‘lsa, ikkinchi gapda “*Gulnora*” so‘zi undalma vazifasida kelgan, uchinchi gapda esa *ism* ma’nosida kelgan. Ohangning so‘z tartibi, so‘zlarni bir-biriga bog‘lash bilan uzviy aloqadorlikda voqelanishini takroran eslatib o‘tish joiz. Yuqoridagilar buning yorqin dalilidir.

6. **Juftlash** har xil so‘zlarni – ma’nodoshlarni (*baxt-saodat*), zid ma’nolilarni (*yaxshi-yomon*), giponimlarni ulov-(*ot-eshak*), darajalanuvchilarni (*qo‘y-qo‘zi*), umumiste’mol arxaizmlarni (*bola-chaqa, cho‘pon-cho‘liq*) – o‘zaro qo‘shish orqali har xil grammatic ma’nolarni ifodalash ham tilimizda anchagina.

Yuqorida sanalgan olti usul tilimizning ichki qurilishiga xos bo‘lgan grammatic ma’nolarni ifodalashning yetakchi usulidir. Bundan tashqari tillarda ichki fleksiya, suppletivizm kabi vositalar ham mkavjud. Ichki fleksiya turli Grammatic ma’nolarni ifodalash uchun so‘z tarkibidagi tovushlarning o‘zgarishidir. Bu vosita hind – yevropa va semit tillarida keng qo‘llaniladi. Masalan: ingliz tilida: see-saw-seen; nemis tilida fahren

– fuhr. O‘zbek tilida juda kam qo‘llaniladigan suppletivizmlar, chunonchi, (*men -biz, sen -siz*; eski o‘zbek tilida *u- alar, anga, anda, ani, aning*), arabcha so‘zlar orqali o‘zlashgan ichki fleksiya usullari mavjud:

Kitob - kutubxona

xabar - axbor

fikr - afkor

ilm - ulum

taraf - atrof va boshqalar.

7. **Urg‘u.** Dunyo tillarining barchasida grammatik ma’nolarning ifodalanishida urg‘u ham ajratiladi. Tilshunosligimizda ham urg‘uni shunday vosita sifatida ajratib kelganlar va

tugmà (ot) - *tiğma* (fe'l)

yozmà (sifat)- *yözma* (fe'l)

studentsız (sifat)- *studèntsiz* (kesim)

xìmik (sifat) - *ximik* (ot) kabi so‘zlarning o‘zaro farqlanishini urg‘uning turli xil o‘rni bilan bog‘laganlar. Lekin urg‘uning o‘zbek tilida ma’no farqlash vazifasi munozaralidir. Urg‘uning ma’no farqlash vazifasi tilimizda rus tilidan ko‘chirilgan hodisadir. Chunki "Tugmang tushdi" va "Belbog‘ni tugmang" gaplaridagi "tugma" so‘zida urg‘u har ikki holatda ham "a" tovushiga tushadi.

Hozirgi tilshunoslikda grammatik ma’noni alohida til hodisasi sifatida o‘rganish endi boshlandi. Shu kungacha grammatik ma’no grammatik shaklning bir tomoni sifatida o‘rganilib kelindi. Grammatik ma’noni ifodalashning rang - barang usullarini ko‘rib o‘tgach, biz ayta olamizki, ayni bir grammatik ma’no xilma-xil vositalar bilan ifodalishi mumkin. Chunonchi, son ma’nosи o‘zbek tilida affiksatsiya 0/-*lar*, ya’ni birlik/ko‘plik son shakllari paradigmasi doirasida ko‘rib chiqilgan. Son shakllarining ma’nosи deganda mana shu ikki morfema nazarda tutilgan. Tilimizda son ma’nosining ifodalishi yana boshqa vositalar orqali ro‘yobga chiqadi. Chunonchi, ko‘plik ma’nosи takror, juft so‘zlar bilan ham, birlik ma’nosи juz’iy reduplikatsiya (takror) yoki so‘z-

so‘zsimon (*kitob - mitob, non - pon, meva - cheva*) bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hozirgi fanimizda son ma’nolarining o‘xshashlik va farqli tomonlari, shuningdek, “*Kitobni akam uchun oldim*” va “*Kitobni akamga deb/ atab oldim*” kabi hosilalar orasidagi ma’no farqlari deyarli o‘rganilmagan. Ya’ni ayni bir ma’noni turli xil vositalar bilan ifodalash yo‘llari fanimizning o‘rganilmagan muammolari sirasiga kiradi. Bularni tadqiq qilish bugungi kunning vazifasidir. Quyida shunday izlanishlardan namuna keltiramiz.

Aslida, gnoseologik (bilish) nuqtayi nazardan materianing yashash shakli, hodisalarning izchil almashinish tarzi sifatida tadqiq qilinadigan zamon (payt) ma’nosining lisoniy tizimda voqelashish hodisasi tilning bu kategoriyanı yuzaga chiqarish imkoniyatlari keng, rang-barang ekanligini dalillaydi. Bu tillararo xususiyatlarni, xususan, ingliz va o‘zbek tillaridagi payt ma’nosini ifodalashning lisoniy vositalarini tekshirganda yanada yaqqol ko‘rinadi. Zamon (vaqt, payt) tushunchasini payt grammatik ma’nosи, mazkur kategoriyanı yuzaga chiqaruvchi usul va vositalarni esa payt ma’nosini ifodalovchi grammatik vositalar deb hisoblaymiz. Ingliz va o‘zbek tillarida payt ma’nosini ifodalash lisoniy hodisasidegi tillararo uyg‘un, o‘xshash xususiyatlarni- umumiyl (integral) belgilar, o‘ziga xos xususiyatlarini esa farqlovchi (differensial, oppozitsion, zid) belgilar sifatida tekshiramiz. Payt ma’nosining qiyoslanayotgan tillarda yuzaga chiqish imkoniyatlarini quyidagi jadvalda umumlashtirishga harakat qilamiz:

Payt ma’nosining ingliz va o‘zbek tillari tizimida voqelanishi

<i>So‘z turkumlari</i>	<i>o‘zbek tilida</i>	<i>ingliz tilida</i>
fe’l	Hozirgi zamon: <i>yozaman, yozmoqdaman.</i> O’tgan zamon: <i>yozdim, yozgan edim.</i> Kelasi zamon: <i>yozaman, yozmoqchiman.</i>	Pres.: <i>I write. I am writing.</i> Past: <i>I wrote. I had written.</i> Future: <i>I’ll write.</i>

Ot	<i>Kun, kecha, kunduz, yil, sutka, fasl, sahar, asr, namozshom, oqshom, erta, peshin, tong, nahor , indin, bugun .</i>	<i>Evening, day, night, centure, afternoon, morning, year, season, era, future, dawn, old (yosh);</i>
Sifat	<i>Tonggi, kuzgi, qishki, bahorgi, tunggi, sirtqi, kunduzgi, kechki;</i>	<i>Fast, early, late, slow, short (day), long (night);</i>
Son	<i>Soat 7da uyg'ondi. Mustaqilligimizga 13yil to'ldi.</i>	<i>He came at 6 o'clock. Our republik was independent in 1991.</i>
Ravish	<i>Endi, hali, boyta, doim, saharlab, ertalab, mudom, faqat;</i>	<i>Never, ever, usually, often, ago, yet, now, then, nowadays, lately, after, before, untill, forever, always, meanwile, recently;</i>
Olmosh	<i>Shu-shu (Shu-shu Fotima kelmay qo'ydi); so'roq olmoshlari: qachon? qachondan buyon? qachongacha?</i>	When?
ko'makchi	<i>Sayin, sari (Ko'rghan sari ko'rging kelaveradi); Yarim ko'makchi so'z: avval, keyin, so'ng;-gacha (qo'shimchasimon ko'makchi); qadar (sof ko'makchi); bilan (Qo'ng'iroq chalinishi bilan darsga kirdim);</i>	...
bog'-lovchi	<i>Dam...dam,...ba'zan...ba'zan, goh...goh;</i>	...
yuklama	<i>Toki, -u, -yu (Qo'ng'iroq chalindi-yu, dars boshlandi).</i>	...
Affiksatsiya	<i>-da (o'rin payt): peshinda, -dan (chiqish): peshindan, -ga (jo'nalish): peshinga qarab...</i>	

Ko‘rinadiki, har bir tilning grammatik ma’no ifodalash usul va vositalari farq qilgani hamda har bir til o‘ziga xos ichki grammatik qurilishga ega bo‘lganidek, o‘zbek va ingliz tillarida payt grammatik ma’nosini yuzaga chiqarish imkoniyatlari benihoya keng va o‘ziga xos, farqlidir.

Qiyoslanayotgan tillar tizimida (morfologik sathda) zamon tushunchasini ifodalovchi umumiyligi imkoniyatlarni – ot, sifat, son, ravish va fe’l turkumlari misolida kuzatish mumkin. Demak, o‘zbek tilidagi zamon otlari ingliz tilida vaqt munosabatini anglatuvchi otlarga, payt mazmunini bildiruvchi sifat va ravishlar ma’lum jihatdan qiyoslangan til turkumlari xususiyatlariga o‘xshab ketadi. Biroq o‘zbek morfologiyasida ravishlar mustaqil ma’noli o‘zgarmas so‘zlar bo‘lsa, ingliz tilida so‘z ravishlardan tashqari yasama ravishlar hosil qilinishi mumkin (late- sifat, lately-ravish). Shuningdek, differensial belgilarni yana zamon kategoriyasini ifodalaydigan fe’llar orqali aniqlash muhimdir: payt ma’nosini o‘zbek tilidagi fe’llar zamon qo‘sishimchalari orqali (sintetik usulda) ifodalasa, ingliz tili fe’llari analitik tillarga xos bo‘lgan ichki fleksiya, suppletivizm orqali yuzaga chiqaradi.

O‘zbek tili yordamchi so‘zlar va kelishiklar vositasida ham payt ma’nosini lisoniy ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Ingliz tilida esa bu vazifani predloglar o‘z zimmasiga olgan (ingliz tilida predloglar kelishiklar vazifasini bajarishini esga oling). Mazkur jihatlar ham tillararo farqli tomonlarni ko‘rsatib turibdi.

Shunday qilib, zamon tushunchasini ifodalash imkoniyatlari tipologiyasi har bir tilning o‘ziga xos sifatlarini namoyon etadi. Haqiqatan ham, til murakkab tizim bo‘lib, inson tafakkuri shakllari, tushunchalarini izchil jilolantirishga qodir serqirra hodisadir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ichki fleksiya nima? Uning tovush almashinuvidan farqli tomonlarini izohlang.

2. Yordamchi so‘zlarni qo‘sishimchalar bilan nimalar yaqinlashtiradi va ajratadi? Ular qanday grammatic ma’nolarni ifodalaydi?
3. Grammatic ma’no ifodalovchi vositalarni tillarda tarqalganlik doirasiga ko‘ra joylashtiring. Sabablarini tushuntiring.
4. Quyidagi badiiy parchada grammatic ma’no ifodalashning qanday usullari ifodalangan? Parchani rus va ingliz tiliga tarjima qiling. Grammatic ma’no ifodalash vositalarini solishtiring. *Yalpiz xushbo‘y o’simlikdir. Bu ajoyib o’simlikning O’zbekistonda bir qancha xillari bor. Yalpiz ziravor va dorivor o’simlik sifatida qadimdan ma’lum. Erta bahorda endigina ko‘karib chiqqan yalpizni terib somsa yopishadi, chuchvara tayyorlashadi. Barra barglari taomlarga solinadi. Yalpiz organik moddalar, mineral tuzlar va efir moyiga boy o’simlikdir. Undan parfyumeriya sanoatida, tish pastasi va kukunlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yalpiz oziq-ovqat sanoatida ham ishlatiladi.*

Foydalanish uchun adabiyotlar: [4; 10; 19; 20; 29; 35; 464 50; 56; 57]

SO‘Z TURKUMLARI TASNIFI. SO‘ZNING SERQIRRALIGI VA TASNIFLARNING XILMA-XILLIGI

Reja:

1. Tasnif omillari. Tasnifning mantiqiyligi va uzluksizligi.
2. Leksemalarning ma’noviy tasnifi.
3. Leksemalarning morfologik tasnifi.
4. Leksemalarning sintaktik tasnifi.
5. Umumiyo‘rtta ta’lim maktablarida so‘z turkumlari va ularning tasnifi.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Leksemalarning serqirraligi, tasnif va uning mantiqiyligi, mustaqil ma’noli so‘zlar, bo‘sh ishora ma’noli so‘zlar, yordamchi ma’noli so‘zlar, o‘zgaruvchi leksemalar, o‘zgarmas leksemalar, so‘z - gaplar, muchalanuvchilik (gap bo‘lagi bo‘lib kelishi), sonlanish, darajalanish, tartiblanish, ajraluvchilik (gap bo‘laklari bilan munosabatga kirishmaslik), sintaktik aloqa vositasi

Biz oldingi mavzuda tasnifning mohiyati nimada ekanligi, uning xususiyati haqida bir oz to‘xtalib o‘tgan edik. So‘zlarning tasnifini berishda leksemaning serqirraligi mohiyati hamma vaqt diqqat markazida bo‘lishi kerak. Leksemaning har bir qirrasi bir tasnifni yuzaga keltiradi. Chunonchi:

- 1.Bo‘g‘in soniga ko‘ra: bir bo‘g‘inli, ko‘p bo‘g‘inli.
- 2.Fonemalar miqdoriga ko‘ra: bir fonemali, ikki fonemali, uch fonemali...
- 3.Fonemalarni ifodalovchi harflarning tartibiga ko‘ra.
- 4.Tub-yasamaligiga ko‘ra:tub va yasama.
- 5.Yasalish tipiga ko‘ra: diaxronik va sinxronik.
- 6.Tuzilishiga ko‘ra: sodda, qo‘shma, juft, takroriy.
- 7.Shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra: ma’nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar va paronimlar.
- 8.Qo‘llanishiga ko‘ra: aktiv va passiv.
- 9.Onomasiologik – nominatsion xususiyatlari ko‘ra; antroponim, toponim, zoonim...
- 10.Vazifaviy - uslubiy xususiyatlari ko‘ra: kitobiy, rasmiy, so‘zlashuv.
- 11.Lug‘at tarkibidagi qatlamiga ko‘ra: o‘z va o‘zlashgan qatlam, chegaralangan va chegaralanmagan qatlam.
- 12.Emotsional-ekspressiv jihatiga ko‘ra: emotsional - ekspressiv bo‘yoq dor va bo‘yoqsiz so‘zlar.
- 13.So‘zning ifodalaydigan kategorial umumiyligi ma’nosiga ko‘ra: narsa, buyum, shaxs, mavjudotlarni atovchi so‘zlar; belgi, xususiyat, munosabat ifodalovchi so‘zlar; harakat-holat ma’nosini bildiruvchi so‘zlar; o‘rin-payt, tarz-tus ma’nosini ifodalovchi so‘zlar va h.k. Demak, so‘zlarga berilgan xilma-xil tasnifning mavjudligi ularning serqirraligidan dalolat beradi. Har xil tasnifning har biri o‘z o‘rnida ahamiyatlidir. So‘z va uni tasniflash asoslari tilshunos I.Madrahimov tomonidan o‘rganilib, uning ma’noviy, sintaktik, morfologik guruhlanishi asoslab berilgan.

So‘zlar **ma’noviy belgisiga** ko‘ra quyidagicha turkumlanadi:

1.Mustaqil ma'noli so'zlar:

- a) mavjudotlarni atovchi so'zlar - otlar;
- b) belgi - xususiyatni atovchi so'zlar – sifatlar;
- d) harakat - holat ifodalovchi so'zlar – fe'llar;
- e) miqdorni ifodalovchi so'zlar – sonlar;
- f) o'rinni - payt, tarz - tusni ifodalovchi so'zlar- ravishlar;
- g) taqlidni ifodalovchi so'zlar-taqlidiy so'zlar.

2.Bo'sh-ishora ma'noli so'zlar-olmoshlar.

3.Yordamchi ma'noli so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar. So'zlarning mustaqil va yordamchi tiplarga ajralishi ularning mustaqil holda ma'no ifodalay olish qobiliyatiga ko'ra belgilanadi.

O'zbek tilshunosligida olmoshlarning doirasi va vazifasi zo'rma zo'rakilik bilan cheklantirilib, "ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'zlar "sifatida tor doirada tushinilgan edi. Bu o'rinda olmoshning nafaqat ot, sifat, son o'rnida, balki fe'l, ravish, taqlidiy so'z, undov gap, hattoki matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmoshlar sinfiga:

- *men, sen, biz, siz, ular* kabi shaxsga;
- *kim, nima, ana, mana, bu* kabi predmetga ishora qiluvchi leksemalar;
- *qanday, bunday, shunday* kabi belgiga;
- *buncha, shuncha, qancha* kabi miqdorga;
- *shunday bo'lmoq, shunday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora etuvchi leksemalar ham kiradi. Ishora so'zlarning ma'nosi matn ichida oydinlashadi.

Leksemalar **morfologik tasnifga** ko'ra ikki tipga ajratiladi:

1.O'zgaruvchi leksemalar.

2.O'zgarmas leksemalar.

O'zgaruvchi so'zlar morfologik kategoriyalar (son, egalik, kelishik, nisbat, qiyoslash, subyektiv munosabatlar, kesimlik, o'zgalovchi)ning qo'shimchalarini qabul qila oladi. O'zgarmas so'zlar bunday

qo'shimchalarni qabul qila olmaydi. Leksemalarning morfologik imkoniyatiga ko'ra tasnifini quyidagicha beramiz:

LEKSEMALAR

O'ZGARUVCHILAR+

sonlanuvchi-ot,
darajalanuvchi-sifat,
tartiblanuvchi-son,
nisbatlanuvchi-fe'l

O'ZGARMASLAR 0

ko'makchi, bog'lovchi, yuklama,
ravish, undov, so'z-gap.

Ushbu tasnifdan ishora so'zlar va taqlidlar o'rin olmagan. Chunki olmoshlarga o'zları ishora qilib kela oladigan barcha leksema guruhlarining morfologik kategoriyalari ham, sintaktik vazifalari ham xosdir. Bu isbot talab qilmas holatdir: ot-olmoshlar son kategoryasiga (*kim-kimlar*); fe'l-olmoshlar nisbat kategoryasiga (*shunday qilishdi*); son-olmoshlar: tartib kategoryasiga (*necha - nehanchi*); sifat-olmoshlar daraja kategoryasiga (*shunday-shundayroq*) ega. Taqlidlarning esa o'ziga xos tasniflovchi morfologik kategoriysi yo'q. Biroq ular o'zgarmas so'zlar ham emas. Taqlidlarning morfologik kategoriyalarga ega bo'lishi ularning gapda qanday bo'lak bo'lib kelishi bilan bog'liq. Professor H.Ne'matov o'zining "Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII веков" nomli kitobida taqlidlarda leksemalarning ajralmagan "embrion - diffus holati" o'z aksini topganligini qayd etadi [3,192;].

Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish yoki bog'lana olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olishi yoki kela olmasligi kabi xususiyatlar o'z aksini topadi. **Sintaktik tasnifga** ko'ra leksemalarni uch tipga ajratamiz:

1. Gap bo'lib keladiganlar – undov, modal, tasdiq va inkor, taklif so'z – gaplar.

2. Gap bo'lagi bo'lib keladiganlar – hamma mustaqil so'zlar–fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlidlар, ishora so'z – olmoshlar.

3. Sintaktik aloqa vositasi bo'lib keladiganlar – ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So‘z-gaplar nutqda boshqa so‘zlar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o‘zi mustaqil gap bo‘lib kela olish qobiliyatiga ega, ya’ni ajralish xususiyatiga ega. Mustaqil va yordamchi so‘zlar esa bog‘lanish xususiyatiga ega bo‘lib, bulardan yordamchilar gapda alohida bo‘lak bo‘lib kela olmaydi, ammo sintaktik jihatdan bog‘lash vazifasini bajaradi. Mustaqil so‘zlar esa mustaqil ravishda "muchalanadi", ya’ni gap bo‘lagi bo‘lib keladi.

Bizningcha, quyidagi jadvalda tilshunos I.Madrahimov leksemalarning serqirralik xususiyatini, ya’ni ularning ma’noviy, sintaktik, morfologik belgilarini umumlashtira olgan:

<i>Nº</i>	<i>leksema turlari</i>	<i>ma’noviy</i>	<i>sintaktik</i>	<i>morfologik</i>	<i>ajralishning asosiy belgisi</i>
1	Fe'l	Harakat-holatni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik (gap bo‘lagi bo‘lib kelishi)	Nisbatlanuvchi o‘zgaruvchi (yozmoq-yozildi)	Morfologik va ma’noviy
2	Ot	Predmet va predmetlikni nomlash orqali atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	Sonlanuvchi o‘zgaruvchi (kitob-kitoblar)	Morfologik va ma’noviy
3	Sifat	Belgini nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	Darajalanuvchi o‘zgaruvchi (yaxshi- axshiroq)	Morfologik va ma’noviy
4	Son	Miqdorni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	Tartiblanuvchi o‘zgaruvchi (bir-birinchi)	Morfologik va ma’noviy
5	Ravish	O‘rin, payt, tarz-tusni nomlash asosida atash mustaqil leksemalari	Cheklangan muchalanuvchilik	O‘zgarmaslik	Morfologik va sintaktik
6	Taqlid	Tovush yoki ko‘rinishga taqlid leksemalari	Cheklanmagan muchalanuvchilik	-	Ma’noviy
7	Ishoralar (olmoshlar)	Ishora mustaqil leksemalari	-	-	Ma’noviy
8	Ko‘makchi		So‘zni so‘zga tobelantiruvchi muchalanmas leksemalar	O‘zgarmaslik	Sintaktik
9	Bog‘lovchi		So‘zni va gapni bog‘lovchi muchalanmas leksemalar	O‘zgarmaslik	Sintaktik

10	Yuklama	Ta'kid	Muchalanmaslik	O'zgarmaslik	Ma'noviy
11	Modal	Munosabatni nomlash asosida atash leksemalari	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosabatga kirishmaydi)	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik
12	Undov	His-hayajonni tasvirlash leksemalari	Ajraluvchilik	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik
13	Tasdiq/inkor so'zlar	Tasdiq-inkor ma'nosi	Ajraluvchilik	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik
14	Taklif so'zlar	Tasdiq ma'nosi	Ajraluvchilik	O'zgarmaslik	Ma'noviy va sintaktik

DTSga asoslangan ona tili o'quv dasturi va darsliklarida ham o'zbek tili qurilishi talqinida qator yangiliklar ko'zga tashlanadi:

1. Olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish, taqlidiy so'z, undov gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olingan holda ularni o'rganish fe'l, ravish, taqlidiy so'zlardan keyinga ko'chirilgan va ular ishora so'zlar sifatida izohlanilgan.

2. Dasturda bir so'z turkumidan ikkinchi bir so'z turkumiga o'tish talqini rus tili grammatikasidan ko'chirilgan hodisa sifatida baholanadi ("Yaxshi bola yaxshi o'qiydi"; "Mardona yigit mardona gapiradi" kabi gaplarda yaxshi va mardona so'zları birinchi birikmada sifat deb, ikkinchi birikmada esa ravish deb bahslanadi). Darslikda ravish so'z turkumining xususiyatlari o'rganilar ekan, uning morfologik kategoriyalarni, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni qabul qila olmasligi asosiy belgisi qilib ko'rsatilgan. Ravishlarning morfologik jihatdan o'zgarmas ekanligi qator misollarda (*tasodifan, birga, qasddan, o'zbekona, haqiqatan*) aniqlab berilgan. Ravishlarning sintaktik vazifikasi ularning aniqlovchi bo'lib kela olishi bilan kengaytirilgan.

3. Egalik, kelishik qo'shimchalari faqat otlar va otlarni almashtirishga xizmat qiladigan olmoshlar bilan birikadi, degan g'ayriilmiy talqin dasturdan o'rinni olmagan. Grammatikadagi otlashuv hodisasi "ma'no torayishi" mavzusi doirasida izohlangan.

4. So‘z turkumlarini o‘rganishda ularning asosiy ma’noviy, morfologik, sintaktik xususiyatlari hisobga olingan holda, amaldagi dastur va darsliklarimizdan farqli o‘laroq quyidagicha joylashtirilgan:

- | | |
|----------------|---|
| 1.Fe’l. | 7. Olmosh |
| 2.Ot. | 8. Ko‘makchi |
| 3. Sifat. | 9. Bog‘lovchi |
| 4. Son. | 10.Yuklama |
| 5. Ravish. | 11.So‘z- gaplar (undov,modal,tasdiq
va inkor,taklif so‘z-gaplar) |
| 6. Taqlid so‘z | |

Maktab darsligida so‘z-gaplar, ularning ko‘rinishlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Tasdiq-inkor ma’nosini ifodalaydigan so‘zlar (*asosan, ha, yo ‘q, xo ‘p, xo ‘sh*) tilshunosligimizda, ko‘pincha, modallar tarkibida o‘rganilib kelingan. Hozirgi tilshunoslikda esa ularning ma’noviy xususiyatlari hisobga olingan holda alohida guruhga ajratilgan. Taklif so‘z-gaplar guruhiga qo‘llanilishi tana a’zolarining maxsus harakatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan *Ma, Mang, Qani, Xo ‘sh?, Marhamat* kabi so‘zlar kiritilgan. So‘z-gaplarning asosiy xususiyati, ya’ni ularning kesimlik shakli qo‘shimchalarini mutlaqo qabul qila olmasligi izohlab berilgan.

So‘z turkumlarning miqdori, ularning belgilari tarixiy o‘zgaruvchan bo‘lib, turli sistemalardagi tillardagina emas, qarindosh tillarda ham turlichadir. Shunga qaramay bir tildagi so‘z turkumlarning miqdori bo‘yicha ham olimlar orasida turli qarashlar, tasniflar mavjud. Masalan, hozirgi rus tilidagi so‘z turkumlarining miqdori haqida shunday tasnif mavjud: ko‘pchilik olimlar so‘z turkumini o‘nta deb hisoblaydilar. Bular: ot (имя существительное), fe’l (глаголы), sifat (имя прилагательное), ravish (наречие), son (имя числительное), bog‘lovchi (союзы), predloglar, undov (междометные слова), yuklama (частицы).

Hozirgi ingliz tilidagi so‘z turkumlarining soni ham turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi: ba’zilari o‘nta deb ko‘rsatsa (ot(noun), sifat (adjectives), son (numeratives), olmosh (pronouns), fe’l (verbs),

ravish (adverbs), predlog, artikl va yuklama (conjunctions)), ba’zilari o’n to‘rtta deydilar: yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda modal so‘zlar, holat kategoriyasi, undovlar, javob so‘zlar kiritiladi.

Hind-yevropa tillariga kiruvchi tojik tilida ham so‘z turkumlari quyidagicha tasniflanadi: ot: *дафтар*, *дұхтар*, *хона*; sifat: *нав*, *калон*, *калонтар*, *сурх*, *сурхтар*; son: *як*, *даҳ*, *бист*; olmoshlar: *ман мо*, *ты*, *шумо*, *ү*, *онҳо*, *ин*; fe’l: *кардан*, *рафтан*, *истодан*; ravishlar: *муваққатан*, *ҳоло*, *тозон-тозон*; predloglar: *ба*, *дар*, *аз*, *барои*; bog‘lovchilar: *ва*, *ҳам*, *чунки*, *зоро*, *бо ин ки*; yuklamalar: - *ми*, - *а*, - *ку*, *не*; undov so‘zlar: *оҳ! оғарин!* *вой!* *э вой!*

Xulosa qilib aytish mumkinki, keyingi yillardagi ona tili tizimidagi qator yangiliklar, tajribalar, ilmiy xulosalar umumiyligi o‘rtalim dastur va darsliklarida ham o‘z ifodasini topgan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tasnif nima? Uning mohiyatini nima tashkil qiladi?
2. Leksemalarning qaysi qirralari orqali tasniflar hosil qilish mumkin?
3. Ma’noviy belgisiga ko‘ra so‘zlar qanday turkumlanadi?
4. Leksemalar morfologik tasnifga ko‘ra necha tipga ajratiladi? Ular qaysilar? Har birini izohlang.
5. Leksemalar sintaktik tasnifida ko‘proq ularning qaysi jihatlari inobatga olinadi?
6. O‘zbek tilshunosligida fe’l so‘z turkumining tutgan o‘rni haqida qanday tushunchangiz bor?
7. Nima uchun olmosh taqlidlardan so‘ng o‘rganiladi?
8. So‘z-gaplarnining qanday ko‘rinishlari bor?
9. Taqlidlar nima uchun mustaqil so‘z turkumlari qatoridan o‘rin olgan?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [4; 14; 25; 35; 38; 56]

SINTAKSIS

Reja:

1. Sintaksis gap to‘g‘risidagi ta’limotni o‘rganuvchi sath sifatida.
2. Sintaktik munosabat va nutqda uni ifodalash yo‘llari.

3. Nutqda voqelanish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘z birikmalari va gaplarning qurilish qoliplari haqida. LSQ tushunchasi.

4. Sintaktik aloqa va valentlik.

5. Semantik (ma’noviy) valentlik, sintaktik valentlik va grammatik shakl valentligi haqida.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

So‘zshakl sintaksisi, so‘z birikmasi sintaksisi, gap sintaksisi, sintaktik aloqa, sintaktik munosabat, predikativ bog‘lanish, qaratqich – qaralmish o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanish, sintaktik munosabatni ifodalovchi grammatik vositalar, lisoniy sintaksis va nutqiy sintaksis, lisoniy sintaktik qoliplar, LSQ va dialektik kategoriyalar, valentlik: so‘z valentligi, sintaktik valentlik, grammatik shakl valentligi, sintaktik aloqa va valentlikning dialektik aloqadorligi

Til sintaktik qurilma hisoblanmish gap vositasida o‘z ijtmoiy vazifasini amalga oshiradi. Tilning barcha birliklari va shu birliklarning nutqiy voqelanishlari, ya’ni fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana shu sintaktik qurilmaning yuzaga kelishi uchun xizmat qiladi. Ma’lumki, tilning asosiy vazifasi nutq vositasida kishilarning o‘zaro fikr almashishlarini ta’minlashdan iboratdir. Jamiyatdagi ijtimoiy shaxslar gap orqali fikr almashadilar.

Gap nutqqa xos asosiy kommunikativ birlik bo‘lib, u sintaksisning bevosita o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Sintaksis (yunoncha sintyaxys – «tuzish», «qurish» demakdir) atamasini ikki ma’noda tushunish mumkin:

1) tilning sintaktik qurilishi ma’nosida;

2) tilning sintaktik qurilishini o‘rganadigan grammatikaning bir qismi ma’nosida.

Biz bu atamani ana shu ikkinchi ma’nosida qo‘llab, birinchi ma’no ifodasi uchun “sintaktik qurilish” atamasidan foydalanamiz. Sintaksis gap haqidagi ta’limotdir. Bu sathda gap turlari, gap bo‘laklari, ularning o‘zaro sintaktik munosabatga kirishish usullari va vositalari, so‘z birikmasi, uning tuzilishi, tiplari, gapdan katta birliklar va shu birliklar qismlarining logik –

grammatik munosabatlari o‘rganiladi. Demak, so‘z birikmalarini o‘rganish ham gap ta’limotining tarkibiy qismi bo‘lib, so‘z birikmalarini gapdan ajratilgan holda tekshirish mumkin emas. So‘zshakllar ham bevosita (ba’zan bilvosita) gapning tashkil etuvchisidir. Shunga ko‘ra sintaksis quyidagi uch qismga bo‘lib o‘rganiladi:

- 1) so‘zshakl sintaksisi;
- 2) so‘z birikmasi sintaksisi;
- 3) gap sintaksisi.

Gap tarkibidagi grammatik shakllangan so‘zlarni so‘zshakl sintaksisi o‘rganadi. So‘z birikmasi sintaksisi esa so‘zlarning o‘zaro tobe-hokimlik munosabatida sintaktik bog‘lanib, mustaqil so‘zlarga nisbatan ancha aniqroq fikr (tushuncha) ifodalovchi birlik hosil qila olish qonuniyatlarini tadqiq etadi. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanib, fikr ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy birlik (gap) hosil qilish qonuniyatlarini gap sintaksisi o‘rganadi.

Ba’zi lingvistik adabiyotlarda sintaksis so‘z birikmasi va gap haqidagi ta’limot deb talqin etiladi (Qar: Baskakov N. va b. Umumi tilshunoslik. T., O‘qituvchi, 1979). Vaholanki, so‘z birikmalari gap bo‘laklari kabi gap qurilishining elementlaridandir. Sintaksisning predmetini belgilashda so‘z birikmasi hisobga olinsa, gap bo‘laklarini ham bundan mustasno etib bo‘lmaydi. Va yana eslatib o‘tmoqchimizki, jamiyatda axborot uzatish gap orqali amalga oshadi. Gap fikr ifoda etadi. So‘z birikmasi esa fikr emas, balki so‘z kabi tushuncha ifodalaydi. Ma’lumki, so‘z birikmasi ifodalagan ma’no so‘z ifodalagan ma’nodan ko‘ra xususiyroq (aniqroq) bo‘ladi. Demak, sintaksisning eng asosiy birligi – gap.

Sintaksis sathi til fanining barcha bo‘limlari bilan chambarchas bog‘liqligini isbotlashga hojat bo‘lmasa kerak. Vaholanki, til tizim ekanligini eslashning o‘zi kifoyadir.

Gapda so‘zlar ma’lum qoidalar asosida bir-biri bilan bog‘lanadi, ya’ni semantik-sintaktik aloqaga kirishadi. Har qanday sintaktik aloqa sintaktik munosabatlar majmuyidir. «Munosabat» arabcha so‘z bo‘lib, bir qancha ma’nolarni ifodalaydi: 1) kishilar o‘rtasidagi aloqa, muomala; 2) narsa,

hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, aloqa; 3) kishining voqelikdagi narsalarga, hodisalarga qarashi, yondashishi kabi. «Munosabat» atama sifatida falsafada muayyan sistemadagi elementlarning joylanish xarakteri va ularning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi falsafiy kategoriya bo‘lsa, mantiq fanining atamasi sifatida hodisalarga xos serqirralikka turlicha yondashish nuqtayi nazari tushuniladi.

Tilshunoslikda «sintaktik munosabat» atamasi gap tarkibida so‘zlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanish, aloqa demakdir. Turli tillarda mavjud bo‘lgan sintaktik munosabatlar dastlab ikki turga bo‘linadi: predikativ va nopolitativ bog‘lanish.

O‘zbek tilida predikativ bog‘lanish deganda gap tuzilishining asosi (gapning markazi) kesim bilan bog‘liq bo‘lgan sintaktik munosabat nazarda tutiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilidagi sodda gaplarni qiyoslasak, har bir gapda – qaysi so‘z turkumi va uning qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar – shakllangan kesimning takrorlanganligini kuzatamiz. Gaplarda ega ishtirok etmasligi ham mumkin. Biroq, kesim gapning asosini tashkil etadi. Kesim gapning markazi bo‘lib, u tasdiq / inkor, mayl / modallik, zamon, shaxs / son ma’nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo‘laklarini o‘z atrofida birlashtiradi. Chunonchi, *Mardni maydonda sinaymiz* gapida kesim (*sinaymiz*) tasdiq ma’nosida, xabar maylida, kelasi zamon, I shaxs ko‘plik shaklida ifodalangan bo‘lib, gapning ikkinchi darajali bo‘laklari – vositasiz to‘ldiruvchi (*mardni*) hamda o‘rin holi (*maydonda*) bilan o‘zaro sintaktik munosabatga kirishgan. Nopolitativ bog‘lanish bunday xususiyatga ega emas. Bunda so‘zlar o‘zaro turli usulda va turli vositalar bilan sintaktik munosabatga kirishadi. Teng bog‘lanish va ergash bog‘lanish (tenglashish va ergashish) nopolitativ bog‘lanishning turlari hisoblanadi.

Grammatik jihatdan bir-biriga teng bo‘lgan so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatga kirishishidan teng bog‘lanish yuzaga keladi. Tenglashish munosabati, odatda, teng bog‘lovchilar va sanash ohangi orqali ifodalananadi. Chunonchi:

o‘quvchilar va o‘qituvchilar; kitoblar, daftarlар;

omeç и дети; хорошо, но дорого (ruscha);

The Lesson finished and the teacher went off (inglizcha);

Die Mutter und die Tochter (nemischa).

Ergash bog‘lanishda grammatik jihatdan teng bo‘lmagan so‘zlar o‘zaro grammatik munosabatga kirishadi va tobe-hokim munosabatiga ega bo‘lgan so‘z birikmalarini yuzaga keltiradi. Chunonchi:

umidli dunyo, qo ‘shiq aytmoq, shoshib gapirish;

длинная дорога, крепкий чай, имеем право (rus tilida);

clear profit; Long island is a long island (engliz tilida).

Tobelanish munosabati, asosan, aloqa-munosabat affikslari, ko‘makchilar, fleksiya, so‘z tartibi, ohang kabi vositalar bilan ifodalanadi.

Turkiy tillarda sintaktik munosabatning tenglashish va ergashish tiplaridan tashqari alohida ko‘rinishdagi sintaktik munosabat ham mavjuddir. Bu qaratqich va qaralmish munosabatidir. Agar tenglashishda grammatik tomondan teng bo‘lgan so‘zlar sintaktik munosabatga kirishib, gap bo‘laklarini uyuştirib kelsa, ergashishda esa biri hokim, biri tobe vaziyatdagi bo‘laklar sintaktik munosabatga kirishib, so‘z birikmasini hosil qiladi. Qaratqich va qaralmish munosabatidagi so‘zlar ayni bir paytda bir-biriga tobe, bir-biriga hokim vaziyatda bo‘ladi, ya’ni qaratqich kelishigini olgan so‘z o‘ziga semantik jihatdan mos III shaxs egalik affiksini olgan so‘zni talab etadi. Ayni paytda III shaxs egalik affiksini olgan so‘z o‘zi aloqador bo‘lgan so‘zning qaratqich kelishigi shaklida bo‘lishini talab etadi. Nutqiy bosqichda nutq sharoitiga ko‘ra ba’zan qaratqich, ba’zan qaralmish belgisiz holatda qo‘llanishi ham mumkin. Chunonchi:

Farruxning kitobi, maktab hovlisi, qizlar bazmi, bizning ko ‘cha kabi.

Biz yuqorida sanab o‘tgan sintaktik munosabat tiplari turli ko‘rinishdagi grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Bular quyidagilar:

Aloqa-munosabat affikslari. Bunday qo‘shimchalar sintaktik shakllar deb ham yuritiladi. Ular so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga ta’sir ko‘rsatmasdan, ularni sintaktik aloqaga kiritish uchungina xizmat qiladi. Turkiy tillarda sintaktik munosabatlarni ifodalashda turlovchi va tuslovchi qo‘shimchalar keng qo‘llaniladi: Masalan: *kinoni ko ‘rmoq, xonaga kirish,*

uning qalbi, sizning tuyg‘ularingiz (o‘zbek tilida); *Ornina jat* (o‘rningga yot), *Bez sag‘at 10 da uyeqtaurg‘a jatteq* (*Biz soat 10da uqlashga yotdik*) (qozoq tilida).

Fleksiya. Bu hodisa flektiv tillarga hind-yevropa (rus, nemis, latin, hindu), som (arab, ivrit) tillariga xosdir. Bu tillarda har bir mustaqil so‘zning dastlabki ko‘rinishi ham negiz va qo‘shimchalarga bo‘linadi, ammo o‘zak-negizni mustaqil qo‘llab bo‘lmaydi. Chunonchi: *старший брат, синие брюки, моего отца, хороших друзьях* каби. (Rus tilidan olingan ushbu so‘z birikmalaridagi sintaktik munosabat ifodalovchi vositalar qo‘shilgan so‘zlarning o‘zak-negizi *старши, син, мо, хороши* bo‘lib, ular mustaqil holda qo‘llanilmaydi.)

Yordamchilar (bog‘lovchilar, ko‘makchilar, bog‘lama) so‘zlarni sintaktik munosabatga kiritishda alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbek tilida: *Rasmni mo‘yqalam bilan chizdi. Men o‘qituvchi bo‘lamani;*

Rus tilida: *ехать к друзьям, писать на бумаге.*

Ingliz, fransuz, arab tillarida sintaktik vosita sifatida **artikl** ham qo‘llaniladi. Roman-german tillarida artikl faqat ot so‘z turkumiga xos so‘zlardan oldin ishlatiladi. Arab tilida esa artikl ot, sifat, son bilan birga qo‘llanilaveradi. Chunonchi: *a table (stol); an apple (olma); Al kita: bu; ru – N* (arabcha) kabi.

So‘z tartibi. So‘zlarning sintaktik funksiyasi maxsus morfologik ko‘rsatkichlar bilan ifodalanmaganda so‘z tartibi sintaktik munosabatlarni ko‘rsatuvchi muhim vosita bo‘lib qoladi. Bu vaqtida so‘zlarning gapdagi vazifasi so‘z tartibiga bog‘liq bo‘ladi. So‘z tartibi o‘zgarishi bilan sintaktik holat ham, gap semantikasi ham o‘zgaradi. Masalan: *shirin qovun* (aniqlovchi-aniqlanmish), *Qovun shirin* (ega-kesim), *Gullagan daraxt hammamizni hayratga soladi. Daraxt gullagan, hammamizni hayratga soladi.*

Ba’zan so‘z tartibining o‘zgarishi sintaktik holatga daxl etmasligi ham mumkin, ya’ni gap bo‘laklarining o‘rni o‘zgarsa-da, ularning sintaktik vazifasi ilgarigicha qolaveradi. Masalan: *Yana keldi qalbimning rozi, Yana*

keldi men kutgan bahor. Qalbimning rozi yana keldi. Men kutgan bahor yana keldi.

Flektiv tillarda so‘z tartibi sintaktik vosita sifatida kam qo‘llaniladi.

Intonatsiya ham sintaktik munosabat ifodalaydigan vositalardan biri hisoblanadi. Oldingi mavzularimizdan sizga ma’lumki, mantiq urg‘usi, pauza, ritm, melodika kabilar intonatsiyaning tarkibiy qismlaridir. Intonatsiya – barcha tillarga xos bo‘lgan sintaktik munosabat ifodalovchi vosita.

U yoki bu tilda sintaktik vositalardan qaysi turining ishlatalishi har bir tilning grammatik qurilishiga bog‘liqdir.

Biz yuqorida sintaksisning nutqiy bosqichga xos bo‘lgan ba’zi jihatlari xususida mulohaza yuritdik. Ma’lumki, har bir millat, xilq tili o‘zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarning o‘zaro munosabati bilan butun sistema (tizim)ni tashkil etadi. Tilning har bir sathi «lison ~ nutq» aspektida o‘rganilishini yodga olaylik. Til (lison) birliklarini fonema, morfema, leksema hamda lisoniy sintaktik qoliplar tashkil etsa, bevosita kuzatishda berilgan nutqiy birliklarni tovush (harf), affiks, so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn kabilar ifodalaydi.

Nutqiy sintaksis birliklari bo‘lmish so‘z birikmasi, gap, matn moddiylikka ega bo‘lib, ularni o‘qish, yozish, aytish, eshitish mumkin. Lisoniy sintaksis birliklari esa so‘z birikmasi va gap hosil qilish qoliplaridir, ya’ni lisoniy sintaktik qoliplar (LSQ) dir. Demak, nutqda voqelanish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘z birikmalari va gaplarning qurilish qoliplari lisoniy sintaksisning tadqiq manbayidir. Xo‘sh, lisoniy sintaktik qolip nima?

Kishilar ongida, chunonchi, lisoniy sathda so‘zlash, ya’ni xilma-xil maqsadlarga xizmat qiluvchi nutqni shakllantirish uchun leksemalarni so‘z birikmalari sifatida bog‘lash, leksema yoki so‘z birikmalariga gap shaklini beruvchi qoliplar mavjud. Bular LSQ lar, modellar, konstruksiyalar, qurilmalar tarzida nomlansa-da, aslida bir tushunchani ifodalaydi. LSQ larni biz jamiyatda tayyor holda qabul qilib olamiz va uni o‘z ixtiyorimizcha o‘zgartira olmaymiz. LSQ lar va ularning nutqiy voqelanish

(so‘z birikmaları, gap)ları o‘rtasida umumiylık ~ xususiylik, mohiyat ~ hodisa, imkoniyat ~ voqelik, sabab ~ oqibat dialektikasi mavjud bo‘lib, lisoniy sintaktik qoliplar bizning ongimizdagi yuksak darajali umumiylıklardır. Ular ongimizda ichki imkoniyat, zarurat, mohiyat sifatida mavjuddir. Shu o‘rinda LSQ va uning hosilalari bo‘lgan so‘z birikmasi yoki gapga xos xususiyatlarni taqqoslab ko‘raylik.

LSQ larga xos belgilar	LSQ larning nutqiy hosilalariga xos belgilar
bevosita kuzatishda berilmagan	bevosita kuzatishda berilgan
ijtimoiy	individual (alohida)
takrorlanuvchan	takrorlanmas
chegaralangan	chegaralanmagan
majburiy	ixtiyoriy

LSQ larning faqat kishilar ongidagini mavjudligi, ularning moddiylikdan xolilagini ifodalaydi. Qolidan chiqqan nutqiy hosilalargina moddiy qobiqqa ega bo‘ladi.

LSQlar ma’lum shaxslar tomonidan yasalgan emas, balki muayyan tilda so‘zlashuvchi jamiyat a’zolari tomonidan uzoq asrlar davomida kishilar ongida shakllangan. LSQ lar barcha jamiyat a’zolari uchun teng baravar xizmat qiladi. Bu uning ijtimoiy tabiatidir. Nutqiy hosilalar individual (alohida)lik tabiatiga egadir. Buni qanday tushunish mumkin? Bu olamda moddiylikka ega bo‘lgan biror narsa, voqeа – hodisa bir-birini takrorlamaydi. Hattoki, bitta qolidan chiqqan g‘ishtlar ham. Son-sanoqsiz daraxt barglari, tuproq zarralari, odamlarning ham biri ikkinchisiga hech qachon aynan o‘zshamaydi. Bu holat nutqiy hosilalarga-da tegishli. Aytaylik, **Keling** ixcham gapini ikki marta takrorlasak, ikkinchi gap birinchi hosilaning ayni takrori bo‘la olmaydi. Zero, bu nutqiy hosilalar o‘rni, zamoni, aytilish maqsadi, sharoiti kabilarning hech bo‘lmasa bittasi bilan farqlanadi. Bu nutqiy hosilaning alohidalik xususiyatidir.

Bitta lisoniy sintaktik qolip yuzlab, minglab so‘z birikmalarida yoki gaplarda takrorlanaveradi. Masalan, [ot ^{tushum kelishigi} + fe'l] so‘z birikmasi

qolipidan *polni bo'yamoq, farzandni sevmoq, onani ardoqlamoq, kitobni o'qimoq* kabi son-sanoqsiz nutqiy sintaktik birliklarni hosil qilish mumkin. Demak, LSQ lar takrorlanuvchandir. Yuqorida eslatib o'tganimizdek, bevosita kuzatishda berilgan birorta hodisada takroriylik yo'q. Hayotdan ko'z yumgan birorta odamni qayta yaratib bo'lmanidek, qolipdan chiqqan so'z birikmasi yoki gapni ham qayta aytish, yozish mumkin emas. Bu nutqiy hosilalarga xos betakrorlikdir.

LSQlar chegaralangan. Masalan, o'zbek tilshunosligida so'z birikmalarining o'n sakkizta ustivor qolipi aniqlangan. O'zbek tilidagi minglab, yuz minglab (balki undan ham ko'proq) so'z birikmalari turli nutq sharoitlariga mos ravishda turfa ko'rinishlarda aks etsa-da, LSQ ning mohiyat chegarasidan chiqib keta olmaydi. Demak, LSQ lardan chiqadigan nutqiy hosilalar miqdori chegaralanmagan.

Jamiyat a'zolari, ya'ni muayyan bir tilda so'zlashuvchilar, nutq jarayonida LSQ lardan foydalanishga majburdirlar. Ularni o'zgartirish yoki yangisini tuzishga urinish tilda sun'iylikni keltirib chiqaradi. Vaholanki, LSQ lar majburiylik, nutqiy hosilalarni tuzish yoki tuzmaslik shaxslar uchun ixtiyoriylikdir.

Qolip nutqiy hosilasiz o'lik va jonsiz, nutqiy hosila esa qolipsiz bo'lishi mumkin emas. Zero, LSQlar nutqdagi xilma-xil so'z birikmalari va gaplarni yuzaga chiqaruvchi, bir o'ringa birlashtiruvchi asosdir.

So'z birikmalariga xos bo'lgan umumiy qolip [TB+HB], ya'ni [tobe bo'lak+hokim bo'lak] dir.

Rus tilshunosligida sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi [S - P], ya'ni [ega - kesim] ko'rinishiga egadir. Masalan: *Трава зеленеет. Птицы улетают* kabi. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] ko'rinishiga egadir. (Bu qoliplarning mohiyatini «Gap» mavzusida bat afsil ochib berishga harakat qilamiz.)

Yuqorida sintaktik munosabat yoki sintaktik aloqa nutqiy bosqichga xos hodisa ekanligini e'tirof etgan edik. Xo'sh, lisoniy bosqichda u qanday asosga borib birlashadi?

Har qanday so‘z birikmasi va gap, kontekst va matn kabi sintaktik butunliklarning birlamchi moddiy asosi so‘zdir. Fikr almashish jarayoni aslida so‘zlardan, ularning semantik-sintaktik bog‘lanishidan yuz beradi. So‘zga substansial yondashuv natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘z ham til birligi, ham nutq birligidir. Tilshunos olim Ravshanxo‘ja Rasulov ta’kidlaganidek, ham til, ham nutq birligi bo‘la olish imkoniyati faqat so‘zga xosdir. So‘zga substansial yondashuv leksikologik – semasiologik, morfologik va sintaktik tomonlar tekshiruvi natijalarini umumlashtiradi, «til ~ nutq» aspektida ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi.

So‘zni nutq birligi deganda, so‘zning mohiyatini gapda o‘rganish va aniqlash ko‘zda tutiladi, so‘z til birligi sifatida gapdan tashqarida o‘rganiladi. Demak, so‘z o‘zining asosiy nominativ vazifasini nutq faoliyatida bajaradi. Shu faoliyatda u ma’no (semantik) jihatdan aniq o‘rniga ko‘ra mustaqil bo‘ladi, muayyan sintaktik vazifada keladi. Bundan mantiqiy ravishda so‘zning nutqdagi ahamiyatini, semantik munosabatning ma’no imkoniyatlarini o‘rganish masalasi kelib chiqadi.

Gap tarkibidagi so‘zlarning muayyan qurshovda, muayyan ishtirokchilari bilan birika olish imkoniyatlari tasodifiy va butunlay erkin emas. Ular muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Fanning eng so‘nggi yutuqlariga tayanib ayta olamizki, hozirda ma’lum til birligining boshqasi bilan birikuvining asosiy qonuniyatları **valentlik** tushunchasida birlashadi. Ma’lum bir so‘zning boshqa so‘zlar bilan birika olish imkoniyati, ma’noviy sintagmani tuzuvi, o‘z ma’nosini to‘la ochish uchun muayyan so‘z va so‘z shakllarni talab etishi valentlik nazariyasining asosini tashkil etadi.

Valentlik atamasi, eng avvalo, kimyo faniga tegishli bo‘lib, biror kimyoviy element atomining boshqa element atomlaridan muayyan sondagisini biriktirib olish xossasidir. Valentlik so‘zi «kuch» degan ma’noni bildiradi. Fizika fanidan ma’lumki, kuch-o‘zaro ta’sir va bog‘lanish demakdir.

Jahon tilshunosligida «valentlik» atamasi o‘tgan asrning 20-30-yillarida paydo bo‘ldi va juda tez ommalashdi. XX asrning 40-yillarida sovet tilshunosligiga valentlik tushunchasi S.D.Kotsnelson olib kirdi

(Qarang: С.Д.Коңнельсон. О грамматической категории. Вестник. ЛГУ. 1948. №2. стр.132). Uzoq yillar davomida olimlar o‘rtasida valentlik ma’noviy tabiatga egami yoki sintaktik xarakterga egami degan bahs davom etdi. Bu jiddiy munozaraning yechimini o‘zbek tilshunos olimi R.Rasulov bera oldi (Qarang: Rasulov R. O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentliklari. T.:Fan, 1989.) va valentlik hodisasini imkoniyatli voqelik sifatida baholadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilshunosligida valentlik ikki tomonlama: ham semantik, ham sintaktik hodisa ekanligini isbotladi.

Tilshunoslikda valentlik tushunchasi ostida uch jihatni farqlash lozim:

- 1) so‘z valentligi;
- 2) sintaktik valentlik;
- 3) grammatik shakl valentligi.

So‘z valentligi masalasida zukko olim H.G‘.Ne’matov ta’kidlaganidek, ikki muammoni farqlay olish o‘ta muhimdir. Bular: lisoniy valentlik hamda nutqiy valentlik.

Lisoniy valentlik so‘zning semantik strukturasida mujassamlangan yashirin imkoniyat bo‘lib, u ma’lum bir so‘zning muayyan bir ma’noviy turkum so‘zlari bilan me’yoriy ravishda bog‘lana olishi, birika olish qobiliyatiga ega ekanligini ifodalaydi. So‘zlearning lisoniy valentligidagi bu imkoniyat **so‘z valentligi** yoki **semantik (ma’noviy) valentlik** deb yuritiladi. Misol tariqasida [yozmoq] so‘zining ma’noviy valentligini ko‘rib o‘tamiz.

	<i>kim?</i>
	<i>nimani?</i>
	<i>kimga?</i>
<i>Yozdi</i>	<i>qachon?</i>
	<i>qanday?</i>
	<i>nima bilan?</i>
	<i>nima sababdan?</i>
	<i>qancha?</i>

(*Ertalab Karima akasiga xatni shahar tashqarisiga zudlik bilan chiqib ketayotganligini bildirish uchun shoshilganicha qalamda qisqagina yozdi.*)

Demak, [yozmoq] so‘zi o‘z ma’nosini to‘la ochib berishi uchun yuqoridagi so‘roqlarga javob bo‘la oladigan so‘zlar bilan kengaytirilishi (nutqda birikib kelishi) talab etiladi. Nutqiy valentlik yashirin imkoniyat, mohiyat, umumiylilik, zaruriyat bo‘lgan lisoniy valentlikning moddiylikka ega bo‘lishi, ya’ni ro‘yobga chiqishidir.

So‘z valentligi substansial hodisa sifatida so‘zning doimiy ichki xususiyati bo‘lib, bu xususiyat nutq faoliyatida so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishida paydo bo‘lmaydi. U nutqqacha, ya’ni tilda – til «birligi» sifatida so‘z ma’no tarkibida mavjud bo‘ladi, «yashaydi», yuzaga chiqishga tayyor turgan imkoniyat tarzida saqlanadi.

Biriktiruvchi so‘z ma’lum bir ma’noviy turkum (guruh) so‘zlar bilan birikishi uchun bu turkum so‘zlarning ma’lum bir sintaktik shaklda bo‘lishini talab etadi. So‘z lisoniy valentligidagi bu tomon **sintaktik valentlik** deyiladi. Ma’noviy valentlik va sintaktik valentlik so‘z lisoniy valentligining ajralmas ikki tomonidir. Sintaktik valentlik bilan ma’noviy valentlik ba’zi holatlarda o‘zaro nisbiy mutanosib bog‘liqlikda bo‘ladi, ya’ni biri o‘zgarsa, ikkinchi ham o‘zgaradi. Masalan:

foil manba harakat

1. *Salima kitobga yozdi.*
- sababchi manba harakat
2. *Salima kitob yozdirdi.*
- sababchi manba harakat
3. *Salima uchun kitob yozildi.*

Ba’zan valentlikning bir ko‘rinishi o‘zgarsa-da, ikkinchisi o‘zgarmasligi ham mumkin. (Bu xususda tilshunoslikning «Sintaksis» sathida to‘laroq ma’lumot beriladi.)

Affiksal morfemalarning birikuvchanlik qobiliyati **grammatik shakl valentligi** deb yuritiladi. Grammatik shakl valentligi mohiyatan ma’noviy valentlikka o‘xshashdir, biroq umumiylilik darajasiga ko‘ra semantik valentlikdan ancha yuqori bo‘lib, kategorial umumlashmalar darajasidadir. Masalan, qaratqich kelishigining morfemasi o‘zidan keyin kelgan so‘z

tarkibidagi egalik qo'shimchasi bilan birika olish valentligiga ega, bu so'z birikmasi tarkibida muvofiqlashadi. Ular bir-birini tanlagan, birikish uchun bir-birini tanlashi esa valentlikdir.

Xulosa qilib aytganda, valentlik nutqda so'zlar orasidagi sintaktik aloqani, so'zlarning, grammatik shakllarning o'zaro birikuvini ta'minlovchi potensiyadir. Sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi. So'z valentligi va sintaktik aloqa dialektik bog'liq, o'zaro bir butun, ajralmas, ayni vaqtda, har biri nisbiy mustaqil bo'lgan hodisalardir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Sintaksisning o'rganish obyekti nimadan iborat?
2. «Lison ~ nutq» aspektida sintaksisning o'rganish obyekti farqlanadimi? Misollar asosida izohlang.
3. Sintaktik munosabat deganda nimani tushunasiz?
4. Sintaktik munosabatni ifodalash yo'llari turli tillarda farqlanadimi yoki ...? Fikringizni misolar asosida dalillang.
5. Lisoniy sintaktik qolip (LSQ) nima?
6. LSQ va so'z birikmasi, gapning o'ziga xos tomonlarini dialektik kategoriylar asosida tushuntirishga harakat qiling.
7. Valentlik va uning ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.
8. Valentlik va sintaktik munosabat orasida dialektik aloqadorlik nimalardan iborat?
9. «Valentlik nutqda so'zlar orasidagi sintaktik aloqani ta'minlovchi potensiyadir». Ushbu tezisni o'z so'zingiz bilan tushuntiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [4; 10; 23; 29; 46; 47; 68; 69; 70; 72; 73]

SO'Z BIRIKMASI

Reja:

1. So'z birikmasi hokim bo'lakning ehtiyoji va tobe bo'lakning imkoniyati uyg'unligining voqelanish usulidir.
2. Nutqiy bosqichda: so'z birikmasi va uning turlari.

3. Tobe hamda hokim bo‘lakni biriktiruvchi ma’noviy (**M**), shakliy (Sh), joylashuv (J) omillari.

4. Boshqaruv, moslashuv va bitishuv haqida.

5. So‘z birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplari haqida.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Serqirralik, so‘z va so‘z birikmasi, erkin sintaktik aloqa, hokim bo‘lakning ehtiyoji, tobe bo‘lakning imkoniyati, otli birikma, fe’lli birikma, ma’noviy omil, shakliy va joylashuv omillari, boshqaruv, bitishuv, moslashuv, so‘z birikmasiga xos lisoniy sintaktik qoliplar

Tilga xos bo‘lgan har bir hodisa serqirralik xususiyatiga ega bo‘lib, nutqiy (yoki lisoniy) bosqichda uning istalgan qirrasi o‘rganilishi va baholanishi mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, tilshunoslikka oid ilmiy-nazariy adabiyotlarda so‘z birikmasi yuzasidan berilgan va siz bir qadar tanish bo‘lgan ma’lumotlarda ularga (ya’ni so‘z birikmalariga) turlicha yondashuv seziladi²⁸. Mohiyatan hodisaning serqirraligi nuqtayi nazari bu yondashuvlarni masalaning turli qirralarini alohida-alohida tadqiq etish sifatida baholaydi.

Ma’lumki, narsa-buyum, belgi, ish-harakatni umumiyl ifodalash, nomlash vazifasini so‘z bajaradi. So‘z birikmasi ham mohiyatan atash, nomlash (nominatsiya) sath birligidir. Boshqacha qilib aytganda, so‘z birikmasi lisoniy qiymat jihatidan so‘zga (leksemaga) barobardir. Masalan, direktor so‘zi o‘rnida korxonaning boshlig‘i (tashkilotning rahbari) kabi so‘z birikmalaridan birini bemalol ishlatish mumkin. O‘zbek tilida so‘z birikmalarining so‘zlarga atash vazifasi jihatidan teng qiymatliligiga yuzlab misollarni keltira olamiz. Chunonchi, tartibli – intizomda birinchi, shabada – yoqimli shamol, amaki – otaning akasi (yoki ukasi), tog‘a – onaning akasi (yoki ukasi), yanga – akamning xotini va h.

Leksema bilan so‘z birikmasi orasidagi asosiy farq atash (nomlash) vazifasida emas, balki shu vazifani qaysi yo‘l, qaysi usul va qaysi shakl

²⁸ *Qarang*: G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. Sintaksis.–T.: O‘rtta va oliy maktab, 1961.; Akadem. grammatika. II qism.–T.: Fan, 1966.; Ne’matov H. va b. O‘zbek tili struktural sintaksisi asoslari. –T.: Universitet, 1999.; Nazarova S. Birikmalarda so‘zlarning erkin bog‘lanish omillari: filologiya fanlari nomzodi... disser...avtoreferati.– T., 1997.)

bilan ifoda etishidadir. Leksik sathda bu vazifani so‘z (leksema) to‘g‘ridan to‘g‘ri bajaradi, so‘z birikmasi esa atash vazifasini so‘zlarni o‘zaro erkin sintaktik aloqaga kiritish yo‘li bilan amalga oshiradi. Erkin sintaktik aloqaga kiritish deganda so‘zlarning vaqtinchalik, faqatgina nutq talabi va ehtiyojiga ko‘ra tobe-hokim munosabatlariga kiritish tushuniladi. So‘z birikmasining tarkibi tobe bo‘lak va hokim bo‘lakdan iborat bo‘lib, *so‘z birikmasi hokim bo‘lakning ehtiyoji va tobe bo‘lakning imkoniyati orasidagi uyg‘unlikning voqelanish usulidir.*

Avvalo, e’tiborimizni so‘z birikmasining nutq birligi sifatidagi xususiyatlariga qarataylik. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, nutqda tushunchalarni aniqroq va muayyanroq ifodalash zaruratidan so‘z birikmasi kelib chiqadi. So‘z birikmasi semantik hamda grammatic jihatdan shakllangan, biror so‘z turkumiga mansub birdan ortiq mustaqil so‘zlardan tuziladi. Biroq mustaqil so‘zlarning har qanday o‘zaro bog‘lanishi so‘z birikmalarini hosil qilavermaydi. Jumladan, eganing gapning markazi bo‘lgan kesimga tobelanib kelishi kabi.

So‘z birikmasi bitta mustaqil so‘z atrofida birlashadi, ya’ni so‘zlardan biri hokim, qolganlari unga tobe bo‘ladi. So‘z birikmalari hokim bo‘lakning qaysi so‘z turkumiga mansubligiga qarab, otli birikma va fe’lli birikmaga bo‘linadi.

Hokim bo‘lak ot, sifat, son, olmosh, taqlid, undov yoki harakat nomi bilan ifodalansa, **otli birikma** hisoblanadi. Otli birikmalarda tobe bo‘lak ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh, ravish, taqlid, undovlar bilan ifodalanishi hamda hokim bo‘lak bilan birikib turli ma’noviy munosabatlarni bildirishi mumkin. Chunonchi,

1) [ot + ot] birikuvidan tuzilgan so‘z birikmalari muayyan predmetning qanday materialdan yasalganligi (*oltin soat, taxta ko‘prik*); bir predmetning boshqasiga qarashliligi (*bolalar bog‘chasi, Salimaning kitobi*); butun-bo‘lak munosabati (*stolning oyog‘i, mashinaning motori*); sabab-natija munosabati (*e’tiborsizlik natijasi, sabrsizlikning oqibati*); tur-jins munosabati (*tuyaning erkagi, tuyaqushning modasi*); shaxs yoki narsa-buyumning sifati, xususiyati (*Karimaning pokligi, uyning tozaligi*) kabi

o‘ndan ortiq ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birikuvli so‘z birikmalari rus tilida [именительный падеж + родительный падеж] qolipida tuzilgan birikmalarga to‘g‘ri keladi: *книга брата, карандаш Махмуда* каби. Demak, rus tilida otga ot ergashganda tobe ot ikkinchi o‘rinda родительный падеж shaklida keladi.

2) [sifat + ot] birikuvli so‘z birikmalari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: *qizil baxmal, qora chopon* (muayyan predmetning rang-tusi); *shirin qovun, achchiq danak* (predmetning maza-ta’mi); *puldor odam, gulli mato* (xoslik, egalik belgisi); *injiq bola, mard o‘g‘lon* (xarakter-xususiyat); *yaxna ovqat, nimjon chaqaloq* (predmetning holati) va h.

[sifat + ot] – *o‘qigan qiz, kelgusi avlod;*

[son + ot] – *birinchi yil, uchinchi farzand;*

[olmosh + ot] – *anovi hovuz, hammaning fikri;*

[ravish + ot] – *mardona harakat, yashirinchcha uchrashuv;*

[taqlid + ot] – *shivir-shivir gap, g‘uvur-g‘uvurning ta’siri;*

[undov + ot] – *oh-vohnning oqibati, salomning javobi* каби birikuvlarning har biri ham alohida-alohida ma’noviy ma’nolarni bildiradi. Boshqa tillardan ham shunga o‘xhash misollarni keltirish mumkin.

Bosh so‘z fe’l va uning ravishdosh sifatdosh shakllari bilan ifodalansa, **fe’lli birikma** hosil bo‘ladi. Fe’lli birikmalarda tobe bo‘lak turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi va semantik jihatdan o‘ziga xos ma’noviy munosabatlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Chunonchi,

[ot + ravishdosh] birikuvidagi so‘z birikmalari tobe bo‘lak semantikasi bilan bog‘liq ravishda harakat yoki holatning o‘rnini yoki paytini ifodalaydi: *maktabdan kelib, uydan uzoqlashib, yozga yetib, qishga qoldirib* каби.

[ravishdosh + sifatdosh] – *shoshib gapirgan, tinmay ishlayotgan, o‘qigani kelgan* каби nutqiy hosilalarda harakatning holati, maqsadi каби ma’nolar seziladi. Rus tilida fe’lli birikmalarda hokim so‘z oldin, tobe so‘z keyin qo‘llanadi: *читать лёжка, услышав о приезде, идти работать* каби.

So‘z birikmalarini lison ~ nutq aspektida tekshirish natijalari ularning yana bir qirrasiga e’tibor qaratishni taqozo qiladi. So‘z birikmalarining har bir ko‘rinishda birikma tarkibidagi tobe bo‘lak hamda hokim bo‘lakning **ma’noviy, shakliy va joylashuv** kabi birikuvchanlik turlarining moslashuvini kuzatish mumkin. Bu har uchala qobiliyat sintaktik aloqani ta’minlovchi omillardir. Ularning har birini alohida ko‘rib o‘tqamiz.

Ma’noviy omil deganda quyidagilar tushuniladi:

- 1) so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari;
- 2) so‘zlarning kategorial, ya’ni so‘z turkumlariga xos ma’nolari.

So‘z birikmalarining lisoniy sintaktik qoliplarini aniqlashda ma’noviy omilning ikkinchi jihatni, ya’ni so‘z turkumlariga xos ma’nolari muhimdir. Bu mustaqil so‘z turkumlari doirasida predmetlik, belgi, miqdor, harakat, holat, tasviriylik, ta’sirchanlik, ishoraviylik kabi turkumiylar ma’nolarni qamrab oladi. Chunonchi, *divanda yotmoq, so‘rida o‘tirmoq* so‘z birikmalarida *divan, so‘ri* so‘zlari joy nomini atab keladi, ayni paytda bu so‘zlarda predmetlik ma’nosi ham bor; *yotmoq, o‘tirmoq* so‘zlarida esa fe’lning o‘timsizlik (holat) ma’nosi mavjud. Bu holat so‘z birikmalarida ma’noviy omil sifatida baholanadi.

Shakliy omil deganda so‘zlarni sintaktik aloqaga kiritish uchun xizmat qiladigan, sintaktik kategoriylar sifatida tanilgan qatorlar (kelishik, egalik, nisbat, sifatdosh, ravishdosh)ning grammatik shakllari tushuniladi. So‘z birikmalarida sintaktik aloqa ikki yoqlama ekanligi tilshunos olima Saida Nazarovaning ilmiy tadqiqotida isbotlab berilgan. Shunga ko‘ra, ya’ni [SB]=[TB] ↔ [HB] ekanligiga ko‘ra shakliy omillar «tobega xoslar» va «hokimga xoslar»ga ajratiladi. Gap doirasida kelishik, sifatdosh, ravishdoshlar «tobe»ga xos, egalik, nisbat, shaxs-son ko‘rsatkichlari «hokim»ga xosdir. Chunonchi, *ukamning kitobi, o‘qigan bola, zavqlanib gapirish...*

Shakliy omil so‘z birikmalari tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro birikmalarini sintaktik munosabat hosil qiluvchi qo‘sishimchalar, yordamchi so‘zlar so‘zning muayyan turkumga mansubligi asosida ta’minlaydi. Demak, shakliy omil ma’noviy omil bilan mushtaraklik hosil qiladi.

Joylashuv omili deganda so‘z birikmalari tarkibidagi so‘zlarning erkin joylashuvi hamda jipslashuv holatidagi joylashuvini nazarda tutamiz. Turkiy tillarda tobe bo‘lak va hokim bo‘lakning me’yoriy tartibi qat’iy bo‘lib, tobe bo‘lak oldinda hokim bo‘lak keyinda keladi. Erkin joylashuvda tobe va hokim bo‘laklarni bir-biridan «uzish», ajratish, ular orasiga boshqa bo‘laklarni kiritish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Masalan, *shahrimizning ko‘chalari – shahrimizning obod va ko‘rkam ko‘chalari; kitobni o‘qimoq – kitobni berilib o‘qimoq*. Erkin joylashuvda so‘z birikmasining tarkibi nafaqat bir-biridan «uzilishi», balki teskari joylashtirilishi ham mumkin. Chunonchi, *mening yurtim – yurtim mening;*

Ey muqaddas gul diyorum, gulshanim, jonim mening,

Men sening bag‘ringda o‘sdim, yo‘qdir armonim mening. (Uyg‘un)

Jipslashuv deganda tobe bo‘lak hamda hokim bo‘lakni bir-biridan «uzish» mumkin emasligi nazarda tutiladi. *Oltin baldoq*, «Diyonat», *romani katta tanaffuz, beshta ishchi* kabi so‘z birikmalarida joylashuv omilining jipslashuv ko‘rinishi mavjud. Demak, har qanday so‘z birikmasi so‘zda mavjud imkoniyatlarning voqelanish shakli, ya’ni ma’noviy + shakliy + joylashuv omillarining o‘zaro muvofiqlashuvi natijasi hamdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan birikish omillari o‘zaro teng huquqqa ega, biroq ular bir vaqtning o‘zida baravar yuzaga chiqa olmaydi. Negaki, so‘zlarning birikishini belgilovchi yetakchi omil boshqalarining to‘la voqelanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ammo hech vaqt birorta omil nolga ham teng bo‘lmaydi.

Nutqiy bosqichda so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning o‘zaro birikish usullari sifatida boshqaruv, moslashuv, bitishuv ham ajratiladi. Bular, asosan, nutqimizda ishlataladigan son-sanoqsiz so‘z birikmalarining zohiriyligi jihatlarini kuzatish asosida yuzaga kelgan desak, xato qilmaymiz. Boshqaruv, moslashuv, bitishuv usullari bilan tanishamiz.

Boshqaruv. Bunda sintaktik aloqaga kirishayotgan muayyan so‘z boshqa shunday bir so‘zning ma’lum shaklga kirishini talab etadi. Boshqaruvda hokim bo‘lakning talabiga ko‘ra tobe bo‘lak tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi shakllarini qabul qiladi yoki so‘z

ko‘makchilar bilan birga keladi. Ba’zan tobe bo‘lakning tarkibida ham grammatic shakl (kelishik qo‘shimchasi), ham ko‘makchi qo‘llaniladi. Shu xususiyatiga qarab, boshqaruv hodisasini uch turga ajratish mumkin:

- 1) kelishikli boshqaruv: *onani ardoqlash, shahardan ketish*;
- 2) ko‘makchili boshqaruv: *kun bo‘yi ishlash,adolat uchun kurash*;
- 3) kelishikli-ko‘makchili boshqaruv: *uyga tomon yurish, otdan ko‘ra balandroq*.

Tobe bo‘lakning qanday shaklda bo‘lishi hokim bo‘lakning leksik-sintaktik xususiyatiga bog‘liq. Ayni paytda hokim bo‘lakning tanlanishi ham tobe bo‘lakning shakliga, semantikasiga bog‘liqdir.

Moslashuv. Bunday bog‘lanishda ikki yoki undan ortiq so‘z yoki tobe hamda hokim bo‘laklar bir-biri bilan grammatic-semantik jihatdan muvofiqlashadi, bir-biriga moslashadi. Bunda biror belgi, harakat, xususiyat, narsa-buyum qaysi predmetga oidligi, aloqadorligi ko‘rsatiladi. Chunonchi, *gulning hidj, motor qizishi, o‘z bolasi; наши современники, короче говоря, воля судьба* kabi.

Bitishuv. Bu usuldagi bog‘lanishda tobe bo‘lak hamda hokim bo‘lak hech qanday formal belgilarsiz munosabatga kirishadi. Bitishuvda hokim bo‘lakning shakli o‘zgarsa-da, tobe bo‘lak o‘z formasini o‘zgartirmaydi. Bunday so‘z birikmalarida tobe hamda hokim bo‘laklar odatdagi tartib (jipslashuv) va intonasiya bilan xarakterlanadi: *moviy osmon, chiroyli sahna, orombaxsh havo, dono chol*. Bitishuvli birikmalarda hokim bo‘lak, odatda, ot so‘z turkumiga yoki fe’lga mansub bo‘ladi. Hokim bo‘lak ot bilan ifodalansa, atributiv birikma hosil bo‘ladi: *chiroyli qomat, uzun soch, yorug‘xona* kabi.

Hokim bo‘lak fe’l bo‘lganda, relyativ (holli) birikma yuzaga keladi: *yugurib chiqmoq, sekin gapirmoq, tez charchamoq ...*

So‘z birikmalarini tarkibidagi tobe bo‘lak hamda hokim bo‘lakning birikish usullari turli tillarda turlicha ko‘rinishlarga ega bo‘ladi, ya’ni ular bir-biriga ko‘pincha mos kelavermaydi. Chunonchi, turkiy tillarda [sifat + ot], [olmosh + ot], [son + ot], [sifatdosh + ot] birikuvlari bitishuv munosabatini bildirsa, xuddi shu birikuvlardan rus tilida moslashuvni

ifodalaydi. Qiyoslang: *katta bino, beshta daftar, bu odam, o'qiyotgan bola; большой дом, вторая книга, пятый курс, читающий человек.*

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: so'z birikmalari sintaksisga aloqador bo'lib, nutq jarayonida so'zlarni o'zaro tobe-hokimlik aloqalariga kiritib, atov birliklari hosil qilish yo'llaridir. Lisoniy sintaktik qoliplarda xuddi mana shu narsa o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, o'zbek tili uchun so'z birikmalari cheksiz turlarining umumiyligi qolipi [T-H], ya'ni [tobe + hokim] sifatida beriladi. Demak, [T-H] qolipi o'zbek nutqida qo'llanila oladigan milliard-milliard mayyan so'z birikmalarining oliy, eng yuqori darajadagi umumiyligi qolipidir. Avval eslatib o'tganimizdek, o'zbek tilida so'z birikmalarining 18 ta ustivor qolipi olima S.Nazarova tomonidan aniqlangan. Ularning ba'zilari bilan tanishamiz.

1. $[I^{q.k} \sim I^{e.q}] = SB$, ya'ni [*«qaratuvchi - qaralmish»*] qolipi. U [Ism qaratqich kelishigi \sim Ism egalik qo'shimchasi = So'z birikmasi] tarzida o'qiladi. Ushbu qolipning $[I^{q.k}]$ tarkibiy qismini olib ko'raylik. Bu tarkibiy qism ism so'zlar turkumiga mansub bo'lishi zarur (ya'ni boshqa kelishiklarga yoki tuslanish shakllariga mansub emas), shuningdek, umumiyligi qolipning $[I^{e.q}]$ bilan ifodalangan qismiga tobelanib kelishi, uning bilan birgalikda lisoniy *«qaratuvchi-qaralmish»* munosabatlariga ega bo'lishi zarur. $[I^{q.k} \sim I^{e.q}]$ qolipi yuz minglab so'z birikmalarida takrorlanib turadigan, moddiylikdan ajratib olingan umumiyligidir. *Kitobning varag'i, gulning ifori, qizning ovozi, mening fikrim, she'riyat sehri, sizning tuhfangiz, mashinaning g'ildiragi, insoniyatning istagi* kabi son-sanoqsiz so'z birikmalari yuqoirdagi qolipning hosilalaridir.

2. *Pomir tog'i, go'sht do'koni, Buxoro shahri, Toshkent viloyati* kabi birikuvlari $[O^{b.k} \sim O^{e.q.}] = SB$, ya'ni [*ot bosh kelishik \sim ot egalik q.*] qolipining hosilalari hisoblanadi. Eslatib o'tish zarurki, yuqoridagilar umumiyligi qoliqlar bo'lib, ularning har biri o'z ichki xususiy qoliqlariga ham egadir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Serqirralik tushunchasini izohlang.

2. So‘z va so‘z birikmasining umumiyligi va farqli jihatlarini misollar asosida qiyoslang.
3. «Oqli birikma» va «fe’lli birkma» tushunchalarini qanday izohlaysiz?
4. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda uchrovchi «ravishli birikma» atamasiga munosabatingizni bildiring.
5. Tobe bo‘lak hamda hokim bo‘lakni biriktiruvchi omillar haqida ma’lumot bering.
6. Nutqiy bosqichda so‘zlarning o‘zaro birikish usullari - boshqaruv, moslashuv va bitishuvni misollar asosida tushuntiring.
7. So‘z birikmasining umumiyligi lisoniy sintaktik qolipi haqida ma’lumot bering.
8. [I ^{o‘xshatish} ~ F] = SB, [I ^{kelishik qo‘shimchasi} ~ F]=SB qoliplaridan chiqadigan hosilalarni yozing.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [10; 15; 16; 19; 20; 21; 23; 26; 46]

GAP HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

Reja:

1. Gap – fikr ifodalash vositasi.
2. Gap muomalaning eng muhim birligi sifatida.
3. Gapning lisoniy sintaktik qoliplari [GLSQ].
4. Gapning asosiy belgilari.
5. Gap kengaytiruvchilarini va so‘z kengaytiruvchilarini haqida.
6. Sodda gap va qo‘shma gap, uning turlari.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Gap va hukm, nutqiy bosqichdagi gap ta’riflari, lisoniy bosqichda gap, zohiriy va lisoniy qoliplar, shakllangan kesim, atov birligi, kesimlik qo‘shimchalari, gap lisoniy sintaktik qolipining shakliy va mazmun tomoni, gap va ohang, gap kengaytiruvchilarini (ega, hol), so‘z kengaytiruvchilarini (to‘ldiruvchi, aniqlovchi), grammatik asos, qo‘shma gap va uning turlari (qoliplari), qo‘shma gap va uyushiq kesimli sodda gaplar, qo‘shma gap va uyushgan gaplar

Nutq faoliyati uchun eng asosiy birlik gapdir. Chunki ijtimoiy hayotda so‘zlovchining fikr ifodalashi, axborot uzatishi, tinglovchining axborot qabul qilishi, ya’ni kishilarning o‘zaro fikr almashuvi so‘z yoki so‘z birikmasi orqali emas, balki gap orqali amalga oshadi. «Til ~ nutq ~ nutq qobiliyati»dan asosiy maqsad gap tuza olish va uni bayon etishdan iborat. Inson tilida nimaiki bo‘lsa, barcha-barchasi gapni turfa shakl va mazmunda qurish uchun xizmat qiladi. Zeroki, gap ma’lum fikrni, hukmni ifodalaydi. Fikrning manbayi esa real borliq yoki tuyg‘u-hissiyotlardir. Masalan, *Daraxt gulladi* gapini olaylik. Ushbu gap bizning ongimizda ikki tasavvur – predmet (*daraxt* haqidagi tasavvur) va uning holati (*gullamoq* haqidagi tasavvur)ni jonlantiradi va o‘zaro yaqin ikki tasavvurning qo‘shilishidan hukm (fikr) yuzaga keladi. Hukm esa gap orqali ifodalanadi. Tildan maqsad – gap qura olish, gapdan maqsad esa fikr ifodalashdir. Shu o‘rinda til bilan tafakkurning chambarchas bog‘liqligini eslashning o‘zi kifoya.

Gap har bir til sistemasida kommunikativ mohiyatga molik bo‘lgan eng asosiy birlik bo‘lib, o‘ziga xos tuzilishga ega. Til o‘zining kommunikativ funksiyasi (jamiyatda aloqa vositasi vazifasi)ni faqat gap orqaligina bajaradi. Tilning asosiy vazifalaridan yana biri psixik (ruhiy) funksiyasi bo‘lib, fikrni shakllantirishga xizmat qiladi va bu vazifa ham gap orqali yuzaga chiqadi. Demak, gapda ham ijtimoiy, ham ruhiy maqsad bo‘ladi. Shuning uchun tilning barcha sathlari – fonologiya, fonetika, leksika, semantika, morfologiya, sintaksis, stilistika – bitta maqsadga gapni shakllantirishga va aloqani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Gapning tabiatи, mohiyati, uning konstruktiv-grammatik belgilari, gapning so‘z, so‘z birikmasi va turg‘un birikmalardan farqi kabi masalalar har bir tilning grammatikasida o‘rganilishi bilan birga jahon umumiyligi tilshunosligi uchun ham g‘oyat muhim masalalardandir. Tilshunoslik tarixida bu masalalar turlicha talqin etilgan bo‘lib, hozirgacha gapga uch yuzdan ortiqroq ta’rif berilgan. Chunonchi:

«Nutqning shu tilning grammatik qonun-qoidalariga mos ravishda to‘la shakllantirilgan birligi gapdir» (rus tilshunos olimi V.V. Vinogradov). «Gap – nutqning tugallangan fikr ifodalaydigan bo‘lagi» (o‘zbek tilshunos olimi

A.G‘ulomov). Har ikkala ta’rif ham bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hosila xossalariiga tayanadi. Nutq birliklari xususiyliklar sifatida shu qadar xilma-xilki, ularni oddiy yo‘l bilan bir-biriga qo‘sib umumlashtirish yoki ularga umumiylar ta’rif berish mohiyatga bir tomonlama yondashishni keltirib chiqaradi. Tilni tizim sifatida o‘rganuvchi tilshunoslik gapga nutq birligi sifatida berilgan ta’riflarni rad etadi, shuningdek, gapga lisoniy bosqichda ta’rif berish mumkinligini e’tirof etadi.

Sizga ma’lumki, «lison ~ nutq» aspektida gap nutq birligi, uning qolipi (modeli) til birligi sifatida tan olinadi. Xo‘s, gap qolipi nima o‘zi? Siz lisoniy sintaktik qoliplarning bevosita kuzatishda berilmagan, umumiylilik, mohiyat, zarurat, sabab, imkoniyat ekanligini bilasiz. Lisoniy sintaktik qoliplar o‘z ichida moddiylikka ishorani mujassamlashtirgan bo‘ladi. Gapning lisoniy sintaktik qolipi ham gapning asosiy grammatik va struktur xususiyatlarini o‘z ichiga olgan mavhum chizmadir. Gaplarga xos bo‘lgan zohiriylar (nutqiy) va umumiylar (lisoniy) qoliplar mavjud. Nutqiy qoliplar turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, *Qizim muktabga boryapti* gapining zohiriylarini chizib ko‘raylik.

1-qolip: Ot^{e.q.} + ot^{j.k.} + f^{h.zamon}

2-qolip: ega + hol + kesim.

Nutqda voqelangan gaplarning tuzilishi behad xilma-xil bo‘lgani kabi yuqoridagi nutqiy qoliplar ham nihoyatda turli-tumandir. Biroq gaplar asosida qoliplar tuzish – loyning shakliga qarab g‘isht qolipini yasashdek gap. Bu mantiqan noto‘g‘ridir. Shuni eslatib o‘tish lozimki, hosilalardan qolip kelib chiqmaydi, aksincha, gaplar gapning lisoniy sintaktik qolipidan chiqqan turli-tuman ko‘rinishdagi, ammo umumiylar mohiyatga borib birlashuvchi hosilalardir.

Gapning lisoniy sintaktik qolipi shakl va mazmun tomonlaridan iborat. Uning mazmun tomoni fikr yoki hukm ifodalashidir. Xo‘s, gap lisoniy sintaktik qolipining shakl tomoni nimadan iborat?

O‘zbekcha gaplarning ichki tabiatidan kelib chiqsak, har bir gapda – qaysi so‘z turkumi va uning qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar – shakllangan kesimning takrorlanganligini kuzatamiz. O‘zbekcha gaplarda

kesim hamisha shaxs/son qo'shimchalari bilan keladi. Shaxs/son qo'shimchalari esa egasining shaxsi va soni haqida ma'lumot berib turadi va uni yana alohida gap bo'lagi bilan qaytadan takrorlab o'tirishga hech zarurat qolmaydi. Chunonchi, *O'qidim*; *Yugurdim*; *Kechikdik* kabi ixcham gaplarda (*Men*; *Sen*; *Biz* kabi) egalarni ishlatalishga zarurat yo'q. Gapni «lison ~ nutq» aspektida ilmiy tekshirish natijalariga tayangan holda ayta olamizki, o'zbek tilida umumiyl gap qolipi egasizdir. O'zbek tilida gapning umumiyl qolipi [WPm], ya'ni «atov birligi [W]ga kesimlik qo'shimchalari [Pm] qo'shilgan qurilma» sifatida belgilangan. Demak, gap lisoniy sintaktik qolipining shakliy tomoni [WPm] yoki [AK q = hukm] [Atov birligi+Kesim qo'shimchasi = hukm]ga tengdir.

O'zbekcha gaplar uchun gapning asosi kesim bo'lib, u tasdiq\inkor, zamon, mayl/modallik, shaxs\son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi. Kesim vazifasida kelgan atov birligining nutq talabi va ehtiyojiga ko'ra kengayish qobiliyati, ya'ni gapning zaruriy bo'laklarini o'z atrofida birlashtira olishi kesim vazifasida kelgan so'zning semantik-sintaktik valentligiga bog'liqdir.

[WPm] qolipiga e'tibor bersak, qolipning lug'aviy ma'no ifodalaydigan qismi [W] bilan, kesimlik kategoriyasining ko'rsatkichlari qismi (tasdiq\inkor, ...) [Pm] bilan ifodalanganligini ko'ramiz. Qolipning birinchi qismi sodda tub, sodda yasama, qo'shma, juft so'zlar, ajralmas birikma, ibora bilan ham ifodalanishi mumkin va u yana kengayish imkoniyatiga ham ega. Biroq buning qolipga daxli yo'q. Chunonchi,

Onamni quvontirdim (quvon - [W] -tirdim [Pm]).

Karim kitob sotib oldi (sotib ol - [W] -di [Pm]).

U mayda gaplarga qulog solmaydi (qulog sol - [W] -maydi [Pm]).

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, gapga lisoniy bosqichda shunday ta'rif bera olamiz: **«Atov birliklarining kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari bilan shakllangan ko'rinishi gap deyiladi».**

Yevropa tilshunosligida XVI asrdan buyon gapning lisoniy sintaktik qolipi ikki a'zoli [E-K] (ya'ni «ega+kesim») qurilma sifatida ajratiladi.

Aslida bu qurilma tilshunoslikka mantiqdan ko‘chirilgan bo‘lib, mantiq fanida hukm hamisha ikki a’zoli, ya’ni «subyekt - predikat»dan iboratdir. Bu qurilma [S-P] to‘ppa-to‘g‘ri gap tizimiga ko‘chirildi, gapning egasi «subyekt», kesimi esa «predikat», ya’ni gap «subyekt bilan predkat orasidagi aloqa» deb nomlanadi. Bu fikr ruscha gaplarga ham tegishli bo‘lib, ruscha gaplarning tabiat [E+K] qolipiga uyg‘undir. Chunonchi, *Я пришёл. Идёт снег. Я умею рисовать. Я встаю в семь часов* kabi.

Nutqiy bosqichda gap o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lib, gapning lisoniy sintaktik qolipida shu belgilarga ishora bo‘ladi. Gap, avvalo, sintaktik tugallangan qurilma ekanligi bilan xarakterlanadi, ya’ni gap nisbiy tugallangan fikrni ifodalaydi, tugallangan ohang bilan aytildi. Demak, gapning eng muhim belgilari quyidagilar:

- 1) gap tarkibida kesimlik ko‘rsatkichlari bilan shakllangan kesimning bo‘lishi shartligi;
- 2) gapning grammatik-intonatsion va fikriy jihatdan bir butunlikka, tugallikka ega bo‘lishi.

Gapning grammatik – intonatsion shakllangan, tugallangan bo‘lishi shartligi ohangning nutqiy gapdagi doimiy xarakterli belgilardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Gapning nisbiy tugallangan fikr ifodalashi ohangning tugallanganligiga mos keladi. Og‘zaki nutqda gapning grammatik-fikriy bir butunligini ohang bildirib turadi va uni gap bo‘lmagan nutqiy hodisalar (so‘z, so‘z birikmasi)dan farqlashga yoram beradi. Masalan,

- a) *baqirayotgan bola; bu student* (so‘z birikmalari);
- b) *Baqirayotgan – bola; Bu – student* (gaplar).

Ohang nafaqat gapning tugallanganligini bildiradi, balki gapning turli tiplarini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, *Gullar ... Gullar. Gullar? Gullar! Mehmon keldi. Mehmon keldi?... Mehmon keldi! Mehmon keldi!!!*

Biz yuqorida o‘zbekcha gapning maksimal qolipidan chiqqan son-sanoqsiz hosilalarda shakllangan kesimning takrorlanishini aytib o‘tgan edik. O‘zbek nutqidagi gaplarning tarkibiy qismlarini shakllangan kesimni tashkil etuvchi atov birligi va kesimlik kategoryasi shakllarining valentligi

belgilaydi. Shunday ekan, [WPm] qolipining [W] qismini mazmunan to‘ldirib keluvchi so‘zlarni (so‘z kengaytiruvchilarini) va [Pm] qismi shakllariga bog‘lanuvchi so‘zlar (gap kengaytiruvchilari)ni farqlash lozim.

Gap kengaytiruvchilari gap tarkibida ma’lum bir bo‘lak vazifasida kelayotgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini bilan emas, balki gapning kesimini shakllantiruvchi morfologik vositalarga bog‘lanadi. Ega va hol gap kengaytiruvchilaridir.

Ega gap kesimini shakllantiruvchi [Pm] – kesimlik kategoriyasida mujassamlangan shaxs-son ma’nosini muayyanlashtiradi. Masalan: *Biz xatni o‘qidik* nutqiy hosilasidagi kesimning lug‘aviy qismi bo‘lgan *o‘qi* – fe’lini istagan boshqa so‘z bilan almashtirsak (masalan: *ol-*, *yoz-*, *yubor-*, *yirt-*, *yashir-*, *g‘ijimla-*, *ko‘r-* va h.), biroq [-dik] qismini saqlasak, *Biz ega* vazifasida kelaveradi. [-dik] tarkibidagi shaxs\son qo‘shimchasini, ya’ni [-k] olib tashlasak yoki almashtirsak (masalan, [-ngiz] shakli bilan), *Biz ham o‘zgarishiga to‘g‘ri* keladi.

Tabiiyki, payt holi [Pm] tarkibidagi zamon ma’nosini oydinlashtiradi. Chunonchi, *Salima kecha kelgan edi. Salima bugun kelyapti. Salima ertaga keladi.*

Holning ma’no jihatdan boshqa turlari ot-kesimli gaplar tarkibida kelganda gap kengaytiruvchilari, fe’l-kesimli gaplar tarkibida esa so‘z kengaytiruvchilari bo‘lib keladi.

Ta’kidlaganimizdek, kesim tarkibidagi so‘zning lug‘aviy ma’nosini so‘z kengaytiruvchilari muayyanlashtiradi. Bu siraga to‘ldiruvchi va aniqlovchini kiritish mumkin. So‘z kengaytiruvchilari gap konstruktiv tuzilmasidan o‘rin egallay olmaydi. Gap kengaytiruvchilari esa gapning minimal qoliplaridan o‘rin egallaydi.

Yevropa tilshunosligida, jumladan, rus tilshunosligida gap tarkibi bosh bo‘laklar (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo‘laklar (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol)ga ajratiladi. Xuddi shunday talqinni o‘zbek tiliga oid (1930-1990-yillar oralig‘ida chop etilgan) har bir darslik yoki qo‘llanmada ham uchratish mumkin. Chunki o‘tgan asrning 30-yillarida yangi davr o‘zbek tilshunosligi shakllanish jarayonida yevropa tilshunosligidan,

xususan, rus tilshunosligidan gapning umumiyligi [S-P] qurilishi o‘zbek tili tizimiga ko‘chirildi va o‘sha davr mafkurasiga ko‘ra, asta-sekin darslik, qo‘llanmalarga ommalashdi. O‘zbek tili uchun kesim gapning markazi ekanligini yuqoridagi gap tarkibi bo‘linishini rad etadi.

O‘zbek nutqi uchun gapning «jon», «yuragi» kesimdir. U gapning grammatik asosini tashkil etadi. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda N.Mahmudov, A.Nurmatov, L.Raupova, M.Abuzalova, M.Saidova kabi olim-u olimalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda kesim gapning yadrosi, gapning bevosita tashkil etuvchisi va uning uyushtiruvchisi ekanligi, hattoki, atov gaplarning tarkibi egadan emas, balki kesim tarkibidangina iboratligi isbotlab berildi. Kesimning mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari farqlandi. (Bular haqida til fanining «Sintaksis» bo‘limida to‘laroq ma’lumotga ega bo‘lasiz.)

Gaplar turli tillarda, asosan, quyidagi belgililar asosida tasnif etiladi:

1. Ifoda maqsadiga ko‘ra: darak, so‘roq, buyruq gaplar.
2. Hissiy-ta’siriyligiga ko‘ra: his-hayajonli gaplar va his-hayajonsiz gaplar.
3. Ifoda mazmuniga bo‘lgan munosabatga ko‘ra: tasdiq mazmunli gaplar va inkor mazmunli gaplar.
4. Grammatik asosning miqdoriga ko‘ra: sodda va qo‘shma gaplar.
5. Gaplar grammatik jihatdan shakllanishiga ko‘ra: to‘liq gaplar va to‘liqsiz gaplar.
6. Shuningdek, ushbu tasniflar o‘zbek nutqi uchun xarakterlidir:
7. Gaplar kesimlik kategoriyasi mazmunini ifodalash usuliga mos ravishda: grammatik shakllangan gaplar va semantik-funksional shakllangan gaplar.
8. Gapning lisoniy qurilishida eganing ifodalangan yoki ifodalanmaganligiga ko‘ra: egali gaplar va egasiz gaplar.

E’tiborimizni gapning grammatik asoslar miqdoriga ko‘ra ajratilgan turlarga qarataylik. Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizda, asosan, sodda gapga xos bo‘lgan xususiyatlar tahlil etildi. Sodda gaplarning eng kichik

qurilish qolipi [WPm] ekanligi aniqlandi. Endi diqqatni qo'shma gaplarga jalg etamiz.

Qo'shma gaplar sodda gaplar bilan mustahkam bog'langan, biroq ulardan tuzilishi, uzatilayotgan axborot nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilmadir. Sodda gapda shakllangan kesim bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi, ya'ni qo'shma gap birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatic birikuvidan tashkil topadi. Kesimlarning birdan ortiqligidan tashqari, har bir qo'shma gapda ifodalananayotgan fikr, uzatilayotgan axborot ham birdan ortiq bo'ladi va ular o'zaro zikh munosabatni, sodda gaplararo grammatic butunlikni hamda intonatsion yaxlitlikni taqozo etadi.

Kommunikativ nuqtayi nazardan sodda gap bir fikrni, hukmni ifodalasa, qo'shma gaplarda bu birdan ortiq bo'ladi. Chunonchi, *Oy yoritadi, ammo isitmaydi. Men o'qiymen, yozaman va ishlayman. Брат сказал, что мы завтра поедем на рыбалку. Наступила минута, когда я понял всю эту цену слов. When I same home, I saw that the table was set.*

Shunday qilib, qo'shma gap grammatic jihatdan shakllangan, birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan, sodda gaplarning grammatic, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatlardan yaxlitlangan butunligidir.

Qo'shma gaplarning umumiy lisoniy sintaktik qolipi [WPm] U [WPm] ko'rinishiga egadir. O'zbek tilida qo'shma gaplarning, asosan, uch turi ajratiladi:

1. Teng tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm], [WPm]).
2. Tobe tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm] → [WPm]).
3. Mutanosib tarkibli qo'shma gaplar (qolipi – [WPm] ↔ [WPm]).

Teng tarkibli qo'shma gaplarning mohiyati shundaki, uning tarkibiy qismlari sanalmish sodda gap kesimlarining har biri mustaqil shakllangan bo'lib, ularni osongina alohida sodda gaplarga aylantirib yuborish mumkin. Chunonchi, *Bormang, bormoqchimisiz? Kechasi qalin qor yog'di, biroq havo unchalik sovimadi. Men seni deyman-u, sen kimni deysan?!*

Tobe tarkibli qo'shma gaplarda ikki yoki undan ortiq sodda gaplar shakllangan [Pm] mavjud bo'lsa-da, birinchi sodda gapning markazi mustaqil sodda gap kesimi bo'la olmaydi. U doimo tobe gap markazini shakllantirib, o'z mohiyatini ochishi uchun o'zidan keyin mustaqil kesimli gap bo'linishini talab etadi. Masalan, *Men qo'shiq aytsam, u tinglaydi. Ergash ko'ringan ham edi, bolalar yugurishdi*. Demak, [WPm] → [WPm] qolipidan chiqqan hosilalarda birinchi gap shaklan va mazmunan ikkinchi bir gapga ehtiyoj sezadi, lekin aksincha emas.

Mutanosib tarkibli qo'shma gaplarni tashkil etuvchi sodda gaplar kesimlarining biri ikkinchisini, ikkinchisi esa birinchisini taqozo etadi. Ikkalasining ham kesimi nomustaqlil kesim hisoblanadi. Chunonchi, *Tezroq tong otsa-yu, bog'larni, maysalarni ko'rsam. Agar Salima biznikiga kelsa edi, biz birga borgan bo'lar edik*. [WPm] ↔ [WPm] qolipli qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni mustaqil holda qo'llash mumkin. Biroq ular mustaqil qo'llanganda butunlay boshqa ma'no yuzaga chiqadi.

Qo'shma gaplarning siz o'rta maktabda tanishgan quyidagi tasnifi ham mavjud:

1. Ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
2. Bog'lovchilar yordamida bog'langan qo'shma gaplar;
3. Yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar;
4. Nisbiy so'zlar bilan bog'langan qo'shma gaplar;
5. Kesimlik so'zları bilan bog'langan qo'shma gaplar.

Qo'shma gaplarni uyushiq kesimli sodda gaplardan (*Salima o'tirar, turar va yig'lab chopar edi; Sotuvchi do'kondagi kitoblardan uch-to'rttasini artib, o'qib chiqdi kabi*) hamda sodda va qo'shma gaplar orasidagi «oraliq uchinchi» uyushgan gaplardan (*Bahor kelar, dala ishlari qizib ketar edi kabi*) farqlash lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Gap va hukmning o'zaro bog'liq va farqli jihatlari nimada?
2. Gapning asosiy vazifalari haqida gapiring.
3. Gapga nutqiy va lisoniy bosqichda berilgan ta'riflarni qiyoslang.

4.[WPm] qolipining mohiyatini tushuntiring. Qolipning ikki tomoni deganda nimani tushunasiz?

5.Kesimlik kategoriyasi haqida nimalar bilasiz?

6.Gapga xos asosiy belgilarni misollar asosida tushuntiring.

7.Gap kengaytiruvchilari nima? So‘z kengaytiruvchilari-chi?

8.Gapga xos tasniflarni tillararo chog‘ishtiring.

9.Sodda gapning xarakterli xususiyatlari nimada?

10.Qo‘shma gap va uning turlarini misollar asosida tushuntiring.

11.«Oraliq uchinchi» deganda nimani tushunasiz?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 4; 10; 23; 46]

GAPNING AKTUAL BO‘LINISHI

Reja:

1. Gapning axborot yetkazish vazifasi.
2. Aktual bo‘laklar haqida.
3. Tema-rematik bo‘linish va gapdagi so‘zshakllar tartibi.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

So‘zshakllarning erkinligi va umumiy lisoniy qonuniyatlar, aktuallik masalasi, aktual tuzilma va uning tarkibi, tema va rema, tema-rematik bo‘linish va gapning formal bo‘linishi, mantiqiy-grammatik sath, aktuallashtiruvchi vositalar

Nutq xusuiylik tabiatiga egaligi sababli gapda ishtirok etayotgan so‘zshakllar tartibi bir qadar erkindir. Biroq bu «erkinlik» hech qachon umumiy lisoniy qonuniyatlar doirasidan chetga chiqolmaydi. Nutq qaysi uslubdaligiga ko‘ra, so‘zlovchining maqsadi asosida gap tarkibidagi so‘zshakllar umumiy tartibga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, nutqiy bosqichdagi istalgan gap mazmunan ma’lum voqelikni ifodalash bilan birga, so‘zlovchi axborotni nima maqsadda uzatayotganligini ham bildiradi. Chunonchi, *Salima universitetdan qaytdi* gapida muayyan shaxsning (ya’ni *Salimaning*) universitetdan qaytishi voqeligi xabar qilingan, bu birinchidan. Ikkinchi jihatdan e’tibor qaratsak, gapda

so‘zlovchining tinglovchiga Salimaning qaerdan qaytganligi haqidagi ma’lumotni yetkazish maqsadi ham aks etganligi seziladi. Shunga ko‘ra, ushba gap *Salima qaerdan qaytdi?* so‘rog‘iga javob bo‘la oladi. Agarda shu gapni *Universitetdan Salima qaytdi* shaklida o‘zgartirsak, gapda ifodalangan voqelik mazmuni o‘zgarishsiz qoladi, ya’ni *Salima universitetdan qaytdi – Universitetdan Salima qaytdi* gaplari bir xil. Biroq, ikkinchi gapda so‘zlovchining axborot maqsadi *Universitetdan kim qaytdi?* savoli orqali muayyanlashadi. Birinchi gapda harakatning yo‘nalishi, ikkinchi gapda harakatning bajaruvchisi axborot maqsadini xarakterlaydi. Gapning axborot yetkazish vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi **aktual bo‘linish** deyiladi. Aktual tuzilmaning tarkibiy qismlari aktual bo‘laklar hisoblanadi. Aktual bo‘laklar **gap ifoda asosi** va **ifoda yadrolaridan** iborat bo‘ladi. Gapda ifodalangan fikrning ma’lum qismi, ya’ni ifoda asosi tema (ma’lum demakdir) va noma’lum qismi, ya’ni ifoda yadrosi rema (yangilik demakdir) deb ham yuritiladi. Gapning rema qismi kommunikativ (axborot yetkazish) nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘ladi. Savol har doim remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma’lum bo‘lganligi sababli u so‘roq gap tarkibida aynan takrorlanadi. Quyida ba’zi sodda gaplarning tema-rematik, ya’ni aktual bo‘linishiga diqqat qiling:

tema	rema
Salima	(qayerdan?) universitetdan qaytdi
Universitetdan	(kim?) Salima qaytdi
Bahorda	(nimalar?) gullar ochiladi
Gullar	(qachon?) bahorda ochiladi
Karim	(nimani?) kursini tuzatmadni
Kursini	(kim?) Karim tuzatmadni

Gapning aktual bo‘linishi gapning shakliy bo‘linishiga qarama-qarshi turadi. Agar shakliy (formal) bo‘linishda gap tarkibidagi grammatik element (kesim, hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchi kabi)larga e’tibor qaratilsa, aktual tuzilmada gapning ma’no jihatdan bo‘linishi nazarda tutiladi. Aktual bo‘linishda fikr ma’lumdan noma’lumga qarab boradi. Aktual bo‘linish gapning formal bo‘linishi bilan mos kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, *Ikki dugona olimpiiadada g‘olib bo‘lishdi; Chekish mumkin*

emas gaplarida *ikki dugona* va *chekish* tema bo‘lib kelgan. Har ikkala gapda ham tema gapning egasi bilan muvofiq keladi. *Olimpiadada ikki dugona g‘olib bo‘lishdi; Dunyoni go‘zallik qutqaradi* gaplaridagi *olimpiadada* hamda *dunyoni* so‘zshakllari tema bo‘lib, sintaktik bo‘linishga muvofiq kelmaydi.

Demak, aktual bo‘linish talabi bilan gapda so‘zshakllarning tartibi har xil bo‘ladi. Va u mantiqiy birlik bo‘lgan hukmning bo‘laklanishi (subyekt ~ predikat)ga ham o‘xshaydi. Yuqoridagi xususiyatlar hisobga olingan holda, aktual bo‘linish sathi mantiqiy-grammatik sath deb nomланади.

Aktual bo‘linish lisoniy konstruktiv-sintaktik mohiyat bilan bog‘liq sof nutqiy hodisadir. Gapda so‘zshakllar tartibi aktual bo‘linish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, buning lisoniy sintaktik qurilishga dahli yo‘q.

Aktuallashtiruvchilar qatorida tartibdan tashqari fonetik, leksik va grammatik vositalar ham mavjud. Fonetik aktuallashtiruvchilar sirasiga logik hamda emfatik urg‘uni kiritish mumkin. Logik (mantiq) urg‘usi nutq tempi va pauza bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, gapda nechta so‘zshakl bo‘lsa, shuncha miqdorda so‘z urg‘usi bo‘ladi. Gap tarkibidagi qaysi so‘zshakl mantiqiy urg‘u olsa, o‘sha so‘zshakl rema, gapning qolgan qismi esa tema hisobланади. Emfatik urg‘uda hissiy-ta’siriylit kuchli bo‘lib, unli yoki undoshlar cho‘ziladi, ba’zan so‘zlar takrorланади (*Senga ka-a-atta tort keltirdim; Ko‘zlaring chchchi-royli; Men, men aytaman* kabi). Emfatik urg‘u olgan so‘zshakllar remadir.

Ba’zi gaplar tarkibida yordamchi so‘zlar (masalan, so‘z-yuklamalar) va grammatik shakllar (masalan, affiks-yuklamalar) ham so‘zshakllarning aktuallahishiga yordam beradi. Masalan, *Sarvar ham keldi; Yigitning o‘zigina tushunadi* kabi.

O‘zbek tilidagi atov gaplar, to‘liqsiz gaplarning ba’zi ko‘rinishlari tema-rematik bo‘linishga ega bo‘lmaydi va ular kommunikativ bo‘linmas gaplar hisobланади. *Bahor! Oppoq qor... Rahmat. Ha, mayli* kabilar shular jumlasidandir.

Gapning aktual bo‘linishini rus, ingliz, nemis, fransuz kabi tillarda ham kuzatish mumkin. Odatda, bu tillarda tema-rematik bo‘linish gapning formal bo‘linishi bilan mos kelmaydi. Masalan,

rus tilida	
Tema	rema
<i>Смех</i>	<i>побеждает грусть.</i>
<i>Грусть</i>	<i>побеждает смех.</i>
<i>Моё любимое дерево –</i>	<i>берёза.</i>
<i>Берёза –</i>	<i>моё любимое дерево.</i>
<i>Поезд</i>	<i>подходит к вокзалу.</i>
<i>К вокзалу</i>	<i>подходит поезд.</i>

Keltirilgan misollarda, jumladan, birinchi gapda tema bo‘lib kelgan *смех* so‘zi именетельный падеж ko‘rinishida, rema – *грусть* so‘zi esa винительный падеж shaklini olgan. Axborot maqsadi deyarli o‘zgarmagan *Грусть побеждает смех* gapida esa, tema (*грусть*) именетельный падеж, rema (*смех*) винительный падеж shakliga ega bo‘lgan va h.

Ingliz tilidagi ushbu misolga diqqat qilaylik:

1. *The ball hit the boy (Koptok bolani yiqitdi)* - *The ball* (tema) – *hit the boy* (rema).

2. *The boy hit the ball (Bola koptokni yiqitdi (qo‘lidan tushurdi degan ma’noda)* – *The boy* (tema) – *hit the ball* (rema).

Birinchi gapda *the ball* ega vazifasida kelgan bo‘lsa, ikkinchi gapda to‘ldiruvchi vazifasini o‘tayapti, demak yuqoridagi gaplarda tema-rematik bo‘linish shakliy bo‘linishga mos kelmagan.

Nemis tilida: *Die Frau sah das Madchen (Ayol kishi qizni ko‘rdi)* – *Das Madchen sah die Frau (Qiz ayolni ko‘rdi)*.

Tema	rema
<i>Die Frau</i>	<i>sah das Madchen</i>
<i>Das Madchen</i>	<i>sah die Frau</i>

Anglatilayotgan fikr xarakteriga qarab bir gap turlicha aktual bo‘linishi mumkin: *Karim / musobaqada g‘olib chiqdi* – *Karim musobaqada / g‘olib chiqdi* kabi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. So‘zshakllarning «erkinligi» deganda nimani tushunasiz?
2. Gapning aktual bo‘linishi nimani ifodalaydi?
3. Aktual tuzilmaning tarkibi: tema-rema haqida ma’lumot bering.
4. Tema-rematik bo‘lish hodisasi barcha tillarga xos hodisami?
5. Xalq maqollaridan 10 tasini tanlab oling va ularning tarkibini tema hamda remalarga ajrating.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 17; 47]

TILNING PAYDO BO‘LISHI

Reja:

1. Til qanday paydo bo‘lgan?
2. Tilning paydo bo‘lishida biologik va ijtimoiy aspekt.
3. Tilning paydo bo‘lishi haqidagi turli nazariyalar, ularning talqini va ilmiy asosi.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Tilning kelib chiqish muammosi, “til~ong~jamiyat” mushtarakligi, avstralopiteklar davri, paleantroplar davri, hozirgi zamon kishilar bosqichi, biologik aspekt, ijtimoiy aspekt, ovozga taqlid nazariyasi, undov nazariyasi, mehnat qiyqiriqlari nazariyasi, imo-ishoralar nazariyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, dialektik materializm qarashlari, ilmiy farazlar

Til qanday paydo bo‘lgan, degan savolning javobi qadim zamonlardan beri insoniyatni qiziqtirib keladi. Bu jumboqning yechimi juda murakkab bo‘lib, uni inson nutqining paydo bo‘lishi masalasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Yuqoridagi savol faqat tilshunoslik fanigagina tegishli bo‘lib qolmay, bu muammo antropologiya, psixologiya, etnografiya kabi o‘nlab fanlarning ham o‘rganish obyektidir. Hozirgacha yer yuzida umuman bashariyatga xos bo‘lgan tilning qachon, qanday paydo bo‘lganligi, dastlabki tillardagi so‘zlar, uning leksik, sintaktik, morfologik, semasiologik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi hal qilingan emas va

hal etilishi mumkin ham emas. Tilning paydo bo‘lishi bilan ayrim aniq tillarning yoki til oilalarining paydo bo‘lishi masalalarini aralashtirmaslik lozim. Hozir yer yuzida mavjud bo‘lgan millat, elatlarga tegishli jonli tillarning, ba’zi bir o‘lik tillarning ham kelib chiqish tarixi o‘rganilgan, o‘rganilmoqda. Bu u qadar qiyin masala emas. Chunki ba’zi bir muayyan tillar va shi tillarga qardosh bo‘lgan tillar turli davrlarda, har xil shart – sharoitlarda, bilvosita va bevosita sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan.

“Til~nutq~nutq sharoiti” aspektida olib borilgan uzoq yillik tadqiqotlar samarasiga tayangan holda komil ishonch bilan ayta olamizki, tilning paydo bo‘lishi ong va jamiyatning paydo bo‘lishi bilan, qolaversa, yer yuzida inson zotining paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy gepoteza(taxmin)lar odamning paydo bo‘lish evolyutsiyasi va jamiyatning shakllanishini uch bosqichga bo‘lib ko‘rsatadi:

1. Yuqori darajada taraqqiy etgan avstralopiteklar davri. Bu bosqichda ilk ibridoiy odamlar ikki oyoqlab yurishga o‘tib, tayoq, tosh, suyak parchalaridan qurol sifatida foydalanganlar. Bu bizdan ikki – uch million yil oldingi davrga to‘g‘ri keladi.

2. Paleantroplar bosqichi. Bu davrda paleantroplar, ya’ni eng qadimgi odamlar sun’iy quollar, turar joy tayyorlaganlar, yirik hayvonlarni jamoa bo‘lib ov qilish bilan shugullanganlar. Bu bizdan taxminan bir million yillar oldingi davrga to‘g‘ri keladi.

3. Hozirgi zamon kishilari bosqichi. Ilmiy taxminlar bu davr 40-50 ming yillar oldin paydo bo‘la boshlaganligini ko‘rsatadi. Chamasi, bir million yillar avvalgi eng qadimgi odamlar uzoq va murakkab jarayon davomida insonga xos biologik hamda sotsial xususiyatlarga ega bo‘la boshlaydilar. Aniq nutq ularga hayvonot dunyosidan ajralish, jamiyat bo‘lib uyushish, uyushgan holatda mehnat qilish hamda tafakkurning rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

Tilning paydo bo‘lishi uchun faqat biologik zaminlargina emas, jamiyatning paydo bo‘lishi ham nihoyatda zarur edi. Antropologiya (odam hamda irqning kelib chiqishini o‘rganuvchi fan), arxeologiya (tarixiy dalillar va madaniy yodgorliklar asosida odamning o‘tmish tarixini

o‘rganuvchi fan) fanlarning uzoq davrlardan beri olib borayotgan tekshirishlari, ilmiy izlanishlari natijasida kishilik tarixi ikki davrdan iborat degan fikrga kelingan. Bular – tarixgacha bo‘lgan davr va tarixiy davr. Tarixgacha kishilarning ibtidoiy jamoa bo‘lib yashashi ya’ni kishilik jamiyatining shakllanish, tiklanish, uyushish davridir.

Ibtidoiy kishilar jamoasi sotsial-biologik organizm bo‘lgan. Ularda instinkтив mehnat qobiliyati rivojlangan bo‘lib, asosan, tabiatdagi tayyor narsalardan foydalanganlar. Instinkтив mehnat ong va tilning paydo bo‘lishi uchun shart – sharoit yaratgan. Olimlarning faraz qilishicha, mehnat, ibtidoiy mehnat qurollarini yasash inson tana a’zolarini asta – sekin, juda uzoq muddatli tabiiy jarayonda takomillashtirib, til va tafakkurning rivoj topishida beqiyos rol o‘ynagan. Albatta, dastlab paydo bo‘lgan til va nutqni bizning tilimizga yoki nutqimizga aslo tenglashtirib bo‘lmaydi. Ehtimol, dastlabki tilda har biri alohida narsani, harakatni yoki holatni bildiradigan so‘zlar bo‘lmagandir; o‘sha davrdagi tilga xos so‘zlar butun boshli voqeа - hodisani ifodalagandir. O‘sha davrda insonning tovush chiqaradigan a’zolari hozirgidek takomillashmagani uchun nutqda dastlab paydo bo‘lgan so‘zlarning talaffuzi aniq bo‘lmagan. Demak, mehnat qilish, mehnat qurollarini yasash jarayonida odamlar jamoasi borgan sari uyushib boradi, natijada kishilik jamiyatining ilk ko‘rinishlari vujudga keladi. Hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan odamlarda jamoa bo‘lib mehnat qilish jarayonida bir – birlariga nimadir deyish ehtiyoji tug‘iladi. Ana shu zaruriy ehtiyoj tilning yaralishiga sabab bo‘ladi. Til bilan bir paytda tafakkur ham paydo bo‘ladi. Demak, uch omil –“mehnat~til~tafakkur” bir – biriga ta’sir etib, ularning rivoj topishiga sabab bo‘lgan. Ijtimoiy mehnat natijasida nihoyatda katta (kuchli) zaruriy ehtiyoj talabi bilan til nutq a’zosi sifatida va miyaning asta – sekin takomillasha borishi biologik jihatdan xarakterlansa, til va tafakkurning paydo bo‘lishi, tasavvurning, fikrning nutqda voqelana olishi ijtimoiylik, ya’ni kishilik jamiyati bilan uzviy bog‘liqdir.

Inson tovush tili tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqdi. Tovush tili esa tafakkursiz mavjud bo‘la olmaydi. Ma’lumki, tafakkurda bor narsa

tilda aks etadi, tilda bori esa nutqda voqelanadi. Ayni paytda miyada paydo bo‘ladigan har qanday oddiy tushuncha ham til orqali nutqqa ko‘chmas ekan, ya’ni nutq tovushlari, so‘zlar orqali ifodalanmas ekan, bunday tushuncha o‘zicha hech kimga, hatto fikr qiluvchining o‘ziga ham ma’lum bo‘lmaydi. Qisqasi, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til mavjud emas.

Ko‘rinadiki, ilmiy taxminlarga ko‘ra, tilning paydo bo‘lishi, bir tomondan, kishilik tanasining evolyutsiyasi bilan, ikkinchi tomondan, ibtidoiy jamoaning jamiyatga aylanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Hozirgacha tilning paydo bo‘lishi haqida turli nazariyalar yaratilgan. Har bir nazariyada bu masalaga turlicha yondashiladi. Quyida ularning ba’zilari bilan tanishamiz.

Ovozga taqlid nazariyasi. Bu nazariya qadimgi yunon olimlari Demokrit va Platonlar davrida paydo bo‘lib, XX asrgacha yashab keldi. Ovozga taqlid nazariyasi talqiniga ko‘ra, yer yuzida paydo bo‘lgan dastlabki odamlar ongli ongsiz ravishda tevarak-atrofdagi turli – tuman predmetlarning tovushlariga, chunonchi, yirtqich hayvonlarning o‘kirishi, qushlarning sayrashi, tezoqar suvning shildirashi, shamolning uvillashi kabilarga taqlid qilish natijasida nutq paydo bo‘lgan. Masalan, *sharshara*, *qarg‘a*, *kaklik*, *chirillamoq*, *shildiramoq*, *g‘urillamoq*; rus tilida: *шунем, шипение, гаекам, кукушка* kabi. Agar tillardagi, jumladan, o‘zbek yoki rus tilidagi so‘zlar faqat taqlidlardan, to‘g‘rirog‘i, tovushga taqlidlardan iborat emasligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu nazariyaning u darajada asosli emasligini sezamiz. Va yana aytish mumkinki, tabiatda tovush chiqaradigan predmetlar soni tovush chiqarmaydigan narsalar soniga qaraganda kamroq. Tovushsiz narsalarning (tuproq, tog‘, quyosh, osmon, g‘or, qor kabi) nomi qaerdan paydo bo‘lgan-u, til va tafakkursiz nutq qanday yuzaga kelgan? XX asrning 90-yillarda – Avstraliya va Janubiy Amerikada topilgan, ibtidoiy formatsiyani boshidan kechirayotgan qabilalarda – o‘tkazilayotgan tajribalarning ko‘rsatishicha, bu tillarda tovushlarga taqlid asosida paydo bo‘lgan so‘zlar miqdori nihoyatda oz. Bundan tashqari, tabiatdagi tovushlarga taqlid qilish uchun insonda nihoyatda rivojlangan nutq organi bo‘lishi ham zarur.

Demak, ovozga taqlid nazariyasi tafakkur va tilning chambarchas bog‘liqligini inobatga olmaydi, til va nutqni farqlamaydi, tilning paydo bo‘lishidagi ijtimoiy zaruratni e’tibordan chetda qoldiradi. Bu nazariya tilning paydo bo‘lishi masalasini hal etmaydi.

Undov nazariyasi. Bu nazariya tilning paydo bo‘lish masalasini boshqacha talqin etadi. Ushbu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so‘zlar kishilarning his -tuyg‘ulari, qahr-g‘azablari, hayajonlari ta’sirida ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo‘lgan, deb da’vo qiladilar. Bunday so‘zlarga *oh* (*ohlamoq*), *uff* (*ufflamoq*), *voy* (*voyvoylamoq*), *dod* (*dodlamoq*) kabilarni misol keltiradilar va tildagi boshqa so‘zlar esa ana shu kabi so‘zlarning kombinatsiyalaridan kelib chiqqan, deb hisoblaydilar. XVIII asrda yashagan fransuz olimi Jan Jak Russo ham shu nazariya tarafdorlaridan biri bo‘lgan. Madomiki, tildagi barcha so‘zlar haqiqatan ham shu nazariya tarafdorlari aytganidek yaratilgan bo‘lsa, tildagi emotsiyalardan yiroq ming – minglab predmetlarning nomi qanday paydo bo‘lgan? Tabiiyki, undov nazariyasi tarafdorlari bu kabi savollarga javob berishga ojiz. Undov nazariyasi tilning ijtimoiy xarakterini inobatga olmaydi, ya’ni biologik aspektning birgina jihatiga tayanib inson va kishilik jamiyatining paydo bo‘lishini hisobga olmaydi. Bu g‘ayriilmiy nazariyadir.

Mehnat qiyqiriqlari nazariyasi. Bu nazariya tarafdorlari tildagi barcha so‘zlar ibridoiy kishilarning birgalashib mehnat qilishlari jarayonida mehnat qilishga undaydigan ixtiyorsiz qiyqirishlar natijasida paydo bo‘lgan, deb da’vo qiladilar. Uning asoschisi XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan fransuz faylasufi L.Nuaredir. Nemis olimi Karl Byuxer ham shu nazariyani qo‘llab quvvatlagan. Mehnat qiyqiriqlari nazariyasi undov nazariyasiga o‘xshab ketadi. Biroq bunda qiyqiriq va hayqiriqlar kishilarning mehnati jarayonida yuz beradi. Instinkтив qiyqiriqlar mehnat bilan bog‘liq bo‘lsa-da , u biologik faktordir. Mehnat qilishdagi hayqirishlar mehnat jarayonidagi harakatni bir maromga solish uchun vosita bo‘lgan, xolos. (Bu hozirda ham xuddi shunday.) Ammo hayqiriqlar,

qiyqiriqlar mantiqan hech qachon kishilarning aloqa vositasi bo‘la olgan emas.

Imo-ishoralar nazariyasi. Bu nazariyaning asoschilari nemis olimi Vundt va akademik N.Y.Marr bo‘lib, ularning fikricha, insonlar tovush tili paydo bo‘lgunga qadar bir birlari bilan imo-ishora orqali aloqa qilganlar. Marrning da’vo qilishicha , odamlar yarim million yil davomida “imo-ishora tili” orqali aloqa qilganlar va keyinchalik bu tovush tiliga aylangan. Agar insoniyatning hayvonot dunyosidan ajralib chiqqanligini, qorin to‘yg‘azish maqsadidagina mehnat qilganligini, jamoa bo‘lib mehnat qilish natijasida tilning paydo bo‘lishiga ehtiyoj tug‘ilganligini hisobga olsak, kishilarning muhim aloqa vositasi bo‘lgan tilga imo-ishora juda kichik bir qo‘sishimcha vosita bo‘lganligini anglab yetish qiyin emas. Demak, inson nutqi taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida imo-ishora tili kishilarning o‘zaro aloqa qilishlarida yagona vosita bo‘lgan edi, degan fikr ilmiy jihatdan asosli emas.

XIX asrning ikkinshi yarmida **ijtimoiy kelishuv nazariyasi** ham paydo bo‘ldi. Bu nazariya vakillarining fikricha, narsa- buyum, voqeahodisalarni nomlashda odamlar o‘zaro kelishib olishgan. Bu fikr ijtimoiy kelishuv nazariyasining ham asosi aniq emasligini ko‘rsatib turibdi. Vaholanki, o‘zaro kelishuv vositasi, asosan, tildir. O‘zaro ijtimoiy kelishuv uchun insonda yuqori darajada rivojlangan tafakkur va til bo‘lmog‘i zarur. Bu nazariya tilning paydo bo‘lishini emas, balki til rivojlanishining ba’zi tomonlarinigina ko‘rsatib bera oladi, xolos.

Yuqorida sanab o‘tilgan nazariyalarning hech biri tilning paydo bo‘lishi masalasini inson, tafakkur va jamiyatning paydo bo‘lishi bilan bog‘lab o‘rganmaydi. Shunga ko‘ra, ular tilning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasini to‘g‘ri yoritishga ojizdir. Bu masalaga XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo‘lgan dialektik matearializm asoschilari, yuqoridagilardan farqli o‘laroq, bir qadar to‘g‘ri yondashadilar. Dialektik materializm oqimining namoyandalari nemis olimlari K.Marks va F.Engelslar bo‘lib, ular “Maymunning odamga aylanish protsessida mehnatning roli”, “Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi” kabi

qator asarlarida tilning paydo bo‘lishi muammosiga katta e’tibor qaratganlar. Ularning yozishlaricha, bundan taxminan bir million yillar muqaddam yer yuzida odamsimon maymunlarning juda taraqqiy etgan nasli yashagan. Ular, odatda, yerda yurishgan, oldingi ikki oyoqlari qo‘l vazifasini bajargan. Odamsimon maymunlar oldingi oyoqlari bilan dastlab tabiatdagi tayyor predmetlardan qurol sifatida foydalanganlar va ko‘proq tik yurishni o‘rgana boshlaganlar. Tik yurish asta-sekin ular uchun hayotiy zaruratga aylangan, shu tariqa ozod bo‘lgan qo‘l borgan sari ko‘proq va turli-tuman ishlarni bajarishga moslashgan. Kishilik jamiyatining, til va tafakkurning paydo bo‘lishi mehnat tufayli maymunning odamga aylanishi bilan bog‘liq.

Bu nazariya bir qancha asosli biologik va sotsial faktorlarga tayanib, ilmiy farazlar qiladi. Hozirgi tarix, antropologiya kabi ko‘pgina fanlar odam, jamiyat, til, tafakkur va nutqning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi talqinlarda shu ilmiy farazlardan foydalanadi. Biroq, shuni ham ta’kidlash zarurki, keyingi yuz yillar davomida odamsimon maymunlar ustida olib borilayotgan maxsus tajribalar “odam odamsimon maymunlardan tarqalgan” degan fikrni bir qadar rad etmoqda.

Diniy ta’limotga oid muqaddas kitoblarda esa til insoniyatga olloh tomonidan in’om etilgan ne’matdir, mazmunidagi fikrlar ilgari suriladi. Demak, mazkur muammo mifologik dunyoqarash davrida ham, diniy va ilohiy qarashlar zamirida ham o‘z aksini topgan va o‘ziga xos ravishda o‘z yechimiga ega bo‘lgan ham. Ildizlari eramizdan oldingi uzoq ming yilliklarga borib taqaladigan qadimgi Hind va Chin, Misr va Bobul, Eron va Yunon asotir va rivoyatlarida ham, qo‘sish va ertaklarida ham *tilni buyuk g‘ayritabiyy zot yaratgani va o‘z tobiinlariga marhamat sifatida tuhfa etganligi* haqida hikoya qilinadi. Ibroni, nasroniy va islomiy muqaddas kitoblar ham tilning paydo bo‘lishi haqida o‘z talqinlariga ega. Bu talqinlar izoq yillar davomida Yevropa va Osiyodagi rivojlangan davlatlarning rasmiy-mafkuraviy dunyoqarashi va talqini mavqeida bo‘lgan. Insonning, tabiat va borliqning paydo bo‘lishi xususida diniy qarashlar - barcha diniy talqinlar singari - munozarali, ziddiyatli va “aql

bovar qilmas”dir. Chunki barcha diniy talqinlar “aql bovar qilmas” mo‘jizalar - Ilohiy qudrat bilan tushuntiriladi va dindorlar (iyomonlilar, mo‘minlar) tomonidan munozarasiz, shubhasiz va isbotsiz qabul qilinishi kerak.

Ibroniy va xristian (nasroniy) dunyosida tilning paydo bo‘lishi masalasi “Tavrot”ning “Ibtido” kirobida berilgan bir necha asosiy holat orqali sharhlanadi. “Tavrot”da tilning paydo bo‘lishi, insonga berilishi haqida aniq bir ma’lumot yo‘q - til qobiliyati insonning tirikligi, joni singari uning ajralmas belgisi, sifati deb sanalgan.

Muqaddas “Injil”da so‘z, kalom (yunoncha *logos*) Yaratuvchining o‘g‘li sifatida talqin qilinuvchi Iso (as.) bilan tenglashtiriladi, juda ko‘p holatlarda mazkur kitobdagagi hukm so‘z, kalom haqida boryaptimi yoki Iso Masih (as.) haqidami ajratish qiyin. “Tavrot” va “Injil” kabi muqaddas kitoblarda tilning yaratilishi haqida aniq bir ma’lumot bo‘lmasa-da, nasroniy ilohiyotchilar tilning paydo bo‘lishi haqida cherkov tomonidan ma’qul deb topilgan turli talqinlar ishlab chiqqanlar.

So‘zlarning paydo bo‘lishi haqida islomiy olamning buyuk va muqaddas kitobi – “Qur`oni karim”ning bir necha o‘rinlarida ancha aniq ma’lumotlar bor. Shuni ta’kidlash joizki, “Qur`oni karim”ning qator oyati karimalarida Alloh taolo Odamga tilni, bayonni (fikrni ifodalashni) o‘rgatganligi takror va takror ta’kidlnadi. (Qarang: ”Baqara“ surasi.) “Qur`oni karim”da nozil qilingan ba’zi oyatlar tilning ilohiy, g‘ayritabiyy ravishda yaratilganligini tasdiqlaydi. Islom olami, musulmon tafakkuri tilni Ollohnning o‘zi, odam (Ato)ni va barcha olamni yaratgani kabi sirli va ilohiy tarzda yaratganiga shubha qilmagan.

Xullas, tilning kelib chiqishi tafakkurning paydo bo‘lishi, qolaversa, yer yuzida inson zotining paydo bo‘lishi kabi muammolar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu muammolar insoniyat tarixida uzil-kesil yechimini topgan emas.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, til hayvonot dunyosidan ajralib chiqqan kishilar ibtidoiy jamoasining mehnat jarayonida eng zaruriy ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan. Garchi qadimgi ibtidoiy

jamoa tillarning qachon paydo bo‘lganligi, u tillar qanday til ekanligi, ularning lug‘at tarkibi, grammatic qurilishi nimalardan iboratligini isbotlovchi dalillar bo‘lmasa-da, yozuv paydo bo‘lgandan keyingi, ya’ni bundan 15-20 ming yillar oldin yozib qoldirilgan yodgorliklarga asoslanib, ba’zi tillarning shakllanishi va taraqqiyoti to‘g‘risida mulohaza yuritish mumkin. Bu xususda keyingi mavzularimizda batafsil to‘xtalamiz.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tilning paydo bo‘lishi qanday omillar bilan uzviy bog‘liq?
2. Yer yuzida inson zoti va jamiyatning paydo bo‘lishidagi olimlar qayd etgan uch bosqich haqida ma’lumot bering.
3. “Ijtimoiy mehnat ~ ehtiyoj ~ til ~ tafakkur ~ nutq”ning o‘zaro zich bog‘liqligini isbotlashga harakat qiling.
4. Tilning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar haqida ma’lumot bering.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 9; 10; 30; 36; 39; 69]

TILNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Reja:

1. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi.
2. Sinxroniya va diaxroniya.
3. Tilshunoslik va unga yondosh predmetlarning o‘zaro munosabati.
4. Til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatic o‘zgarishlarni tahlil etishda yozma tarixiy manbalarning ahamiyati.
5. Tildagi qonuniy o‘zgarishlar va nutqiy hodisalar.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Til taraqqiyoti, til hodisalarining o‘zgaruvchanligi, soddalashuv, qayta tuzilish, murakkablashuv, diaxroniya, sinxroniya, tilshunoslik va falsafa, tilshunoslik va mantiq, tilshunoslik va tarix, yozma tarixiy manbalar va til, tilning umumiy qonuniyatları, tilning xususiy qonuniyatları

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarga bir nazar tashlab ko‘raylik. Bular eng mayda zarrachalar va g‘oyat katta yulduz sistemalari, bir hujayrali eng oddiy organizmlar-u yuksak darajadagi tuzilishga ega bo‘lgan

yirik mavjudotlardan iborat. Narsalar, hodisalar katta-kichikligi, shakli, rangi, zichligi, tuzilishining murakkablik darajasi, tarkibiy va boshqa juda ko‘p xossalari, xilma-xilligi hamda utrli-tumanligi bilan bir-biridan farq qilishi bilan birga ular doimo o‘zgarib turadi. Ma’lumki, dunyoda o‘zgarmaydigan narsaning o‘zi yo‘q. Barcha narsa vaqt o‘tishi bilan ma’lum darajada o‘zgaradi, yangilanadi, bir turdan ikkinchi turga o‘tadi... O‘zgarish tabiat-hodisalarigagina emas, tabiiyki, ijtimoiy hodisalarga, shu jumladan, til hodisalariga ham xosdir. Tarixiy taraqqiyot va o‘zgaruvchanlik tilning hamma sathlariga xosdir. Kishilik jamiyat paydo bo‘lgandan buyon til uzoq davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib, boyib borgan. Ayni vaqtida til taraqqiyoti kishilarning turli-tuman tajribalarining takomillashishiga,, bu tajriba-yu bilimlarning avloddan avlodga o‘tishiga ham imkon bergen. Til taraqqiyoti natijasida fan, texnika, madaniyat taraqqiy qilgan, ya’ni kishilik jamiyat rivojlangan.

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi jamiyat hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy hayotda ro‘y bergen o‘zgarishlar tilda aks etadi. Bu o‘zgarishlar hammadan ko‘proq tilning lug‘at boyligida o‘z ifodasini topadi. Yangi narsa-buyum, tushunchalarning paydo bo‘lishi yoki, aksincha, narsa-buyum va tushunchalarning keng iste’moldan chiqib ketishi hammadan avval tilning lug‘at boyligida o‘zgarish bo‘lishiga olib keladi. Chunonchi, Muqimiylar (1850-1903) ning «Navbahor ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar» matlali g‘azalidagi ayrim baytlarga e’tibor qarataylik:

*Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahbob ila
O‘ynashib, gohi tabiatni qilaylik chog‘lar.
Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog‘lar.*

Hozirda Muqimiylar davrida keng qo‘llanilgan *mahfil, ulfatu ahbob, ahli tamiz* kabi juda ko‘p so‘z va so‘z birikmali keng iste’moldan chiqib, eskirgan so‘zlarga aylangan. Muqimiylar yashagan davrda tilimizda *patta, vistavka, gimnaziya, pech* kabi yangi-yangi so‘zlar paydo bo‘lgan bo‘lsa, bu so‘zlarning ko‘pchiligi bizning davrimizga kelib eskirib qoldi. Tilning lug‘at sostavida yangi so‘zlar, iboralar paydo bo‘lishi, ayrim so‘zlarning

semantikasida o‘zgarishlar yuz berishi, ba’zi so‘zlarning eskirib qolishi barcha tillarga xos bo‘lgan umumiyligini qonuniyatlardandir. Chunonchi, o‘tgan asrning boshlari va o‘rtalarida rus tilida paydo bo‘lgan *большевизм*, *меншицизм*, *пролетариат*, *съезд*, *колхоз*, *совхоз* *марксизм*, *ленинизм*, *коммунизм* kabi ko‘plab so‘zlar hozirda eskirib iste’moldan chiqqan. Tilda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar so‘zning tuzilishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi, oqibatda u ham asta-sekin o‘zgarib boradi. So‘z strukturasining o‘zgarishi turli tillarda turli yo‘l bilan yuz beradi. Tilshunoslikda buning asosiy uch usuli qayd etiladi: **soddalashuv**, **qayta bo‘linish** va **murakkablashuv**.

So‘zlarni qo‘shish yo‘li bilan yasalgan qo‘shma so‘zlarning tub so‘zlarga yoki o‘zakka, ko‘p morfemali so‘zning bir morfemali so‘zga o‘tish hodisalari soddalashuv deyiladi. Odatda, soddalashuv hodisasi so‘z o‘z «ichki tuzilish shakli»ni o‘zgartirganda, ya’ni morfemalar orasidagi chegara yo‘qolganda ro‘y beradi. Ilmiy adabiyotlarda soddalashuv hodisaning sodir bo‘lishiga asosan ikkita sabab borligi ko‘rsatiladi:

- 1) u yoki bu morfemaning ma’nosini kuchsizlanishi, asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishi natijasida uning iste’moldan chiqib ketishi;
- 2) o‘zakdosh so‘zlar o‘rtasidagi aloqaning uzilishi.

Birinchi usulga o‘zbek tilidagi *qishloq*, *qovurg‘a*, *yuksak*, *qachon*, *bo‘rsiq* so‘zlari, rus tilidagi *нужный*, *хиjsина*, *кольцо* so‘zlari misol bo‘la oladi. *Qishloq* so‘zi aslida **qish+la** (fe’l yasovchi affiks) + **q** (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *qovurg‘a* so‘zi **qop+ur** (daraja ko‘rsatuvchi affiks) + **g‘a** (ot yasovchi affiks) morfemalaridan; *yuksak* so‘zi **yuk+sa** (fe’l yasovchi affiks) + **k** (sifat yasovchi affiks); *qachon* so‘zi **qay**, **chog‘** va **-in** morfemalaridan hamda *bo‘rsiq* so‘zi esa **bo‘r+si+q** morfemalaridan tashkil topgan. Hozirgi tilshunoslikda bu so‘zlar sodda tub so‘zlar sifatida baholanadi.

Нужный, *хиjsина*, *кольцо* so‘zlarini hozirgi rus tili grammatikasi nuqtai nazaridan yuqoridagi so‘zlar kabi izohlash mumkin. Bir vaqtlar rus tilida *нужса*, *хиjsа*, *коло* so‘zlari bo‘lgan, ana shu so‘zlarga so‘z yasovchi

(**-н**, **-ин**, **-у**) va shakl hosil qiluvchi (**-ый**, **-а**, **-о**) affikslar qo'shilishi natijasida bu so'zlar hosil bo'lgan.

Hozirgi o'zbek tilidagi *qishloq* va *qishki* so'zlari ikkinchi usulga misol bo'la oladi. Etimologik jihatdan har ikkala so'zning ham o'zagi **qish** so'zi bo'lgan. Hozirgi til nuqtai nazaridan ularda hech qanday semantik umumiylig yo'q. Rus tilidagi *жcup* (*yog'*), *жизнь* (*hayot*), *живой* (*tirik*) so'zlari qadimda o'zakdosh so'zlar hisoblangan. Aslida *жcup* so'zi **жи+р** (so'z yasovchi affiks)dan tuzilgan bo'lib, «hayotda orttirilgan» ma'nosini bergen. Tilning tarixiy taraqqiyotida bu so'zlarning morfemalari orasidagi chegara yo'qolgan, ya'ni soddalashuv hodisasi ro'y bergen. Soddalashuv jarayoni ba'zan bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashtirganda ham sodir bo'lishi mumkin. Chunonchi, ingliz tilidan o'zlashgan *futbol*, *valeybol* so'zlari, nemis tilidan o'zlashgan *kurort* so'zi o'zbek tilida tub so'zlar hisoblanadi. Aslida esa o'z holatida bular qo'shma so'zlardir, ya'ni **foot** – oyoq, **ball** – to'p, **volley** – qo'l, **ball** – to'p; **kur** – dam, **ort** – joy kabi. O'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan *navro'z* tub so'zi aslida *nav-yangi*, *ro'z-kun* ikki o'zakdan, *astoydil* tub so'zi «az tagi dil» uch o'zakdan tashkil topgan. Rus tiliga o'zbek tilidan o'zlashgan *карандашъ*, *утюгъ* so'zlari hozirda shu tilda tub so'zlar hisoblansa-da, etimologik jihatdan o'zbek tilida bular «*qora tosh*», «*o't yoq*» shaklidagi qo'shma so'zlar bo'lgan.

So'zdagi morfemalar chegarasining o'zgarishi natijasida yangi affiksal morfemalar paydo bo'lishi ham mumkin. Bunday jarayon so'zning material strukturasidagi *q a y t a b o' l i n i s h* hodisasi deb yuritiladi.

O'zbek tilidagi *bo'lajak*, *ular*, *gulduros* so'zlarida, rus tilidagi *сотовность* so'zida qayta bo'linish hodisasini kuzatish mumkin. Hozirgi kunda bu so'zlar *bo'l+ajak* (sifatdosh shakli affiksi), *u+lar* (ko'plik shakli affiksi), *guldur+os* (sifat yasovchi affiks); *сотов+ность* (so'z yasovchi affiks) shaklida morfemalarga ajratiladi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha, bu so'zlarda quyidagicha qayta bo'linish ro'y bergen:

bo'lajak < *bo'l-a-jak* < *bo'l-ajak*
ular < *ul-ar* < *u-lar*

gulduros < guldur-a-s < guldur-os

готовность < готов-н-ость < готов-ность.

Ba'zi hollarda faqat afiksal morfemalar emas, so'zlar ham qayta bo'linadi. Masalan, rus tilidagi **s** va **k** predloglari uchta tovushdan tashkil topgan: *сън, кън*. Ma'lumki, predloglar yordamchi so'zlardir. Nutqda urg'u olmaydigan predloglar, odatda, olmoshlarga qo'shilib talaffuz etiladi. Vaqt o'tishi bilan bu predloglar quyidagi ko'rinishga ega bo'lган:

сън им < съним < съ ним < с ним;

кън им < къним < къ ним < к ним.

Avval tub deb hisoblangan so'zlarning yasama yoki murakkab so'zlar qatoriga o'tishi m u r a k k a b l a sh u v deyiladi. Bu hodisani boshqa tildan o'zlashgan so'zlarda kuzatishimiz mumkin. Murakkablashuv hodisasi tilda soddalashuv va qayta bo'linish hodisalariga nisbatan kamroq uchraydi. Chunonchi, rus tilidagi *гравюра* (toshga, metallga yoki yog'ochga o'yib ishlangan va bosmaxonada bosilgan rasm) so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, rus tilida *гравёр, гравировать* so'zлари paydo bo'lgandan keyingina uch morfemaga (*граф-юр-а*) ajratiladigan bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligini tilning istalgan sathida kuzatishimiz mumkin. Albatta, bundan yangi so'zlarning hosil bo'lishi masalalari bilan shug'ullanuvchi «So'z yasash» bo'limi ham mustasno emas. Yasalma so'zlarning so'z yasalish strukturasi hamda har bir tilga xos so'z yasash vositalari sistemasi tarixan o'zgaruvchandir. Shunga ko'ra, bu sathda **dioxroniya** va **sinxroniya** aniq farqlanishi lozim. Xo'sh, bu atamalarda qanday ma'no mujassamlashgan? Til taraqqiyotining ma'lum davrida so'zlar qanday hosil bo'lganligini, uning dastlabki holati, so'z yasalishi strukturasida bo'lgan o'zgarishlarni o'rganuvchi soha diaxroniya yoki tarixiy so'z yasalishi deyiladi. Til taraqqiyotining hozirgi bosqichida so'z yasash tizimini sinxroniya yoki hozirgi so'z yasalishi o'rganadi.

Dioxroniya va sinxroniya o'zaro bir-biriga mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Chunonchi, o'zbek tilidagi *xazinachi, suvchi* (Izoh: **-чи** affaksi bilan ot yasalishi turkiy tillarda qadimdan mavjud va u

qadimgi yodgorliklar tilida ham aks etgan. Qarang: Mahmud Qoshg‘ariy. DLT. II том, Т., 1961. 54-бет), *vafosiz, sensiz* (Qarang: A.Navoiy. Muhokamatul lug‘atayn. TA., III том. Т., 1948.) со‘зларда sinxronik со‘з yasalishi strukturasidagi diaxronik со‘з yasalishi strukturasiga mos keladi.

Ammo o‘zbek tilidagi *yumsha, yurak, yuksak* со‘зларining tuzilishi diaxronik aspektida *yum+sha, yur+ak, yuk+sa+k* shakliga ega bo‘lsa-da, sinxronik aspektida bir o‘zak sifatida qaraladi. Chunki sinxronik aspektida ularning *yum, yur, yuk* со‘злари ma’nosini bilan bog‘lanishi sezilmaydi.

Diaxronik va sinxronik со‘з yasalishi o‘zaro dialektik bog‘liqdir. Til taraqqiyotining har bir bosqichida mavjud qoliqlar asosida yangi со‘злар yasalishida yasaluvchi со‘zning boshlang‘ich со‘з yasalishi strukturasi emas, o‘sha davrdagi sinxronik со‘з yasalish strukturasi muhimdir. Chunonchi, hozirda rus tilida eng sermahsul hisoblanadigan **–ник** suffiksi tarixan qayta bo‘linishga uchragan bo‘lib, diaxronik aspekt uning asl shakli **–ик** bo‘lganligini ko‘rsatadi. Demak, *цветник, охотник* со‘зларining sinxronik со‘з yasalish strukturasidagi diaxronik со‘з yasalish strukturasiga mos kelmaydi. Biroq **–ник** suffiksi hozirda yangi со‘злар yasashga xizmat qilmoqda: *градусник, плотник* kabi.

Odatda, har qanday yasalma ikki a’zoli bo‘ladi: asos va formant. Birinchi yasalma bilan semantik bog‘lanishda bo‘lgan qism, ikkinchisi esa farqlovchi qismdir. Masalan, *sinf/dosh* со‘zining semantikasi bilan bog‘liq bo‘lgan qism **sinf** va bu со‘zni farqlovchi qism **-dosh** shaklidir. Yasaluvchi со‘з bilan yasalgan со‘zning ma’nolarida bog‘lanish bo‘lishi sinxronik со‘з yasalishining asosini tashkil etadi.

Ma’lumki, til g‘oyatda murakkab va serqirra hodisadir. Til insonning bevosita kuzatishi va mustaqil ilmiy izlanishlari uchungina mavjud emas. Aslida til insonning nutq faoliyati bilan chambarchas bog‘lanib, со‘zlashish, eshitish, yozish va o‘qish kabi murakkab protsesslarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar faqat tilshunoslikda emas, balki boshqa fanlarda ham o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, inson tili mustaqil obyekt sifatida bir necha fanlarning predmetini tashkil etadi.

Tilshunoslik til bo'yicha tadqiqotlar olib borganda, boshqa fan materialllariga ham suyanadi. Ayni paytda boshqa fanlar ham til materiallaridan foydalanadi. Umuman, tilshunoslik boshqa fanlar bilan uzviy aloqadordir.

Tilni tilshunoslik bilan bir qatorda falsafa, psixologiya, sotsiologiya, mantiq kabi fanlar ham o'rganadi. Tilni o'rganishda ishtirok etadigan har bir fanning tilga nisbatan o'z munosabati bor.

«Tilshunoslikka kirish» kursini chuqur egallashni istagan talaba, albatta, shu fanga yondosh bo'lgan sohalardan ham yaxshigina xabardor bo'lmog'i lozim. Jumladan, falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab berar ekan, falsafani o'rganmagan kishi tilshunoslik uchun xarakterli bo'lgan analiz tamoyillari va metodlarini tushuna olmaydi. Dialektika qonuniyatlarini bilmagan «til o'rganuvchi» til va nutq faoliyatiga sistema sifatida yondasha olmasligi aniq. Yoxud til-fikr ifodalash quroli, fikr esa mantiq fanining o'rganish obyekti ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, logik kategoriyalarni bilish naqadar muhim ekanligini izohlashga hojat yo'q.

Tilshunoslikning psixologiya (inson ruhiy protsesslarining qonuniyatlarini o'rganadigan fan) bilan bog'liqligini lingvistikaning nisbatan yangi sohasi psixolingvistika o'rganadi.

Tilshunoslik tarix, bazis va ustqurma haqidagi fanlar, pedagogik fanlar bilan ham uzviy aloqadordir. So'zlarning tarixini, tilning lug'at boyligini o'rganishda tarix tilshunoslikka katta yordam beradi. Sababki, til urug' va qabila, elat hamda millat tarixi bilan chambarchas bog'liq. Shunga ko'ra kishilik jamiyatining tarixi tilda o'z aksini topadi.

Tilshunoslik va tarixning bog'lanishi ikki tomonlama bo'lib, tarix materiallari til taraqqiyotini o'rganish uchun, til faktlari tarix uchun muhimdir. Ushbu fan arxeologiya, etnografiya, shuningdek, adabiyotshunoslik bilan ham zich bog'langandir. Zero, tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik filologiyani tashkil etadi.

Tilning o'zgaruvchan hodisa ekanligi xususida yuqorida batafsil mulohaza yuritgan edik. Biroq tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar (lug'at

sostavi hisobga olinmasa) shu qadar sekinlik bilan amalga oshadiki, buni bir avlodning yashash davrida ajratib olish, qayd etish ancha mushkul vazifadir. Ba’zan asrlar osha, to‘rt-besh avloddan keyingina tilning fonetik, grammatic sathlaridagi siljishlar ko‘zga tashlana boshlaydi. Til taraqqiyotidagi bunday o‘zgarishlarni tahlil etishda yozma tarixiy manbalarning o‘rni beqiyosdir.

Yozma tarixiy manbalarga suyangan holda tilning grammatic qurilishi taraqqiyotini tarixiy grammatica o‘rganadi. Har bir tilga xos bo‘lgan tarixiy grammatica qadimgi davrdan tartib hozirgacha bo‘lgan yozma manbalarning tilini tahlil qilish va bir davr yozma manbaining til xususiyatlarini boshqa davr yozma manbalari til xususiyatlariga qiyoslash yo‘li bilan til taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlaydi va tilning tadrijiy taraqqiyotini belgilaydi. Xususan, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini belgilashda, til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatic o‘zgarishlarini tahlil etishda quyidagi tarixiy manbalar muhimdir:

1. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari (1073/1074);
2. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» didaktik asari (1069-1070);
3. Abulqosim Zamaxshariyning «Muqaddimatul adab» nomli arabcha-forscha-turkcha lug‘ati (1137);
4. Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asari (XII asr);
5. XIII asrda yaratilgan «O‘g‘iznama» asari;
6. XIII-XIV asrlarda yaratilgan «Qissasul anbiyo» (Rabg‘uziy); «Tafsir»; «Muhabbatnama» (Xorazmiy), «Xisrav va Shirin» (Qutb), «Rohatul qulub», Nahjal farodis; «Qissai Yusuf» (Qul Ali), «Yusuf va Zulayho» (Durbek) asarlari;

Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Yaqiniy, Ahmadiy, Yusuf Amiriy, Mir Haydar, Xo‘jandiy, Husayniy asarlari.

XV asr boshlarida ijod etgan Javhariy, Qambar o‘g‘li, Qosim, Gadoiy, Mir Sayid, Omoniy va o‘z asarlarida eski o‘zbek adabiy tili rivojini eng yuqori nuqtaga ko‘targan Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning ulkan adabiy merosi va boshqalar. Ushbu ro‘yxatni bosqima-bosqich yuzlab prozaik va poetik asarlar nomi bilan to‘ldirib uzoq davom ettirish mumkin.

Tarixiy yozma manbalar asosida kuzatishlar shuni ko'rsatadi, tilning lug'at boyligida shunday so'zlar ham bo'ladiki, ular umumxalq so'zlari bo'lib, tilda asrlar davomida ishlatilaveradi, masalan: *suv, yer, havo, qizil, bir, uch, men, sen, berdi, oldi, kecha, bugun, biroq, uh, oh, taq-tuq* va h.

Bu kabi juda ko'p so'zlar o'zbek tilida Navoiy davrida ham, undan oldin ham tez-tez ishlatilgan, hozir ham ishlatilmoqda. Shu asnoda tilda zarur barqarorlik ta'min etiladi, til avloddan avlodga o'ta beradi. Til grammatikasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan ro'y berishini yuqorida eslatib o'tgan edik. Quyidagi misollar fikrimizni dalillaydi:

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ravishdoshning bir shakli fe'l o'zak-negiziga [-**b/ib**] affiksini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *asrab, qarab, yurib* kabi.

Bu affiksning qadimgi shakli [-**bon/ibon**] ko'rinishiga ega bo'lgan.

Hunarni **asrabon** netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir?! (XV asr: A.Navoiy)

Chiqti ul muncha kishi otlan**bon**,

Ish qilurg'a barisi qatlan**bon**. (XVI asr: M.Solih)

O't qo'yubon kuydiradurg'on o'zim. (XIX asr: Muqimiyl)

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tik**ib**,

Eng yorug' yulduzzan seni so'raymen. (XX asr: Cho'lpon)

Tilning asta-sekin rivojlanishi va takomillashuvi ma'lum qonuniyatlar asosida yuz beradi. Til qonuniyatları tabiat qonuniyatlarından tubdan farqlanadi. Ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lgan tildagi barcha elementlar bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lanadi. Shu sababli tildagi qonuniyatlar ham o'zaro uzviy bog'liqdir. Til qonuniyatları tilning ichki jihatini belgilaydi va xarakter-xususiyatiga ko'ra umumiyl hamda xususiy qonuniyatlarga bo'linadi.

Barcha tillarga xos bo'lgan universal holdagi tartib va qoidalarni belgilab beruvchi qonuniyatlar umumiyl qonuniyatlar hisoblanadi. Masalan, turkiy tillardagi singarmonizm (unlilarning uyg'unlashuvi yoki unlilar garmoniyasi) qonuniyati.

Ayrim tillargagina xos bo‘lgan hodisalarni izohlovchi qonuniyatlar xususiy qonuniyatlardir.

Til qonuniyatlarining yuzaga kelishiga tildagi ichki faktorlar ham, tashqi faktorlar ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, olimlarning fikricha, o‘zbek shevalarida singarmonizm hodisasining yo‘qolishiga eron tillari sabab bo‘lgan yoki rus tilining barakali ta’siri natijasida hozirgi o‘zbek tilidan [f], [j] fonemalari mustahkam o‘rin oldi va urg‘u ham ko‘chma tabiatga ega bo‘ldi.

Til qonuniyatları moddiylikka ega bo‘lmagan imkoniyat bo‘lib, tildagi birgina qonuniy o‘zgarish milliardlab nutqiy voqeliklarda tajallilanishi mumkin. Zero, tildagi qonuniy o‘zgarishlar nutqiy hodisalarni belgilab beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Til o‘zgaruvchan ijtimoiy hodisa ekanligini tushuntiring.
2. So‘z strukturasi o‘zgarishining uch usuli haqida ma’lumot bering.
3. Soddalashuv hodisasining yuz berishiga sabab bo‘lgan omillarni tushuntiring.
- 4.Qayta bo‘linish hodisasiga misollar keltiring.
- 5.Tarixiy so‘z yasalish deganda nimani tushunasiz?
- 6.Sinxroniya haqida bat afsil ma’lumot bering.
- 7.«Gulbahor kasalga e’tibor bermadi, uning fikri-yodi «Navro‘z»da edi». Ushbu gapda so‘z yasalishning qaysi usularidan foydalanilganligini aniqlang.
- 8.Tilshunoslik faniga yondosh predmetlari haqida ma’lumot bering.
- 9.Nima uchun tilshunoslik va adabiyotshunoslik birgalikda «filologiya» deb ataladi?
- 10.Tilshunoslik va yozma manbalarning ahamiyati haqida so‘zlang.
- 11.Til qonuniyatlarining o‘zgarishiga sabab bo‘luvchi omillar haqida gapiring.
- 12.Til qonuniyatlaridagi umumiylilik va xususiylik nimalardan iborat?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1;7;9;11;12;17;19;21;22]

JAMIYAT VA TIL TARAQQIYOTI

Reja:

1. Til taraqqiyoitida tashqi omillar.
2. Jamiyat va til aloqadorligi.
3. Differensiya va integratsiya.
4. Tillarning bir-biriga ta'siri.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar

Tashqi omillar, jamiyat va til, tilning ekstraliningvistik omillari, differensiya, integratsiya, tillarning o'zaro ta'siri, tillarning chatishuvi, bilingvizm, tillarning o'zaro progressiv va regressiv ta'siri

Til taraqqiyotidagi tashqi omillar- jamiyat va til, nutqiy situatsiya, tilning boshqa tillar bilan o'zaro aloqasi va ta'siri, tir taraqqiyotida differensiya va integratsiya hodisalari, tilning ekstraliningvistik faktorlarini o'z ichiga oladi. Paralingvistika, psixolingvistika, areal lingvistika, sotsiolingvistika, ekstraliningvistika singari sohalar mana shu tashqi omillarni tadqiq qiladi.

Lisoniy rivojlanishning tashqi omillari tilning hududiy (areal), davriy, ijtimoiy va tarixiy sharoitlariga ko'ra yuz beradi. Bunda nutq jarayoni aloqa va kontakt masalalari va vaziyatlari (situatsiya) hisobga olinadi. Tillarning o'zaro ta'siri va bilingvizm hodisasi, nutqiy iqtisod va tushunarlik qonuniyatlari o'r ganiladi. Tashqi omillarning asosini- tilning ijtimoiy ahamiyati va funksiyalari, tillarning tarixiy taraqqiyotini tashkil qiladi.

Til hamisha jamiyat bilan aloqadorlikda ekan, so'zlovchilarining ekstraliningvistik omillar ta'sirida bo'lishlari ham shu munosabatdan kelib chiqadi.

Til – jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi qadriyat. Til umumiy, nutq esa –xususiydir, ya'ni har bir kishining nutqi o'ziga xos, individual. Kishilar o'z tafakkur tarziga, fikrlash qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra so'zlaydilar. Bundan tashqari nutqidan uning bilish saviyasini, umumiy dunyoqarashi - odatlarini, madaniyat darajasini – ma'naviy olamini bilsa

bo‘ladi, qolaversa, har birimiz o‘z uslubimiz (stil) va estetik, etik didimiz, tushunchalarimizga ko‘ra turlicha nutqqa egamiz.

Inson – jamiyatda tug‘ilib voyaga yetadi, kamol topadi. Demak, insoniy til ham jamiyat bilan birgalikda rivojlanishdadir. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy biologik xususiyatlari (ovqat eyishi, nafas olishi va h.) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so‘zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyati (sotsial muhit) bo‘lishi shart. Til nasldan- naslga, avloddan-avlodga o‘tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Agarda yosh go‘dak kimsasiz orolga yoki hayvonlar orasiga tashlab qo‘yilsa, u insoniy tildan bexabar bo‘lib o‘sadi (olimlar bunday tajriba o‘tkazishgan yoki eslang: Maugli) yoki agar xitoy bolasi o‘zbeklar orasida ulg‘aya, tarbiyalansa, u faqat o‘zbekcha so‘zlab, ajdodi tilini bilmasligi mumkin. Lekin xitoy bolasining biologik belgilari (yuz ko‘rinishi) irsiy holda o‘zgarmaydi.

Til va jamiyatning uzluksiz ta’sirini tildagi argo, jargon, tabu va evfemizmlar yoki semantik o‘zgarishlar misolida kuzatish mumkin.

Tilimizda muayyan bir guruh kishilarni ishlatuvchi- “*ko‘kidan*”, “*soqqa*”, “*nullajiring*”, “*malak*”, “*shef*”, “*oqidan*”, “*kabutar*” kabi so‘z va tushunchalar tilga, jamiyatga oid hodisalardir. Shuningdek, tabu va evfemizmlarning paydo bo‘lishi ham, ijtimoiy tafakkur, aniqrog‘i irim va e’tiqodlar bilan bog‘liq. Masalan, *ilon* - “*arg‘amchi*”, *pes* – “*oqarmoq*” kabi qo‘llashlar bu yomon hodisalarning oldini olish, irim bilan bog‘liq bo‘lsa, *tug‘moq-* “*yengil bo‘lmoq*”, “*ko‘zi yorimoq*”, “*o‘g‘il yo qiz ko‘rmoq*”; *erga bermoq* - “*turmushga chiqramoq*” (*uzatmoq*), “*baxti ochilmoq*” singari qo‘llashlar etika (madaniyat)ga daxldordir.

Differensiya va integratsiya jarayonlari til taraqqiyotining o‘ziga xos ijtimoiy qonuniyatlari hisoblanadi. Differensiya – tillarning bo‘linishi, farqlanishi bo‘lib, til doirasidagi sheva va lahjalarning yoyilishi, tarqalishidir. Differensiya natijasida tillar qardosh tillarga yoki dialektlarga bo‘linib ketadi. Integratsiya esa, aksincha, sheva va dialektlarning qisqarib,

adabiy tilga yaqinlashuvi, uyg‘unlushvi hodisasiidir. Demak, bular bir-biriga zid tushunchalar bo‘lib, differensiya tillar va dialektlar sonini ko‘paytirsa, integratsiya ularni qisqartiradi. Har ikkala holat ham tilning **tarixiy** va **davriy** omillariga tegishli bo‘lib, lisoniy traqqiyotning o‘ziga xos ijtimoiy tarixini ifodalaydi. Bu hodisalar ilm- fanda ijtimoiy mehnat nazariyasi asosida rivojlantirilgandir. Chunonchi, kishilarning dastlabki ibtidoiy to‘dalari bora-bora urug‘ga, so‘ngra qabilaga aylangan. Bu qabilaning o‘z tili (dialekti) bo‘lgan. Qabila ma’lum bir ijtimoiy-siyosiy., hududiy sabablarga ko‘ra bo‘linib ketgach, qarindosh - urug‘lar paydo bo‘ladi. Endi bu qarindosh - urug‘lar bir til doirasida, lekin turli sheva va dialektlarda so‘zlashuvchi xalqqa aylanadi. “Yangi – yangi dialekt va tillarning paydo bo‘lishida ikki faktor hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi: vaqt va masofa. Vaqt o‘tgan sayin masofaning kengaya borishi yangi dialekt va tillar paydo bo‘lishiga olib keladi” (Qarang: Содиков А. ва б. Тилшуносликка кириш. Т., 1981. 212-б.).

Integratsiya jarayonini shunday tasavvur qilish mumkin: bir til doirasida mavjud bo‘lgan ta’siri tufayli yo‘qolib boradi; masalan, televizor va radio, ommaviy matbuot va axborot sur’atining jadallahishi, adabiy til mavqeining oshishi, barcha uslublarda, adabiy tildan foydalanish integratsiya jarayonini yanada oshiradi, uning ta’sir doirasini kengaytiradi. Chunki, har bir millat adabiy tilning mustahkamlanishi, boyishi uchun qayg‘uradi va shu borada sa’y – harakat olib boradi. Xuddi shuningdek, o‘zbek adabiy tilining yuksalishi va mustahkamlanishi uchun astoydil intilishimiz zarur.

Til hamisha rivojlanishdagi hodisa sifatida boshqa tillarga o‘zaro ta’sir qiladi yoki tashqi ta’sirga uchraydi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti, savdosoti, madaniy va maishiy aloqalar, hattoki, urush va bosqinlar ham tilga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Tillar tarixiga nazar tashalydigan bo‘lsak, tashqi ta’sir natijalarini ko‘ra olamiz. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi aksariyat so‘zlar arabcha va ruscha-internatsionaldir. Arablar bosqini va arab tili ta’siri, hukmronligi oqibatida tilimizga ko‘plab arabcha so‘zlar kirib keldi: *kitob, madrasa, ma’lum, mashhur, maktab, domla, maktub,*

iymon. Arabcha leksika tilning kattagina qismini egallab olgan. Shuningdek, qardosh xalqlar bilan munosabat, savdo-sotiq va boshqalar fors-tojik, uyg‘ur, xitoy tillaridan so‘z o‘zlashtirishga asos bo‘ldi: *xona, barg, xazon, devor, zimiston, dil xhat, kulba, shahar, siyoh; manti, lag‘mon, xonim* va hokazolar.

Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni zabit etishi hamda ruslashtirish oqibatida o‘zbek tili leksikasida, umuman butun til tizimida kuchli ta’sir sodir bo‘ldi. *Bolshevik, partiya, sovet, kommunizm, sotsializm* singari ko‘rinishlar o‘sha davr neologizmlari edi. *Stol, stul, papka, sumka, doska, klass, lampochka, ostanovka, dirijyor, muzikant, televizor* va hokazo so‘zlar ommalashdi. Rus tili orqali inglizcha-baynalmilal so‘zlar kirib keldi: *telefon, aktyor, artist, radio, kollektiv, ideya, obyekt* va boshqalar.

Bunday lisoniy ta’sir xususiyatlarini barcha tillarda kuzatish mumkin; masalan, hozirgi ingliz tili lug‘at boyligidagi so‘zlarning taxminan 30 foizigina sof inglizcha so‘zlar, qolganlari qardosh xalqlardan, roman, fransuz yoki italyan, sharq tillaridan o‘zlashgan so‘zlardir. Tillarning bir-biriga o‘zaro ta’siri tillarning chatishuvi va belingvizm hodisalariga sabab bo‘ladi. (Agar so‘z o‘zlashtirilish tilning ichki (grammatik) strukturasiga ta’sir ko‘rsatmasa, bu tillarning hamkorligi (языковые контакты) deyiladi, agarda bir til boshqa tilga tazyiq o‘tkazib, uning ichki strukturasiga o‘rnashsa, bu tillarning chatishuvi deyiladi. Lekin bu tushunchalar ham nisbiydir. Masalan, arab xalifaligi davrida turkiyzabon va eroniy xalqlar uning tazyiqi ostida edilar. Arab tili nafaqat davlat tili, balki madaniy va diniy (ilohiy kitob “Qur’on” arab tilida bo‘lganligi, hamda uni o‘rganish, o‘qish majburiy qilib qo‘yilganligi bois mustamlaka xalqlardan arab tilining nafaqat leksikasini, balki grammatikasi va fonetik, ifodali (qiroat) o‘qish malakalarini egallahlarini ham talb qilar edi) ta’sir vositasiga aylantirilgan edi. Biroq, arab tili turkiy tilga jips singganligi bilan, uning grammatik qurilishi (flektiv) turkiy tilga ko‘chmagan.

Fransiyaning XI asrda Britaniya orolini bosib olishi va fransuz tili bilan anglosakson tillari orasidagi kurash natijasi chatishuvga misoldir. Fransuz tili Angliya hududida g‘olib, ingliz tili esa mag‘lub bo‘ldi, lekin

fransuz tili o‘z vatanida yashar, rivojlanar ham edi. Xullas, til kurashlaridan keyin, g‘oliblar o‘z tillarini unutib, angtosakson tilini qabul qiladilar. Ingliz tili ham fransuz tilidagi so‘zlarning ma’lum bir qismini saqlab qolib, tilning (kelgindi tilni) o‘zini siqib chiqaradi. Demak, bu yerda superstrat hodisasi, ya’ni kelgindilar tilining mahalliy tilga ta’siri sodir bo‘lishi, lekin uni siqib chiqarolmasligi yuz bergan.

Endi bilingvizm jarayoni haqida. Bilingvizm – ikki tillilik demakdir. Turkiy xalqlar uchun ikki tillilik ularning butun tarixiy taraqqiyoti davomida va barcha hududlarda tarqalishi doimiydir. Ancha intensiv ifodalangan ikki tillilikning qadimiyligi davrdagi ko‘rinishlari turkiy-mo‘g‘ul, turkiy - fin-uyur va turkiy – fors, turkiy- arab bo‘lib, ularning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatuvchi xususiyatlar hozirgi davrgacha saqlanib qolgan. Bu ta’sir bir tomonidan, Sibir va Volga bo‘yi turkiy tillarida, boshqa tomonidan O‘rta Osiyo va Kavkaz turkiy tillarida hozirgacha ko‘rinadi. Sovet ittifoqi davrida turkiy-rus bilingvizmi bu davr tilining asosini tashkil etdi. Bilingvizm shevalalararo ham bo‘lishi mumkin: masalan, Buxoro shevasida tojik-o‘zbek ikki tilligi mavjud.

Tillarning o‘zaro ta’siri tufayli tilning fonetik, leksik va grammatic tizimida ma’lum o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin. Rus tili ta’sirida o‘zbek tili tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi: ruscha- internatsional so‘zlar kirib keldi, kalkalash va terminologiya rivojlandi, dublet so‘zlar va variantlar paydo bo‘ldi, har xil tarkibli so‘z va iboralar paydo bo‘ldi: *sovxozi*, *qishloq xo‘jaligi*. Bu jarayonlar o‘zbek tili leksik strukturasini o‘zgartirdi.

Fonetik strukturada esa, ru tili va boshqa tillardan (fors - tojik, tatar, boshqird, arab) o‘zlashgan fonemalar ham uchraydi: masalan, lab, tish fonemalar – [v], [f], affrikatlar – [ц], [г], sirg‘aluvchilar – [x], [sh], ba’zi tillarda – [o], [e] (tatar, boshqird) unlilari.

Sintaksis sohasida birmuncha jiddiy oqibatlar kuzatildi. Jumladan, rus va hind-evropa tillari uchun xos bo‘lgan gap strukturasi zo‘rma-zo‘rakilik bilan o‘zbek tiliga tiqishtirildi, chunonchi, bosh bo‘laklar, bir sostavli va ikki sostavli gaplar kabi. Birgina – *Mevalar terildi* gapining shaxssiz gap

sifatida talqin qilinishi (mantiqiy subyektga tayanilib) o‘zbek tili sintaksisida g‘ayrimilliy, noto‘g‘ri oqibatlar yuzaga kelganligini ko‘rsatadi.

Til taraqqiyoti tilning yashash tarzi, mavjud bo‘lishlik shartidir. Tilda hech bir narsa yo hodisa birdaniga, o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, lisoniy hodisa va jarayonlar til rivojlanishining ma’lum bir qonuniyatlari asosida asta-sekin, evolyutsion ravishda yuz beradi. Til taraqqiyoti uning tashqi va ichki omillariga bog‘liq. Bu omillar til taraqqiyoti sistemasini, zanjirini hosil qiladi. Sistemadan har bir komponent, zanjirdagi har bir xalqa esa boshqalari bilan chambarchas, zich bog‘langan bo‘ladi. Tilning rivojlanishida ham har bir lisoniy omil (ichki omillar, tashqi ekstralingvistik omillar, sotsial omillar) muhim ahamiyatga ega. Mana shu obyektiv qonuniyat, munosabat tufayli tillarning rivojlanishi, o‘zgarishi, taraqqiyoti sodir bo‘laveradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. “Tilsiz jamiyat mavjud bo‘lmaydi”, degan fikrni qanday izohlaysiz?
2. Differensiya va integratsiya hodisalari nima sababdan ro‘y beradi?
3. Hozirgi o‘zbek tiliga qaysi til(lar)ning tashqi ta’siri seziladi va nima uchun?
4. Tillarning rivojlanish qonuniyatlari haqida qanday xulosaga keldingiz?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 9; 10; 30; 36; 39; 69]

TIL TARAQQIYOTI. TIL TARAQQIYOTINING ICHKI QONUNIYATLARI

Reja:

1. Rivojlanish tushunchasi. Tilning rivojlanishi.
2. Til tizimi sathlarining notekis rivojlanishida ichki qonuniyatlar.
3. Shevalar- til lug‘at boyligini oshiruvchi ichki manba.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Rivojlanish, tilning rivojlanishi, rivojlanish qonuniyatlari, lisoniy taraqqiyotning, ichki va tashqi omillari, ichki lingvistika, ichki leksik

o‘zgarishlar, fonetik taraqqiyot, grammatikaning rivojlanishi, milliy gramma tikamiz masalalari, shevalar va ularning til tizimida tutgan o‘rnini

Rivojlanish - obyektiv, dialektik jarayon bo‘lib, bir sifatdan boshqa sifatga o‘tish natijasida yuz beradigan o‘zgarishlar tufayli ro‘y beradi. Dunyodagi har bir predmet, hodisa doimiy harakatdadir. Xuddi shuningdek, til ham hamisha o‘zgarishda. Bu esa til bevosita bog‘liq bo‘lgan jamiyat hayoti, uning doimiy harakati, rivojlanishi bilan bog‘liq. Jamiyat bu harakatdan to‘xtasa yoki bu aloqa uzilsa, o‘sha zahoti til ham rivojlanishdan to‘xtaydi, yo‘qoladi. Xuddi shu fikrni V.A. Zveginsev ham ishonch bilan ta’kidlaydi: “Jamiyatsiz til rivojlanish xususiyatini yo‘qotadi va u sun’iylashadi. Masalan, lotin tili katolik dinining tiliga aylandi, o‘rta asrlarda esa ilm-fanning xalqaro tili vazifasini bajardi. Xuddi shuningdek, O‘rta Sharq mamlakatlarida mumtoz arab tili ham analogik rol o‘ynadi” (Звегинцев В.А. Очерки по общему языкоznанию. – М., 1962, стр.: 178- 179).

Ilm-fan, texnika va madaniyat mudom o‘zgarib, yangilanib, rivojlanib boradi. Til taraqqiyotida ichki va tashqi omillar mavjud. Til taraqqiyotining ichki omillari til tizimidagi sathlarning o‘ziga xos rivojlanishiga asoslansa, tashqi faktorlar til va jamiyat, tillararo munosabat va ta’sir, nutq jarayoni, o‘zlashma, qatlam singari lisoniy, aniqrog‘i ekstralivingistik hodisalarda aks etadi. Shunga ko‘ra, tilshunoslik 2ga: ichki tilshunoslik hamda tashqi tilshunoslikka bo‘linadi. Ichki tilshunoslik tilning ichki qurilishini, sistemasini o‘rgansa, tashqi tilshunoslik tilning ijtimoiy ahamiyati va vazifasini, ya’ni jamiyatda yashovchi inson, so‘zlovchining tildan qay tarzda foydalanishi-yu, tilning jamiyatga ta’siri, shuningdek, bir xil hamda turli til oilasiga mansub tillarning o‘zaro munosabati, tilga tashqi ta’sir natijasida ro‘y beradigan o‘zgarishlar kabilarni tadqiq qiladi.

Ichki lisoniy qonuniyatlar til tizimi sathlarida o‘z aksini topadi. Lisoniy qonuniyatlar o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda til taraqqiyotida umumiy va xususiy qonuniyatlarni kuzatish mumkin. Umumiy qonuniyatlar – barcha tillarga xos bo‘lgan lisoniy hodisalarni, jarayonlarni anglatadi. Masalan, tilning kommunikativlik va

ekspressivlik funksiyalari, til sathlarining notekis rivojlanishi, ya’ni leksik qatlamning boshqa lisoniy qatlamlarga nisbatan tez o‘zgaruvchanligi, doimiy harakati va hokazolar.

Xususiy lisoniy omillar esa har bir konkret tilning o‘ziga xos qoidalarini o‘z ichiga oladi, chunonchi, har bir til (hattoki bir tillar oilasiga mansub tillarda ham) o‘ziga xos fonetik tizimga, leksik sathga, grammatic qurilishga, stilistik uslublarga ega. Demak, bu ikki tur qonun yoki faktorlar bir-birini taqozo qiladi; umumiylit xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Endi lisoniy sathlarning ichki rivojlanish xususiyatlari tahliliga o‘tsak. Lingvistik taraqqiyot hodisasi, asosan, uch aspektida o‘rganiladi: leksik, fonetik, grammatic.

Mu’lumki, til sathlari (leksika, fonetika, morfologiya, sintiksis) notekis rivojlanadi. Tilning eng tez rivojlanuvchan, harakatchan qismi – lug‘at tarkibi hisoblanadi. Leksema doimiy o‘zgaruvchan, yangilanuvchan qatlamdir. Insonlarning moddiy va ma’naviy hayoti, shubhasiz, leksikada o‘z aksini topadi. Buni kunda sodir bo‘lib turuvchi neologizm va arxaizmlar hodisasidayoq kuzatish mumkin. Fan-texnika, ilm-fan va dunyoqarash o‘sib borgan sari tilimizda yangi so‘zlar paydo bo‘laveradi: *kosmonavt, yadro, klip, estrada, kompyuter, internet, elektron pochta, sistema, leksema* va hokazo. Shuningdek, ijtimoiy va siyosiy hayotda qatnashmaydigan so‘zlar til tizimida eskirib, arxaizmga yoki istorizmga aylanadi: *bo‘zchi, mirob, faytun, qozi, amir, saroybon, obkom, raykom* va boshqalar. Yaqin o‘tmishda *raykom, traktor, televizor, radio* so‘zlari neologizm, yangi kirib kelgan so‘zlar edi. Hozirda esa ularning ko‘pchiligi kundalik so‘zlashuv leksikaga aylangan.

Leksik rivojlanishning ichki omillari faqat shulardan iborat emas. Semantik rivojlanish lug‘atning asosini tashkil qiladi. So‘zlar vaqt o‘tishi bilan yoki biror- bir sabab, sharoitga ko‘ra, o‘z ma’no semalarini yo‘qotib, boshqa sema (ma’no, tushunchaga) ga ega bo‘ladilar. Masalan, o‘zbek tilidagi *qishloq* so‘zini olib qaraylik. Ilgari *qishloq* tushunchasi-qishlash uchun joy, qishlov ma’nosini bildirgan bo‘lsa, hozirda butunlay o‘zgacha, yangi ma’no anglatadi: *qishloq-* shahardan tashqarida, shahar atrofida

joylashgan, asosan qishloq xo‘jalik ishlari: ekin va chorvachilik uchun mo‘ljallangan aholi yashash joyi. Shuningdek, *sovchi* so‘zi ham qadimgi turkiy tilda sab(v)chi – so‘zchi, ya’ni birovning so‘zini yetkazuvchi, xabarchi, elchi ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, hozirga qadar- uylanish niyatida bo‘lgan yigit (kuyov)ning qiz (kelin) uyiga vakil kishisini yuborshi, qiz tomonning roziliginini so‘rash uchun harakat (ko‘pincha, onasi yoki ayol qarindoshlari) ma’nosida tushuniladi. Bu kabi hodisalarni barcha tillarda kuzatish mumkin.

Rus tilidagi (hozirgi) *мучить* so‘zi, dastlab ishlaromoq ma’nosida ishlatilgan. Og‘ir mehnatga nisbatan ishora qiluvchi *мучение*, *мука-работа* tushunchalari bora-bora taraqqiy etaverib, alohida so‘z va tushunchalarga aylangan: *мучить* – azoblaromoq, *мучиться-* mashaqqat va nihoyat – *работать – трудиться, заняться работой*.

Xuddi shu ma’noviy (semantik) o‘zgarish fransuz tili leksikasida ham uchraydi, masalan: fransuz tilidagi *fravail* (ish) va *fravail lor* (ishlaromoq) aslida latincha *fripalium* so‘zidan kelib chiqqan. *Tripalium* – otlarni taqalash paytida qattiq qisib turuvchi stanok bo‘lgan. Xullas, *fravailler* (ishlaromoq), dastlab *fripalium* yordamida *qiynash* semasini, keyinchalik haqiqiy *qiynash* ma’nosini anglata boshlagan. Faqat keyinchalik bu so‘z ishslash ma’nosini anglata boshlagan (Qarang: Будагов Р.А. Проблемы развития языка.– М.-Л. 1965. стр.: 42-43).

Bundan tashqari, til tizimida yahlitlanish, atamalashish (terminologizatsiya), soddalashish kabi ko‘plab usullar mavjudligi, ular lug‘at tarkibining o‘zgarib turishiga xizmat qiladi. So‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash leksika taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. *Oq oltin, oltin qo‘llar, bo‘ri* (hayvon va salbiy ma’noda kishiga nisbatan), *tulki, ilon* (ayyor ma’nosida), *xola, otajon, amaki* (ko‘chma ma’noda begona kishiga nisbatan) kabi misollar shu turkumga mansubdir.

Til taraqqiyotining ichki qonuniyatları fonetikada yanada konkret aks etadi. Ma’lumki, fonetika nutq tovushlarini, nutqning fonetik bo‘lnishini o‘rganadi. Fonetikada assimilyatsiya, dissimilyatsiya, singarmonizm, diftongizatsiya, enkliza, prokliza singari ko‘plab qonuniyatlar mavjud. Har

biri o‘ziga xos fonetik tabiatga ega. Masalan, o‘zbek tilida urg‘u hodisasi unumli emas, shunday bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi urg‘u ko‘chuvchanligi bilan ajralib turadi (odatda oxirgi bo‘g‘inga tushadi: *kitob- kitobni*...). Rus, xitoy, yapon tillarida urg‘u unumlidir: *у окна - окна, руки - руки, наснорма - наснорма.*

Fonetik qonuniyatlarning muhim jihat shundaki, ular xususiy hodisalar uchun umumiylig rolini o‘taydi. Masalan, ingliz tilidagi *leat* (urmoq) so‘zi e :>e:>i fonetika jarayonining mahsulidir: *leat* – *be:te>be:t>bi:t*. Shuningdek, o :>4 almashinushi, taraqqiyoti qonunini ham quyidagi misollar, xususiyliklarda kuzatish mumkin: *moon-mo:n>mu:n*.

O‘zbek tilining fonetik taraqqiyotini qadimgi turkiy tilni o‘rganganda sezish mumkin. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unlilar 10 ta va ularning talaffuzi ham o‘zgargan: *at-ash, abag‘-oyoq*. Fonetikamizda milliy hodisa sifatida saqlanib qolgan qonuniyat – singarmonizm. Singarmonizm –o‘zak va qo‘shimchadagi unlining uyg‘unlashuvi, o‘xshab qolishidr: *unum, suzuk, kulgu, qiliq, toroq* (Toshkent shevasida), *qilg‘iliq* va h.z.

Grammatika – til sathlari ichida eng turg‘un bo‘lim hisoblanadi. Grammatik taraqqiyot bu tilning sifatiy rivojlanishni aks ettiradi, chunki tildagi qatlam (math)lararo miqdoriy o‘zgarishlar grammatikada umumlashadi hamda grammatik kategoriyalarning, grammatik ma’no ifodalovchi vositalarning taraqqiyotiga ichki omil bo‘lib xizmat qiladi. Tillardan grammatik kategoriyalarning nisbati bir xil emas, chunonchi, ingliz va nemis tillaridagi otlarni farqlovchi xususiyat shundaki, nemis tilida (xuddi rus tilidagidek) rod kategoriysi mavjud: *tad* (kun) – muj.r.; *wasser* –(suv) -serd.r.; *yunge* (til) jen.r. Bu hodisa qadimgi ingliz tilida ham bo‘lgan: *doy* (kun) muj.r.; *water* (suv) – sred.r.; *tongue* (til) – jen.r

Biroq, zamonaviy ingliz tilida bu grammatik kategoriya “bosib o‘tilgan”, “unutilgan” ko‘rinish hisoblanadi. Shuningdek, otlardagi turlanish (kelishiklar) hodisasi har ikki tilda sintetik bo‘lgan, hozirda esa faqat nemis tili bu turkum qonuniyatlarini saqlab qolgan: Именительный падеж - *Tad*; родительный – *Tages* va hokazo.

Zamonaviy ingliz tili zamonaviy nemis tilidan hozirda grammatik tuzlishi jihatidan katta farz qiladi, chunki ulardan birinchisi analitik turkumdagi tilga aylangan bo'lsa, keyingisi sintetik turkumda davom etmoqda. Yoki yana bir misol, ingliz tilidagi kelasi zamon ma'nosini beruvchi *Shall/will* modal fe'llari o'rta asrlarda keng tarqalgan edi. Bu ikki fe'lning rivojlanish xususiyatlari quyidagicha:

Will – odatda, insonning xohish, mayl va istagi ustunroq bo'lgan o'rinlarda (*/will study - Men o'qimoqchiman*);

Shall – zaruriyat yo majburiyat ma'nosida (*/shall look to my brother - Men ukamga qarashim kerak*) qo'llanilgan.

Bibliya uslubida *shall*, badiiy uslubda *will* qo'llanilar edi. Djarj Mezon 1622-yilda bu ko'makchi fe'llarning funktional jihatlarini asoslab bergen ("Grammaire Anglaise") va *shallning* I shaxsda, *willning* esa qolgan shahslarda ishlatilish me'yorini belgilagan edi.

Nemis tilida ham parallel ravishda kelasi zamon modal fe'llari taraqqiyotida dinamik holatni kuzatish mumkin. XI-XIV asrlarda keng ishlatila boshlangan *soller / woller* modal fe'llari aynan kelasi zamoni ifodalashda o'ziga xoslik kasb etadi. Barcha shaxslarda ko'pincha *soller* qo'llanmalar edi. Biroq, keyinchalik uning o'rmini keyingisi egallay boshlaydi, xususan, Lyuterning bibliyasida bu shakl juda kam ishlatiladi. XI asrda paydo bo'lgan va XII – XIII asrlarda keng foydalanilgan *werden* formasi endilikda kelasi zamon ma'nosini bera boshlagan. Zamonaviy nemis tilida *Futurumni* ifodalash uchun har uchchala shakl qo'llaniladi. *Ich werdet kommen; Ich will in die Bibliotek gehen* (Qarang: Deutsch.T., 1977).

Endi, o'zbek tili grammatikasidagi o'zgarishlar haqida qisqacha to'xtalsak. Avvalo milliy grammatikamizning chinakam o'zbekona, milliy tabiatga ega bo'layotganligi, ko'pgina muvaffaqiyatli yutuqlar qo'lga kiritilayotganligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Morfologiya sohasida deyarli barcha narsa-so'z turkumlari tasnifidan boshlab qo'shimchalar tasnifigacha ilmiy asosli izlanishlar olib borildi.

O‘zbek tilining turkona tabiatidan kelib chiqib, sintaksisda ham muhim rivojlanish sodir bo‘lmoqda. Bu sohada “gap markazi”, [WPm] qolipi, atov birlik, predikativ singari tushunchalarning isbotlanishi o‘zbek tili milliy grammatikasi talqinini tubdan oydinlashtirdi. “Gap markazi” tushunchasi SG va QG hodisalariga aniqlik kiritdi.

Shevalar til tizimida dialektizmlar sifatida tadqiq qilinadi. Shevalar – hududiy tushuncha bo‘lib, muayyan bir territoriyada yashovchi kishilar, adabiy tildan farqlanib turuvchi o‘ziga xos til hisoblanadi. Sheva va dialektizmlarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi- dialektologiya deb ataladi. Unda lahja va shevalarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlari tavsif qilinadi. Milliy tilning paydo bo‘lishi va rivojida shevalarning tutgan o‘rni, milliy tilga asos bo‘lgan shevalar aniqlanadi. Shevalararo, shuningdek, adabiy til va qardosh tillar bilan ularning munosabati aniqlanadi.

Shevalar – til lug‘at boyligini oshiruvchi ichki manba hisoblanadi. O‘zbek adabiy tili uchun Toshkent va Farg‘ona shevalari asos qilib olingan. Aslida, sheva so‘zi- forscha so‘z bo‘lib, ovoz , til, so‘zlashish, odat, yo‘sish, ravish degan ma’nolarni bildiradi. Sheva-biror bir tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini o‘zida aks ettiruvchi kichik qismi hisoblanganligi bois lahja tushunchasidan kichikdir. Lahja shevalar yig‘indisidir.

Badiiy uslubda, ya’ni badiiy asarlar yaratayotganda shevalardan foydalanish voqeа, hodisalarga mahalliy, hayotiy va ijtimoiy tus berishda, shuningdek, personajlar nutqini individuallashtirishda ulkan ahamiyatga ega. Misol uchun, *shoti* so‘zi Farg‘ona shevasida narvon ma’nosida ishlatsa, adabiy tilda “arovaning bir qismi”, *tovoq* so‘zi ham “lagan” ma’nosida, Toshkent shevasida esa lagan-katta tovoq ma’nolarida ishlataladi. *Tovoq* so‘zi Buxoroda *tabaq* shaklida keladi. Xorazm shevasida *g‘uch* so‘zi – mard, botir; *galadi* - keladi, *nishatamiz* - nima qilamiz kabi ma’nolarni bildiradi. Toshkent shevasi fe’llardagi hozirgi zamon formasi (-*yapti*) ning -*votti* shaklida ishlatalishi bilan ajralib turadi: *borvotti*, *borvomman*. Shuningdek, оlovchi fonetika ham Toshkent

shevasida kuzatiladi: *oka*, *torog'*, *johongir*, *dovlat*. [u] fonemasining [i] bilan almashinishi holatlari: *eshu-eshik*, *kichu-kichik*. [t] o'mida [ch] kelishi: *chochu-sochiq*, *choch-soch*.

O'g'uz lahjasida esa (Xorazm) [t]-[d] almashinislari uchraydi: *til - dil*; [k]- [ch]- *kul- gul*, *kel-gall*: [-ga] jo'nalish kelishigining [-ya], [-a] tarzida kelishi ham bu sheva uchun xos: *Buxoroya*, *jonima*, *ko'nglima*.

Shevalardan o'rinli foydalanish badiiy ijodning, umuman, nutqning badiyligini, uslubning fazilati, ta'sirchanligini oshiradi. Ammo shevalarning ishlatilish doirasi va me'yori chegaralangan. Shevalarni faqat adabiy va so'zlashuv uslubida qo'llash mumkin. Rasmiy, ilmiy uslublarda shevaga xos so'zlarni qo'llash noto'g'ridir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Jonli organizm va tilning rivojlanishi orasida qanday farq va umumiyliliklar bor?
2. Til taraqqiyotining ichki omillariga nimalar kiradi?
3. Til tizimi sathlarining notekis rivojlanishi qonuniyatini isbotlang.
4. O'zingiz yashab turgan hududdan shevaga xos so'zlarni misol keltirng, ularni adabiy tildagi so'zlar bilan solishtiring va ishlatilish me'yorlarini izohlang.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [8; 10; 12; 41; 44; 50]

DUNYO TILLARI

Reja:

1. Tillarni tasniflash asoslari.
2. Areal va funksional tasniflar.
3. Geneologik klassifikatsiya.
4. Morfologik yoki tipologik tasnif.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Tasnif tushunchasi, *tillar tasnifi*, *tillar tasnifi turlari*, *areal tasnif*, *funktional tasnif*, *geneologik tasnif asoslari*, *tillar oilasi*, *morfologik yoki tipologik tasnif*, *til tiplari*, *analitik va sintetik tizimdagi tillar*

Tasnif (arabcha - *sinf* demakdir) yoki klassifikatsiya (latincha klassis – *sinf, turkum, guruh*) atamalari hodisalarini, tushuncha va ko‘rinishlarni bir sinfga, guruhga yoki tizimga birlashtirish degan ma’noni bildiradi. Voqelikdagi barcha narsa va hodisalar muayyan tizim (sistema)ning tarkibida yashaydi, shuningdek, ma’lum bir sinflarga, guruhlarga birlashadi. Shu jihatdan qaraganda, tasnif yoki tasniflash ilm-fan va insoniy bilish jarayonida juda muhim rol o‘ynashi aniqlashadi. Ilmiy tasnif voqelikning ma’lum ko‘rinishni tadqiq etishda ifodalanuvchi ilmiy qonuniyatlarga asoslanadi. Odatda, tabiiy klassifikatsiya hamda sun’iy klassifikatsiya ajratiladi: masalan, kimyoviy elementlarni sistemalashtirish yoki biologik hodisalarini guruhlashtirish tabiiy tasnif bo‘lsa, yordamchi klassifikatsiyalar, bibliografiya sohasidagi alifbo asosidagi hamda nom asosidagi, soha hamda yo‘nalish bo‘yicha kataloglar sun’iy tasniflardir.

Dunyoda 2,5 mingdan ortiq til borligi taxminiy hisoblab chiqilgan; buni aniqlashning, hisoblashning qiyin tomoni shundaki, ba’zi bir tillar yetarli darajada o‘rganilmaganligi tufayli mustaqil tilmi yoki dialektmi, noaniq bo‘ladi. Zero, bunda muayyan tilda so‘zlashuvchilarining soni e’tiborga olinmaydi, chunki shunday dialektlar borki, 100 ming va, hatto, ko‘proq aholiga xizmat qiladi, shuningdek, shunday tillar ham borki, bir necha ming kishi va ba’zan undan ham ozroq kishilar foydalanishadi. Ba’zi bir tillar borki, juda tor doiradagi insonlar guruhiga xizmat qiladi. Masalan, Afrika, Polineziya, Amerika hududlari, Dog‘istondagi ba’zi elat va qabilalar tili misol bo‘la oladi. Bir xil tillar faqat bir xalqning tili hisoblanadi. Masalan, dungan tili (Qirg‘iziston, Qozog‘iston), mansi tili (Shimoliy Zauralye) muayyan xalq tili bo‘lsa, chesh, polyak, bolgar tillari millat bilan bog‘liq. Tillarning yana bir sinfi – bir necha millatlarga xizmat qiluvchi til bo‘lib hisoblanadi. Bunga misol qilib, portugal tilining Portugaliya va Braziliyada, fransuz tilining Fransiya va Shveytsariyada, ingлиз tilining Angliya va AQSH, nemis tilining Germaniya va Avstraliyada, shuningdek, ispan tilining Ispaniya hamda Janubiy va Markaziy Amerikaning 20 ta respublikasida qo‘llanilishini keltirish mumkin. Dunyoda ikki tilli xalqlar ham bor, shu bilan birga ikki va undan

ortiq xalqning tiliga aylanganlari ham mavjud. Shunday tillar borki, ularda adabiy tildan farq qiluvchi bir necha variantlar, tillar mavjud. Masalan, komi-ziryan va koma-permyas tillari yoxud arab tili. Somiy tillar guruhining janubiy tarmog‘iga mansub bu til – Yaqin va O‘rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Unda 200 milliondan ziyod aholi gaplashadi (1997). Misr, Sudan, Suriya, Iroq, Mag‘rib, Hasaniya (Mavritaniya), Shoa (Nigeriya, Kamerun, Niger) lajhalariga bo‘linadi. Shu va shu kabi hodisalar, tillarni sistemalashtirishning muhim masalalari sanaladi. Umumiy tilshunoslikning dolzarb vazifasi – tillarni tasniflash, ularni tasniflash asoslarini tekshirishdan iborat.

Tilshunoslar hamda tadqiqotchilar orasida tillarni tasniflash bo‘yicha har xillik mavjud. A.Reformatskiy ham, B.Golovin ham tillarning klassifikatsiyasini 2 guruhga – geneologik va tipologik (yoki morfologik)ka bo‘lsalar¹⁻², V.Koduxov hamda A.Sodiqovlar darsligida tillar tasnifi 4 guruhga ajratiladi: areal (geografik), tipologik, geneologik, funksional.

Areal tasnifda dunyo tillarining xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonidan tabiati, ayrim tillar qo‘llanish doirasining kengayishi kabi masalalar o‘z ifodasini topadi. XX asrning 80-yillarida dinyoda 130 ga yaqin millat va elat vakillari hisobga olingan bo‘lib, rus, ukrain, belorus, o‘zbek, tatar, qozoq, ozarbayjon, arman, gruzin, litva, moldavan xalqlari eng ko‘p sonli millatlar hisoblanadi. Shimoldagi xant, chukcha, evenesk, nenes, nanay,aksi, koryak xalqlari (Kavkaz), Dog‘istonda rus, qumiq va ozarbayjonlardan tashqari yashovchi: avar, dargin, lazgin, lak, tabasaran, chechen va no‘g‘ay kabi 30 ga yaqin elat va etnik guruhlar yashaydi. Sobiq SSSRning areal lingvistik tasnifi shuni ko‘rsatadiki, unda, asosan, hind-yevropa, turkiy, fin-ugor, kavkaz, mo‘g‘ul, tungus-manjur, paleoazit manjur tillari keng tarqalgan edi.

Tillarning **funktional** tasnifi ko‘p qirrali bo‘lib, 3 asosiy jihatga ko‘ra ajratiladi:

- 1) tilning o‘zi mansub bo‘lgan etnik jamiyat bilan aloqasi;
- 2) tilning jamiyatdagi vazifalari;
- 3) asosiy etnik oblast doirasida tilning tarqalganligi.

Tilning xalq tarixi bilan aloqasiga ko‘ra, asosan, 3 tilga ajratiladi: qabila tili, elat tili, milliy til. Tillardagi ijtimoiy funksiyalarni tasniflash turli nutq uslub (stil)larining, tillar ixtisoslashuvining paydo bo‘lishiga olib keladi. Dastlab mehnat faoliyatining, ijtimoiy jarayonning vositasi bo‘lgan til, badiiy-nasriy tilga ega milliy va xalq tillarining vujudga kelishi bilan polifunksional, ya’ni ko‘p vazifali bo‘ladi, chunki bu alohida tillarning vazifaviy ixtisoslashuviga hamda uslublarning yuzaga kelishini ifodalaydi.

Qulدورлик va feodolizm jamiyatida cherkov siyosiy hamda madaniy hayotda muhim rol o‘ynagan. Dinlar ko‘pgina mamlakatlarga tarqala boshladi, bu 3 asosiy dinning – buddizm, islom va nasroniylikning vujudga kelishiga olib keldi. Buddizmning yoyilishi sanskrit tilini ibodat tiliga aylantirdi. Islomda esa – arab tili. Ikki nasroniy (xristian) e’tiqodlar – sharqiy (pravoslav) va g‘arbiy (katolik) dinlarning tarqalishi hamda cherkovlarning 1054-yilda rim-katolik va grek-pravoslavga bo‘linishi – latin cherkovi, slavyan cherkovi ibodat tillarining qabul qilinishiga asos bo‘ldi.

Millatlarning paydo bo‘lishi bilan bunday tillar ta’sirini yo‘qotadi. Biroq hozirgi adabiy tillarda ularning qoldiqlari kuzatiladi (rus adabiy tilida церковнославян主义, chesh tilida latinizm sifatida). Shuningdek, hindu va urdu (keyingisi XIII-XIV asrlarda Hindiston musulmonlar tomonidan bosib olingandan so‘ng vujudga keldi) tillari misolida kuzatish mumkinki, urdu tilining grammatikasi hindu bilan bir xil, ammo urdu leksikasi eroniy va arab so‘zlari bilan ifodalanadi, alifbosi esa arabchadir (hinduniki - devanagari).

Geneologik tasnifning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Buni qadim olimlar va tarixchilar ham e’tirof etishadi. Jumladan, A.Reformatskiyning fikricha, «tillarning turlichaligi antik fikrlarda ifodalanmaydi, chunki greklar va rimliklar faqat o‘z tillarini o‘rganishni munosib ko‘rib, qolgan tillarni «varvar», ya’ni tushunarsiz g‘uldirash deb

hisoblashar edi». Demak, turli tillilik o‘rta asrlarda, varvarlarning Rimni vayron qilib, o‘zlarining ko‘plab «varvar» tillari - kelt, german, slovyan, turk va b. madaniy hayotga olib kirganlaridan so‘ng yuzaga kelgan. Ilm olamida esa tillarning har xilligi cherkov ta’limoti, jumladan, Bibliya(Tavrot)dagi (Vavilon) Bobil minorasi haqidagi (eslang: Xudo Bobil qal’asini qurishga kirishgan kishilarning tilini aralashtirgan edi...) afsona bilan izohlanar edi. XIX asrgdan boshlab bu e’tiqod real ma’lumotlarni qidirish, izlashga intilish bilan almashdi. Tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metodning shakllanishi sabablari ham shu orqali anglashiladi. Bu metodning asoschilari F.Bopp, Y.Grimm, R.Rask, A.X.Vostokovlardir.

Bizga ma’lumki, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik – bir bobo tildan ajralib chiqqan, o‘tmishda qardosh, qarindosh bo‘lgan tillar faktlarini o‘zaro qiyoslab o‘rganishi, shuningdek qayta tiklash vazifalarini o‘z ichiga oladi. Avgust Shleyxerning qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bo‘yicha qilgan ishlari bizga ma’lum (hind-yevropa tillarida bobo til, tillar shajerasi, bobo til haqida).

Tillarning geneologik klassifikatsiyasi til faktlarini tarixiy prinsip asosida o‘rganib, tillarning qarindoshlik munosabatini aniqlaydi. Bu tasnif turi dunyo tilshunosligida ancha keng tarqalgan bo‘lib, deyarli barcha tillarni qamrab oladi. Tadqiqotlar natijasida tarixiy qarindoshlik belgisi asosida til oilalari deb ataluvchi bir necha yirik guruhlarga bo‘linishi mumkin ekanligini aniqlashdi. Bir oilaga mansub tillar o‘zaro uzoq yoki yaqin «qarindoshlik munosabatlari» bilan bog‘lanadi, bu esa bunday strukturalar, aslida bobo til, asos tilga borib taqalishini ko‘rsatuvchi tillararo umumiyl xususiyatlarda, uyg‘unlikda seziladi. Xuddi shuningdek, geneologik jihatdan turli til oilalariga mansub bo‘lgan tillarda tarixiy genezis asoslari yoki umumiyl kelib chiqishini ifodalovchi so‘z va shakllar mavjud emas. Hozirgi kungacha qabul qilib kelinayotgan tillar genealogik tasnifi quyidagicha:

I. **Hind-yevropa tillari oilasi.** Bu oila eng keng tarqalgan yirik oila bo‘lib, unda 2500 million so‘zlashuvchi kishilar tillari mujassamdir. Bu

tillar ko‘proq Yevropa mamlakatlariga tarqalgan. Osiyo (masalan, Hindiston), Amerika, hatto, Avstraliya va Afrikada ham hind-yevropa tillaridan foydalaniladi. Hozirgi hind-yevropa tillari quyidagi guruhlarga ajratiladi: hind, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek, alban, arman. Bu tillarning barchasi umumiy qonunga ega, ya’ni ularda o‘zak, qo‘shimcha va tovush muntazam mos keladi.

II. Xom-som tillari oilasi. 3 guruhgaga bo‘linadi:

A. Berber guruhi – Tripoli janubi, Tunis, Aljir, Marokko.

1. shilx, 2) tuareg, 3) kabil, 4) amazir – tirik (jonli) tillar; 5) luviy, 6) numidiy, 7) getul – o‘lik til.

B. Misr guruhi.

- 1) qadimgi yahudiy tili; 2) kopt tili – o‘lik til.

V. Kushit guruhi.

Quyi kushit: 1) bedia (bishari, bezavis) Qizil dengiz va Nil orasida; 2) saxo,

- 3) afar (dalkali), 4) somali.

Yuqori kushit – Efiopiyaning g‘arbida: 1) agav (bilin, xamir, kvara); 2) sidam (kafra).

O‘rta kushit - galla (Somalining g‘arbidan Markaziy Afrikaning shimoligacha).

III.Kavkaz tillari oilasi.

2. G‘arbiy guruh: abxaz, kabardin, cherkas, adigey.
3. Nax tillari: chechen, ingush, batsbiy.
4. Dog‘iston tillari: avar, dargin, lezgin, lak, tabasarin, andiy, karatin, tindin, chamolin, bagaul, axvax, butlix, gadoberin, sez, betetin kabilar.

IV.Ugor – fin tillari oilasi. 3 yirik guruhgaga ajratiladi:

5. Ugor tillari: vengr (majar), mansiy, xanti.
6. Fin tillari: fin, saam, karel, komi, eston, udmurt, mariy, mordov.
7. Samodiy tillari: nenes, enes, selkum.

V. Tungus-manchjur tillari oilasi.

8. Tungus guruhi: evenk, even, negidal;

9. Manchjur guruhi: manchjur, nanay, udey, ule, orog.

VI.Xitoy-tibet tillari oilasi.

10. Xitoy tili – 450 million (7 ta bir-biridan juda farq qiluvchi shevalardan iborat).

11. Dungan: Qirg‘iziston, Qozog‘iston va O‘zbekistonda 22 ming kishi, G‘arby Xitoyda 10 million kishi so‘zlashadi;

12. Vietnam (annam).

13. Siam (tay) Hindistonning g‘arbi, Tay.

14. Tibet.

15. Birma tili.

16. Assam tillari.

VII.Dravid tillari oilasi: tamil, malalayam, telugu, kannar, tulu, barxun, gandi.

VIII.Malay-polineziya tillari oilasi: malay, yava, dayak, tagalb, batak, age, bali, madur, torigi, bug‘iy kabilar.

IX.Afrika tillari oilasi.

17. Sudan tillari: nil-chad, nil-abissin, nil-ekvatorial guruh, kardofan, nil-kong, ubang, shor, dagaliy va h.

18. Bantu tillari: bube, lundu, fang, kongo, rundi, ganda, poto, igala, luba, bemba, subiyl, suaxili, sanga, shambala, zulu, soto, venda, lunda.

X. Avstraliya tillari oilasi. Bu yerda mahalliy xalq tillari juda ko‘p bo‘lib, eng asosiy til aranta tili hisoblanadi.

XI.Panusas tillari oilasi. Yangi Gvineya, G‘arbiy Eron hamda Malaneziyadagi ba’zi orollar tili bo‘lib, barchasi yozuvsizdir. So‘zlashuvchilar soni 1000 dan oshmaganligi sababli, til va dialektlar aniq farqlanmagan. Bu tillarga: xagen (medyapa), chimbu (kuman), xuli, kamano, abelam (maprik), ngalum, sianelar kiradi.

XII.Eskimos tillari oilasi. Vrangel, Chukotka, Kanada, Alyaskada tarqalgan.

XIII.Paleosiyo tillari oilasi.

1) Chukot tillari: chukot, koryak;

2) Sibir guruhi: odul, nix.

XIV. Mo‘g‘ul tillari oilasi.

a) xalxa - mo‘g‘ul tili; b) buryat tili; v) qalmoq tili.

XV. Uzoq Sharqning birorta tillar oilasiga kirmagan tillar oilasi.

3) Yapon tili. 70 million kishi gaplashadi.

4) Ryukyu – Ryu-Kyu orollarida (yapon tiliga yaqin).

5) Koreys tili. 30 million kishi gaplashadi.

6) Ayn tili 15 ming kishi gaplashadi. Yaponiyadagi Xokkondo orollari, Saxalin orolining janubi, Kuril orollari.

XVI. Turkiy tillar oilasi.

Bu ham yirik oila bo‘lib, 30ga yaqin til kiradi. Bu tilda so‘zlashuvchilarning aksariyati Osiyo qit’asida yashaydi. Turkiy tillar oilasiga quyidagilar kiradi: *o‘zbek, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, bashqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirg‘iz, qoraqalpoq, chuvash, uyg‘ur, qozoq, karagas, qo‘miq, no‘g‘ay, qorachoy, bolqor, tofalar, qaraim, saxa*. Mazkur oila – bulg‘or tillari guruhi, o‘g‘uz, qipchoq, o‘zbek va uyg‘ur, o‘g‘iz guruhi, qirg‘iz-qipchoq tillari guruhiga ajratiladi.

Tilshunoslikda morfologik tasnif muhim ahamiyatga ega. Bu tasnifning ahamiyatli tomoni shundaki, tillar morfologik xususiyatlari, tiplari asosida muayyan guruhga birlashtiriladi va turg‘un sistematizatsiyaga, qat’iy klassifikatsiyaga erishiladi. Morfologik klassifikatsiya tillarning kelib chiqishi, tarixi, qarindoshlik aloqalari bilan qiziqmaydi, balki tillarning grammatic xususiyatlarini, aniqrog‘i o‘zak va affikslarni qarama-qarshi qo‘yish asosida taqqoslab o‘rganishga asoslanadi. Morfologik klassifikatsiya asosida til tiplari aniqlanadi va ajratiladi. U yoki bu tilning qaysi morfologik tipga mansub ekanligini aniqlash uchun esa shu tillardagi so‘z qurilishi (strukturasi) o‘rganiladi.

Morfologik tasnif - so‘zlarni, o‘zak va qo‘shimchalarni qarama-qarshi qo‘yishga asoslangan. XIX asr o‘rtalarida nemis komparativist olimi Avgust Shleyxer (1821-1868), aka-uka Shlegellar (Fridrix Shlegel va Avgust Shlegel) hamda Gumboldt g‘oyalarini umumlashtirib, o‘zaklar – ma’no, affikslar esa munosabatni ifodalashini isbotlaydi. O‘z vaqtida

F.Shlegel (722-1829) o‘zining «Hindlarning donoligi va tili» (1809) nomli asarida sanskrit tilini grek, latin va turkiy tillar bilan chog‘ishtirib, tillarni ikki tipga ajratiladi: a) affiksli tillar, b) flektiv tillar. Avgust fon Shlegel esa o‘zining «Provansal tili va adabiyoti haqidagi mulohazalar» (1818) nomli asarida tillarni 3 tipga bo‘ladi: a) flektiv; 2) agglyutinativ va 3) amorf tillar. V.Gumboldt esa bu qatorga polisintetik tillar guruhini ham qo‘shadi. Avgust Shleyxer mana shu faktlarga asoslanib, dunyo tillarini 3 tipga ajratadi: o‘zakli yoki ajratuvchi (ruscha: корневые, изолирующие), agglyutinativ va flektiv.

Tillarning morfologik klassifikatsiyasi masalasi bilan G.Shteyntal (1821-1889), N.Fink, Moskva tilshunoslik maktabining asoschisi F.Fortunatov ham shug‘ullangan (1848-1914). Xullas, dunyodagi barcha tillar morfologik tasnif, so‘z strukturasini bo‘yicha 4 tipga ajratiladi:

I. O‘zakli yoki ajratuvchi tillar.

Bu tip tillar qo‘shimchali tillarga zid qo‘yiladi, chunki bunda grammatic munosabat ifodalovchi affikslar bo‘lmaydi. Grammatik ma’nolar yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi, intonatsiya, urg‘u (ularning musiqaviyligi kuchli) yordamida yuzaga chiqadi. Xitoy, birma, tay, tibet va boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo tillari kiradi.

Xitoy tili o‘zakli (ajratuvchi) tillarning tipik vakili hisoblanadi. Bunda analitik strukturali so‘zlarda suffiks o‘rnida mustaqil so‘z, morfema qo‘llaniladi. Masalan, (gunjen - *ishchi*) *ish* + *odam* strukurali; *nuyjen* – *ayol*. Bunday polusuffikslar talaygina: *sza*, *ish*, *sin*, *xau*. *Sza* (*sze*, *za*): *fansza-uy*, *chjozsa-stol*, *itsza-stul*, *putsza-do‘kon* va h.k.

Xitoy tilida so‘zlarning gap bo‘laklari bo‘yicha guruhanishi ham o‘ziga xosdir. Otlar, gapda subyekt, obyekt, atribut, ot-kesim bo‘lib kelishi mumkin, shuningdek, xitoy tili otlari predlog va posleloglar bilan mos: *szay chjotsza shan-stolda*, *szay Moseke-Moskvada*, *utsza li-ko‘chada*. Otlar turlanmaydi, rod va son shakliga ega emas. Xitoy tilidagi fe’llar esa bog‘lamasiz ham kesimga aylanishi mumkin: *Ma pao* – *Ot yuguryapti*; *Ta kan bao* – *U gazeta o‘qiyapti*; *Vo chi* – *Yeyapman*.

Xitoy tilida so‘zlar ko‘p ma’noli va polifunksional (bir necha vazifalarda). Masalan, *xao* so‘zi turli so‘z birikmalari va kontekstlarda turli xil ma’no anglatadi: *xao jen – yaxshi odam, si xao – yaxshilik qilish, dzio xao – qadimgi do’stlik, xao vo – Bu kishi meni yaxshi ko’radi*. Ajratuvchili – analistik tillarda ton va urg‘u asosiy rol o‘ynaydi: tovushning pasayishi va ko‘tarilishi hatto fe’l zamonlarini ham ifodalaydi. Bu tillarni – amorf deb atash ham mavjud (amorf-grekcha *amorphos* – «shaklsiz» demakdir). O‘zakli tillarning o‘ziga xos, ajratuvchi tillar morfologiyasi bu tillarda affiksli yoki flektiv formalarning yo‘qligini yaqqol ko‘rsatib turadi.

II. Agglyutinativ tillar. Bu tip tillar o‘zak va qo‘srimchaning erkin aloqasiga asoslanadi. Masalan, turkiy tillar, fin-ugor, mo‘g‘ul, dravid, bantu, yapon va b. Bundagi affikslar bir ma’nolidir: *maktabimizga* so‘zida [-imiz] – egalik, [-ga] – jo‘nalish; tatar tilida *avel-ovul* (bosh kel.), *avelda* – o‘rin-payt; venger tilida *haz-uy, hazba – uyda, hazan – uylar, hazan ba - uylarda*. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘zak va qo‘srimchalar erkin birikadi, mexanik ravishda qo‘silaveradi, lekin o‘zak bilan birikib, singib ketmaydi, balki ajralib turadi; o‘zak va affikslar alohida qo‘llanmaydi (misralarni qiyoslang). Turkiy tillar uchun prefiksatsiya emas, so‘ng qo‘srimchalar xosdir; qo‘srimchalar o‘ngdan chapga qarab ketma-ket qo‘silaveradi: *ko‘zlarimning*.

III. Flektiv tillar. Bunday tipga, avvalo, hind-yevropa tillari, som-xom tillari kiradi. Agglyutinatsiyadan farqli ravishda, fleksiyada o‘zakka affiks alohida, mustaqil qo‘silmaydi, balki o‘zakka singib ketadi, natijada o‘zak shaklini, tarkibini o‘zgartiradi. Ingliz, nemis, rus va fransuz va, ayniqsa, arab tillari misolida flektiv tillarning morfologik asoslarini kuzatish mumkin: ingliz tilida *begin-began, find-found, bring-brought* va ko‘plik formalari: *goose-geese, foot-feet, tooth-tooth*; nemis tilida: *schreiben-schrieb, fahren-fuhr; bruder (aka-uka) – bruder, buch-bucher* va h.z. Rus tilida ko‘plab so‘zlar fleksiya formalarida ifodalanadi: *вижу (видеть) – виденій (видум)*; fransuz tilida undosh tovushlarning almashishi sifatning rod formalarini ham o‘zgartiradi:

- a) grand – katta (большой – muj. r.) ([d] tovushi talaffuz qilinmaydi.)
- b) grande – (большая – jen.r.) ([d] talaffuz qilinadi.)

Flektiv tillarning tipik namoyandası arab tilidir. Bunda o‘zak-negiz faqat undosh tovushlardan iborat formula bo‘lib, yangi ma’noli so‘zlar unli tovushlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi: *HBB – hubub (sevmoq) – uhbub-sev; mahbub-oshiq, sevimli; mahbuba-ma’shuqa, sevimli ayol; muhabbat-ishq, sevgi; habib, habiba-sevimli, sevgili; KTB-kataba-yozdi, katib-kotib, yozuvchi, kitab-kitob, akteb-yozmoq, maktab-idora yoki maktab-makaatib-idoralar, maktub-xat, noma, yozilgan narsa.*

Flektiv tillarda agglyutinativ tillardan ajralib turadigan yana bir morfologik jihat-qo‘shimchalarning ko‘p ma’noli va polifunksionalligidir. Rus tilida: *видел* so‘zidagi [-ел] qo‘shimchasi zamon (o‘tgan), son (birlik), shaxs (I), mayl, rod ma’nolarini ifodalaydi.

IV. Polisintetik tillar. Amerika hindulari, chukot, koryak va boshqa tillar. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari – ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holni ifodalab kelgan so‘zlar fe’l bilan birikib, murakkab tarkibli qo‘shma so‘z formasiga o‘xhash gap hosil qilishidir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, to‘ldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning o‘rtasida keladi. Masalan, chukot tilida *te-ata-kaa-nme-rkein – Men semiz bug‘ularni o‘ldiryapman*.

Tillarning tipologik xarakteristikasida yana analitik va sintetik tuzumdagi tillar farqlanadi.

Analitik – grammatic munosabatlar qo‘shimchalar orqali emas, analitik vositalar (so‘z tartibi, bog‘lovchi, ko‘makchi) yordamida ifodalanadi. Masalan, ingliz, fransuz, fors tillari. Roman tillari, daniya tili, yangi grek tili (va boshqalar) ham kiradi.

Sintetik–grammatik ma’no qo‘shimchalar orqali ifodalanadi. Qadimgi hind-yevropa, hozirgi litva, nemis, slovyan va turkiy tillar shu siraga kiradi. Shuni ta’kidlash lozimki, tillar sof analitik yoki sof sintetik bo‘lmaydi. Analitik tilda sintetik vositalar, sintetik tizimdagi tillarda analitik unsurlar uchraydi. Masalan, o‘zbek tilida: *Kitobni ukamga oldim* (sint.). *Kitobni*

ukam uchun oldim (anal.). Sintetik til bo‘lmish rus tilida ham бу́ду жде́ть, будем жде́ть kabi (yordamchi fe'l) analitik hodisalar mavjud.

Xullas, hozirgi kunga qadar tilshunoslikda tillarni tasniflash va sistematizatsiyalashning mana shunday tip va guruhlari, prinsip va metodlari mavjud bo‘lb, dunyo bo‘ylab tillarni farqlash va o‘rganish, ularni qon-qarindoshlik (geneologik), hudud (areal), vazifaviy va morfologik, struktur xususiyatlariga ko‘ra anglash imkonini beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tillarni tasniflashning ahamiyati nimada?
2. Tillaq qarindoshligi va asos til deganda nimani tushunasiz?
3. A.Shleyxer qarashlarini sharhlab bering.
4. Morfologik klassifikatsiya asoslari haqida tushuncha bering.
5. Agglyutinativ va flektiv tillarning o‘zaro zid jihatlarini tasniflang.
6. Amorf til nima?
7. Xitoy tili misolida o‘zakli tillar tabiatini tahlil qiling.
8. Analitik va sintetik tillarni ajratish nimaga asoslanadi?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 9; 10; 30; 36; 39; 69]

HIND-YEVROPA TILLARI OILASI

Reja:

- 1.Hind-yevropa tillarining o‘rganish tarixidan.
- 2.Hind-yevropa tillarining qarindoshlik aloqalari.
- 3.Hind-yevropa tillarining tipologik xususiyatlari.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Hind-yevropa tillari oilasi, bu oilani o‘rganish tarixidan, ovrupashunoslari va ularning tadqiqot manbalari, metodlari, hind – yevropa tillarining qarindoshligi, hind – yevropa tillari oilasining guruhlanishi, eng yirik guruh, eng yirik (so‘zlashuvchilar va jahondagi o‘rniga ko‘ra) tillar, hind – yevropa tillarining ichki (lisoniy) xususiyatlari, hind – yevropa tillari flektiv tillar sifatida

Genealogik tasnif asosida, tillarni qiyosiy-tarixiy metod orqali organish, avvalo, hind – yevropa tillari materiallarida ishlab chiqilgan edi.

Bunda XIX asrning birinchi yarmida nemis filologi F.Bonn (1791-1867), rus tilshunosi A.X.Vostokov (1781-1864), nemis olimi A.Shleyxer (1821-1868), fransuz tilshunosi F.Dits (1794-1876)lar hind-yevropashunoslikka asos soldilar. Bundan keyin som-xom, fin-ugor, turkiy, kavkaz tillari oilasi tasniflandi.

Fransuz gumanisti Gvilyelm Postellus (1510-1581) ozining “Tillarning qarndoshligi haqida”, gollandiyalik olim Iosif Skaliger (1540-1609) esa “Yevropaliklarning tillari haqida mulohazalar” nomli tadqiqotlarida yevropa tillari doirasida 11ta “ona til”larni ko‘rsatadilar. 4 ta “katta”: grek, latin (roman tillari bilan), tevton (german), slavyan hamda 7ta “kichik”: alban (epirot), irland, kimrcha (britt), tatar, fincha, venger va bass tillari. Tilshunoslar qadimgi hind (sanskrit) tilini ilmiy o‘rgana boshlaydilar. Sanskrit tilini o‘rganish esa qiyosiy -tarixiy tilshunoslikning shakllanshiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. 1786-yilda ingliz sharqshunos olimi Vilyam Djounz (1746-1794) Kalkuttada qilgan imiy ma’ruzasida sanskrit tilining grek, latin, kelt, got va qadimgi fors tillari bilan qarindosh ekanligini ko‘rsatib berdi. Sanskrit tilini “klassik tillar”ga qiyoslab, bu tillarda faqat o‘zaklarninggina emas, balki grammatik (forma) shakllarning ham o‘xhash, bog‘liq ekanligini va bu o‘xhashliklarning tasodifiy emasligini, bular hind-yevropa tillari orasida qarindoshlik munosabati borligini ko‘rsatadi, deya mulohaza yuritdi.

Frans Bopp (1791-1867) esa xuddi shu yonalishda, ya’ni sanskrit tili va ko‘pgina yevropa tillarini qiyoslash asosida 1816-yilda “Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, latin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash” nomli asarini e’lon qildi va bu asarda mazkur tillardagi tuslanishning o‘xhashligini, bu tillarning bir manbadan kelib chiqqanligini ko‘rsatib o‘tdi. Olim o‘zining III tomli “Sanskrit , hind, arman, grek, latin, litva, qadimgi slovyan , got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi” nomli asarida (1833-1852) hind-yevropa tillarida fleksiyaning kelib chiqish tarixini o‘rganib, tilshunoslikda “agglyutinatiya” nazariyasini ishlab chiqdi.

Hind-yevropa tillari oilasini o‘rganish sohasida Y.Grimm va R.Rasklar ham katta xizmat ko‘rsatishgan. Xususan, Rasmus Rask (1787-1832) o‘zining “Qadimgi island tili va island tilining paydo bo‘lishi” (1814) nomli asarida tillarning qarindoshligi so‘zlarning o‘xshashligiga emas, balki grammatik formalarining o‘xshashligiga asoslanishi kerakligini qayd qilgan. Yakob Grimm (nemis olimi) (1785-1863) esa german tillari qiyosiy grammatikasini yaratdi. 1819-1877-yillar davomida to‘rt tomlik “Nemis tili grammatikasi” asarida german tillari va boshqa hind-yevropa tillariga xos bo‘lgan fonetik sistemani qiyoslaydi. Bu qonun “Grimm qonuni” deya nom qozongan bo‘lib, german tillaridagi [f], [b], [h] tovushlari hind-yevropa tillaridagi [p], [t], [k] tovushlariga mos kelishini isbotlaydi.

Slovyan va roman tillarini tadqiq etish borasida M.V.Lomonosov (1711-1765) ham izlanishlar olib borgan. Uning “Rossiya grammatikasi” (1755), “Rossiya (rus) tillariga qarindosh tillar hamda qadimgi dialektlar haqida” (tugallanmagan) asarlari ma’lum.

1820-yillarda mashhur rus tilshunosi A.X.Vostokov o‘zining “Slovyan tili haqida mulohazalar” asarida slovyan tillarining genetik aloqalarini asoslab berdi. Qiyosiy - tarixiy tilshunoslik haqida, ayniqsa, hind-yevropa tillari oilasi haqida gapirganda buyuk olim Avgust Shleyxerning nationalistik qarashlariga to‘xtalmasdan bo‘lmaydi. Shleyxerning “Сравнительно-ингвистическое исследование” (1848-1850), «Немецкий язык» (1859), «Компендиум сравнительной грамматики индоевропейских языков» (1861-1862) kabi asarlarida uning eng asosiy g‘oyalari o‘z aksini topgan. Olimning tilga “jonli organizm” sifatida qarash, jonli organizmlarga xos “tug‘ilish, rivojlanish va o‘lish” (inqiroz) hodisalari aynan til misolida yaqqol ko‘rinishini e’tirof etish, tillar shajarasi va bobo til masalalarini tadqiq etish faoliyatining nationalistik tafakkuri asosini tashkil qilar edi.

A. Shleyxerning fikricha, dunyo tillarining barchasi uchun umumiyl bobo tilni o‘rnatish mumkin emas. Demak, bir necha bobo tillar bor bo‘lgan. Chunonchi, tillarning ko‘pgina qismi yo‘qolgan va yo‘qolayotgan bir paytda, bizga ma’lum bo‘laman juda ko‘p tillar bo‘lganligini va

shunga yarasha ko‘plab bobo tillar bo‘lganligini tasavvur qilish mumkin. “Hayvon va jonzotlarga xos yashash uchun kurash” qonunini tilga tadbiq etib, shunday xulosaga keladi. “Insoniyatning hozirgi davrida “yashash uchun kurash”da hind-german tillari g‘oliblik qilmoqda, ularning yoyilishi hanuz davom etmoqda, boshqa ko‘plab tillar ular tomonidan siqib chiqarilgan”. Tillar tasnifi masalasiga keladigan bo‘lsak, Vilgelm fon Gumboldtt nazariyasidan (tillarni 4 tipga bo‘lish) farqli ravishda, u Avgust Shlegel g‘oyasiga qo‘shiladi, tillarni 3 turga bo‘ladi.

1. Tarkibli (односложные), agglyutinativ va flektiv. U buni yer yuzidagi taraqqiyot bosqichlari bilan uyg‘unlashtiradi; xitoy, kxasi, birma, namakva tillari arxaik ko‘rinishlar, turk-tatar, mo‘g‘ul, fin, venger, dravid, tibet tillari o‘tuvchi, oraliq tillar, semit va hind – yevropa tillari – eng rivojlangan tillardir.

2.Hind-yevropa tillari eng keng tarqalgan yirik oiladir. Hozirgi hind – yevropa tillari oilasi qarindoshlik darajasiga ko‘ra 10 guruhga ajratiladi: hind, eron, roman, german, slovyan, grek, kelt, arman, boltiq, alban.

1.Hind guruhi. 24 tildan iborat. 676 million kishi so‘zlashadi. Bu 33,7 % ni tashkil qiladi.

- 2.Roman guruhi, 10ta til. 522 million kishi so‘zlashadi. 26,0%
- 3.German guruhi, 10ta til. 421 million kishi so‘zlashadi. 21,0%
- 4.Slovyan guruhi, 11ta til. 282 million kishi so‘zlashadi. 14,1%
- 5.Eron guruhi, 31ta til. 68 million kishi so‘zlashadi. 3,4%
- 6.Grek guruhi, 1ta til. 11,7 million kishi so‘zlashadi. 0,6%
- 7.Kelt guruhi, 4ta til. 9,4 million kishi so‘zlashadi. 0,5%
8. Arman guruhi, 1ta til. 6 million kishi so‘zlashadi. 0,3%
9. Boltiq guruhi, 2ta til. 4,7 million kishi so‘zlashadi. 0,2%
- 10.Alban guruhi, 1 ta til. 4,5 million kishi so‘zlashadi. 0,2%

Demak, hind – yevropa tillari jami 95 tildan hamda 2005,3 million so‘zlovchidan iborat oiladir. Bu tillarning barchasini umumlashtirib turuvchi tipologik xususiyat bor: ularning hammasi flektiv tipga mansub.

Hind – yevropa tillarining genealogik tasnifi quyidagicha:

Hind guruhi:

- 1). Hind (Hindiston), 150 million, 2 adabiy shakli bor: urdu hamda hind;
- 2). Bengal, 60 million, Ganga daryosi va Bengal qo‘ltig‘i tomonlari;
- 3). Bixori, 30 million, Hindistonning shimoliy-sharqi;
- 4). Maratxi, 20 million, G‘arbiy Hindiston;
- 5). Panjob, 20 millionga yaqin, Shimoliy Hindiston;
- 6). Rajastoni, 15 million, Hindistonning shimoliy g‘arbi;
- 7). Bujarat, 13 million, Hindistonning g‘arbi;
- 8). Uriya, 10 million, Sharqiy Hindiston;
- 9). Sindxi – Hind daryosi vodiysi va b. yangi hind tillari;
- 10). Sigan (lo‘li) – Ispaniya, Vengriya, Chexiya, Ruminiya, Germaniya, Turkiya, Rossiya va Osiyoda V-X asrlarda migratsiya yo‘li bilan tarqalgan elatlar tili;
- 11). O‘lik tillar (veda tili)-sanskrit: veda tili, pali, prokrit.

2. Eron guruhi.

- 1). Forsiy, 15 million, Eronning davlat tili;
- 2). Afg‘on (pushtu) – Afgonistonning milliy adabiy tili;
- 3). Baluchi (beludja) – Baluchiston tili;
- 4). Kurd – shimoliy – g‘arbiy Eron, Iroq, Turkiya chegaralari va Armanistonda yashovchi kurdlar tili;
- 5). Tojik, 1 million, Tojikiston, O‘zbekiston va Qozog‘iston;
- 6). Osetin, 266 ming, shevalari; iron (shim. Oseteya) va digorga (jan. Osetiya) kavkaz tillarining ba’zi belgilari bor;
- 7). Tolish, 80 ming, Ozarbayjon;
- 8). Tog‘, Ozarbayjon, janubiy Dog‘iston;
- 9). Rushan, 7, 1 ming
- 10). Shug‘non, 12 ming Badaxshon tog‘lari;
- 11). Yag‘nob, 1 ming, o‘sha yerda va boshqa pomir shevalari.

O‘lik tillar: qadimgi fors, avesto, pahlaviy, skif, so‘g‘d, xorazmiy, sak tillari.

3.Slovyan guruhi.

A.Sharqiy guruh:

- 1). Rus, 10 million, Rossiya va sobiq SSSR respublikalarida; shimoliy rus -“olvchi” va janubiy rus – “olvchi” eng muhim aloqa tili (jahon bo‘ylab);
- 2). Ukrain, 40 million, Ukraina, shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog‘iston; o‘ng qirg‘oq va chap qirg‘oq (Dnepr bo‘ylab) tillari mavjud;
- 3). Belorus, 9 million, Belorussiyada.

B. Janubiy guruhi:

- 4). Bolgar, 7 million, Bolgariya, Yugoslaviya, Moldaviya va Ukrainada;
- 5). Makedon – Bolgariya, Yugoslaviya va Gretsiyada;
- 6). Serb – xorvat, 10 million, Yugoslaviya (Serbiya, Bosniya, Gersogovina, Xorvatiya); serblarda – rus alifbosi, xorvatlarda – latin yozuvni;
- 7). Slovyan, 1 million, Yugoslaviya, Pridunay Avstriya, Italiya.

O‘lik tillar: qadimgi staroslavyan – rus adabiy tilining tarkibiy asosi.

D. G‘arbiy guruhi:

- 8). Chex, 9 million, Chexoslovakiyada;
- 9). Slovak, 3 million, o‘sha yerda;
- 10). Polyak, 25 million, Polshada;
- 11). Koshub, 150 ming, Polsha va Boltiq qirg‘oqlarida;
- 12). Serbelug (sorab, vend), 10 ming, Shpre daryosida, Luzatsiyada, Germaniyada, yuqori lug va quyi lug tillari mavjud.

4.Boltiq guruhi.

- 1). Litva, 2 million , Litvada;
- 2). Latish , 1 million, Latviyada;
- 3). Latyul – Latviyaning sharqida.

O‘lik tillar: pruss XVII asrdan so‘ng “o‘ldi”, sobiq Sharqiy Prussiya hududlarida.

5.German guruhi.

A.Shimoliy german (skandinav) guruhi:

- 1). Dat, 3 million, Daniya;
- 2). Shved, 7 million, Shvetsiya, g‘arbiy Finlyandiya, Norvegiya;

3). Norveg, 3 million, Norvegiya (ikki adabiy til, riksmal, (bukmal)-datchaga yaqin kitobiy til, lansmal (nyunorsk) – norveg dialektlariga eng yaqin);

4). Island, 100ming , Islandiya;

5). Farryor, 25 ming, Farryor orollari (Atlantika okeanida);

B. G‘arbiy german guruhi;

6). Ingliz, 170 million, Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSH (ingliz tilini “amerikacha shakli”), Kanada, Alyaska, janubiy Afrika Birlashmasi, Sudan, Misr, Siriya, Falastin, Iroq, Hindiston, Avstraliya, Yangi Zelandiya (V-XI asrlarda- qadimgi ingliz, XI-XVI asrlarda – o‘rtalagi ingliz, XVI asrdan yangi ingliz; ingliz adabiy tili London dialekti asosida shakllandi, jahonda xalqaro til maqomiga ega);

7). Golland flamandchasi, 13 million, Gollandiya, Shimoliy Belgiya, Afrikadagi buryatlar tili;

8). Friz, shimoliy Gollandiya (Germaniya bilan chegaradosh) va Nemets daryosi orollarida;

9). Nemis tili, 80 million, Germaniya, Avstriya, shimoli g‘arbiy va g‘arbiy Shveytsariya (ikki tili: quyi nemis hamda yuqori nemis adabiy til janubiy nemis tilining shimoliy talaffuzi asosida shakllandi, eng yirik xalqaro tillardan biri);

10). Idish (tedish, yangi yahudiycha) – turli yuqori nemis dialektlari-qadimgi yahudiy, slovyan va boshqa tillar bilan qo‘silgan holda, Germaniya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Vengriya va hokazolarda tarqalgan yahudiylar tili.

D. Sharqiy German guruhi:

O‘lik tillar: vestgot hamda ostyut.

6.Roman guruhi.

1). Fransuz, 45 million, Fransiya, Janubiy Belgiya, G‘arbiy Shvetsariya, Kanada, shuningdek, Marokko, Aljir, Tunis, Fransuz Ekvatorial Afrikasi, Levant, Siriya, Hindixitoy, AQSH, Gviana va Gaiti (adabiy til XVI asrda Il-de-Fransa dialekti asosida shakllandi, fransuz tili boshqa yevropa tillaridan oldin xalqaro tilga aylanadi);

- 2). Provansal, 10 million, Janubi sharqiy Fransiyada;
- 3). Italian, 40 million, Italiya, Janubiy Shvetsariya, Afrikadagi sobiq italyan to‘dalari (adabiy til toskan dialektlari hamda Florensiya shevasi asosida shakllandi, tarixan - Yevropada birinchi milliy til);
- 4). Sardin (yoki sard), 900 ming, Sardiniya oroli;
- 5). Ispan, 85 million, Ispaniya , Filippin orollarli hamda Markaziy va Janubiy Amerikaning barcha Respublikalari (Braziliyadan tashqari);
- 6). Katalan, 5 million, Shimoli g‘arbiy Ispaniya, Janubiy Fransiya;
- 7). Portugalcha, 40 million, Portugaliya, Shimoli-sharqiy Ispaniya, Janubiy Amerikadagi Braziliyada;
- 8). Rumin, 13 million, Ruminiyada;
- 9). Moldav (rumin tiliga yaqin), 2 million, Moldaviyada;
- 10). Makedon-rumin, 300 ming, Makedoniya, Albaniya va Gretsiyada;
- 11). Ret-roman, 400 ming, Shimoliy-sharqiy Italiyada; 50 ming, Janubiy-sharqiy Shveytsariyada.

O‘lik tillar: latin, o‘rtta asr vulgar latin tili, osks, umbr, sabel tillari.

7.Kelt guruhi (3 millionga yaqin).

A.Gael guruhi:

- 1). Irland (eyre), Irlandiyada;
- 2). Shotland, 140 ming, Shimoliy Shatlandiyada, Gebrid va Orkney orollarida;
- 3). Man orollarli tili (Irland dengizi) - o‘layotgan va faqat qari baliqchilarda saqlanib qolayotgan til.

B. Britt guruhi:

- 4). Breton, 1 million, Fransiyadagi Bretan yarim oroli;
 - 5). Uelz (yoki vallyi), 900 ming, Ueylz (Wallis) - G‘arbiy Angliyada.
- O‘lik tillar:
- 6). Kornual-XVIIasrda o‘lgan (Kornual - Janubi-g‘arbiy Angliyadagi yarim orol).

V. Gallcha guruhi:

7). Gall - fransuz tilining shakllanishi bilan o'lgan (Galliya, Shimoliy Italiya, Bolqon va, hatto, Kichik Osiyoda tarqalgan edi).

8.Grek guruhi.

1). Yangi grek, 8 million, Gretsya, O'rta yer dengizi sharqiy qismi orollari.

O'lik tillar:

2). Qadimgi grek, eramizgacha X asr - eramizning V asrlarida mavjud bo'lgan, o'rta grek yoki vizantiy tili.

9. Alban guruhi.

Alban tili – Albaniyada.

10.Armyan guruhi.

Armyan, 2 million, Armaniston, Eron va Turkiyada.

11.Xett guruhi.

- 1). Xett-Kichik Osiyodagi Xett davlati (eramizgacha XIX-XII asr);
- 2). Luviy;
- 3). Palaet.

12. Toxar guruhi.

- 1). Toxar a) (turfan, qarashor) - Xitoy Turkistonida;
- 2). Toxar b) (kuchan) – o'sha yerda, VII asrda Kuchada.

Hind-yevropa tillari flektiv tillardir. So'zlarning morfologik shakllarining fleksiya orqali yasalishi bu tillarning asosiy morfologik xususiyatidir. Bu tillarda har bir mustaqil so'zning dastlabki shakli ham negiz va qo'shimchalarga bo'linadi, natijada, o'zak-negiz mustaqil qo'llanmaydi. Masalan, rus tilida *вижу*, *видишь*, *видят* so'zlarining o'zak negizi *виж*, *вид* bo'lib, bular mustaqil ishlatilmaydi. Bundan tashqari, flektiv tillarda (agglyutinativ tillardan farqli o'laroq) bir qo'shimcha bir necha grammatik ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, rus tilida – *видел* so'zidagi [-ел] qo'simchasi zamon (o'tgan zamon), son (birlik), shaxs (birinchi), mayl, rod ma'nolarini ifodalaydi.

Flektiv tillarga so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi funksiyani bajaradigan ichki fleksiya xos. Bunda o'zak - negizda tovush almashuvi bilan turli grammatik ma'nolarini ifodalanganadi.

Ichki fleksiyada undosh tovushlar ham, unli tovushlar ham o‘zgarishi mumkin. Ingliz va nemis tillarida ko‘proq unli tovush o‘zgarsa, rus tilida ko‘proq undosh tovushlarning o‘zgarishi kuzatiladi. Masalan, ingliz va nemis tillarida kuchli fe’llarning asosiy formalarini yasaydigan ablaut hodisasi quyidagicha:

nemis tilida – *singen – sang – gesingen* ;

ingliz tilida – *sing - sang-sung; bring – brought – brought; see – saw – seen*.

Son kategoriyasining ko‘plik shakli nemis va ingliz tillarida ham agglyutinativ (affiksatsiya) usulida ham ichki fleksiya orqali yasalishi kuzatiladi:

ingliz tilida - 1) *sister – sisters, book – books, eye – eyes, egg – eggs;*
2) *foot –feet, toose – teese, goose – geese, woman – women, child – children.*

Nemis tilida otlar quyidagicha qo‘shimchalar orqali yasaladi:

[-e] *Der Tisch (stol) – Die Tische (stollar);*

[-en] *Der Student – Die Studenten ;*

[-n] *Die Tafel – Die Tafelen (doskalar);*

[-er] *Das Buch – Die Bucher (kitoblar).*

Xuddi shu ko‘rinishlararo ichki fleksiya ham kuzatiladi. Chunonchi, *Buch-Bucher, Bruder – Bruder (aka-akalar)*. Nemis tilidagi *Bruder – aka* oti ko‘pgina hind – yevropa tillarida ma’lum bir fonetik o‘zgarishlar bilan ko‘rinadi. Masalan,

rus	polyak	ingliz	nemis	fransuz	fors
<i>брать</i>	<i>brat</i>	<i>brother</i>	<i>bruder</i>	<i>frere</i>	<i>birodar</i>

Mather (ona), father (ota), sister (opa) so‘zlari ham fonetika differensiyalarni namoyon qiladi:

rus	ingliz	nemis	fransuz	fors
<i>мать</i>	<i>mother</i>	<i>mater</i>	<i>mer</i>	<i>modar</i>
<i>nana</i>	<i>father</i>	<i>pater</i>	<i>per</i>	<i>padar</i>
<i>cecmpa</i>	<i>sister</i>	<i>schwester</i>	<i>sceur</i>	-

Flektivlik fors tilida ham ko‘rinadi. *Shudan* (*bo‘lmoq*) – shaved; *kardan* – *kun* (buyruq maylida) – *bikun*; *shushtan* (*yuvmoq*) – *sho‘y* (*bisho‘y*).

Fransuz tilida undosh tovushlarning almashishi sifatning rod formalarini ham o‘zgartiradi:

rond – круглый (muj.r.), *aylana* ([d] tovushi talaffuz etilmaydi).

ronde – круглая (jen.r.) ([d] aytiladi).

grand – *katta* – большой ([d] aytilmaydi).

grane – большая ([d] aytiladi).

Hind-yevropa tillarida grammatik ma’no ifodalashning yana bir usuli suppletivizmdir. Buni quyidagi misollarda kuzatamiz:

	hoz.z.	o‘tgan z.	kel.z.
ingliz t.	<i>am-are</i>	<i>was/were</i>	<i>shall/will</i>
	<i>is-are</i>		

To be (*bo‘lmoq*) fe’lining zamonlar bo‘yicha tuslanishi mana shunday suppletiv yo‘l bilan hosil qilinadi. Va, nihoyat, gap sohasida hind – yevropa tillarining umumiyl xususiyati shundaki, bunday tillarda ega va kesimning qat’iy ishtiroki va o‘rni muhim ekanligi kuzatiladi.

nemis tilida	ingliz tilida	rus tilida	o‘zbek tilida
Der Lehrer commt	The teacher came	Учитель пришёл	O‘qituvchi keldi
Ich kammt	I came	Я пришёл	Keldim

Ko‘rinadiki, hind-yevropa tillaridagi *kelmoq* fe’li o‘zbek tilidagi(fe’l) kesim kabi zamon, shaxs-son, mayl va bo‘lishli bo‘lishsizlikni birdaniga ifodalay olmaydi, balki barcha shaxslar uchun bir, o‘zgarmasdir.

<i>Я пришла</i>	<i>I came</i>	<i>we came</i>
<i>Ты пришла</i>	<i>You came</i>	<i>You came</i>
<i>Она пришла</i>	<i>She-He came</i>	<i>They came</i>

Hind-yevropa tillaridan tashkil topgan bu yirik oilaning eng xarakterli tipologik xususiyatlari shulardan iboratdir.

Tillarning o‘zaro qarindoshlik aloqalari va lisoniy xususiyatlari, tipologik belgilari tilshunoslikning muhim masalalaridandir. Xuddi shuningdek, eng yirik til oilasi bo‘lishi hind-yevropa tillarini qiyosiy

tarixiy (hamda qiyosiy-tipologik) metod asosida tadqiq etish ko‘pgina jahon tillarini bir genetik uya zamirida tekshirish imkonini beradi. Hind-yevropa tillari tarkibiga rus, ukrain, belorus, chex, polyak, bulg‘or, nemis, ingliz, golland, shved, norveg, fransuz, ispan, italyan, portugal va forsiy tillar kiradi. Bu tillarning barchasi o‘zaro, qarindosh. Avgust Shleyxer ta’biri bilan aytganda “barcha hind-yevropa tillari bir” “bobo til” asosida vujudga kelgan”.

Flektiv grammatik usul xos bo‘lgan tillarning ham eng ko‘p qismini hind – yevropa tillari tashkil qiladi. Shuningdek, analitik tizimdagи ko‘pchilik yevropa tillarida sintetik unsurlar ham kuzatiladi yoki sintetik belgilar xarakterli bo‘lgan til (masalan, rus tili) analitik vositalardan ham foydalanadi. Umuman olganda, hind – yevropa tillari oilasi juda boy va keng imkoniyatlarga ega, eng rivojlangan lisoniy xususiyatlarni umumlashtirgan va, nihoyat, jahondagi eng yirik, eng salmoqli xalqaro aloqa tillari (rus, ingliz, nemis, fransuz, italyan...)ga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Hind-yevropa tillari oilasini tarixiyligi, qon-qarindoshligi bo‘yicha tasniflang.
2. Avgust Shleyxer hind-yevropa tillarini o‘rganish va tasniflashda qanday metod va g‘oyalardan foydalangan?
3. O‘zingiz biladigan tillar doirasida (hind-yevropa tillarida) o‘xhash, genetik aloqador til birliklaridan misollar keltiring. Fonetik, leksik va grammatik belgilarning umumiyligi va farqlarini tushuntiring.
4. Hind-yevropa tillarining jahonda tutgan o‘rni va ahamiyati qay darajada? Bugungi kunda qaysi tillar ilm-fan, siyosat, madaniyat va biznesning xalqaro tiliga aylangan?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 9; 10; 30; 36; 39; 69]

TURKIY TILLAR OILASI

Reja:

1. Turkiy tillarni o‘rganish tarixidan.

2. Turkiy tillar oilasi, uning genealogik guruhlari haqida.
3. Turkiy tillarning lisoniy xususiyatlari.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Turkiy tillarning o‘rganilish tarixidan, ilmiy turkiyshunoslik asoschilarini, turkiy tillarning geneologik tasnifi, turkiy tillar oilasi, agglyutinativ tillar, turkiy tillarning fonetik strukturasini

Turkiy tillarni o‘rganish uzoq davrlarga borib taqaladi. Turkiyshunoslikni XI asrda Mahmud Qoshg‘ariy boshlab berdi. O‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida olim (Qomus Istambulda Ahmad Rif‘at tomonidan 1915-1917-yillar (III tomlik) da nashr qilingan, shuningdek, Sim Atalay (Divanu Lug‘at-it-Turk terkumesi) va C.Bchoskelmann (Mittelturkischer Wortschatz nach Mahmud al-Kasgaris Divan Lug‘at-it-Turk) tomonidan tarjima qilingan) asosan uyg‘ur, xakas, qipchoq va o‘g‘uz tillari materiallari asosida qiyosiy-tipologik tadqiqotlarni yuzaga chiqargan. Asarda qirg‘iz, qipchoq, uyg‘ur, tuxsi,yag‘mo, chigil, igrak, charuk, yemak, boshqird tillari va xalqlari qarindosh deyiladi. Bulg‘or va suvar tillarini birmuncha farq qiluvchi, o‘g‘uz tillarini esa eng oddiy, deb hisoblaydi. Chumul, kay, yabaku, tatar, basmil xalqlari boshqa tilda gaplashishgan. Eng to‘g‘ri, ya’ni abadiy tilga eng yaqin til – tuxsi va yag‘mo tillari bo‘lgan.

Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida so‘zlar ulardagi tovushlar sonining o‘sib borishiga ko‘ra joylashtirilgan. Ismlar va fe’llar farqlanib, turkiy tillarning fonetik – morfologik tasnifi hamda jo‘g‘rofiy yoyilganligiga ko‘ra xarakteristikasi berilgan. Tillar tabiatini hamda ularning u yoki bu tasnif guruhiga mansubligini ifodalovchi belgilar sifatida M.Qoshg‘ariy quyidagilarni ko‘rsatadi:

- a) соответствие (y~j) so‘z boshida y-j mosligi;
- b) so‘z boshida m~b;
- v) so‘z oxirida y – n;
- g) so‘z boshida t~d;
- d) so‘z o‘rtasida y~z.

Az-Zamaxshariyning (1143-yilda vafot etgan) “Muqaddimat al-adab” nomli filologik asari arab-fors-turk-mo‘g‘ul tillari lug‘ati sanaladi. V.V.Bartoldning aniqlashicha, bu lug‘atning turkiy qismi eramizning XII-XIII asrlari adabiy turkiy tilini aks ettiradi. Al-Andalusiy (arab tilshunosi) yaratgan lug‘at va grammaticada qipchoq (kuman yoki poloves) tilining o‘g‘uz (turkman) tili bilan qiyosan elementlari mavjud. Jamoliddin ibn Muxannanining “Xil’at ul-lison va halibot ul bayon” asari o‘g‘uz tillaridan birining lug‘at va grammaticasini, shuningdek, fonetik xarakteristikasining bayon etilganligi bilan ajralib turadi. *b* va *m*, *t* va *d* undoshlarining boshda *f* va *n*, *k* va *x* undoshlarining boshqa pozitsiyalarda kelish xususiyatlari ochib beriladi. Jamoliddin at-Turkiyning “Bulg‘at al-mushtak” lug‘ati arab-qipchoq tillarini qiyoslash asosida tuzilgan.

Misrda arab filologlari tomonidan yaratilgan asarlar: XV asr grammatic tadqiqoti “Qavanin al-Kulmiya li-dabt al-lug‘at at-Turkiya” (1928-yilda Istanbulda Kilisli Rif‘at tomonidan nashr etilgan) hamda XV asrning filologik asari “Kitob at-tuhfatuz zakiya” (1945-yilda Istanbulda Basim Atalay tomonidan nashr qilingan)dir. Turkiyshunoslikning yana bir tarmog‘i XVIII va XIX asrning 1-yarmidagi rus va g‘arb tadqiqotchilarining izlanishlari samarasini o‘z ichiga oladi. XVIII asrdan turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish sohasida F.I.Tabbert – Stralanberg (shved ofitseri) muhim o‘ringa ega. U ural-oltoy nazariyasi-ural (fin-ugor va samold) va oltoy (turk, mo‘g‘ul va tungus-manchsjur) tillarining qarindoshligini aniqlagan. Bu nazariyaning tarafdarlari sifatida V. Shott, M.A.Kastren, O.Donner, G.Vinkler, I.Gryunsel, G.Ramatedt, A.Sovaneo va boshqalar ma’lumdirlar.

Ilmiy turkiyshunoslikning asoschilar - O.Byotlingk va V.V.Radlov hisoblanadi. Turkologiyadagi¹ qiyosiy - tarixiy tadqiqot O.Bytlingkka tegishli bo‘lib, unda yoqt tili va uning boshqa turkiy tillardagi grammatic qurilish va leksika bilan solishtirilgan tarzda bayon qilingan. L.Budagov² va H.Vamberi ham turkiy tillar leksikasi bo‘yicha muhim izlanishlar natijalarini yozib qoldirishgan. V.V.Radlov turkiy tillarini qiyosan o‘rganish bo‘yicha eng mukammal va asosli ishlar yaratganki, undan

keyingi tadqiqotlar V.V.Radlov ishlarining davomi va to‘ldirilgan ko‘rinishlari bo‘lib yuzaga chiqdi. Olimning “Образцы народной литературы тюркских племён” (т. I-X, СПБ, 1868-1904), “Опыт словаря тюркских наречий” (СПБ, 1888-1905) kabi asarlari turkiy tilshunoslikda eng qimmatli ilmiy asarlardir.

N.F.Katanova “Опыт исследования урянхайского языка с указанием главнейших родственных отношений его к другим языкам тюркского корня” (Казань, 1903) nomli tadqiqoti ham fanda ulkan shuhrat qozondi. Xullas, turkiy tillarini o‘rganish bo‘yicha qisqacha sharx shulardan iborat bo‘lib, turkiy tillar, turkiy xalqlar va ularning madaniyati kabilar olimlarni qiziqtirib kelganligini dalillaydi.

Turkiy tillar – oltoy oilasiga kiruvchi hamda genetik va tipologik belgilari bilan umumlashadigan qarindosh tillar hisoblanadi. Turkiy tillarni genealogik jihatdan tasniflash bo‘yicha I.N.Berdin, N.I.Ilminskiy, V.V.Radlov, N.A.Aristov, N.F. Katanov, F.Ye.Korsh, A.N.Samaylovich kabi olimlar izlanishlar olib borishgan. Shulardan A.N.Samaylovichning tasnifi keng tarqalgan bo‘lib, turkiy tillarning barchasi 6 asosiy guruhga ajratiladi:

1. R-guruh, bulg‘or yoki chuvash:

1) taxar; 2) ura; 3) pul; 4) tao‘//tu; 5) sari; 6) qalan//yo‘lna; bu guruhga zamonaviy chuvash va qadimgi bulg‘or tillari kiradi.

2. D-guruh, uyg‘urcha yoki shimoliy-sharqiy:

1) toquz; 2) adaq//azaq; 3) pol; 4) tag‘; 5) sarig‘; 6) qalg‘an; bu guruhga 3 kichik guruhanlar kiradi:

a) b-guruhi: O‘rxun–Enasoy yodgorliklari qadimgi tili, qadimgi uyg‘ur va zamonaviy karagas, salar va tuva tillari;

b) z-guruh: sariq uyg‘urlar, ilor va xakaslar tili;

v) t-guruh: yoqt tili.

3. Tao‘ - guruh, qipchoq yoki shimoli - g‘arbiy:

1) tog‘uz; 2) ayaq; 3) bol//bul; 4) tao‘; 5) sari; 6) qalg‘an. Bunga:

a) mo‘g‘ullargacha: oltoy tili, qirg‘iz, qumiq, qorachoy-bolqor, qaraim, tatar, boshqird;

b) mo‘g‘ullardan so‘ng: qozoqcha va no‘g‘aycha kiradi.

4. Tag‘liq – guruh, chig‘atoy yoki janubiy – sharqiy:

1) toquz; 2) ayaq; 3) bol; 4) tag‘; 5) sariq; 6) qalg‘an. Bunga qadim chig‘atoy, Xitoy Turkistoni aholisi tili, o‘zbek tili va qora tatarlar tili kiradi.

5. Tag‘li – guruh, qipchoq – turkman:

1) doquz; 2) ayaq; 3) bol; 4) tag‘; 5) sari; 6) qalg‘an. Bularga xorazm o‘zbeklarining shevashi ham kiradi.

6.Ol- guruh, turkmancha yoki janubiy – g‘arbiy:

1) doquz; 2) ayaq; 3) ol; 4) dag‘; 5) sari; 6) qalan. Turkman, ozarbayjon va turk tili, gagauzlar tili ham kiradi.

Turkiy tillar oilasiga 30 ga yaqin til kiradi. Bu tillarda so‘zlashuvchi xalqlar Osiyo, Yevropa, Amerika va Avstraliyada istiqomat qiladilar. Bu tillarda so‘zlashuvchilarning aksariyati Osiyo qit’asida yashaydi.

Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorag‘ay, balqor, qo‘miq, no‘g‘oy, tatar, bashqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirg‘iz, o‘zbek, qaraqalpoq, chuvash, uyg‘ur, qozoq.

Turkiy tillar quyidagilardan iborat:

1. Bulg‘or tillari guruhi: hozirgi chuvash tili va qadimgi bulg‘or va xazar tillari.

2. O‘g‘uz tillari guruhi:

a) turkman tili – Turkmaniston;

b) turkman tili – Shimoliy Kavkaz va Stavropol o‘lkasida yashovchi turkmanlarning tili;

v) o‘g‘uz – bulg‘or tillariga gagauz va balqon turklari tillari kiradi;

g) ozarbayjon va turk tillari.

3. Qipchoq tillari guruhi:

a) qaray tili. Bu tilda Litva, Ukrainianing janubida va Qrimda istiqomat qiluvchi qaray elati so‘zlashadi;

b) qo‘miq tilida Dog‘iston Avtonom respublikasida istiqomat qiluvchi qo‘miqlar so‘zlashadi;

v) qorag‘oy – balqar tilida Kavkazda yashovchi qorag‘oy va balqor elatlari so‘zlashadi;

- g) qrim - tatar tilida qrim, belarus, litva tatarlari so‘zlashadilar;
- d) tatar tili, boshqird tili;
- j) no‘g‘oy tili;
- z) qoraqalpoq tili;
- i) qozoq tili.

4. O‘zbek va uyg‘ur tillari guruhi. O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy adabiy tili bo‘lib, bir-biridan fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan shevalardan tashkil topgan. Uyg‘ur tili O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Xitoy Xalq respublikasining Sinsyan – Uyg‘ur respublikasida yashovchi uyg‘ur xalqining tilidir.

5. O‘g‘iz tillari guruhi:

a) Tuva tili. Tuva va Mongoliya Xalq respublikasi territoriyasida yashovchi tuva xalqining tilidir;

b) tofalar (yoki karagas) tili Krasnoyarsk o‘lkasida yashovchi elat tili.

6. Yoqut tili. Yoqutistonda yashovchi yoqutlarning tilidir.

7. Xakas tillari guruhi: xakas tili, shor tili, cho‘lim tili (cho‘lim tatarlari tili), oltoy tilining shimoliy shevalari.

Turkiy tillar – agglyutinativ tillar guruhiga kiradi. Turkiy tillardagi affikslar bir ma’nolidir – so‘z tarkibida ishtirok etayotgan har bir qo‘sishimcha faqat bir ma’noni anglatgan holda birin – ketin yopishib ketaveradi. Masalan, o‘zbek tilida *o‘qituvchilarga* so‘zida *o‘qi* - o‘zak, *t-orttirma* nisbat qoshimchasi, *uv*-harakat nomi qo‘sishimchasi, *chi*-shaxs oti yasovchi affiks, *lar*-ko‘plik, *ga*-jo‘nalish ma’nosoni ifodalaydi; vengr tilida *haz-uy*, *hazba-uyda*, *hazak-uylar*, *hazakba-uylarda*. Ko‘rinadiki, turkiy tillardagi qo‘sishimchalar o‘zakka mexanik ravishda qo‘shilaveradi, lekin o‘zak bilan birikib, singib ketmaydi, o‘zakdan ajralib turadi. Shuningdek, turkiy tillarda prefiks yo‘q (fors-tojik tillaridan kirib kelgan ayrim old qo‘sishimchalardan tashqari), ya’ni qo‘sishimchalarining ketma- ket qo‘shilishi natijasida so‘zning kengayishi faqat bir tomonga, ya’ni o‘ng tomonga yo‘nalgan bo‘ladi:

maktablarga. Turkiy tillardagi ko‘makchilar otdan yoki ot vazifasidagi so‘zdan keyin kelib, uni boshqa so‘zga – boshqaruvchiga bog‘laydi va ular orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydi. Masalan, *Baxtim uchun kurashaman. Ukam bilan bordim.*

Turkiy tillarda grammatik rod (jins) kategoriyasi yo‘q. Shunga ko‘ra, gapda so‘zlarning o‘zaro sintaktik aloqaga kirishuvi o‘zgacha: turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida, sifat, son, olmosh, sifatdoshlar ot bilan bitishuv munosabatiga kirishadi. Hind – Yevropa tillarida kesimning morfologik belgilari faqat fe’lga qo‘silsa, turkiy tillarda kesim vazifasida kelgan har bir so‘z turkumiga qo‘silishi mumkin. Qiyoslang: *Это здание - институт; Bu bino institutdir. Men – onaman. Ko‘ylagimni tiktirdim.*

Turkiy tillarning qiyosiy – tipologik xususiyatlari N.A.Baskakovning “Введение в изучение тюрских языков” (М., 1962) nomli kitobida atroflicha sharhlangan. Jumladan, so‘zning morfologik tarkibi xususida shunday hodisalarni aniqlaydi: o‘zaklar birlamchi yoki tub bo‘ladi (umumturkiy o‘zaklar): *al-olmoq, kel, min, ot (o‘t), tas/tash (tosh), kyoz (ko‘z)* yoki yasama, ya’ni o‘zak va unumsiz (o‘lik) qo‘sishimchalar orqali, masalan: qoraqalpoqcha: *jurek (yurak), qizil (qiz+il), azira (boqmoq-az+ir+a), qora kabilardir. Tas/tash (tosh), qal (qop), ic/ish (ish), at (ot), qol (qo‘l)* va hokazolar predmetlarning nomini atab, ot so‘z turkumiga kiradi hamda birlikdagi, bosh kelishikdagi so‘zlar qatorini hosil qiladi³.

Aq, sari, qara, biyik, (baland) o‘zaklari statik belgini ifodalab, sifat so‘z turkumini tashkil qiladi. *Endi (endi), burun, en (eng)* kabilar, deydi olim, belgining belgisini ifodalab, ravish kategoriyasiga kiradi. *Bir, eki (ikki), uch/ush (uch) tort ,(to‘rt)* kabilar sonlardir. *O‘ay! Iq! Maa!* undov va taqlidlar, *uchin/ushin, deyin (-gacha)* kabilar ko‘makchilar, -g‘u (-ku), -ma/me (-mi) (so‘roq yuklamasi) – yuklamalar hamda *hem, biraq* boglovchilar hisoblanadi. Turkiy tillarda fe’llar ham o‘ziga xos tabiatga ega, ya’ni ular yasalish xususiyatiga ega: *tashla, angla, bilim, qapshiq (qopchiq- qop va kichraytirish shakli –chiq/-shiq.)* Turkiy

tillarda fonetik struktura- o‘zak morfemalardagi 3 tovushli tarkib bilan ajralib turadi. Har bir o‘zak –undosh + unli+ undosh tartibidagi yopiq bo‘gindan iborat (cgc). Ikki tovushli, bir tovushli o‘zaklar turkiy tillarda kam uchraydigan istisnolikdir, ular aslida 3 tovushli tarkibning tarixan, fonetik jihatdan qisqargan ko‘rinishidir. 3 tovushdan ko‘p so‘zlar boshqa tillardan o‘zlashgan hisoblanadi.

Turkiy tillarga xos bo‘lgan gap qurilishi [WPm] qolipi asosida voqelanadi. Предикатив bog‘lanish [Pm] (predikate-kesim, m – shaxs/son, zamon, mayl, modallik) orqali yuzaga chiqadi. So‘z birikmasi –gap kengaytiruvchilari yoki so‘z kengaytiruvchilaridan iborat bo‘lishi mumkin. Mana shu sintaktik xususiyat barcha turkiy tillar uchun xos bo‘lib, bu oilani boshqa tillardan, ulardagi grammatik xususiyatlardan keskin farqlab turadi (chunonchi, Hind-yevropa tillarida gap birgina kesimning o‘zidangina emas, balki ega va kesimning qat’iy ishtiroki va tartibi (egadan keyin albatta kesim keladi) asosida tuziladi).

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Turkiy tillarni o‘rganishda Mahmud Qoshg‘ariyning xizmatlari haqida so‘zlang.
2. Turkiy tillarni o‘rganishda rus olimlarining qanday xizmatlari bor?
3. Oltoy til oilasiga kiruvchi tillar haqida ma’lumot bering.
4. Agglyutinativ tillar guruhi haqida nimalar bilasiz?
5. Turkiy tillarning qiyosiy-tipologik xususiyatlari haqida gapiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 9; 10; 30; 36; 39; 69]

YOZUV. YOZUVNING TARAQQIYOTI

R e j a :

1. Yozuv. Yozuv va til.
2. Yozuv tarixidan.
3. Davr va yozuv taraqqiyoti.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Yozuv, yozuvning tilga munosabati, yozuvning paydo bo‘lishi, piktografik yozuv, logografik yozuv, xitoy ieroglifikasi, misr mixli

xatlari, fonografik yozuv va uning turlari, alifbo, lotin alifbosi, kirill yozuvi

Yozuv insoniyatning tarixiy taraqqiyoti mahsulidir. U azaldan kishilarning aloqa qilishlari, fikr almashishlarida muhim rol o‘ynagan. Shubhasiz, yozuv insoniyatning ulug‘ kashfiyoti, muvaffaqiyati hisoblanadi. U og‘zaki nutq va tilga yordamchi vosita sifatida yuzaga keldi.

Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotning tom ma’nodagi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiyalaridan biridir. Yozuv og‘zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo‘srimcha aloqa vositasi bo‘lsa-da, unga qaraganda ko‘p afzalliklarga ega. Xususan, tilning asosiy vazifasi – kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashdir. Tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Tilning estetik, gnostiologik (bilish) kabi asosiy vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo‘lga kiritgan tajriba-bilimlarini saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi bevosita yozuv orqali bajariladi. Tovush tili uchun noqulaylik tug‘diruvchi masofa va vaqt omili yozuvning bu borada ustunligini dalillaydi. Bir latincha maqol bor: “Verba volant – scripta manent” – “So‘zlar uchib ketadi, yozilgani esa qoladi”.

Yozuv tildan ancha keyin paydo bo‘lgan. Tovush tili 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan, yozuv esa 4-5 ming yil oldin paydo bo‘lgan. Og‘zaki nutqning zamon va makon nuqtai nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo‘lishiga olib kelgan. Og‘zaki til talaffuz vaqtidagina va ayni paytda muayyan masofadagi (tovush to‘lqinlari yetib borishi mumkin bo‘lgan) kishi uchungina mavjuddir. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo‘lishi bilan inson dahosi bu ehtiyojni qondira oluvchi vositalarni qidira boshlagan, natijada belgilar tizimidan iborat yozuv dunyoga kelgan. Aslida, belgilar tizimi sifatidagi yozuv paydo bo‘lishidan oldin inson ramziy vositalardan keng foydalangan. Masalan, slavyan qabilalarida non-tuz – do‘stlik ramzi, trubka-tinchlik, atirgul-sevgi ramzi va h.k. belgilar “buyumli yozuv”

xarakteriga ega edi. Fanda turli xil yozuv ko‘rinishlari aniqlangan va yozuvning tadrijiy tarixi isbotlangandir.

Piktografik (lat. *pictus* - chizmoq), rasmli yozuv dastlabki yozuv turidir. Piktografik yozuv ibridoiy tasviriy san’at namunasi bo‘lib, toshlarga, suyaklarga, g‘or devorlariga o‘yib ishlangan. Piktografiyada hayotiy vaziyatlar (ov, sayohat), narsalar (qayiq, uy, oy, quyosh, yer), mavjudotlar (inson, sigir, qo‘y) kabilar aks ettirilgan edi. Yozuvning rasm bilan aloqador hodisa ekanligini turkiy tillardagi bitik (yozuv) so‘zi tarkibidagi biti-xitoycha *bi: mo ‘yqalam* bilan aloqadorligi, shuningdek, slavyan tillaridagi *nucamъ* (jivopis) fe’lining o‘zagi lat. “*pingere*” – *rasm solmoq* tushunchasi bilan bog‘liqligi, gotcha *melian* (yozmoq) fe’lining dastlabki ma’nosni ham *mo ‘yqalamda rasm solmoq* bo‘lib, hozirgi nemis tilida “*malen*” – *rasm chizmoq*” ma’nosida qo‘llanilishi tasdiqlab turibdi.

B.N.Golovin piktografiya hodisasini shunday tushuntiradi: “Piktografik maktublar bilan muloqot qilmoqchi bo‘lgan ikki hozirzamon do‘stlarni tasavvur qilaylik. Ulardan biri qorong‘u osmondagi yarimoy tasvirini, chiqayotgan quyosh, qayiqdagi odam, baliq va qarmoq rasmini chizdi. Keyingisi javob tariqasida botayotgan quyosh, qorong‘u osmondagi yarimoy, paravoz va uch vagon va ular oldida odam hamda Moskva Kremlning tasvirini bergan. Shuningdek, vagonni quyosh bilan bog‘laydigan chiziq (liniya)ni ham ko‘rsatgan. Demak, bulardan birinchisining mazmuni: “*Men ertaga baliq oviga boraman*”. Ikkinchisi esa: *Bugun kechqurun (oqshomda) men poezdda Moskvaga ketaman*”, - degan ma’nolarni anglanadi.¹ Darhaqiqat, olim juda to‘g‘ri tasavvur, mulohaza keltiradi. Ibtidoiy tafakkur va yozuvning tabiatini shu kabi ko‘rinishlarda kuzatish mumkin. Shu boisdan ham, rasmli (piktografik) yozuv dunyodagi mavjud barcha yozuvlarning kelib chiqishi uchun asos bo‘lgan, degan fikrga kelish to‘g‘ridir.

Rasmlar yordamida muayyan fikr-axborotni ifodalash, yuborish mumkin ekanligini odamlar juda qadimiyl davrlarda anglab yetganlar. Shuning uchun ham rasmli yozuvning og‘zaki til bilan bog‘liq bo‘limganligi uning turli til vakillari tomonidan ham tushunilaverishini

ta'min etgan, ammo unda ifodalangan mazmunning turlicha, ixtiyoriy talqin etilishiga yo'1 qo'ygan, abstrakt tushunchalarni bunday yozuv orqali ifodalash deyarli mumkin bo'lman. Davlat tuzumi rivojlanib, turli yozishmalarga va bu yozishmalarning ayni bir xil talqin qilinishiga bo'lgan ehtiyoj kuchayib borgani sari piktografik yozuvning ojiz tomonlari ko'proq ko'zga tashlana boshlagan. Bu hol rasmli yozuvning taraqqiyotiga, ideografik va ieroglifik yozuvning shakllanishiga olib kelgan.

Ideografik yozuv (grekcha **idea** - tushuncha), shuningdek, logografik yoki ieroglifik deb ham ataladi. Qadimgi yahudiy, shumer, xitoy, astek va mayya qabilalarining yozuvi ideografik namunalardir.

Ideogrammalar, asosan, konkret tushunchalarni ifodalovchi rasm (piktogramma)lar asosida shakllandi. Chunonchi, yahudiy va shumer mixli xatlarida **tog'** tushunchasi-orasidan vodiy va jarlik o'tuvchi ikki tog' tasviri orqali, **suv-to'lqinlarni** eslatuvchi to'lqinsimon chiziq bilan bildirilardi. **Quyosh** tushunchasi shumer yozuvida xitoy ideogrammasi kabi ichida nuqtali doira (Π) shaklida ifodalangan. Ideogrammalarning piktogrammalardan kelib chiqqanligini qadimgi xitoy yozuvi yaqqol ko'rsatib turadi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr ieroglifikasi, xitoy ieroglifikasi, shumer va b.) mil. av. 4-ming yillikning oxiridan 2-ming yilliklarning boshlarigacha bo'lgan davrda shakllangan. Hozirgi kunga qadar eng turg'un va tarqalgan ideografik yozuv xitoy yozuvidir, bunga Xitoy tarixi va xitoycha so'zlarning bir bo'g'inli tabiatni omil bo'lib xizmat qilgan. XV asrdayoq in' qabilalari rivojlangan yozuv tizimiga ega edilar. Biroq, davlat bo'lib birlashish va ierogliflarning sistematizatsiyasi (tizimga solinishi) Xitoyning Sin va asosan Xan sulolalari davrida siyosiy markazlashuvi davomida sodir bo'ldi. Syuy Shen I-II asrlarda "Shoven szesz" ("Elementlar va murakkab belgilar haqida") degan xitoycha ierogliflar jadvalini yaratdi: bunda 10,5 ming ieroglif ko'rsatilgan.

Yozuvning keyingi taraqqiyot bosqichi **bo'g'in** yozuvi bo'lib, u **fonografik** yozuv turiga kiradi (mil.av. 2-ming yilliklarning o'rtalarida paydo bo'lgan). Bu yozuvda bo'g'inlar ierogliflardir. U yoki bu so'zni yozishga to'g'ri kelsa, ana shu bo'g'lnarni bir-biriga qo'shish usulidan

foydalaniadi. Tildagi so‘zlar soniga qaraganda bo‘g‘inlar soni ancha kam, shuning uchun ham bo‘g‘in yozuvi logografik yozuviga nisbatan sezilarli darajada oz belgilar tizimi bilan ish ko‘radi. Masalan, **devonagari** (hind) yozuvi bo‘g‘in yozuvidir: ulardagi har bir ishora undosh tovushlarning **a** unlisi bilan qo‘shib talaffuz qilinishini ko‘rsatadi, ya’ni **na, ga, sha** va h.z. Agar boshqa unlini talaffuz qilish zarur bo‘lsa, unda harflarning yo ustiga, yo tagiga ma’lum belgilar qo‘yiladi. Devonagarida 50 ta belgi bor: 13 tasi unli va so‘z yoki bo‘g‘in boshida keluvchi diftongni, 33 tasi bo‘g‘inni ko‘rsatadi. 4 ta yordamchi belgi. Bo‘g‘in belgilari sillabogramma deyiladi. Bu yozuvdan Shimoliy Hindiston hindilari foydalanadilar. Arab, misr, efiopiya, yapon (kana), koreyscha (kunmun) yozuvlari ham bo‘g‘in- yozuv turiga kiradi.

Fonografik yozuv tizimini keyingi taraqqiyoti harf-tovush yozuvi bo‘lib, fanda inqilobiy hodisa sifatida e’tirof etiladi. Bu yo‘nalishdagi ilk yozuv **finikiy** yozuvidir. Birinchi marta sof tovush yozuvi, sanoqli harflardan iborat mukammal alfavitning yuzaga kelishi jamiyatdagi yozuvni biladigan kishilar doirasini kengaytirib yuborgan. Bu jarayon mil.av. 9-asrdan boshlangan. Hozirgi kunda bizga ma’lum bo‘lgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning beshdan to‘rt qismidan ko‘prog‘i finikiy yozuvidan kelib chiqqan. Harf-tovush tizimi, hozirda, asosan 4 xil yozuv tizimidan iborat: lotin yozuvi (jahondagi 30 % aholi), slavyan – kirillitsa (10%), arab yozuvi (10%), hind yozuvi (20%).

O‘rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, pahlaviy, o‘rxun-enasoy (runik), turkiy (uyg‘ur), sug‘d, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Yozuvning, xususan harf-tovush tizimining takomillashuvi – alifboni yuzaga keltirdi. Alifbo (arab alfavitining boshlang‘ich ikki harfi – alif va bo nomidan olingan) – biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma’lum an’anaviy tartib berilgan yozuv belgilari yoki bo‘g‘in belgilar (devonagari) majmui bo‘lib, mil.av. 2000-yillar oxirlarida qadimgi Uyurit va finikiy yozuvi tovush tizimidan kelib chiqqan. Turkiy xalqlarning runik va turkiy (uyg‘ur) yozuvlari bo‘lgan. Ammo bu o‘ziga xos turkiy yozuvlar alifbosi

haqida ma'lumot uchramaydi. Ularga oid harflar jadvali tovush belgilari haqidagi boshqa manbalardagi ma'lumotlar hamda shu yozuv yodgorliklari asosida tuzilgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklariga turkiy run (o'rxun-enasoy), uyg'ur va qisman moniy (monoviy), brahmon, sug'd va so'ryoniy yozuvlarida yozilgan obidalar kiradi. Run va uyg'ur yozuvlari turkiy xalqlarga xos yozuvdir. Toshga o'yib yozilgan run yozuvi XIX asr oxirida Mo'g'ulistonning O'rxun daryosi bo'yida topilib, bu yozuvni dastlab daniyalik tilshunos V.Tomson va rus turkologi V.Radlov aniqladi. Hozirgi paytgacha o'rxun yozuvida yozilgan ko'plab tosh, idish, asbob, tangalar, kitob, kitob varaqlari va ayrim qog'ozlar ham ma'lum. Talas va Yenisey obidalaridagi yozuv O'rxun obidalariga nisbatan harflarning, shakliy variantlarining ko'pligi bilan farq qiladi.

Uyg'ur yozuvida yozilgan asarlarning hammasi ham qadimgi turk davriga oid emas, chunki bu yozuv XVIII asrgacha qo'llandi. Uyg'ur yozuvini Mahmud Qoshg'ariy "turk yozuvi" deb ataydi hamda bu yozuvda 18 ta harf borligini va turkiy tillarda mavjud bo'lgan 7 ta tovush (p, j (portlovchi), j (sirg'aluvchi), f, g', ng, g) uchun maxsus harflar yo'qligini, unlilarning esa arab tilidagidek harakatlar bilan emas, harflar bilan ifodalanishini aytib o'tadi. Mahmud Qoshg'ariy turk (uyg'ur) harflarining alohida va qo'shib yozilgandagi ko'rinishlarini bergan.

Yozuv taraqqiyotida grek yozuvi, lotin yozuvi va kirill yozuvi muayyan sharoitlarda yuzaga keldi. Greklar dastlab konsonant yozuvidan fodalanishgan. Eramizdan oldingi VII-VI asrlarda vokal-tovush namunalari uchraydi. Eramizgacha 403-yilda Evclid tomonidan Afinada mumtoz grek alifbosi kiritildi. Qadimgi grek yozuvi 24 ta harfga ega (17 ta undosh va 7 ta unli).

Grek yozuvi asosida lotin alifbosi shakllandı. Sharqiy grek yozuvi asosida esa kirill, gruzin va arman alifbolari yaratildi. Lotin yozuvi G'arbiy Yevropada keng tarqaldi. XIV asrda qog'ozning paydo bo'lishi, kitob nashr qilishning kashf etilishi bu yozuvning keng tarqalishida muhim omil bo'ldi. Qadimgi lotin yozuvida 23ta harf bor edi (tovushlar 35ta bo'lgan: 16ta unli, 19ta undosh).

Slovyan alifbosi esa IX asr oxiri – X asr boshlarida paydo bo‘ldi, chunonchi, ikki ko‘rinishda qo‘llanila boshlandi: glagalitsa va kirillitsa.

Kirill yozuvi janubiy (bolgar, serb, makedon) va sharqiy slavyanlarga tarqaldi. Bu alifbolarning yaratilishi Kirill va Mefodiy (aka-ukalar) nomlari bilan bog‘liq. Kirill alifbosida 43 ta harf bor edi, tovushlar esa 44ta: 11ta unli va 33ta undosh. Kirill yozuvi asosidagi zamonaviy rus alfavitida 33ta harf, 43ta tovush: 6ta unli va 37ta undosh mavjud.

Aslida, yozuv va tilning taraqqiyoti bir xil, bir-biri bilan to‘la mos keladigan jarayon emas. Tildagi u yoki bu o‘zgarish tadrijiy ravishda, astasekin yuz beradi. Yozuv haqida esa bunday deb bo‘lmaydi. Odamlar, aniqrog‘i xalqlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o‘zgarishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan almashtiradilar. Masalan, o‘zbek xalqi asrlar davomida arab alifbosidan foydalanib kelgan. Ammo til tabiatimizga to‘liq mos kelmaydigan bu yozuvni mukammal egallash oddiy xalq uchun ancha og‘ir edi. Madrasani bitirganlarning aksariyati yozuvni o‘rgana olmay “Qur’oni Karim”ni yod olardilar. Garchi xalqimiz mazkur yozuvdan 1200 yil foydalangan bo‘lsalarda, aholining savodlilik darajasi me’yordan past bo‘lgan.

Jadidlarning sa’y-harakati bilan O‘zbekistonda 1929-yilda lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tilgan. Olik til bo‘lgan lotinlarning yozuvini asos qilib olish ko‘p mamlakatlarda urch bo‘lgan, birinchidan, bu yozuvni o‘rganish nihoyatda oson, ikkinchidan, egasi bo‘lmagan yozuv xalqni mutelikdan saqlaydi.

Sho‘rolarning mutelikka qaratilgan siyosati bois 1940-yildan kirill yozuvi joriy etilgan. Garchi hozirgacha ham jamiyatimizning katta avlodni mazkur yozuvdan foydalanyotgan bo‘lsa-da, kirill yozuvi o‘zbek tilining tabiatiga mos emas.

Istiqlol sharofati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Bu qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda

o‘zgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. Bu hujjatga ko‘ra lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi 26 ta harf va 3 ta harflar qo‘shilmasidan iborat.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Yozuvning afzalliklari nimada?
2. Yozuvning ilk ko‘rinishi rasmiy yozuv bo‘lganligi qanday manbalarda o‘z aksini topgan?
3. Piktografiya – ideografiya – fonografiya - yozuvning tadrijiy bosqichlari sifatidagi taraqqiyotini izohlab bering.
4. Xitoy va hind yozuvlari nima bilan farqlanadi?
5. Alifbo nima? Uning jahonda qanday turlari bor?
6. O‘zbek yozuvlari tarixini so‘zlab bering.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 10; 45; 50]

ORFOEPIYA

Reja:

1. Orfoepiya – adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rganuvchi sath.
2. Orfografik va orfoepik qoidalarning o‘zaro bog‘liqligi.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Adabiy talaffuz, talaffuz me’yori, nutq madaniyati va orfoepiya, ommaviy axborot vositalari va orfoepiya, orfografiya va orfoepiya aloqadorligi

Adabiy tilga xos bo‘lgan muhim xususiyatlarning eng birinchisi uning muayyan me’yorlarga bo‘ysunishidir. Fonetika, leksikologiya, morfologiya yoki sintaksis sohalarida bo‘lgani kabi nutqning ikki ko‘rinishi: og‘zaki va yozma shakllarda ham barcha uchun umumiy bo‘lgan o‘ziga xos me’yorlar mavjud. Muayyan me’yordan chetga chiqish yoki chekinish kishilarning o‘zaro fikr almashish jarayoni (og‘zaki va yozma)da turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Og‘zaki nutqning qonun-qoidalari **orfoepiya** sathi, yozma nutqqa xos normalarni **orfografiya** bo‘limi o‘rganadi. Nutq tovushlari vositasida

ifodalangan og‘zaki nutqimiz eshitish orqali o‘zlashtirilsa, harflar vositasi bilan ifodalangan yozma nutq esa ko‘rish, o‘qish, uqish orqali o‘zlashtiriladi.

Orfoepiya (grekcha *orthos* – *to ‘g‘ri*, epos – *nutq*) tildagi so‘z va uning qismlarini adabiy talaffuz etish qoidalari to‘plamidan iborat. Axborot uzatish va axborot qabul qilish jarayonida to‘g‘ri talaffuz muhim ahamiyatga ega. Orfoepiya normalari tilning fonemalar sistemasi bilan, fonemalarning ma’lum pozitsiyalardagi o‘zgarishlari bilan va, asosan, nutq madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Nutq madaniyatining ajralmas bo‘lagi bo‘lgan orfoepiya adabiy talaffuz madaniyatini oshirishga, uni bir tizimga solishga yordam beradi.

Orfoepik talaffuz me’yorlari adabiy til bilan bирgalikda shakllanadi. Odatda, ba’zi tayanch shevalar talaffuzi adabiy til talaffuzi normasiga yaqin turadi. Masalan, o‘zbek adabiy tilining talaffuziga Toshkent va Farg‘ona vodiysi shevalarining talaffuzi asos qilib olingan. Rus adabiy tilining talaffuziga esa Moskva va Leningrad shevalari asos sifatida qabul qilingan. Orfoepik me’yorlar makon va zamonda farqlanadi, o‘zgaradi. Ya’ni har bir til o‘zining ma’lum davrdagi adabiy talaffuz normalariga ega bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan tildago fonetik, leksik va boshqa yangilanishlar natijasida ozgarishi mumkin. Orfoepiya nutqning talaffuz me’yorlari amaliy jihatdan qanday bo‘lishini fonetika va fonologiyadagi nazariy tamoyillarga asoslangan holda belgilab beradi. O‘zbek tilida avvalgi adabiy talaffuz me’yorlari eski o‘zbek adabiy tili negizida yuzaga kelgan bo‘lsa, hozirda foydalanilayotgan adabiy talaffuz normalari fan texnikaning yuksalishi, xalq madaniy saviyasining tobora o‘sib borishi, umumiyl savodxonlik, o‘rta va oliy maktablarning rivojlanishi kabi qator omillarni hisobga olgan holda belgilangan. Quyida orfoepiyaning ba’zi me’yorlari bilan tanishib o‘tamiz:

1. Yonma-yon kelgan **ia**, **io**, **ai**, **oi**, **ea** – unlilari orasiga qisqa y tovushini qo‘shib talaffuz etish orfoepik me’yordir: *tabiat* – *tabiyat*, *shariat* – *shariyat*, *radio* – *radiyo*, *stadion* – *stadiyon*, *said* – *sayid*, *ukrain* – *ukrayin*, *doin* – *doyim*, *oila* – *oiyla*, *teatr* – *teyatr*, *laureat* – *laureyat* kabi.

2. *Samarqand, Toshkent, xursand, qand, baland, go'sht, past* kabi so'zlar oxiridagi **d**, **t** undoshlarini tushirib talaffuz etish, orfoepik me'yordir.

3. *Matbaa, metall, kilogramm, kilovatt, kongres* singari o'zlashma so'zlarning talaffuzida qo'sh unli (undosh)larning faqat bittasi talaffuz etiladi.

4. Shartli qisqartmalarni kengaytirilgan holatda o'qimaslik adabiy talaffuz normasiga ziddir: *AQSH – Amerika Qo'shma Shtatlari, BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, A. Navoiy – Alisher Navoiy, A.Qod. – Abdulla Qodiriy* kabi.

5. *Oftob, kitob, adab, maktab, Tolib, hisob* singari so'zlar oxiridagi **b** undoshi jarangsiz jufti bilan almashtirilib, **n** tarzida yalaffuz 'tilishi deyarli barcha sheva vakillari nutqiga xosdir va bu hol orfoepiya uchun me'yoriy hodisa hisoblanadi.

Orfoepiya notiqlik san'ati, nutq madaniyatidagi barcha talaffuz xususiyatlarining yig'indisini, radio, televideniyeni adabiy normaga solib turuvchi mezon hisoblanadi. Angliya, Buyuk Britaniya, Amerika kabi o'nlab rivojlangan mamlakatlarda matbuot sohasida, ayniqsa, televideniyeda orfoepik me'yorlarga qat'iy amal qilish talab etiladi. Talaffuz normalaridan chetga chiqish hollari ro'y bergan ko'rsatuvlar (u har qanday dolzarb masalalar bilan bog'liq bo'lishidan qat'iy nazar) efirga berilmaydi, mabodo bunday ko'rsatuvlar tasodifan efirga uzatilsa, ko'rsatuvni tayyorlagan jurnalistga televideniye muharririga katta miqdorda jarima solinadi, ba'zi holatlarda ular ishdan chetlatilishi ham mumkin.

O'zbekiston televidenyesi, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari haqida hamma vaqt ham bunday gapni aytib bo'lmaydi. Ba'zi radio eshittirishlarida, televideniye ko'rsatuvlarida shevaga berilib, bu holatni "xalqona soddalik", "dehqontabiatlilik" sifatida izohlab, adabiy talaffuz me'yorlarini qo'pol ravishda buzish madaniyatsizlikning bir ko'rinishi ekanligini unutmasligimiz lozim.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Orfoepiya nimani o‘rganadi?
2. Orfoepiyaning nutq madaniyati bilan chambarchas aloqadorligini misollar asosida tushuntiring.
3. O‘zbek tiliga xos orfoepik me’yorlar haqida gapiring.
4. Yevropa mamlakatlarida orfoepik me’yorlariga rioya qilish tartibi qay ahvoldaligini tushuntiring. Bizda-chi? Fikrlaringizni misollar asosida dallillang.
5. G‘arbiy **Y**evropa tillarida orfoepiyaning qaysi me’yori ko‘proq foydalaniladi?

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 10; 45; 50]

ORFOGRAFIYA

Reja:

1. Orfografiya – to‘g‘ri yozuv me’yorlarini o‘rganuvchi sath.
2. Orfografiya. Orfografik tamoyillar haqida.

Mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalar

Orfografiya va imlo, fonetik prinsip, morfologik prinsip, tarixiy an'anaviy va shakliy prinsip, orfografiya va orfoepiya aloqadorligi

Orfografiya grekcha so‘z bo‘lib, orthos – *to‘g‘ri* va grafo – *yozaman*, “*to‘g‘ri yozuv*” degan ma’noni ifodalaydi. Orfografiya tovush va harflar, so‘z va uning ma’noli qismlari, qo‘shma, juft, takroriy, qisqartma (jumladan, shartli qisqartmalarning ham) so‘zlarning qo‘shib, ajratib va chiziqcha orqali yozilishi, bo‘g‘in ko‘chirish, bosh hamda kichik harflardan foydalanish o‘rinlari haqidagi yagona qoidalar tizimidan iboratdir. Orfografiya og‘zaki nutqni yozuv orqali *to‘g‘ri* ifodalash uchun har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yozuv qoidalarining umumiyligini ta’minlaydi. Bu esa og‘zaki nutqni imloda bir xil yozish imkoniyatini tug‘diradi. Odatta, adabiy til ma’lum me’yorlarga ega ekanligi bilan shevalardan farqlanib turadi. Og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham muayyan me’yorlarga rioya qilish nutq (og‘zaki va yozma)ning aniq, ravon va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Adabiy

tilni to‘liq egallash uchun esa til va nutq me’yorlarini bilish hamda unga rioya qilish shart. Orfografiya to‘g‘ri yozish qoidalarini belgilashda ma’lum tamoyillarga asoslanadi. Tilshunoslikda orfografiyaning quyidagi prinsip (tamoyil) lari qayd qilinadi: fonetik, morfologik, tarixiy - an’anaviy va shakliy (simvolik yoki ideografik) prinsiplar. Biroq bularning mavqeい hamma tillarda ham bir xil emas: har bir tilning orfografiyasini uchun u yoki bu prinsip asos qilib olinadi. Asosiy orfografik tamoyillar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari xususida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Fonetik tamoyil. Bu orfografiyaga xos asosiy mavqe egallovchi prinsiplardan bo‘lib, unga ko‘ra so‘zlar talaffuz qilinishiga mos ravishda yoziladi. So‘zshakllarning talaffuz etilishida yuz bergan fonetik o‘zgarishlar hisobga olinadi. Chunonchi, *yurak-yuragi*, *yurakka*, *son-sana*, *sanoq*, *sanog‘i*, *qishkoq-qishlogim*, *qishloqqa* kabi. Demak, fonetik prinsipda so‘zning aytilishi bilan yozilishi bir-biriga mos keladi. Jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi [-ga], sifatdosh shaklini hosil qiluvchi qo‘srimcha [-gan], chegara ma’nosini ifodalovchi murakkab affiks [-gacha], payt va maqsad ravishdoshi shaklini yasovchi [-gach], [-guncha], [-gani], ozaytirma sifatni hosil qiluvchi [-gina] kabi affikslar o‘zak-negizi **k**, **q** undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘srimchasi, muayyan so‘zshakllari fonetik tamoyil asosida yoziladi. Masalan, *terakka*, *buloqqa*, *ekkan*, *boqqan*, *eshikkacha*, *quloqqacha*, *ayriliqqacha*, *zerikkach*, *chiqqan*, *tikkuncha*, *taqquncha*, *yoqqani*, *chekkani*, *kichikkina*, *iliqqina* va h.k.

Fonetik prinsipga asoslangan imlo qoidalari boshqa tillarda ham uchraydi. Jumladan, turkiy tillar oii lasiga kiruvchi uyg‘ur tili imlo qoidalari uchun bu tamoyil etakchi o‘rinda turadi: *maktevi* (*maktabi*), *epkaldi* (*olib keldi*) kabi.

Rus tilidagi [без-], [воз-], [из-], [раз-] prefikslari jarangsiz undoshlar bilan boshlanubchi o‘zak-negizlarga qo‘srimchasi, ko‘pincha, fonetik o‘zgarishga uchraydi va bu imloda ham o‘z aksini topadi: *без+срочный* = *бессрочный*, *без+печный*=*беспечный*, *без+толковый*=*бестолковый*, *без+платно*= *бесплатно*; *воз+принять*=*воспринять*, *из+писать*=*исписать*, *раз+цвести* = *расцвести*. Shuni eslatib o‘tish

lozimki, na o‘zbek tili uchun, na rus tili uchun fonetik prinsip asosiy orfografik tamoyil vazifasini o‘tamaydi. Uyg‘ur tili, belarus tili orfografiyalarida bu tamoyilga ko‘proq amal qilinadi.

Morfologik tamoyil. Bu prinsip bo‘yicha so‘zshakllar qanday talaffuz etilishidan qat’iy nazar, bir xil yozilishi talab etiladi. Demak, morfologik prinsip asosida yozilgan so‘zlar jonli so‘zlashuvdagi talaffuzga muvofiq kelmaydi. O‘zbek tilining orfografiyasi (imlo qoidalari), asosan, shu tamoyilga asoslangandir. Chunonchi, *yozibdi*, *ishda*, *maqtamoq*, *to‘qson*, *qochdi*, *rost*, *po‘stdumba*, *Samarqand*, *muomala*, *gazeta* singari so‘zlar (jonli nutqda *yozipti*, *ishta*, *maxtamoq*, *to‘xsan*, *qoshti*, *ros*, *po‘sdumma*, *Samarqan*, *muomila*, *gazet* tarzida aytilsa-da) asliga muvofiq yoziladi.

Qo‘shma va juft so‘zlar, *ko‘m-ko‘k*, *qip-qizil* kabi sifatlar, *har vaqt*, *bir mahal* kabi ravishda ham morfologik prinsip asosida yoziladi.

Rus tili orfografik qoidalarda ham morfologik prinsip etakchi rol o‘ynaydi. Masalan, rus tilidagi *часовой*, *города*, *подписка*, *вокзал*, *дорога*, *товар*, *команда*, *окно*, *вода*, *совпадать* singari so‘zlar jonli so‘zlashuvda *часовой*, *гарада*, *намписка*, *вакзал*, *дарога*, *тавар*, *каманда*, *акно*, *вада*, *сафнадат* tarzida aytiladi. Yuqoridagi kabi asliga ko‘ra yoziladi. A.N.Gvozdevning «Основы русской орфографии». (М., 1963, стр. 54) kitobida qayd etilgan ma’lumotga ko‘ra, rus tili imlo qoidalaringning 71,4 foizi morfologik tamoyilga asoslangan.

Tarixiy-an’anaviy tamoyil. Bu prinsip bo‘yicha so‘zlar hozirda qanday talaffuz qilinishiga qarab emas, qadimdan an’anaga aylanib qolgan qoidalardan asosida yoziladi. Demak, so‘zlarning aytilishi uning yozilishidan farq qiladi. Biroq bunda morfologik prinsipdagi kabi morfemalarning yagona shakllanishiga, grammatik qoidaga rioya qilinmaydi. Aksincha, so‘zlarning yozma ifodasi ularning tarixan o‘zlashib singib ketgan shakliga teng keladi. O‘zbek tilida bu tamiyildan, odatda, badiiy uslubda ko‘proq foydalaniadi: Masalan:

1) maqsad ravishdoshi qo‘shimchasi [-gani] o‘rnida uning tarixiy ko‘rinishlari [-gali], [-g‘ali], [-qali], [-kali] qo‘llaniladi: *Ko‘rgali keldingmi*, *yor*, *kuydirgali keldingmi*, *yor* (Qo‘shiqdan);

2) sifatdoshning [-r/-ar] shakli [-ur] tarzida ishlataladi: *Shirin bo 'lsang, yalab ado qilurlar, Acchchiq bo 'lsang talab ado qilurlar* (E.Vohidov);

3) [-mi] so‘roq yuklamasi [-mu] shaklida qo‘llaniladi: *Sevgini tortib bo 'larmu, toshu tarozu bilan* (E.Vohidov); *Sen bahorni sog ‘inmadingmu* (A.Oripov);

4) [-gin] buyruq - istak mayli shakli [-gil], [-g‘il] tarzida ishlataladi: *Bas, yetar, ko ‘ksimga urmagil xanjar* (A.Oripov);

5) chiqish kelishigi shakli [-dan] ko‘pincha, [-din] tarzida beriladi: *Gavhar balchiqqa tushgani bilan qimmati ushalmas va o‘z bahosidan qolmas* (I.Sulton) va h.k.

Kabutar, muomala, musicha, taqozo, erur kabi so‘zlar ham tarixiy – an’anaviy tamoyil asosida yozilgan.

G‘arbiy yevropa tillarida, jumladan, ingliz, fransuz, nemis tillarida ham shu prinsipga amal qilinadi. Chunonchi, ingliz tilidagi *to live [live]* (*yashamoq*), *to work [we:k]* (*ishlamoq*), *to condemn [ken'dem]* (*yomon ko‘rmoq*), *debt [det]* (*qarz*), *light [alti]* (*yorug‘*) kabi so‘zlar; fransuz tilidagi *Paris (Parij), homologue*

(*insonshunoslik*) so‘zlari; nemis tilidagi *tisch (stol), deutsch (nemis tili*) so‘zlari tarixiy – an’anaviy tamoyil asosida yozilgan. Rus tilidagi *красивого, большого, здания, корова, собака* so‘zlari ham shular jumlasidandir.

Shakliy (simvolik) tamoyil. Bu prinsipga ko‘ra, odatda, boshqa tillardan olingan so‘zlar o‘sha tillarda qanday yozilsa shunday yozamiz: *Nyu-York, kilogramm, kross, taassurot, koeffitsiyent, trolleybus* kabi.

Ma’lumki, o‘zbek xalqi qarib 70 yil davomida kirill yozuvidan foydalanib keldi. Kirill yozuvining imlo qoidalari 1956-yil 4-aprelda hukumat tomonidan tasdiqlangan edi. Unga ko‘ra, o‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari 72 moddadan iborat bo‘lib ularning ba’zilari o‘zbek tilining tabiatiga hamma vaqt ham mos kelavermasdi. Chunonchi, **е, ё, ю, я** grafemalari, **и** harfi, ayirish, yumshatish belgilari (**ъ, ь**) bilan bog‘liq o‘rinlar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 13-sessiyasi (1993-yil 2-sentabr) da “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Bu qonunni joriy qilish to‘g‘risida prezident farmoni ham e’lon qilindi. 1995-yil 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 339-son qarori qabul qilindi. Yangi imlo qoidalari 82 – moddadan iborat bo‘lib, unda harflar imlosi, asos va qo‘sishimchalar imlosi, qo‘sib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko‘cherish qoidalari alohida bo‘limlarda ko‘rsatilgan.

Ma’lumki, orfografiya adabiy tilning talaffuzini o‘rganuvchi orfoepiya bilan, alifbo bilan uzviy bog‘liqdir. Orfografiya bilan orfoepiya adabiy tilni takomillashtirishda, uni muntazam bir shaklga solishda muhim rol o‘ynaydi. Lotin alifbosiga asoslangan imlo qoidalarida juda ko‘p o‘rinlarda orfografiyaning adabiy talaffuz me’yorlari bilan muvofiqlashganligini ko‘rish mumkin. Masalan,

1) *mo‘tabar, mo‘jiza, mo‘tadil* kabi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tarkibidagi **o‘** unlisi cho‘ziq aytildi va yozuvda ulardan keyin tutuq belgisi ishlatilmaydi;

2) *parvo, mavqe, mavzu, avzo* so‘zlariga I, II shaxs egalik qo‘sishimchalari qo‘shilganda bir y tovushi qo‘sib aytildi va shunday yoziladi; *parvoyim, parvoying, ... mavqeyim...*;

3) ruscha *цилиндр, кварц, акция, конституция, лицей, милиция* kabi o‘zlashgan so‘zlar tilimizda o‘zbekona talaffuzga muvofiq yoziladi: *silindr, kvars, aksiya, konstitutsiya, litsey, militsiya* va hokazo.

Demak, orfografiya va orfoepiya og‘zaki hamda yozma nutqni bir – biriga yaqinlashtirishda, milliy – adabiy tilning birligini yaratishda muhim ahamiyat kasb etuvchi mushtarak sohalardir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1.Orfografiya sathining o‘rganish obyekti nimalardan iborat?
- 2.Orfografik tamoyillar haqida ma’lumot bering.

3.Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalarining afzalligi nimada?
Misollar asosida tushuntiring.

Foydalanish uchun adabiyotlar: [1; 2; 7; 8; 10; 45; 50; 68]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Азизов О. Тилшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1996.
- 2.Абдуазизов А. Тилшуносликка кириш.–Т.: Ўқитувчи, 1999.
- 3.Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши.– Тошкент, НДА, 1994 йил.
- 4.Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. НДА.– Тошкент, 2000 йил.
- 5.Yo‘ldosheva D. “Tilshunoslikka kirish”dan mashqlar to‘plami. –Т.: Fan, 2016.
- 6.Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Карши: Университет, 2004.

- 7.Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. –Қарши: Насаф, 2003.
- 8.Мўминов С. Сўзлашиш санъати. –Фарғона: Университет, 1997.
- 9.Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва унитаснифлаш асослари. НД. – Тошкент, 1994 йил.
- 10.Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. АКД. –Т., 1997.
- 11.Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
- 12.Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1995.
- 13.Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Т.: Университет, 1999.
- 14.Ne'matov H., Shirinova N. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. – Buxoro: Universitet, 2005.
- 15.Неъматова Л. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар). – НД. Тошкент, 2002.
- 16.Орифжонова Ш. Даражаланиш (градуонимия). (Республика ёш филолог олимларининг тантанали илмий анжумани материаллари. III қисм.) Тошкент, 1991.
- 17.Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис III. –Т., 2006.
- 18.Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
- 19.Философия лугати (Р.Абдураҳмонов таржимаси). –Тошкент, 1984, 21-28- б.
- 20.Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик ва хусусийлик диалектикаси талқинида. I-II-жузв. –Андижон, 1994.
- 21.Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. НДА. – Самарқанд, 1993.
- 22.Қиличев Э., Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Бухоро, 2002.
- 23.Қурбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. – Т.: Университет, 2002.

QISQACHA IZOHLI LUG‘AT

Agglyutinativ tillar o‘zak va qo‘shimchaning erkin aloqasiga asoslanadi. Yordamchi morfemalari asosda sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmasdan unga erkin birikishini yuzaga keltiradigan tillar tushuniladi. (til+shunos, kitob+lar+ning) Masalan, turkiy tillar, fin-ugor, mo‘g‘ul, dravid, bantu, yapon va b.

Aktual bo‘linish deganda gapning axborot yetkazish vazifasi nuqtayi nazaridan tuzilishi tushuniladi. Gapda ifodalangan fikrning ifoda asosi tema (ma’lum demakdir) va ifoda yadrosi rema (yangilik demakdir) deb yuritiladi. (Gapning rema qismi kommunikativ (axborot yetkazish) nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘ladi. Savol har doim remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma’lum bo‘lganligi sababli u so‘roq gap tarkibida aynan takrorlanadi.)

Amorf tillar—tarkibida yordamchi morfemalar ishlatilmaydigan tillar.

Antroposentrik tilshunoslik—tilshunoslikning tilni o‘z sohibi (egasi) bilan birga o‘rganuvchi alohda yo‘nalishi.

Assimilyatsiya - nutq tovushlari qator kelganda ba’zan bir-biriga ta’sir qilib, biri ikkinchisini o‘ziga moslashtirish hodisasi. Assimilyatsiya ikki xil bo‘ladi: progressiv assimilyatsiya (oldingi tovushning keyingi tovushni o‘ziga o‘xshatishi, moslashtirishi: *yurak+ga=yurakka*) va regressiv assimilyatsiya (keyingi tovushning oldingi tovushga ta’sir qilib, uni o‘ziga o‘xshatishi, moslashtirishi: *yoz+sin=yossin, om+датъ=оддатъ*).

Assotsiativ munosabat—lisoniy (lingvistik) birliklarning so‘zlovchi xotirasida o‘zaro bog‘liq munosabati.

Apakopa - so‘z o‘zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushish hodisasi: *do ‘st-do ‘s, gazeta-gazit, smena-smen*.

Areal (latincha areo - maydon) **lingvistika** dunyodagi tillarning xaritasi, turli mamlakatlarning til tomondan tavsifi, ayrim tillar yoki tillar guruhining tarqalish doirasini o‘rganadi.

Dissimilyatsiya - og‘zaki nutqda tovushlarning o‘zaro ta’siri natijasida so‘z tarkibida bir joyda yoki bir so‘zning turli o‘rinlarida kelgan ikki o‘xhash tovushdan birining noo‘xhash tovushga aylanishi. Tillarda

progressiv (keyingi tovushning noo‘xhash tovushga aylanishi: *zarur-zaril*) va regressiv dissimilyatsiya mavjud. Keyingi tovush noo‘xhash tovushga aylansa progressiv dissimilyatsiya(oldingi tovushning noo‘xhash tovushga aylanishi: *koridor-kalidor*) mavjud.

Diereza - so‘z tarkibida birorta tovushning tushib qolishi: *счас(m)ливо, извес(m)но*.

Dialektika – yunoncha dialektike (techne) so‘zidan olingan bo‘lib, “suhbat olib borish”, “bahslashish san’ati” degan ma’nolarni anglatadi. Dialektika borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy ta’limot, fan hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubi hamdir.

Ekstralolingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganib, sotsiolingvisnika va mentalingvistikani o‘zida birlashtiradi. Sotsiolingvisnika tilning tabiatini va ijtimoiyvazifasini, mentalingvistika esa til va tafakkur, tilning nutq faoliyati, matn va nutq sharoiti bilan aloqasini o‘rganadi.

Epenteza - og‘zaki nutqda so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda ular orasiga unlilarning qo‘shib aytilishi: *umr-umur, doklad-dakalad, gruppa-guruppa*.

Epiteza - nutqda so‘z oxirida bir o‘rinda kelgan ikki undoshdan so‘ng [a] tovushining qo‘shilish hodisasi: *tank-tanka, kiosk-kioska, otpusk-otpuska*.

Eliziya - unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushlardan birining tushib qolish hodisasi. *yoza oladi-yozoladi, borar ekan-borarkan*.

Flektiv tillarga hind-yevropa tillari, som-xom tillari kiradi. Agglyutinatsiyadan farqli ravishda, fleksiyada o‘zakka affiks alohida, mustaqil qo‘shilmaydi, balki o‘zakka singib ketadi, natijada o‘zak shaklini, tarkibini o‘zgartiradi.

Fonema eng kichik lisoniy birlik bo‘lib, u muayyan til egalarining ma’lum tovushlar tipi haqidagi umumiylashtirilgan tasavvurlaridir. Har bir fonema so‘zlovchilar ongida o‘z tipini farqlovchi belgilari majmuyi asosida

vujudga kelgan maxsus “akustik – artikulyatsion portret” yoki “tovushlar obrazi” sifatida saqlanadi. Fonemaning nutqiy voqelanishdagi varianti tovushdir.

Graduonimiya -lug‘aviy birliklarning o‘zaro ma’noviy munosabatlariga ko‘ra ma’lum darajalanish qatorlarini hosil etishi. Darajalanish qatori kamida uchta a’zodan iborat bo‘ladi: *nihol-ko ‘chat-daraxt*.

Giponimiya - leksemalararo semantik munosabatlarning bir turi, unda tur-jins munosabatlari o‘z ifodasini topadi. Giponimik munosabatda giperonim (jins) va giponim (tur) farqlanadi. Chunonchi, *meva* (jins) – *olma, olcha, shaftoli, o‘rik, nok...* (tur).

Grammatik ma’no muayyan shaklda mujassamlangan va tilda ifodalanishi zarur bo‘lgan umumlashgan, lug‘aviy ma’no ustidagi ustama (turkumiy)_ma’no sanaladi. Grammatik ma’noning tashuvchisi va ifodalovchisi grammatic shakldir.

Gap - nutq faoliyati uchun eng asosiy birlik. Ijtimoiy hayotda so‘zlovchining fikr ifodalashi, axborot uzatishi, tinglovchining axborot qabul qilishi, ya’ni kishilarning o‘zaro fikr almashuvi gap orqali amalgalashadi. (O‘zbek tilida: «Atov birliklarining kesimlik kategoriysi ko‘rsatkichlari bilan shakllangan ko‘rinishi gap deyiladi».)

Intralingvistika tilning ichki tizimini, uning birliklari va kategoriyalari, tilning yaruslari va ularning tuzilishini o‘rganadi.

Jumla (fraza) - nutqning yirik mustaqil birligi bo‘lib, aloqa vositasi sanaladi. U o‘ziga xos intonatsion birlikdir. Har bir jumla chuqur to‘xtam bilan bo‘linib turadi.

Kategoriya qadimgi yunon tilidan olingan, «izohlash», «tushuntirish», «ko‘rsatish» ma’nolarini anglatadi. Falsafa tarixida mazkur tushunchani Arastu “Kategoriylar” kitobida ilk marta obyektiv voqelikning umumlashgan in’ikosi sifatida talqin etgan.

Komparativistika –qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sifatida hind-yevropa tillarining fonetikasi va morfologiyasini qiyosiy o‘rganish asosida paydo bo‘lgan tushuncha, keyinchalik soha nomi.

Lison (til) ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirilib qo'yilgan, hamma uchun umumiylar va majburiy fikrni ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikish qonuniyatlari yig'indisi tushuniladi. Til bevosita kuzatishda berilmagan, takrorlanuvchan bo'lib, u UMIS (umumiylar, mohiyat, imkoniyat, sabab) tabiatiga ega.

Lisoniy birliklar – fonema, morfema, leksema, qolip.

Leksema lisonning borliq hodisalarini nomlash, ifodalash, ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi birligidir. Lisoniy birlik sifatidagi leksema biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmaydigan ikkita psixofizik-akustik struktura (tovush qobig'i) - nomema hamda ma'lum bir tusuncha asosida vujudga kelgan mazmuniy struktura, ya'ni sememaning birligidan iborat. Leksemaning nutqiy qo'llanishidagi varianti so'zdir.

Leksemalarning mazmun guruhlari (LMG) deganda muayyan birlashtiruvchi semasi asosida ma'lum guruhga birlashuvchi, ayni paytda farqlovchi semalariga ko'ra o'zaro farqlanib, ajralib turuvchi leksemalar tushuniladi. Masalan, qoramol LMG: (*sigir, buzoq, tana, g'unajin, ho'kiz, buqa, govmish...*).

Lug'at so'zlarning biror maqsadda to'planib, tartribga solingan yig'indisidir. Lug'atlar, asosan, qomusiy (ensiklopediya) va filologik (lingvistik) turga bo'linadi. Ensiklopedik lug'atlar so'zlarning qisqacha ma'nosini, tushunchalar izohini berish asosida tuziladi va ularda barcha narsa, hodisalar, kishilar, fan-texnika haqida ma'lumotlar keltiriladi. Filologik lug'atlar lisoniy birlik bo'lmish so'zning turli lisoniy xususiyatlarini yoritish, ko'rsatishga xizmat qiladi. Ular aniq qoida va lingvistik tamoyillar asosida yaratiladi.

Lisoniy valentlik leksemaning semantik strukturasida mujassamlangan yashirin imkoniyat bo'lib, u ma'lum bir leksemaning muayyan bir ma'noviy turkum so'zları bilan me'yoriy ravishda bog'lana olish, birika olish qobiliyatiga ega ekanligini ifodalaydi. Leksemadagi bu imkoniyat **so'z valentligi** yoki **semantik (ma'noviy) valentlik** deb yuritiladi.

Biriktiruvchi so‘z ma’lum bir ma’noviy turkum (guruh) so‘zlar bilan birikishi uchun shu turkum so‘zlarning ma’lum bir sintaktik shaklda bo‘lishini talab etadi. So‘z lisoniy valentligidagi bu tomon **sintaktik valentlik** deyiladi. (Sintaktik valentlikning nutqiy ko‘rinishi sintaktik aloqadir.)

Affiksal morfemalarning birikuvchanlik qobiliyati **grammatik shakl valentligi** deb yuritiladi.

Metateza - nutqda ba’zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o‘rni almashish hodisasi. Masalan, *daryo-dayro: talerka* (nemischa) *mapelka* (ruscha).

Morfema leksemadan ajralgan holda o‘z mohiyatini namoyon qila olmaydigan, shakl va denotativ bo‘lmagan mazmunning birligidan iborat bo‘lgan kichik lisoniy birlikdir. Morfema tashqi (moddiy) va ichki (ma’no, vazifa) jihatlar yaxlitligidan iborat. Qo‘srimcha esa ana shu psixo-fizik mohiyatning nutqda namoyon bo‘lishidir.

Nutq tilning til qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan ma’lum bir kommunikatsiya (xabar berish) maqsadi uchun ishga solinish yoki qo‘llanish natijasidir. Nutq bevosita kuzatishda berilgan, takrorlanmas bo‘lib, u YHVO (yakkalik hodisa, voqelik, oqibat) tabiatiga ega.

Nutqiy birliklar – tovush, qo‘srimcha, so‘z, (yasama so‘z, qo‘sma so‘z...) so‘z birikmasi, gap.

Nutq qobiliyati - muayyan jamiyatga mansub shaxsning shu jamiyatga mansub tildan ogohligi, uning imkoniyatlaridan foydalana olish ro‘nirmasi va darajasi.

Ontologiya–borliq haqidagi ta’limot.

Paradigma deganda umumiy belgilari asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o‘ziga xos belgilari bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi tushiniladi. Bir paradigma a’zolari orasidagi o‘zaro munosabat **paradigmatik munosabat** deyiladi.

Partonimiya - butun-bo‘lak munosabatlarini ifodalovchi leksik birlik. Tarkiban murakkablik, bo‘laklarga bo‘linuvchanlik borliq ashyolarining umumiy qurilish qonuniyati bo‘lib, bu qonuniyat ong orqali lisonda o‘z

aksini topadi va shu asosda partonimik munosabatlar yuzaga chiqadi. Masalan, *odam* (butun), *bosh*, *tana*, *qo'l*, *oyoq* (qismlar).

Polisintetik tillarga Amerika hindulari, chukot, koryak va b. tillar kiradi. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyati – ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi va holni ifodalab kelgan so'zlar fe'l bilan birikib, murakkab tarkibli qo'shma so'z formasiga o'xhash gap hosil qilishidir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning o'rtasida keladi. Masalan, chukot tilida *te-ata-kaa-nme-rkein* – *Men semiz bug'ularni o'ldiryapman*.

Piktografiya (lot. *pictus* - chizmoq) – insoniyat tarixidagi dastlabki rasmlli yozuv turi.

Proteza - og'zaki nutqda so'z boshida bitta unlining orttirilish hodisasi. Masalan, *shkaf-ishkaf*, *sprafka-isparafka*, *stol-istol*.

Prokopa - ba'zan so'z boshidagi unli yoki undosh tovushning tushib qolishi: *yog'ach-og'och*, *yirik-irik*.

Qolip – yasama so'z, so'z birikmasi va gaplar hosil qilish sxemalari(qurilmalari, konstruksiyalari yoki modellari)dir. (Qoliplarning shakl va mazmun tomonlari mavjud.) Qoliplar ikki xil bo'ladi: 1) so'z yasash qoliplari va 2) sintaktik (so'z birikmasi va gap) qoliplar.

Lisoniy sintaktik qoliplar so'z birikmasi ($[H+T] = SB$) va gap ($[WPm]=G$) umumiy (invariant) qoliplaridan iborat bo'lib, ular o'z o'rnida xususiy (variant) qoliplarga ajraladi. (Qoliplar miqdoran cheklangan bo'lib, ularning hosilalari cheklanmagan.)

Reduksiya - so'zning birinchi bo'g' inida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsiz talaffuz qilinishi: *b(i)lak*, *t(i)lak*, *b(i)roq*.

Singarmonizm hodisasida, odatda, unlilarning nutq jarayonida o'zgarishi tushiniladi. (Singarmonizm tovushlarning moslashishi, uyg'unligi demakdir.) Singarmonizm faqat turkiy tillarga xos bo'lib, uning ikki asosiy ko'rinishi mavjud:

a) til garmoniyasi; b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovushlar yumshoqlik va qattiqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Lab garmoniyasida

unlilarning moslashishi ikki tomonlama bo‘ladi. Bunda unlilar ham til oldi - til orqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan o‘zaro, shuningdek, undoshlarga ham moslashadi.

Sinkopa - so‘z o‘rtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinishi va ayrim holatlarda tushib qolishi: *valochka-valichka, traktor-traktir*.

Sinerezis - so‘z o‘rtasida bir joyda kelgan ikki unlidan birining kuchsizlanishi va nutqda tushib qolishi. *maorif-mo:rif, saodat-so:dat, qiroat-qiro:t*.

So‘z birikmasi hokim bo‘lakning ehtiyoji va tobe bo‘lakning imkoniyati orasidagi uyg‘unlikning voqelanishidir.

Tafakkur inson oliv nerv tizimi (bosh miya)ning faoliyati bo‘lib, uning birligi hukmdir. Hukm so‘z, so‘z birikmalari va gaplarda o‘z ifodasini topadi. Tafakkurning moddiy qobig‘i tildir.

Takt - jumlaning bir bo‘lagi bo‘lib, bir urg‘u yordamida bir yoki bir necha bo‘g‘inlarning ulanishidan tashkil topadi. Ko‘p tillarda urg‘u mustaqil ma’noli so‘zlarning o‘zida bo‘lgani uchun ularning har qaysisi bir takt bo‘ladi. Yordamchi so‘zlar mustaqil ma’noli so‘zlar bilan birikib, bir takni hosil qiladi .

Transkripsiya - muayyan til yoki shevadagi tovushlar talaffuzini, ayrim shaxslar nutqini maxsus belgilar orqali aynan yozib olish. Transkripsiya latincha “*transcriptio*” so‘zidan olingan bo‘lib, “qayta yozish” degan ma’noni bildiradi.

Tillarning **areal tasnifida** dunyo tillarining xaritasi, turli mamlakatlarning til tomonidan tabiat, ayrim tillar qo‘llanish doirasining kengayishi kabi masalalar o‘z ifodasini topadi.

Tillarning **funktional tasnifi** ko‘p qirrali bo‘lib, 3 asosiy jihatga ko‘ra ajratiladi: tilning o‘zi mansub bo‘lgan etnik jamiyat bilan aloqasi; tilning jamiyatdagi vazifalari; asosiy etnik oblast doirasida tilning tarqalganligi.

Tillarning **geneologik klassifikatsiyasi** til faktlarini tarixiy prinsip asosida o‘rganib, tillarning qarindoshlik munosabatini aniqlaydi.

Urg‘u bo‘g‘in yoki so‘zning biror fonetik vosita orqali ajratilib, zarb bilan ayttilishidir .Tilshunoslikda, odatda, urg‘uning tushish o‘rniga qarab ikki turi ajratiladi: so‘z (leksik urg‘u) urg‘usi va mantiq (logik urg‘u) urg‘usi. Leksik urg‘u so‘zning biror bo‘g‘iniga xos bo‘lgan fonetik hodisa bo‘lsa, logik urg‘u gapning ma’lum bir bo‘lagiga tegishli bo‘lgan sintaktik hodisadir.

Leksik urg‘uning *erkin urg‘u, bog‘liq urg‘u, dinamik urg‘u, kvantitativ urg‘u, musiqiy urg‘u* kabi turlari mavjud.

Unifikatsiya deganda terminologik tizimni tartibga solish tushuniladi.

O‘zakli yoki ajratuvchi tillar qo‘srimchali tillarga zid qo‘yiladi, chunki bunda grammatik munosabat ifodalovchi affikslar bo‘lmaydi. Grammatik ma’nolar yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi, intonatsiya, urg‘u (ularning musiqaviyligi kuchli) yordamida yuzaga chiqadi. Xitoy, birma, tay, tibet va boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo tillari kiradi.

MUNDARIJA

Kirish	6
“Tilshunoslikka kirish” fani mazmuni. Fanning maqsad va vazifalari	16
Til va tafakkur masalasi	28
Til ~ tafakkur ~ nutq munosabati	34
Lisoniy paradigma va lisoniy munosabatlarning asosiy tuurlari	44
Nutq ko`rinishlari: og`zaki va yozma nutq	50
Til-ramzlar tizimi	61
Tilshunoslik fani bo`limlari. Fonetika	67
Nutq a`zolari va ularning tuzilishi	73
Nutq tovushlarining umumiy tavsifi. Unli va undosh tovushlar	76
Nutq jarayonidagi fonetik hodisalar	81
Fonologiya – fonemani o`rganuvchi soha	87
Tovush ifodasi. Transkripsiya	92
Urg`u va uning turlari haqida	98
Leksikologiya. lug`aviy sath. Leksema va so`z munosabati	105
Leksik-semantik munosabat turlari	110
Leksikografiya – lug`atlarni o`rganuvchi soha	118
Frazeologiya sathi haqida	127
Morfologiya va sintaksis munosabati	134
Morfemika	141
Grammatik ma`no va uning turlari. ularning munosabati. Umumiy ma`noni ochish yo`llari	146
Grammatik ma`no ifodalash usullari. Grammatik shakl turlari	152
So`z turkumlari tasnifi. so`zning serqirraligi va tasniflarning xilma-xilligi	161
Sintaksis	168
So`z birikmasi	180
Gap haqida umumiy ma'lumot	188
Gapning aktual bo'linishi	197
Tilning paydo bo'lishi	201
Tilning tarixiy taraqqiyoti	209
Jamiyat va til taraqqiyoti	218
Til taraqqiyoti. Til taraqqiyotining ichki qonuniylatlari	224
Dunyo tillari	231
Hind-Yevropa tillari oilasi	242
Turkiy tillar oilasi	253
Yozuv. Yozuvning taraqqiyoti	260
Orfoepiya	267
Orfografiya	270
Foydalanilgan adabiyotlar	276
Qisqacha izohli lug`at	277

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение	6
Содержание курса "Введение в языкознание". Цели и задачи науки	16
Язык и мысль	28
Язык ~ мышление	34
Язык ~ мышление ~ речевые отношения	44
Речь: устная и письменная речь	50
Язык - это система символов	61
Главы лингвистики. Фонетика	67
Выступление участников и их структура	73
Общее описание звуков речи. Гласные и согласные	76
Фонетические события в речевом процессе	81
Фонология является областью изучения фонем	87
Звуковое выражение. Расшифровка	92
О акцентах и их типах	98
Лексикология. Уровень глоссария. Лексема и словоотношения	105
Типы лексико-семантических отношений	110
Лексикография является областью изучения словаря	118
Об уровне фразеологии	127
Морфология и синтаксическая связь	134
Морфемика	141
Грамматическое значение и его виды. их отношение. Способы открыть общий смысл	146
Способы выражения грамматических значений. Типы грамматических форм	152
Классификация слов по категориям. Разнообразие слов и классификации	161
Синтаксис	168
Словосочетание	180
Общая информация о предложении	188
Актуальное разделение речи	197
Появление языка	201
Историческое развитие языка	209
Общество и развитие языка	218
Развитие языка. Внутренние законы развития языка	224
Мировые языки	231
Индоевропейская семья языков	242
Семья тюркских языков	253
Запись. Ход написания	260
Орфоэпия	267
Орфография	270
Используемые литературы	276
Краткий глоссарий	277

TABLE OF CONTENTS

Introduction	6
The content of the course "Introduction to Linguistics". The goals and objectives of science	16
Language and thought	28
Language ~ thinking ~ speech relationships	34
The main types of language paradigm and language relations	44
Speech: spoken and written	50
Language is a system of characters	61
Heads of Linguistics. Phonetics	67
Speech of participants and their structure	73
General description of speech sounds.	76
Vowels and consonants Phonetic events in the speech process	81
Phonology is an area of study of phonemes	87
Sound expression. decryption	92
About accents and their types	98
Lexicology. Glossary Level. Token and relationship	105
Types of lexical-semantic relations	110
Lexicography is a field of vocabulary learning	118
On the level of phraseology	127
Morphology and syntactic relationship	134
Morfemika	141
The grammatical meaning and its types. their attitude. Ways to discover common sense	146
Ways to express grammatical meanings. Grammar Types	152
Classification of words into categories. Variety of words and classifications	161
Syntaxis	168
Collocation	180
General offer information	188
Actual separation of speech	197
Language appearance	201
The historical development of the language	209
Society and language development	218
Language development. Internal laws of language development	224
World Languages	231
Indo-European language family	242
Family of Turkic languages	253
Record. Writing progress	260
Orfoepiya	267
Spelling	270
Used literature	276
Short Glossary	277

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

**Sayfullayeva Ra'no Raupovna, Abuzalova Mehriniso Kadirovna,
Mamadaliyeva Naiba Saidaminovna, Yuldasheva Dilorom
Nigmatovna**

TILSHUNOSLIKKA KIRISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lif vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida
nashrga tavsiya etilgan*

Toshkent–2020